
84 O68
Ch-98

OSHGAN ASARLAR


CHO'LPON

KECHA VA KUNDUZ





«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT — 2004



ASR OSHGAN ASARLAR

CHO'LPON

KECHA VA KUNDUZ

Roman. Birinchi kitob



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT — 2004

Tahrir hay'ati:

Bobur ALIMOV *(hay'at raisi)*, Said AHMAD, Ahror AHMEDOV *(hay'at raisi o'rinbosari)*, Naim KARIMOV, Tohir MALIK, Murodjon MANSUR, Omon MUXTOR, Umarali NORMATOV, Anvar OBIDJONOV, Shuhrat RIZAYeV, Nosir FOZILOV, Shukur XOLMIRZAYeV, Islom ShOG'ULOMOV, Ibodulla ShOYMARDONOV, Barnobek EShPO'LATOV *(hay'at kotibi)*, O'tkir HOShIMOV.

Ch — 98

Cho'lpon.

Kecha va kunduz. Roman. Birinchi kitob. /«Asr oshgan asarlar» turkumi// Tahrir ha'yati: Bobur Alimov va boshq./. — T.: «Sharq», 2004.— 304 b.

BBK 84. (5U) 6

© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2004.

Hamal keldi, amal keldi.

Xalq maqoli.

I

Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi...

Tollarning ko'm-ko'k sochpopuklari qizlarning mayda o'rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g'amli yuzlari kuldi, o'zlari horg'in-horg'in oqsalarda, bo'shalgan qul singari erkinlik nash'asini kemira-kemira ilgari bosadilar. Simyog'ochlarning uchlarida yakka-yakka qushlar ko'rina boshladi. Birinchi ko'ringan ko'klam qushi birinchi yorilgan bodroq nash'asini beradi. Bultur ekilib, ko'p qoshlarini qoraytirgan o'sma ildizidan yana bosh ko'tarib chiqdi... Muloyim qo'llarda ivib, suvga aylangandan keyin go'zal ko'zlarning supasida yonboshlashni muncha yaxshi ko'rar ekan bu ko'kat! Erkaklarning gullik do'ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, gajaklari va ro'mol popuklari bilan hazillashib o'ynagan salqin shabada... ko'klam nash'asi bilan sho'xlik qiladi.

Hayot nega bu qadar go'zal va shirin bo'ladi bahorda?

* * *

Zebi (Zebinisa)ning qish ichi siqilib, zanglab chiqqan, ko'ngli bahorning iliq hovuri bilan ochila tushgan; endi, ustiga poxol to'shalgan aravada bo'lsa ham, allaqaylarga, dala-qirlarga chiqib yayrashni tusay boshlagan edi. Qish ichi ham keti uzilmagan sovchilar bir-ikki haftadan beri kelishdan to'xtaganlar, endi tashqari

eshikning «g'iyt» etishi — bir-ikki ayolning astagina bosib, paranjisini sudrab kirib kelishiga dalolat qilmas, hali endigina o'n beshga qadam qo'ygan bu yosh qizning go'dak ko'nglini uncha cho'chitmas edi.

Ko'k terish bahonasi bilan bir-ikki marta keng hovlilarga, shahar ichida bo'lsa hamki, dala-tuzlarga chiqib kelganidan beri ko'ngli qirlarni, dalalarni, ishqilib olis-olis joylarni yana ko'proq tusay boshlagan edi.

Otasi bomdoddan kirmagan, onasi sigir sog'ish bilan ovora, o'zi kichkina sahnni supurib turgan vaqtida tashqari eshikning besaranjom ochilishi Zebining ko'nglini bir qur seskantirib oldi. Bir qo'lida supurgisi, bir qo'li tizzasida — yerga egilgan ko'yi eshik tomonga tikilib qoldi. Otasining odatdagi tomoq qirish va yo'talishlar bilan, katta eshikning og'ir zanjirini sharaq-shuruq qilib tushirib, namozga chiqib ketganiga hali ko'p o'tmagan edi. Halol-haromni ko'p ham farq qilmayturgan bu odamning avrodda o'tirish odatlari, hatto hammadan keyin qolib, machit shamlarini puflab chiqish rasmlari bo'lardi.

Aytgandek, eshikdan shoshilib kirib kelgan — yoshgina, o'zi tengi bir qizcha bo'ldi. Hali tuzuk-quruq odam qatoriga kirib yetmagan bu qizchani katta xotinlarning oriyat paranjisiga burkaganlar, paranjining uzun etaklari katta bir tugundek uning qo'ltig'ini to'lg'azardi...

O'rangan qiz ichkari eshikdan hatlar-hatlamas paranjini irg'itdi va o'zining bolalik ruhi bilan yugurganicha borib Zebini quchoqladi. Ikkalasi quvona-quvona ko'rishdilar. Supurgi yetgan joyidan nariga o'tmasdan yerga yonboshladi... Ikkala yosh — yuzlari kulgan, ko'ngillari yozilgan — qo'ltiqlashib ayvonga bordilar va Zebining otasi turib ketgan so'rining chekkasiga o'tirishdilar.

Salti (Saltanat) erta saharda munaqa halloslab kelishining sababini hali aytgani yo'q edi, ular ko'rishgan hamon, yosh qizlarning o'z oralarida o'taturgan mahram gaplarini gaplashib, tikayotgan kashtalari, piltaga kirgan do'ppilari to'g'risida bir-birlariga kalta-kalta ma'lumot berishgan edilar. Salti endi gap ochdi:

— Erta saharlab chopganim bekorga emas...

— Men ham sezganman... Yuragim bir qur seskanib ham oldi...

— Nimaga, o'rtoqjon?

— O'zingiz bilgan sovchilar balosi-da... Qish ichi keti uzilmadi.

— Menam bezganman, jonim qaqa... shuning uchun bir qishloqqa chiqib kelsammikan, deb edim...

— Nimasini aytasiz... Ariqdagi suv ham muzning tagidan chiqdi-ku.

Zebining yuzini, shu topda, butun qish ichi to'planib qolgan horg'inlikning asarlari egallagan edi. Uning ikkala yuzi, ayniqsa, ko'rpaning katta-katta qavig'iga tikilgan andishalik ko'zlari hovur bosgan oynakning betiga o'xshardi. Aksincha, Saltining yuzlari charaqlagan yulduzday, sernash'a, quvnoq va har qanday andishadan yiroq bo'lib, ko'nglining chuqur burchaklaridan chiqib kelgan sevinch to'lqinlarini aks ettirardi. Shu uchun u Zebining so'ng so'zlaridagi og'ir ma'yuslikni payqay olmadi. Uning ko'zlari Zebida bo'lsa ham, nazarlari boshqa yoqlarda edi.

— Enaxonni bilasiz-a? Yoyilma soydagi o'rtog'im bor-ku?

Zebi boshini ko'tarib, o'rtog'iga qaradi, shu qarash uning nechikdir Enaxonni eslolmay turganini ko'rsatardi. So'ngra Salti ta'rif qildi:

— O'tgan kuz biznikiga mehmon bo'lib kelishdiku — kelinbibisi bilan birga? O'shanda necha marta kishi yuborib chaqirtirdim, bormadingiz, otangiz javob bermadi...

Zebi bosh tebratdi:

— Ha, ha... bildim, bildim. O'zini ko'rganim yo'qku, eshitib bilaman.

— Ana o'sha qiz o'sha safar kelganida meni aytib ketib edi. Bahorlashib bir borib kelaman, deb yurib edim. Yaqinda yana aytib yuboribdi. Shunga teng-to'shlarim bilan bir borib kelmoqchiman. Sizni ham olib boraman...

— Qachon?

Zebining bu kalta savolidan Salti ko'p narsani angladi. Bu savol Zebining iloji bo'lsa shu kun paranjisini qo'liga olib (yopinib ham o'tirmasdan!), shu yerdan

uzoqlashmoq uchun talpinganini ko'rsatardi. Shu uchun Salti:

— Men sizni olib ketgali keldim, aylanay! — dedi.

Va ikki yosh bola nihoyasiz quvonchlar ichida yana bir-birlariga chirmashdilar...

* * *

Odatda onaning ko'ngli yumshoq bo'ladi. Zebining onasi — Qurbonbibi Saltidan haligi chaqiriqni eshitgandan keyin darhol rozilik berdi:

— Mayli, o'ynab, yozilib kelinglar. Qish ichi yuraklaring g'ash bo'lgandir... Yosh narsalar, — dedi. Zebi onasining beradigan javobini ilgaridan bilardi. Bu ona qizining saodatidan boshqa narsani bilmaydirgan onalardan edi. Dunyoda qanday yaxshilik va xayriyatlik bo'lsa, hammasini shu birgina qizi uchun istar va orzu qilardi. Lekin...

Onaning rozilik so'zlariga bu birgina «lekin» elchib kelganidan, bechora qizlar sevinish to'lqinlarini yana bir qur ko'tarishga fursat topolmadilar.

Hamma jim qoldi. Har kim o'z oldida bir narsa topib shunga ko'z tikkan va u narsada Zebi — o'z otasini, Qurvonbibi — o'z erini, Salti — qovog'idan doim qor yog'ib turgan sovuq bir so'fini ko'rardi.

Bu bulutli havoni ochmoq faqat onaning vazifasi edi:

— Otasi bomdoddan kirsin, — dedi u Saltiga qarab,— men o'zim yotig'i bilan aytib ko'ray, yo'q demas, — so'ngra Zebiga yuzlandi: — Sen, qizim, uyga joy qil, o'rtog'ingni o'tqiz, dasturxon sol. Biz, otang bilan, choyni so'rida ichib, haligi gapni gaplashamiz.

Ikkala qiz ham og'iz ochmay jim qolishdi. Chunki Razzoq so'fining mijozini ularning ikkalasi ham yaxshi bilardi. So'figa eng ma'qul bir masalani bo'lsa ham uqtirib roziligini olmoq uchun yo o'zining piri, yoki katta bir davlatga ega bo'lish kerak edi. U odam o'z tenglaridan hech birining hech qachon hech bir gapini tinglagan emasdi. Ayollardan maslahat, ayniqsa, o'z xotinidan bir taklif eshitmoq uchun Razzoq so'fining qayta boshdan bunyodga kelishi kerak bo'lardi...

Shuning uchun Zebi ko'zlari andisha bilan kengayib ochilgani holda indamasdan joylarni yig'a boshladi.

U o'rinlarni yig'ishtirib, nonushta joylarini tayyorlab bo'lgandan so'ng o'choq boshida choynaklarga choy tashlarkan:

— Otamdan darak yo'q-ku? — deb so'radi onasidan.

Qurbonbibi bir ko'cha eshigiga, bir yonboshdagi daraxtlar orasidan ko'tarilib kelayotgan quyoshga, bir o'choqboshidagi qiziga qaragandan keyin:

— Bilmadim, avrod cho'zilibroq ketdimikin? Sen choyni jindek qo'yib turib, chala qoldirgan yerlaringni supiratur, kelib qolar, — dedi.

Zebi shu topda yana qaytib qo'liga supurgi olishni istamasa-da, o'rtog'ining «bu qiz enasining gapiga kirmas ekan», degan o'yga borishini o'ylab, indamasdan supurgini qo'liga oldi va bir qo'lini bir tizzasiga qo'yib, sahn betini supura boshladi. Zebining choy damlab kelishini kutib, uyda — dasturxon boshida o'tirgan Salti ikkala qanoti ochiq turgan eshik orqali bu holni ko'rganidan keyin o'rnidan turib, o'rtog'ining yoniga chiqdi. Zebi uni uzr aytib qarshi oldi:

— O'rtoqjon, — dedi, — otam avrodda o'tirib qoldi, shekilli, shunaqa odati bor. Endiyoq kirib kelsa kerak. Xafa bo'lmang-a?

Bu so'nggi kalta jumlaning aytilishidagi samimiyat bir-biri bilan yaqin o'rtoq tutishgan yosh qizlardagina bo'ladi. «Xafa bo'lmang-a?» deb turgan vaqtida Zebining yuzini ko'rish kerak edi, bir qo'lida supurgi, bir qo'li tizzasida, supurgi ham yerdan uzib olingan emas, faqat bosh yuqori ko'tarilganu butun vujud Saltining ixtiyorida! Ko'ngil, orzu, sevgi, sevinch... bular hammasi Saltiga tomon uchadi, unga tomon otiladi, uni o'rab, uni aylantirib, uni quchadi! Zebining yuzlaridagi — oyday tiniq va quyoshday yorug' bu holat moddiy haqiqatlar qadar ochiq ko'rinardi.

O'rtog'ining bu samimiyatini Salti ham ko'z bilan ko'ribgina emas, ko'ngil bilan sezib anglagan edi. Shuning uchun u Zebining so'ziga javob ham berib o'tirmasdan, birdaniga uning qo'lidagi supurgiga yopishdi. O'z ko'nglida, supurgini olib, bir oz supurishib bersa,

haligi samimiyatga yarasha javob bergan bo'lardi. Zebi supurgini qo'ldan oldirdi, lekin o'rtog'i supura boshlagandan so'ng:

— Voy, bu nimasi! Qo'ying, o'zim supuraman! — deb yana supurgiga yopishdi. Salti bermadi, bu olmoq istadi; Salti qochdi, bu quvladi; shunday qilib, sahnni supurish o'rniga bu ikki o'rtoq butun hovlini boshlariga ko'tarib, shovqinlar va qiyqirishlar bilan dunyoni buzib, bir-birlarini quvlashib ketdilar...

O'z uyining qabristonlar qadar jimjit, xonaqohlar qadar unsiz, o'z ko'ngli qadar tund va xo'mraygan bo'lishini istagan Razzoq so'fi xuddi shu ola-to'polon ustiga kirib keldi!

Eshikdan kirar-kirmas ovozining boricha:

— Bu nima qiyomat!!! — deb shovqin solishi ikkala yosh qizni, chaqmoq tekkan daraxtday, turgan joylarida qotirib qo'ydi. Yo'qsa, so'fi erining dindor xotini bo'lgan Qurvonbibi ham «bas endi!» deb ozmuncha qichqirmagan edi... Agar bu sovuq so'fi kirib kelgan bo'lmasa, ikki yosh qizning qish bo'yi to'plangan ko'ngil g'ashliklari bir oz sho'xlik bilan ancha yozilgan bo'lardi. Zotan, ularning o'zlarini unutar darajada bir-birlari bilan bu xilda o'ynashuvlari o'sha g'am-g'ashlar purjinasining bo'shalishi, siqintilar oqimining to'g'onini buzib, oldinga tomon yo'l solish emasmidi? Bunday telbalarcha ko'pirib-toshuvlarni to'xtatmoq uchun ham, albatta, telbalarcha hayqirishlar, chaqmoq qadar quvvatli zarblar lozim bo'lardi.

* * *

Razzoq so'fida unday quvvat ortig'i bilan bor. Bu odam, jadidnamo bir hamshahrining deganidek, «ko'rgazmaga qo'yilaturgan antiqa maxluqlardan edi». Aytishlaricha, uni ona qornidan sihat-salomat tushirtirgan va birinchi daf'a yo'rgaklagan kampir hazilkashligi va sho'xligi bilan xotin-xalaj o'rtasida dong chiqargan Hamro enaymish. Bolani yo'rgaklaganidan keyin hali u qadar odam kepatasiga kirmagan yuzlariga tikilgan va mana bu so'zlar bilan erkalatganmish:

— Aylanay, mehmon, kimdan xafa bo'lib tushdingiz?

Kim ozor berdi sizga? Ayting! Qovog'ingizni ochsangizchi! Yorug' dunyoga keldingiz! Shukur qiling! Sevining! Mundoq bir kuling! Kulimsirang! Iljaying!..

O'shanda kulmagan Razzoq so'fi undan keyin ham kulmay o'tdi. Kulish bilan yig'lash orasida katta farq bor. Kulish bilan kulmasdan tekkina jiddiyat saqlab turish orasida ham anchagina masofa bor. Shu uchun Razzoq so'fining kulishlarini kulish, deb bo'lmaydi.

Kulmasdan chidab bo'lmaydigan maqomlarda u ham kuladi, lekin u kulish — kasal odamning kulishiday og'ir, bir xil sovuq hazillarday malol keltiruvchi, yolg'on xushomadlarday ko'ngilga uruvchi bo'lardi. Bir kun Zebining juda jiddiy bir chehra bilan:

— Otam kulmas ekan-da! — deganini eshitib, Qurbonbibi koyib bergan edi. Shu haqiqatni aytgani uchun qizidan alayna-oshkor koyingan Qurvonbibi, bu haqiqatni o'zi o'z ko'nglida necha marta takrorlagan bo'lsaykin?.. Til bilan birovning aybini aytish oson, o'z tili bilan o'z aybini aytadiganlar juda kam, Qurvonbibi har qancha so'zga epchil xotin bo'lsa ham, uni bu kamlar orasiga qo'shib bo'lmaydi.

Qurbonbibi so'zga qancha epchil bo'lsa, Razzoq so'fi shu qadar kamgap, indamas, damini ichiga solgan, ziqna odam edi. Tashqari olamda, ya'ni o'z hovlisidan tashqarida uning doimiy va bir-danbir vazifasi: o'zidan ulug' va kuchlilar gapirsa — «hovva-hovva», demak, o'zidan past va kuchsizlar gapirsa — «yo'q, yo'q», degan ma'nida bosh chayqash bo'lardi. Uyida vaqtida uning og'zidan odam bolalari o'rtasida yuraturgan tuzuk, ma'nilik va «gap» desa bo'ladigan bir so'z chiqmas edi. Umuman, so'fining bu bobda o'ziga ko'ra asoli bir maslagi bor: u o'zi maqtanib aytganiday, xotin-xalaj oldida og'iz ochib til qaldiratishni ravo ko'rmaydi. «Bu til, — deydi so'fi, — doim xudoning zikri bilan qaldiraydi. Bu og'iz hamma vaqt xudoning zikriga ochiladi. Og'iz bilan til — bandaning jismida eng aziz va tabarruk a'zolar. Ularni xotin kishiday past maxluq oldida xor qilinadimi? Bo'lmasa, haq taoloning bandalari it bilan ham gaplasha bersin! Yo'q, xotin kishiga juda zarur gap aytiladi, u toifa bilan zarurat yuzasidangina gaplashiladi. Vassalom!»

O‘zbekda axir har bir erkak o‘z xotinini — o‘z halol juftini qizi yo o‘g‘lining nomi bilan atab chaqiradi. O‘z xotinining ismini aytib chaqirish yaramaydi. Xotinining ismi Maryam, qizining ismi Xadicha bo‘lsa, mo‘min-musulmon: — sharmu-hayo yuzasidan bo‘lsamikan?- xotinini «Xadicha» deb chaqiradi. Aksar ona-bola baravar «labbay!» deydi; shunday-da, oilaning haqiqiy egasi bo‘lgan ota: «Kattangni aytaman, kattangni!» deydi. Hatto shunda ham «Maryamni», demay-di...

Bizning so‘fi mo‘min-musulmonning bu urfiga ham amal qilmaydi, u o‘z halol jufti Qurvonbibini hamma vaqt «Fitna» deb chaqiradi: «Fitna, sallamni ber!», «Fitna, qiz o‘lguring qani?», Fitna, puldan uzat!»

Qurbonbibi, so‘figa achchiq qilib bo‘lsami yo o‘zining yaratilish hamrida shu narsa bormi, har qalay fitnalikdan, ya’ni makr va firibdan xoli emas. Erining xotin-xalaj oldida gapirmaganiga uncha xafa bo‘lmasa ham, lekin o‘z halol xotini oldida gapirmaganiga kuyadi va shu kuyish orqasida firib yo‘li bilan so‘fini gapirtiradi; ba’zida tillarini burro qildirib sayratadi. Buning uchun so‘fining achchig‘ini keltiradigan emas, uning bir oz g‘ashini qo‘zg‘ataturgan bir gap aytib qo‘yadi. Ana shunda xotin-xalaj oldida og‘iz ochib til qaldiratishni so‘fidan ko‘ring! Bay-bay-bay!

— Eshon bobom sizdan dilgir emishlar, — deydi bir kun Qurbonbibi so‘figa.

So‘fining toshday qattiq va buyumdek harakatsiz yuzi birdaniga turli-tuman o‘zgarishlar va harakatlarga javlongoh bo‘ladi:

— Nima deding, Fitna? Nega dilgir bo‘libdilar?

— Nazir qilgan kokilini kestirishga kelgan bir bolaga xushomad qilibsiz...

Shu bas! Endi, bizning so‘fi so‘zga usta bir xatibga aylanadi.

— Ishq ikki xil bo‘ladi, Fitna. Tushunmay gapirma! Ishqi ma’joziy, ishqi haqiqiy...

Qurbonbibi bu so‘zlarga tushunmaganligidan erini sayratib qo‘yib, o‘zi darrov zerikadi. Shu uchun u:

— Ha, shundaymi? Men bilmabman. Omiman-da, — deb tezroq qochish harakatiga tushadi.

Xotini burilib ketganidan keyin so'fi ham so'zdan to'xtaydi.

Shunday qilib, so'fi joyi kelganda va g'ashiga tegilganda, — go'rda ham gapiradi. Ham gapirganda qanday!

Uyida vaqtida Razzoq so'fi yo ariq bo'yidagi ko'katlarni yulib, yo eshik va darvozalarning bo'shalib qolgan zanjirlarini mahkamlab, yoki hovlida o'tin qirqib, yo bo'lmasa — ikki qo'li orqasida, dam ichkariga kirib, dam tashqariga chiqib, dam hovliga o'tib, lablarini ari chaqqan odamday og'iz ochmasdan, indamasdan yura beradi... Yoz faslida, ko'proq kunduzi uxlaydi, kechalari, tong otguncha, o'zi yolg'iz, baland ovoz bilan «Oblohu!» aytib, o'z oilasini va qo'ni-qo'shnini uxlatmaydi. Eshon bobo bo'lmagan kunlari salqin xonaqoda juda maza qilib uxlaydi, deydilar. Ba'zida boshqa muridlar uni ko'rpa-to'shagi bilan hovuzga tashlar ekanlar. Uyda bo'lsa, uni — xonaqo singari — salqin qildirib, undan keyin cho'ziladi va peshindan keyin uyquga ketgan bo'lsa, shomga borib zo'rg'a turadi: shunda ham Qurvonbibining qichqirishlari bilan... Namozgar, aksari, uyquga qurbon bo'ladi, shu orqada o'z xotinidan ko'p ta'nalar ham eshitadi. Ammo bu xususda tili qisiq, indayolmaydi...

Qish faslida bo'lsa, kechasi uxlaydi. «Bir siqim kun bor, uxlab o'tkazsam, Qashqardan ham olis qish kechasini qanday o'tkazaman? Uyqu — umrning tanobi!» deydi; bu buyuk falsafa loyiq va munosib kishilarga aytiladi. Bechora oila a'zolari, umuman, xotin-xalaj bu uyqu falsafasini bilishdan mahrum!

Shaharda bo'lsa, o'z uyidan boshqa joyda bir kecha ham yotmaydi. Eshon boboning qaysi bir to'yida, tong otishga yaqin, uyiga kelib yotgan ekan... Shahardan tashqariga yurishi kam. Faqat eshon bobo bilan birga (faqat o'sha kishi bilan!) to'ylarga, katta ziyofatlar, qovun va meva sayillariga boradi. Unda, albatta, besh-to'rt kun uyidagi ko'rpa-to'shagi sovuydi. Qurbonbibining so'zicha, «dam oladi», Zebining ta'rificha, «yayraydi». Bir marta qaysi bir to'y bir haftaga cho'zilib ketgach, oltinchi kuni bizning so'fi eshondan so'ramay qochib

kelgan! O'shanda eshon bobo bir necha vaqtgacha so'fidan dilgir bo'lib yurganlar.

Shu munosabat bilan Qurbonbibi yana bir marta oldi:

— Hast[1] eshon bilan birga borib, u kishi tufayli shuncha izzat-ikrom ko'rib, noz-ne'matga serob bo'lib... hast eshondan burun qochib kelganingiz nimasi? Shaharda ochilmagan do'koningiz yo to'xtab qolgan objuvozingiz bormidi?

So'fi yana past toifa oldida muborak og'zini ochib, aziz tilini qaldiratmoqqa majbur bo'ldi.

— Badbaxt Fitna! Qo'yasanmi, qo'ymaysanmi, axir? «Hubbil vatani minal-imon», deganlar — «vatanni sevish imondan», axir! Bilmasang bekor-da, Vatani yo'q — dunyoda lo'li, xolos. Meni bevatan, deb bildingmi?

So'fi bir oz qizib ham ketdi:

— Bu hovli-joy otangdan qolgani uchun o'zimniki deysanmi yo? Unday desang, boshput olib, o'rusvoyning religa[2] tushib, «hayt!» deb... Makkatulloga jo'nab qolaman! Hovling boshingdan qolsin, Fitna!

Bu safar Qurbonbibi yalinib-yolvorib zo'rg'a tinchitdi.

Chinakam, so'fida hajga borish niyati kuchli. Har yili javraydi. Bir-ikki marta pasport ham oldi. Faqat, nima uchundir, oyog'ini o'z shahrining tuprog'idan uza olmaydi.

Bu to'g'rida ham — «vatanni sevish imondan», deb — «vatani»dan kechib ketolmaydimi? Har qalay, bir siri bor.

Uning ma'lum bir kasbi, hunari yo'q. Na savdo-sotiq qiladi, na dehqonchilikka urinadi, na kosib-hunarmandlik peshasini tutadi. Shu bilan birga, dasturxoni nonsiz, qozoni issiqsiz qolmaydi...

Qaysi bir yil olis bir qishloqdan o'gay akasi kelib, uch-to'rt kun qo'nib ketgan edi. U ham o'ziga o'xshagan mo'min-musulmongina chol bo'lganidan juda topishdilar. Har kun xonaqoga birga borardilar.

— So'fi, bir kasb peshasini tutmay o'tib ketayotirsiz-a? — dedi unga akasi xonaqoga keta turib.

---

[1] H a s t — «hazrati» so'zining aytilishi

[2] «Rels» so'zidan olingan, poezd demakdir.

— E-e, — dedi so'fi cho'zib va o'zidan xursand bir kulimsirash bilan kulimsiradi: — mening davlatim hech kimda yo'q, aka! Eshon bobo xudoyimning sevgan quli, nozu ne'mat to'rt tarafdan suvday oqib turadi. Daryo bo'yidamizu chanqaymizmi? G'alati ekansiz!

Shu kulimsirash bilan yana bir oz borgandan keyin, bu safar jiddiyroq qilib, dedi:

— Ahliyamiz ham uchchiga chiqqan chevar, xudoga shukur. Ojizamiz ham do'ppi tikishga «farang» bo'lib chiqdi! Ro'zg'orning ko'p-kamlarini o'zlari bitirishadi. Men bohuzur tasbihimni aylantirib yotsam bo'la beradi!

So'fining o'sha akasi o'tgan yil kuzakda yana keldi. Ammo bu safar jiddiy bir masalani ko'tarib kelgan edi. Bir-ikki kun mehmon bo'lgandan so'ng gap ochdi:

— So'fi, o'zingiz «vatan», «vatan» deysiz-u, vataningizni bilmaysiz.

So'fi shu «bilmaysiz» degan narsaga tutoqib ketdi:

— Nega bilmas ekanman, aka! Bilib gapirsangiz-chi!

— Jahlingiz chiqmasin. Bilib gapirayotirman. Vataningiz — ota-onangiz o'tgan, o'z kindigingizdan qon to'kilgan, ota-ona arvoyiga sham yoqiladigan joy emasmi?

So'fi jim qoldi. Hatto, ko'zlariga yosh kelganday bo'ldi.

— Nimaga indamaysiz? — deb so'radi akasi.

— Haq gapga nima deyman? Qiziqsiz...

— Bo'lmasa, vataningiz — o'sha o'zimizning qishloq.

— Ha, o'sha qishloq...

Ikkovi ham bir nafas jim qolishdi. So'fi misvagini qinidan chiqarib yana sekingina solib qo'ydi. Chol tizzasiga tushgan xazon bargini sopidan ushlab pildiratarkan, dedi:

— Men sizni o'sha qishloqqa olib ketay, deb keldim. Siz, axir, men bilan bir shapaloq yerni talashib, shu to'g'rida nari-beri bo'lishib, shu tufayli shaharga kelib qolgan edingiz...

So'fi xo'rsinganidan ovozi qaltirab, dedi:

— Eski gaplarni qo'zib nima qilasiz? Bo'lar ish bo'lib o'tdi... Yeri ham qursin, merosi ham...

— Yo'q, so'fi! Unday demang!

Akaning bu so'zi keskin ovoz bilan, qo'monda singari aytilgan edi. So'fi boshini ko'tarib, akasining yuziga tikilib qoldi, akasi davom etdi:

— Yerdan aziz hech narsa yo'q! Otamiz rahmatlik, bobolarimiz, undan naridagilar — hammasi bir shapaloq yerdan rizqini chiqarib kelgan... Rostmi?

So'fi eshitilar-eshitilmas qilib:

— Rost... — dedi.

— Siz nega yerdan qochasiz?

So'fi bu to'g'ri savolga boshqa javob eplay olmadi.

— Yer qani menga? — dedi. — Bir shapaloq yeringiz bor, o'zingizga yetmaydi...

Akasi dadil javob berdi; javobga boshlarkan, uning yuzlari kulgan, tishsiz — kemtik og'zi sevinch bilan ochilgan edi:

— Soyning narigi yuzidagi do'ngni sekin-sekin olib tashlab, yer qildim. Yana bir shapaloq suvlik yer bo'ldi. Endi, odamdanu dastmoyadan qiynalayotirman...

— Nima qilay? — dedi so'fi, ovozi juda past edi. — Qo'limdan nima keladi?

Akasi bu safar jiddiylashdi:

— Shaharni tashlang!

So'fi akasining so'zini bo'lib, allanima demoqchi bo'lgan edi, u qo'ymadi:

— Siz shoshmang! Gapni eshiting!

So'fi jim bo'ldi. So'ngra akasi davom etdi:

— Shaharni tashlang! Bu hovlini soting! Shaharda hovli-joyni yaxshi pulga oladi. Qishloqdan kichkina bir hovli olamiz — muning yarim puliga yoki uchdan biriga. Qolganiga asbob olamiz. O'z yerimizning yoni-beridan bir parcha yana yer topamiz... Uni ham olamiz. Hali bardamsiz, birgalashib ishlaymiz. Durustmi?

So'fi indamasdi; oq do'ppisini boshidan olib, buklab o'ynardi...

— Qani, bir narsa deng!

So'fi hech narsa demay, o'rnidan turdi. Yana damini chiqarmasdan, ichkariga tomon bir-ikki qadam bosdi. Keyin yana orqasiga qayrilib, dedi:

— Men salla-to'nimni kiyib chiqay. Jumani xonaqoda o'qiymiz. Kech qoldik...

Akasi xonaqoga ketayotib, yana shu gapni qo'zg'atdi:

— Xo'p, deng. Qishloqqa ketaylik! O'lim — haq! O'lar vaqtda bir-birimizdan yiroq tushib, bir-birimizga tashna bo'lib o'lmaylik...

So'fi bir uloqchi toyni ko'rsatdi:

— Jonivor-e, zab ot bo'libdimi? Bay-bay-bay!

Jimlik cho'kdi. Keyin yana gap boshlandi:

— Nima dedingiz? Gapiring? Kampir ham jon deb turibdi...

— Ana u, Umarali shig'ovilning hammomi... Yuz yetmish yil bo'lgan emish.. Hali ham bir g'ishti ko'chgani yo'q... Ichiga kirsang, jaranglaydi...

Akasi o'z gapini yedirolmagach — Qurbonbibi bilan maslahat qilib turib — masalani eshon boboga arz qildi.

Eshon avval:

— So'fi o'zi qani? — deb so'radi.

So'fining akasi:

— Uyda qoldi... Sal tishi og'ribdi... — dedi.

Eshon kuldi:

— Tishi og'ribdimi? — dedi. — Bay-bay! Tish og'rig'i yomon narsa. Boring, ayting: kapponning burchidagi sartaroshga borsin, ombir solib, darrov olib tashlaydi. Tinchiydi-qoladi... Boring, omin ollohu akbar!

Shu bilan so'fining akasi noumid bo'lib, qishlog'iga ketdi. U otiga otlanib, xayr-ma'zur qilganda, so'fi ichkarida «Hikmat» o'qib yotardi. Lokisini yuziga tutib, darvoza oldigacha Qurbonbibi chiqdi. Uzun yengi bilan ko'z yoshlarini artib, qishloqi mehmonni uzatdi. Qurbonbibining yonginasida turib, tiniq ovozi bilan: — «Xayr endi! Adolatxon opamlar kelishsin. Tuhfachani, albatta, olib keling», deya sayragan Zebi, mehmon ko'zdan yo'q bo'lgach, onasidan so'radi:

— Nega otam uzatgani chiqmadi?

Qurbonbibi kaltagina javob berdi:

— Otangning fe'li qursin, bolam! — dedi va ichkariga burildi.

Qurbonbibining bundan boshqa tashvishlari ham yetib ortardi. Mana bu qishloqi mehmonning kelishi yana ortiqcha bir tashvishni qo'zib ketdi. Chinakam, be-

chora Qurbonbibi kiyim-kechak, ayniqsa, yolg'iz qizning sepi xususida ko'p tashvish tortadi. Shunday tashvishlar ustida, u chidolmay ketib, ba'zi-ba'zida so'figa xarxasha ham qilib ko'radi. Unday xarxashalarga so'fining sira tobi yo'q: «Xudo yetkazadi!» deb, ovozi boricha baqirish bilan javob qiladi.

Qurbonbibi ham odam emasmi — chidolmaydi.

Bir kun u so'zlanib berdi:

— Xudo yetkazadi, albatta! Shunda ham bandasi harakat qilsa, qimirlasa yetkazadi-da! Xudo «sabab»ni hal qilgan emasmi, axir? Eshonoyim bir kun Eshon so'fidan[1] o'qib berib, kasb-korning farzligini aytdilar-ku!

Bu kuyinishlarga Razzoq so'fi javob ham bermadi. Indamasdan, teskari burilib oldi. Qurbonbibi so'zdan to'xtamay, balki ovozini yana ham ko'tara tushgan edi, so'fi o'zining odatdagi kalta so'zlaridan bittasini arang og'zidan chiqardi, lekin chiqarganga yarasha birakay qilib — jahl bilan, baqirib chiqardi:

— Bo'ldi, deyman, itvachcha!

* * *

Otasi kirib kelganidan keyin Zebining ko'nglida o'ynagan iztirob va hayajonlar Razzoq so'fining «Nima bu qiyomat!» degan qiyomatidan qo'rqinchliroq edi. Sovuq bir so'fining nazdida, bu qadar vahimali bo'lib ko'ringan oddiy va tabiiy bir bolalik o'yini qafas darichasining ochilishini kutgan vaqtida darichaga kattakon bir qulf urilayotganini ko'rgan bir qushning iztirobidan kam bo'larmidi?

Ikkala qizning, ayniqsa, Zebining ko'nglidagi iztirob, zotan, so'fi kirgandan so'ng avj olishi kerak edi. Chunki, qizlar sho'xlik va o'yinga berilib ketib, hamma narsani esdan chiqargan emasmidilar? Qorong'i qish kunlaridan qolgan dog'lar, to'rt devor orasida yashashdan kelgan chiqindilar, otalardan o'tgan zulmlar, sovchilardan yetgan tashvishlar barham yemaganmidi? Yoshlikning quvvatli to'lqinlari ularning barchasini bir bahor yomg'iri kabi yuvib ketmaganmi-di? Shunday o'rtoqning shunday

---

[1]Diniy ahloq kitobining muallifi So'fi Olloyorning xalq orasidagi ismi.

shirin muomilalari oldida shunday teskari, shunday o'jar va qaysar otaning borligi ham unutilgan emasmidi? Uyidan «Bir zumda borib kelaman», deb chiqqan Salti ham bergan va'dasini, uyini va ota-onasini unutib, qo'lida maymoq va tullagan bir supurgi bilan qolib ketmaganmidi?

G'aflatda qolganlarning boshiga tushadigan tayoq yomon zil ketadi, deydilar. Bu ikkala qiz o'yin va sho'xlik havasi bilan g'aflatda edilar. So'fining og'ir zarbi bilan o'zlariga kelgach, oldilarida zo'r bir tog' turganini ko'rib, ixtiyorsiz cho'chib ketdilar. Bu tog'dan o'tish kerak edi, holbuki, bu tog' — munaqa yosh bolalar o'ta oladigan tog'lardan emasdi. Ikkalasi ham iztirobning bu og'ir yukini bir-birlarining ko'zlarida o'qidilar...

So'fining baqirishidan so'ng bir oz shoshib turgach, ular yugurgancha uyga kirdilar va o'zlarini eshikli derazaning panasiga olib, Razzoq so'fining harakatlarini kuzata boshladilar. Ko'zlari so'fida bo'lsa, quloqlari Qurbonbibining og'zida edi. Uning gapiradigan gaplari ularning ko'ngillarida tugilgan og'ir va chigal tugunchakni yo yechib yuborajak, yoki yana battaroq chigallashtirib, ikki yosh narsani — yana necha oy! — bir-biridan ajratib tashlayajakdi.

So'fi bular uyga kirib olguncha eshik oldida bo'zarib-gezarib turdi. Bular uyga kirganlaridan keyin sallasini Qurbonbibiga uzatib, ustidagi malla yaxtagini olisdan turib kartga irg'itdi va o'zining oddiy ovozi bilan:

— Qanjiqlar! — deb baqirdi.

— Yosh narsalar o'ynashsa, nima bo'libdi? Muncha endi zabtiga oldingiz? — dedi Qurbonbibi.

— Gapirma, eshak!

Qurbonbibi jim bo'ldi. So'fi kart tomonga qarab yurdi. Kart ustiga dasturxon yozilib, bir mistovoq non bilan piyolada qiyom qo'yilgan edi. So'fi kartga chiqib o'tirgandan keyin Qurbonbibi o'choqdan choyni olib keldi.

So'fining bu avzoyini ko'rgandan keyin ikki qizning borqadar umidi ham uzilib bo'ldi. Zebi bu umidsizlikni yashirolmadi:

— O'ynashmay o'laylik, endi otam hech qayerga chiqarmaydi...

Salti ham o'z tashvishini anglatdi:

— Nima qilamiz endi? Siz bormasangiz, men ham bormayman... Enaxon toza koyiydi-da.

— Tek o'tirgan bo'lsak ko'ngli yumsharmidikan? — dedi Zebi.

Salti indamadi. Bir ozdan so'ng yana o'zi ilova qildi:

— Ko'ngli o'lsin, yumshagan vaqtini ko'rganim yo'q! Katta-katta xarsangtoshlarni soy bo'yiga devlar tashlashgan, deydi... Eng kattasini otamning ko'kragiga tashlab qo'yib, «Mana shu sening ko'ngling!» deganmikan, yashshamagurlar!

Bu gap Saltiga ta'sir qildi shekilli, «pix-x» eta kulib yubordi.

Zebining munga chinakam achchig'i kelgan edi, qo'lini uzatib, o'rtog'ining og'zini to'sdi.

— Voy, anovi qizni! Yana besh battar qilasiz ishni! — dedi.

Salti zo'r bilan o'zini bosib oldi. Ikkalasi yana— ko'zlarini miltillatib — chol bilan kampirga tikildilar.

Boyadan beri eriga qarab jim o'tirgan kampirning endi astagina kulimsirashi bularga jon kirgizdi. «Ko'rdingizmi?» deganni qilib ikkalasi bir-biriga qarab olishdi.

Chinakam, Qurbonbibi, so'figa yoqadigan bir so'z topganday, dadillik va bemalollik bilan kulib turib gap boshladi:

— Men Zebini bir joyga jo'natib yotirman...

So'fi bu safar baqirmasa hamki, dag'al bir ovoz bilan so'radi:

— Qayerga? Nega?

— Oydinko'ldagi Xalfa eshonimizning kichik qizlari bir-ikkita o'rtog'ini «Bahorlashib ketinglar», deb chaqirtirgan ekanlar. Shularning bittasi Zebi, yana bittasi uning o'rtog'i Saltanatxon ekan. Saltanatxon aravani qo'shtirib qo'yib, o'zi Zebini aytgali kelibdi. «Yo'q», desak qanday bo'ladi?

Xotini nima desa, «yo'q» deydigan so'fi bu safar birdaniga «yo'q» demasdan, xayolga ketdi. Qizlar Qurbonbibining bu tadbiridan xursand bo'lib, yana umidlana boshlagan edilar.

— Qurvon xolam bopladi! — dedi Salti.

— Enam gapga usta. Eshondan tushganini ko'ring. «Eshon», desangiz, otam o'lganini ham bilmaydi... Xudo muni eshonlar uchun yaratgan.

Salti Zebining bu gaplarini eshitgandan keyin so'fining «xo'p» deb javob berishiga ishonib ketdi. Bir qo'lini o'rtog'ining bo'yniga tashlab, uni quchoqlar ekan:

— Bo'ldi, o'rtoq, endi! Jo'naymiz! — dedi.

— Sanamasdan sakkiz demay turing hali! Otam osonlik bilan ma'qul gapga ko'nadigan odam emas. Jim turib qolishini ko'ring: hali ham churq etmaydi.

Sukut uzoqqa cho'zilgandan keyin Qurbonbibi endi bu safar jiddiy bir chehra bilan:

— Nimaga indamaysiz? Xo'p, deng! Katta odam, uyat bo'ladi. Bir yaxshi xotinlari, bir otincha qizlari borki... O'zlarini bo'lsa, o'zingiz bilasiz, — dedi.

So'fi negadir:

— Bilaman, Fitna, bilaman! — deb qo'yib, yana jim bo'ldi.

Endi Qurbonbibi yana ham jiddiylashdi:

— Bo'lmasa, «yo'q», deng. Saltanatxonga javob beray, ketsin! Azonda kelgan edi.

Shundan keyin so'fining tili aylandi:

— Shoshma, Fitna, «yo'q», dema, mayli, bora qolsin... Qachon keladi?

— Indinga erta bilan yo kechqurun.

— Eshon oyimning raylariga qarasin.

So'fi o'rnidan turdi. Kartdan tushib, kavshini kiyarkan:

— Ovozim bor, deb ashulaga zo'r bermasin, — dedi. — Nomahramlarga ovozini eshitdirsa, rozi emasman.

Bu safar odamga o'xshash gapirib, Qurbonbibini quvontirgan Razzoq so'fi shu so'zlardan so'ng yana o'z jimligiga qaytdi. Bir oz so'ngra sallasini kiyib, yaxtagini qo'liga olgandan so'ng:

— Xurjinni ber, Fitna! Bo'lmasa, ikkita qop ber! — deb qoldi.

Qurbonbibi qopni uzatarkan, erining qo'liga shu topda bir oz pul tushganini, endi kattaroq xarid qilish uchun bozorga ketayotganini va haligi zo'r iltifotning ham pulning kuchi bilan bo'lganini angladi...

So‘fi tomoq qirib eshikdan chiqarkan, uydagi ikki sho‘x qiz yana bir-biriga chirmashgan edi.

* * *

Qafasning darichasi ochildi!

Endi qushlarga qanotlarini rostlab turib: «pirr» eta uchmoqdan, keng ko‘klarga, fazolarga parvoz qilmoqdan boshqa narsa qolmadi. Paranjini yopinib o‘tirmasdan, shundoq bosh ustiga tashlab, chimmatni «xo‘ja ko‘rsin»ga tutgan bo‘lib yugurish kerak, xolos...

Faqat unda darichaning ochilganiga kim sevinadi? Shodlikni kim qiladi? Erkinlikning lazzatini kim totiydi? Shu qadar qaysar bir odamni bu qadar ustalik bilan yo‘lga solgan onaning hurmatini, kim o‘rniga keltiradi? Uni kim quchoqlab, kim o‘padi?

Ikkala qizning uydan yugurib chiqib, bab-barobar Qurbonbibining bo‘yniga osilishlari ana o‘sha ne’matning shukronasi edi. Qizlar o‘zlarining behad sevinchlarini yuzaga chiqarmoq bilan birga, onaga bo‘lgan minnatdorliklarini ham tegishicha izhor qilmoqqa oshiqardilar. Ular kampirga shu qadar osilib, erkalik qilib, u bilan shu qadar qattiq o‘ynashdilarki, kampir holdan ketib, kartga dumaladi... Bular qiyqiriq solishib, tobiga kelgan choydishdek sharaqlashib... kampir bilan o‘ynasharkan, u charchab entikkanidan zo‘rg‘a-zo‘rg‘a nafas olib:

— Bas, qizi qurg‘urlar... bas, deyman, bo‘ldi endi... Yo‘lingdan qolasan!.. — deya so‘zlanardi.

Kampir yolvorgan sari bular avj olishar, biri qo‘yib, biri:

— Shunaqa ekanmi? Voy, tovvo-ey! Xalfa eshonning qizi chaqirtirgan ekanmi? Voy, tovvo-oy... — deb uning eng qitig‘i keladigan joylariga chang solishardi.

Nihoyat, o‘zlari ham o‘lgudek charchab, kampirdan qo‘l tortdilar va «uh!» deb ikkalasi ikki tomonga o‘tirdilar.

Bular taraq-turuq eshik ochib, shoshilib ko‘chaga chiqqan vaqtlarida, paxta zavodining ingichka tovushli jing‘irog‘i soat o‘n ikki bo‘lganini bildirib qichqirardi.

II

Saltilarnikida kechgacha safarga tayyorlanib — bir ozgina patir bilan somsa yopib, ko'cha eshigining chap biqinidagi katta kundadan aravaga hatlagan vaqtlarida kun botib borardi. Arava shahar ichidan chiqib, dala yo'liga kirganda, kechaning qora pardasi yer betini o'ragan edi. Qor ostidan chiqqan yerlar, bahorning salqin havosi va yoqimli shabadasi ostida mudrashib yotardilar. Oy hali chiqmagan; faqat kechaning qorong'isiga o'chakishgan sanoqsiz yulduzlar tepada turib mash'allarini yondirganlar, xuddi peshona oldida ko'ringan eng yorug' bir yulduz, piyoz to'g'rab yotgan kelinchakning ko'zlariday, pirpirab yonardi.

Qizlar jim edilar. Aravakash zerikdi shekilli, astagina ashula boshladi. Uning ashulasi ham xirgoyidan nariga o'tmaganidan keyin Salti ko'tarildi:

— O'lmasxon, bormisiz? Durustroq aytsangizchi!

Saltining yana bir o'rtog'i — Qumri uning so'zini quvvatladi:

— Ha, rost, shunday yaxshi ovozingiz bor ekan, sho'x-sho'x aytmaysizmi? Keng dalada qancha cho'zsangiz, shuncha ketadi varanglab...

Yigitcha kuldi. U, qorong'ida sekingina orqasiga qayrilgan edi. Orqa safdagi qizlar chimmatini ko'tarib o'tirganlaridan ularning yuzlarini sal-pal ko'rsa bo'lardi. Kulimsirab turib, qizlarga bir oz qaragach:

— Orangizda dong'i ketgan ashulachingiz bor turib, menga osilganlaring qiziq! — dedi. — Biz, «suv bo'lmasa tayammum»ga yaraydigan ashulachilardan...

Qizlar hammasi Zebiga qarashdilar. Har tomondan har xil ovozlar chiqdi:

— Ha, rost!

— Chinakam, indamay o'tirganimizni qaranglar-a!

— Ashulachi oramizda-ku.

Zebi «churq» etmasdan o'tirardi. Uning munday qilishi ham shu xil taklifdan qo'rqqanidan edi. Albatta, yosh narsaning ko'nglida o'ynash, kulish va xushvaqtlik qilish mayllari boshqa har narsadan ko'ra kuchlik keladi. Lekin Zebi shunday bir otaning qizikim, uning qo'lida

har qanday kuchli mayllarini ham yuganlab tutmoqqa, ko'ngilning har bir havas va tilagini ko'ringan joyida bo'g'ib tashlamoqqa to'g'ri keladi ham. Zebi shunday qilishga o'rganib qolgan. Shuning uchun ham yigitning og'zidan o'z ismini eshitgach, badani durkirab ketdi. So'ngra qizlar tomonidan aytilgan so'zlar uni iztirobga tushirdi. Nima deyishni bilmas edi. O'ylabroq javob bermoq uchun ko'ngilning talvasaga tushmasligi darkor. Holbuki, ko'ngil tashvishda va shu sababli talvasada...

Aravakash u yog'dan turib:

— Ha barakalla, bor ekansizlar-ku! O'rtaga olinglar ashulachini! — degandan keyingina Zebining tillari qaldiradi:

— Gaplashib ketaylik. Shunday qorong'ida...

— Jin urarmidi? — dedi bittasi.

— Yaxshi emas, shunday zim-ziyo qorong'ida... Gaplashib ketaylik... shirin-shirin gaplardan...

Aravakash uning so'zini ilib oldi:

— Shirin-shirin gap o'rniga shirin-shirin ashuladan bo'lsin, opa. Ta'rifingizni eshitib, jigarlarimiz laxta-laxta qon bo'lib ketgan...

Salti tegishdi:

— Voy, tovva-ey! Laxta-laxta qon bo'lganmi? Jabr bo'lgan ekan...

Aravakash ham bo'sh kelmadi:

— Qon bo'lgan yuraklarni bir nafasda yozish sizlarning qo'lingizda, opalar! Biz ham dunyoga kelib bir yayraylik-da!

Yana indamasdan o'tirgan Zebiga endi bu safar Salti yalindi:

— O'rtoqjon, bir narsa desangiz-chi. Hamma baravar tashna ekan...

Zebi o'rtog'ini astoydil koyib berdi:

— Sizdan kelgan gap shumi, hali? Otamning aytganlarini o'z qulog'ingiz bilan eshitib edingiz-ku! Eshitib-netib qolsa, nima bo'ladi? Bilib turib...

Salti o'rtog'ini to'xtatdi:

— Bilaman, o'rtoqjon, bilaman! Otangizning gaplarini bir emas, ikki qulog'im bilan eshitdim. Odamlar ichida, ko'pchilik orasida qistasam, mendan xafa bo'ling. Bu

yer dala joy bo'lsa, odam asari bo'lmasa, kechasi — qorong'i bo'lsa, bir-ikki juft aytib bermaysizmi?

— Nomahramga eshitdirib-a?

Zebi bu so'zni chin ko'ngildan chiqarib va jerkib turib aytgan bo'lsa ham, qizlar hammasi birdan kulishib yubordilar. Yana har xil ovozlar ko'tarildi.

— Shu ham nomahram bo'libdimi?

— Shu O'lmasjon-a?

— Nomahram o'la qolsin...

Zebi chinakam ranjigan edi. Yig'lamsirashga yaqin bir ovoz bilan Saltiga:

— Munaqa qilishingizni bilsam, kelmas edim... — dedi.

Qizlar ishning bu tomonga aylanganiga hayron bo'lishib jim qoldilar. Aravakash:

— Ey, tovba! Ey, tovba! — deb o'z-o'ziga so'zlanib, otni qattiq-qattiq besh-olti qamchiladi.

Ot qadamlarini ildamlatib, aravani guldur-guldur g'ildirata boshladi. Hamma jim bo'ldi. Faqat Salti bilan Zebi ikkovi bir-birlari bilan pichirlashib so'zlashardilar. Bu pichirlash natijasida, Salti o'rtog'ini tinchlatishga muvaffaq bo'lgan, buning ustiga yana, qizlar «yor-yor» boshlaganda, uning qo'shilajagi to'g'risida so'z olgan edi. Bir marta boshlangandan keyin undan narisi o'zi keta beradi, deb o'ylardi Salti.

Darrov qizlarga tomon burildi:

— Qani, qizlar, o'zimiz «yor-yor» boshlaymiz!

— Ha, balli! — dedi aravakash.

Qizlardan javob kutib o'tirmasdanoq Salti o'zi boshlab yubordi.

Uzun-uzun arg'amchi-yo...

Qizlar qo'shilishdi:

...Halinchakka,
Chakan ko'ynak yarashar
Kelinchakka,
Chakan ko'ynak yengiga
Tut qoqaylik...

Bir-ikki bayt o'tgandan keyin Zebining tiniq, g'uborsiz, jonon piyoladek jaranglab chiqadigan chiroyli va o'tkir ovozi qo'shildi. Bu ovoz, peshona ustida pilpillagan eng yorug' yulduz singari, boshqa ovozlardan ochiq ajralib turardi. Shu choqqacha «yor-yor»ga quloq berib, indamasdan, asta-asta otini qamchilab ketayotgan aravakash bu ovoz chiqishi bilan og'ir bir «uh» tortdi, qo'lidagi qamchisi daraxtdagi kuzgi yaproq singari zo'rg'a-zo'rg'a barmoqlariga osilib qoldi.

Saltining didi to'g'ri chiqqan edi; endi, Zebi «yor-yor»ni o'zi yolg'iz aytardi. Aravakash bilan birga, qolgan qizlar — hammasi bir quloqqa aylangan edilar. Ot bu go'zal ovozning shirin kuylari ostida boshini quyi solib, bo'ynini asta-asta likillatib bitta-bitta qadam bosardi... «Yor-yor»lar bitib, boshqa har xil kuylarga o'tildi, endi Zebini to'xtatmoq mumkin emasdi. Zotan, uning to'xtashini kim istar edi, deysiz? Dalalarning keng quchoqlaridan uchishib kelgan mayin shabadalar qiz og'zidan chiqqan unlarni o'z qanotlariga mindirib, allaqayerlarga, olislarga olib ketardilar. Hov... yiroqlarda lipillab ko'ringan qishloq chirog'lari ham, tepadagi yulduzlar singari, shabada qanotlari bilan kelgan chiroylik unlarning zavqi bilan mast bo'lib yonardilar...

Zebi yuragida tugilib yotgan zo'r tugunni yechib yuborgan edi. Razzoq so'fining sovuq yuzlari uning ko'zlaridan yiroqlashganlar; nasihat yo'li bilan minglarcha marta aytilgan va ta'kidlangan so'zlar unutilgan; sovuq so'filarning «harom» degan da'volari sinib, parcha-parcha bo'lgan; «nomahramlik» safsatalari ot oyoqlari ostida yanchilgan; to'rt devorning bu tutqun qizi o'ziga o'xshagan tutqunlardan boshqa hech bir guvoh va tilchi bo'lmagan shu keng dalaning quloch yetmas bag'rida yillardan beri tugilib kelgan alamlarini kuyga aylantirib, cheksiz bo'shliqlarga yoyib yuborgan edi.

Arava yakka qanotli kichkinagina bir eshik oldida to'xtab, aravakash bola qamchi sopi bilan eshikni qoqqanda va ichkaridan bir kampirning ingichka va jonsiz ovozi «Kim u?» deb so'raganda, odamlar bir uyquni urgan edilar...

* * *

Kampirchaning so'rog'iga aravakash hazillashib javob berdi:

— Shahardan bir arava mehmon olib keldim, ena! Uyingiz kuydi toza! Ikki kunda bor-yo'g'ingizdan ajralib qoqlanasiz endi! Qani, bo'ling, eshikni oching! Qornimiz o'lgudek och...

Qizlar kuldilar. Kampir qizlarning kulishini eshitganidan keyin mehmonlarning kimligini angladi:

— Ha-a-a, Saltanatxonlardir? — dedi u.

Shu so'z bilan birga kichkinagina zanjirining shiriqlab tushgani va eshikning g'ichirlab ochilgani eshitildi. Kampircha eshikni ochar-ochmas sevinchilamoq uchun ichkariga yugurgan edi.

Aravakash:

— Qani, tushinglar endi, opalar! — deb muzaffarona bir ovoz bilan qichqirdi.

Faqat uning bu chaqirig'i foydasiz edi. Chunki zanjirning zaif shiriqlashi quloqlarga kirar-kirmas, qizlar o'zlarini aravadan tappa-tappa tashlay boshlagan edilar. Yorug'idan ko'ra tutuni va buruqsashi ko'p fonarchani ushlagan kampir bilan birga Zebilar tenglik bir qiz «Voy, o'layin, uxlab qolibman! Voy, o'layin, ko'zim uyquga ketibdi!» deb, ho'... allaqayerdan uzr aytib chiqib keldi. Bu yoqdan:

— Voy, aylanay! Enaxon! Jonim o'rtog'im! Bormisiz? — deb paranjisini qo'liga olib Salti yugurdi. Quchoqlashib ko'risha ketdilar. Boshqa qizlar bilan naridan beri qo'l uchini tekkizib ko'rishgach, Enaxon yana Saltiga yopishdi va ikkalasi qo'ltiqlashib ichkariga tomon yurdilar. Ikkala o'rtoqning sharaq-sharaq gaplashgan, bir-birlariga sevinch bildirishgan quvnoq va baland ovozlari boshqa hamma unlarni bosib ketdi...

Faqat ko'chada — arava ustida boshqa hangomalar bo'layotgan edikim, bulardan haligi ikki baxtlining hech bir xabari yo'g'idi:

Saltining onasi bilan katta onasi uni o'zi tenglik yosh qizlar bilan birga olis joyga yuborarkan, ehtiyot tomonini ham unutmagan edilar. Uning oyisi o'z qaynonasiga:

— Yosh qizlarning o'zlarini yuborib, bo'ladimi,

qalay? Bitta-yarimtamiz birgalashmasak bo'lmas? — deb o'zining eslik xotin ekanini bildirgan vaqtida, qaynonasi juda keskinlik bilan javob bergan edi:

— Albatta, aylanay! O'zlari yolg'iz borishadigan bo'lsa, javob yo'q!..

Tandir oldida kuyib-pishib, shabnam donalariday yirik-yirik terlarga botib, Zebi bilan birga patir yopayotgan Saltiga bu maslahat juda yomon qattiq tekkan va u ham darhol o'z ovozini eshittirgan edi:

— Bizni bo'ri yermidi? Yosh narsalaga qarilarni aralashtirib nima bor? Siqilib o'lmaydimi odam?..

Katta ona nevarasining bu erkaligiga faqat erkalik debgina qaragan, shu uchun:

— Aylanay, bolam, patiringni yop! Kechga qolayotirsiz. Bu siz aralashadigan ish emas! — deb qo'yib yana o'zining «eslik» kelini bilan maslahatini davom ettirgan edi.

Maslahat natijasida qaynona bilan kelin uyda qoladigan bo'lib, ikki-uch oydan beri bularnikida yashaydigan qarindoshlardan Savribibi degan kampir qizlarga ko'z-quloq qilib berilgan edi.

Bu qari kampirning qo'shilganiga qizlar xafa bo'lmagan, balki, aksincha, sevingan edilar. Bu kampir, aravaga oyoq qo'yar-qo'ymas, qizlarning o'rtasiga joylanib olib, Zebining tizzasiga bosh qo'ygani holda uyquga ketgan va shu bo'yicha qishloqqa kelib yetganda ham ko'zini ochmagan edi...

Qizlar o'zlarini tappa-tappa aravadan tashlab, eshikdan ichkariga kirarkan, Zebi sekingina kampirni uyg'otdi:

— Enajon, turing, kelib qoldik!

Enajondan javob bo'lmadi. Zebi o'sha past ovoz bilan yana bir uyg'otdi, enajon hali ham jim edi. Aravaning oldi tomonidan kelib, aravakash ham yordamlashdi:

— Ho'... xola, turing, kelib qoldik!

Erkak kishining kuchlik ovozi bilan kampir ko'zini ochdi, lekin uyqusirab turib:

— Hozir aylanay... xo'p, turaman... — degandan keyin yana uyquga ketdi.

Zebi kamoli hayron bo'lganidan aravakashning nomahramligini ham unutib, haligi tangriqosh nazari bilan

unga qaradi. Bu vaqtda oy anchagina yuqori ko'tarilib qolgan edi. Aravakash yumshoqqina kulimsiradi. Yosh yigitning bu yosh shirin tabassumini oy yorug'ida alayna ko'ra olgan yosh qiz butun badanlaridan muloyimgina durkirash kechganini payqadi va qizarib, teskari qaradi... U qarash aravakash yigitchaga ham boshqacha ta'sir qilgan bo'lsa kerak, kampirni turtib uyg'otmoq uchun qo'lini yuqori uzatdi. Shunda kampirning boshidagi qo'l boshqa bir qo'lning o'ziga kelib tekkanini boyagidan kuchliroq bir durkirash bilan sezdi. Erkak zoti bilan birinchi marta bu xilda uchrashgan yosh qiz shu paytda bir oz gangragan edi. Shuning uchun qo'lini darrov tortib olmasdan, o'ziga kelganidan keyin, birdaniga jerkib tortdi. Faqat yosh yigitning kuchli qo'llari uni mahkam ushlab, kampirning boshidan pastroq tushirdi va ikkala yosh, shu bo'yicha, turgan joylarida turib qoldilar...

Ichkarida o'tirgan baxtli mehmon o'zidan baxtli izmon bilan birga, ho'... ancha vaqt o'tgandan so'ng yo'qolgan ikki mehmonni izlab, ko'chaga chiqqan vaqtida, ko'chadagi ikki yosh vujud qo'llarini bir-birlaridan hanuz ajratib ololmagan edilar. Kampir esa ikki yoshning bu talvasali uchrashuviga quruq gavdasi bilan guvoh bo'lib, hali ham shirin uyquda dang qotib yotardi...

Qizlarning bu «itdek» poyloqchisini ko'plashib uyg'otdilar, ko'plashib aravadan tushirdilar. U Salti bilan Enaxonning qo'ltig'iga kirib, ko'zi uyquda, davdiray-davdiray ichkariga yo'l soldi. Zebi ham boshqa o'rtoqlariday, aravadan o'zini «tapp!» etib tashlamoqchi bo'ldi, faqat qamchili yigit kelib, yana qo'lini uzatdi va shuning uchun shuncha baland aravadan o'zini tashlagan eng so'nggi mehmonning oyog' tovushi hech kimning qulog'iga qoqilmadi...

Mehmonlar osh-suv taraddudiga yo'l qo'ymasdan, sut-qatiq bilan quruq choy ichib, darhol o'tirgan joylariga uzandilar va aravada urinib kelganlari uchun uzanar-uzanmas uyquga ketdilar.

Aravakash ichkaridan chiqqan ikki non bilan bir piyola qatiqni ichib oldi-da, otni tashqariga bog'lab, o'zi arava ustiga cho'zildi. Uyqusi qochgan edi... Miyasida, umrida birinchi martaba o'laroq, ajib va shirin xayollar

aylanardi. Ko'kdagi oyga qarab, yerdagi oyni o'ylar va boyagiday shirin-shirin kulimsirardi...

Ichkaridagilar ham dong qotdilar. Faqat, oralarida, xuddi ko'chadagi yosh yigitcha singari, uyqusi ochilgan, ko'kragidagi yangi, begona va shirin hislarni anglayolmasdan xayron bo'lgan birov bor edi. U ham ko'kdagi oyga qarab, yerdagi «toy»ni o'ylar va yuzlari anorday qizarardi...

Shu topda, qishloqning darbadar itlari avjga kelgan, har tomondan hurishlarini yuksaltirganlar; tor ko'chaning tugalishidagi soy hamma uxlab jim bo'lganda, haybatli ovozini boricha qo'yib yuborib, och yo'lbarsday «guv-guv» bo'kirardi...

III

Enaxon yo'qsul bir oilaning qizi edi. Otasi muning yoshligida o'lib ketgan, onasi ikkovi birgina akaning boqimiga qarab qolgan edilar. Akasi Xolmat esini tanigandan beri mehnat peshida chopadi. Hali eng o'yinqaroq bola vaqtlarida ham butun qishloqning podasini boqib, oilaning ehtiyojlariga biror narsa qo'shib turardi. Uning podachi bo'lgan vaqtlarini hali ham qishloq odamlari havas bilan eslashadi. Ko'cha-ko'yda unga yo'liqqanlar:

— Podamizni yetim qilib qo'yding-da! — deb boshlarini afsus bilan chayqab o'tishadi.

Tez-tez bo'lib turadigan bu xil gaplar uning yuzini kuldirib, ko'nglini ko'taradi, tinmasdan ishlash uchun bilagiga darmon va quvvat beradi. Uning o'z bisotida bir shapaloqqina sholipoyasi bor; u ham marhum qaynatasidan tekkan, bor kuchini shunga sarf qiladi; hammadan burun ish boshlab, hammadan kech tugatadi va hammadan ko'p urinadi. Shu bilangina olti jondan birikkan katta bir oilani naridan-beri tebratib keladi. Onasi qarib, mukchayib qolgan, bir qizi bilan bir o'g'li hali yosh go'dak, ro'zg'orning butun ishi xotini bilan singlisining bo'ynida. U ikkovi dala ishlarida unga yordam berishdan ham bosh tortmaydilar, ularning dalada ham foydalari ko'p tegadi. Xolmat o'zi shuncha tirishib ishlab, katta ro'zg'orni yolg'iz boshila tebratgani uchun xotini ham,

singlisi ham uni boshlariga ko'taradilar. Har to'g'rida uning talablariga xursandlik bilan ko'nib, hech bir ishda ko'nglini qoldirmaslikka tirishadilar. Mehnatdan boshqa hech narsani bilmagan bu yo'qsil yigitning qanday zo'r talablari bo'lar edi deysiz? Butun havaslar, talablar va o'ylar — har nechuk bo'lsa ham shu oilani tebratib o'tish tegrasida aylanadi... Albatta, kelin ham, qiz ham — yosh narsalar; yoshlarning nozlari, injiqliklari bo'lmaydi emas... Ularning injiqliklarini butunlay haqsiz deyish to'g'ri bo'lmasa kerak. Chunki ular ham yoshlar, boshqa o'z tenglari kabi, ularning ham orzu-havaslari bor, ko'ngillari ko'p narsani tusaydi... Zindondagi bandini hech bir xayol surmaydi, deb kim aytadi? Gadoy podshoh bo'lmoq istasa, yomonmi? Ba'zan shu xil kuchli talablar yo kelinda, yo qizda ko'rilib salgina yuzaga chiqa boshlasa, ko'pni ko'rgan ziyrak kampir darrov payqaydi va oldini oladi. Xolmatga sal og'ir keladigan bir ish bo'lsa, unga yetkizmasdan, o'zi bir ish qilib bitiradi; joyi kelganda, muloyim gapirib, joyi kelganda, po'pisa qilib, qizi yoki kelinining ko'nglida ko'tarilgan havas olovlariga suv sepadi, u olovlarni avj olmasdan turib so'ndiradi. Ularning talablari juda o'rinli bo'lsa, o'zi ilojini qilib, qondiradi. Ularning ko'nglini oladi, Xolmatni ortiqcha tashvishlardan qutqazadi.

Shahardan Saltilarning bir arava bo'lib kelishlari ham Enaxonning shu xil havaslaridan biri edi. Saltanatlar oilasi bilan Enaxonlar oilasi orasida ota-bobodan qolib kelgan bir do'stlik, qadrdonlik hukm surardi. Bu ikki oila kishilari yilda bir-ikki marta bir-birlari bilan ko'rishib turardilar. O'tgan kuz, xirmonlar olingandan keyin, Enaxon bilan kelin Saltanatlarnikida bir haftacha turib kelgan edilar. Shunda Enaxon o'z o'rtog'ini bir-ikkita tengdoshlari bilan birga bahorda qishloqqa chaqirib ketgan, bahor kelib tabiat jonlangach, shaharga tushgan bir odamdan yana aytdirib yuborgan edi. Kampir qizining bu talabini, albatta, o'rinli topardi. Enaxonning yonida bola-chaqasi bilan birga bir necha kun yayrab kelgan kelin ham qizning fikriga jonu dilidan qo'shilgach, kampirga hech bir gap qaytarish o'rni qolmagan edi.

— Gaplaring juda ma'qul! — dedi u shu to'g'rida

maslahat boshlanganda. — Buning ilojini o'zimiz qilishimiz kerak. Xolmat bechoraga hech bir og'iri tushmasin. Iloji bo'lsa, unga bildirmaylik. Mehmonlar kelganda bilar.

Enaxon kelinga qaradi. Kelin Enaxonning bu qarashidan «Qani, gapiring nima deysiz?» deganini anglagan bo'lsada, qaynana oldida birinchi bo'lib gap ochishni ep ko'rmasdan, jim qoldi. Shundan keyin Enaxon bir narsa demakka majbur edi.

— Mayli, siz o'zingiz bilasiz, oyi. Chaqirish kerakligiga «yo'q» demadingiz. Mehmon deganni non qoqiga chaqirib bo'lmaydi. Muni o'zingiz bilasiz. Kelin shu yerga kelganda, bir og'izgina so'z bilan aralashib qo'ydi:

— Albatta, ayniqsa, shuncha joydan keladigan mehmonni.

— Xo'p, yaxshi bilaman! — dedi kampir. U kelining og'zidan gapini uzib olganday tez gapirardi. — Kuzda ikkalang borib bir hafta turib kelding. Bechorahol bo'lsalar ham senlarni xo'p xursand qilib jo'natishdi. Ikkalang ham anchagacha gapirib yurding...

— Rostda! — dedi Enaxon. — Uning otasi ham, nihoyati bir ayronchi, yer-suvi yo'q, dastgohi yo'q. Ro'zg'or katta... Shunday bo'lsa ham bizga deb nimalarni qilishmadi-a?

So'nggi savolni kelinbibisiga bergan edi. U ham:

— Ha, nimasini aytasiz, — deb darhol tasdiq qildi.

Shu bilan hammalari jim bo'ldilar. Kampir iloj axtarib, o'yga botgan edi. U sekin-sekin og'il tomiga yotqizilgan shotining ikkinchi pog'onasiga o'tirdi. Qiz bilan kelin yerga cho'nqaydilar. Kampir shotining yon yog'ochini silab o'ynar, Enaxon og'zidan olgan saqichni qo'lida ezib, «soqqa» yasar, kelinchak bo'lsa, bir cho'p bilan yerni chizg'alar, uchalasi ham shu ravishcha o'yga botgan edilar. Kampirning butun xayoli haligi to'g'rida bo'lsa ham, ikki ko'zi bularda; bular esa dam bir-birlariga, dam kampirga qarar, dam yerga tikilardilar.

Sukutni kampir buzdi:

— Kambag'allik o'lsin, kambag'allik! — dedi u va chuqur bir «uh» tortdi. — Hech bir ilojini topib bo'lmaydi...

Bir oz jim qolgach, birdaniga ovozini ko'tarib:

— Shuncha yerdan bizning so'k oshimizni ichgali kelisharmidi? Uch-to'rt kun turishadi. Durustroq bir narsa qilib qo'ymasak bo'ladimi? — dedi.

Ular ikkovi ham uyg'onganday bo'ldilar:

— Albatta, albatta! — deyishdi ikkalasi.

Xuddi shu vaqtda somonxonaning yonida Xolmat ko'rindi. Bular unga qayrilib qaragali ulgurmasdan, uning:

— Oyi, bormisiz? — degan ovozi eshitildi.

Kampir suhbatni bo'lib, o'rnidan turarkan:

— Shoshmanglar, bir oz o'ylaylik, ertagacha biror iloji topilib qolar, — dedi va yugurib Xolmatning yoniga ketdi.

Kechqurun, yotar paytda, kampir ikkovini yoniga chaqirib, o'z fikrini aytdi:

— O'ylab-o'ylab qo'limdan kelgani shu bo'ldiki, o'limligimga atalgan narsalardan bir ozroq ajratdim. Endi, Ena, sen ham bisotingda boridan bir-ikki narsa ajrat, kelin, siz ham bir narsa qo'shing, ertalab bitta-yarimtani bozorga tushiraylik, shularni sotib, ul-bul olib chiqsin.

Kampir o'limligiga atalgan narsalardan ajratgandan keyin gap tamom edi.

— Bo'libdi, oyi! — dedi Enaxon. — Mening boryo'g'im o'z qo'lingizda, o'zingiz ajratib olarsiz. Xayr, mayli, o'zim ham bir o'ylab ko'ray...

— Men erta bilan sizga topshiraman, — dedi kelin.

Kampir turib, yotog'iga ketdi, ikki yosh o'sha joyda o'tirib qolib, nima ajratish va nima berish to'g'risida maslahatlashdilar. Bisotdagining mazasi bo'lmaganligidan bu maslahat ancha uzoq cho'zildi.

Har qalay, erta bilan kampirning qo'lida mo'jazgina bir tuguncha bor edi. Tugunchani xurjunning bir ko'ziga solgan bola yag'ir otni yo'rtdirib shaharga tomon yo'l soldi.

O'sha kun Saltanatlarga ikkinchi chaqiriq yetkizilgan va katta xurjunning ikki ko'zi to'lib qaytgan edi.

* * *

Mehmonlarga qo'lidan kelgancha yaxshi dasturxon solib, qo'ni-qo'shni qizlar va kelinchaklarni chaqirtirib,

allaqaylardan tori uzilgan dutorlarni topdirib kelgan va ularni xursand qilmoq uchun tirishib-tirmashgan Enaxon o'z ko'nglida yana xijolat tortishdan qutulmadi. Qadrli mehmonlarini yana allaqanday ziyofatlar, mehmongarchiliklar, takalluflarga ko'mib tashlamoqchi bo'lardi. Uncha narsa bo'lmaganda ham, odamlar singari, tuzukroq bir siylab yuborishni, albatta, lozim, deb o'ylardi. O'z qo'lida bunday qudrat yo'qligini o'ylab, noumidlikka tushar, bo'g'ilardi... Yuragi yomon g'ash bo'lib ketganidan keyin chiday olmasdan, kampirga aytib ko'rdi:

— O'lganim yaxshi mening! — dedi u. — Ko'ngildagidek bir siylay olmasam mehmonlarimni!

Odatda yumshoq gapiradigan kampir bu gapga achchig'landi...

— Bo'lmasa, o'zingni bozorga olib chiqib sot! Ko'ngildagidek mehmon qila olasan... — dedi.

— Sizga odam ko'ngildagi hasratini ham ayta olmas ekan-da, — dedi Enaxon; ko'zlariga yosh olib, onasidan uzoqlashdi.

Xuddi shu hasratini tomorqa-hovlichadagi ariq bo'yida o'tirib, kelinbibisiga aytganida, u darrov buning fikriga qo'shildi:

— Shunday yaxshi narsalarki! Bularga qancha qilsangiz oz! Zebixonni qarang, Zebixonni! Kuzda biz borganimizda ko'rmagan edik-a?

— Otasi o'lgur, sovuq so'fi, javob bermagan ekan...

— Muncha ham ovozi chiroyli bu qizning!... Ashula aytsa, qulog'ing mast bo'lib, o'ladi odam... Nafasi buncha issiq, muncha mazalik! Muncha ta'sirlik!

— Shuni aytaman-da. Suyuq osh qildik, oshqovoq somsa qildik, palov qildik... bo'ldi! Bundan ortig'iga mana shu kambag'allik o'lgur yo'l qo'ymaydi...

Shu yerda chuqur bir «uh» tortdi Enaxon. So'ngra yana so'zida davom etdi:

— Varaqi somsalar qilsak, oq unlardan g'alati mantilar, chuchvaralar qilsak, boylarnikida bo'ladigan dimlama qo'g'urmalar qilsak...

Birdan tajanglanib, o'rnidan turdi:

— «Oshqovoq somsa»! «Oshqovoq somsa»! Kambag'allik qursin, ilohim! «Kambag'al — xudoyimning

suygan bandasi», deydilar, shumi suygan bandaning holi?!

Boyadan beri shu to'g'rida o'ylanib, oqqan suvga xashak tashlab o'tirgan kelinning yuzlarida xuddi shu paytda bir yoqimli kulimsirash paydo bo'lgan edi. O'rnidan turib, haligi shirin kulimsirashi borgan sari ochilgani va yoyilgani holda Enaxonga yaqin bordi:

— Xafa bo'lmang, aylanay! — dedi. — Men ilojini topdim. Boylarnikiga o'xshagan g'alati ziyofat qilib jo'natamiz mehmonlarimizni!

Enaxon bu ilojning nimaligini anglayolmaganidan hayron bo'lib kelinbibisiga qarar, hali yuzi kulmas edi.

— Nechuk? — dedi u va kelinbibisining ko'zlariga baqrayib tikilgani holda uning ikkala qo'lini qo'llari orasiga oldi.

— O'zimizning kuchimiz yetmasa, teng-to'shlarimiz, o'rtoqlarimiz bor. Ularga aytib chaqirtiramiz...

Enaxonning yuzi birdaniga ochildi. Lablariga keng bir tabassum yoyildi. U kelinbibisi topgan ilojni anglagan edi:

— Mingboshining qiziga aytmoqchimisiz? O'sha chaqirsin, deysizmi?

— Yo u, yo bo'lmasa kichik xotini Sultonxon-chi?

— Bo'larmikin?

Shu yergacha ular ikkovi bir joyda to'xtashib so'zlashmoqda edilar. Keyin:

— Bo'ldirishni menga qo'yib bering. Ishingiz bo'lmasin. Ishqilib mehmonlarni xursand qilsam, bo'ldimi? — dedi.

Shundan so'ng ikkalasi bel ushlashib, uyga tomon yura boshladilar.

— Yaxshi maslahat! Jon, kelinbibi, bir ish qiling! — dedi Enaxon kelinbibisini mahkamroq quchoqlab.

Kelin birdaniga to'xtab:

— Ularnikidan hech kimni chaqitirdikmi? — deb so'radi.

Enaxon ham yetgan joyidan to'xtab:

— Yo'q! — deya javob berdi. — Kim biladi, deysiz, muni? «Mingboshining falon-falonlari bizni ko'ziga iladimi?» deb xabar ham qilmabmiz. Endi qanday bo'lar ekan?

— Biz shu kechaga mingboshi tog'aning qizi bilan kichik xotinini chaqirtiraylik. Kecha chaqirtirganimizda kelmasalar, bugun chaqitirsak, albatta, kelishadi. Siz nima deb o'tiribsiz! Zebixonning ovozi, ashulalari undan kattaroqlarni ham sudrab keltiradi. Siz xotirjam bo'ling. Men o'zim g'izillab chiqib kelaman. Bu kecha bitta-yarimta ashula eshitib, suhbatni ko'rishsa, ertaga, albatta, chaqirtirishadi.

Ikkalasi, yuzlari yulduzday charaqlagani holda, darichadan ichkariga hatlagan vaqtlarida Zebining «Qora sochim» kuyiga aytayotgan ashulasi quloqlarni shirin-shirin qitiqlamoqda edi...

* * *

Bir tomchi suv dengizga aylangan bir kecha bo'ldi. Shu kambag'al, bebizat oilaning issiq va halol quchog'iga qishloq qizlari va yosh juvonlarning hammasi deyarlik to'plandi. Bevosita qo'shni bo'lgan xonadonlarning «oshini oshab, yoshini yashagan» kampirlari ham chiqishdilar. Bu kecha, hatto, shahar qizlariga poyloqchi bo'lib kelgan uyquchi kampirga ham jon kirdi. Uning jonlanganini ko'rganlar ixtiyorsiz yoyilib kular va chin ko'ngildan sevinardilar. Bir emas, ikki dutor va ikki yaxshi dutorchi, bir nechta o'yinchi, Zebixondan boshqa yana ikkita ovozi durustgina yosh juvonlar kelishdi. Dasturxonga qaragan kishi bo'lmadi; hech kim bu faqir va sodda hashamat ichida takalluf axtarmas, ko'ngilning xursandliklarga bo'lgan ketsiz maylini qondirish bilangina ovora edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, dasturxon ustida duv-duv gaplashib, ayvonni ovozga to'ldirib o'tirgan qiz-juvonlardan hech biri o'ng biqinida yonma-yon o'tirib, zo'rg'a dasturxonga qo'l uzatgan mingboshi oyimlarning «shu ham mehmondorchilikmi?» degan ma'nida bir-biriga qarab lab burishtirganlarini payqamadi. Dasturxon yig'ilgandan keyin bazm boshlandi; shundan keyin hamma o'zini unutdi, hamma yosh bolaga aylandi.

Uch ovozlik qizga yana bir nechtasi qo'shilib, yalla ohangi ko'klarga ko'tarilgandan keyin qishloqning past-past, yiqiq-yoriq devorlaridan osongina oshib o'tib, bit-

ta-yarimta yigit-yalang ham to'plana boshladi. Ular xira yongan chirog'chaning yorug'i zo'rg'a-zo'rg'a yetadigan joylarda — ayvonning ikki yonida cho'nqayib o'tirishgan, nafaslarini ichlariga olgan edilar. Ular orasida Xolmat bilan aravakash bola ham bor, ular ikkovi katta tut yog'ochiga suyanib, tikka turardilar. Xolmat havas bilan qiziqib qarasada, uning ko'ngli tamom betaraf edi, faqat aravakash yigit shuncha to'polon-yalla orasida Zebining ovozidan boshqa ovozlarni, nechikdir, farq etolmasdi. U ovozni eshitish bilan ko'nglining chuqur joylaridan xuruj qilib kelgan allaqanday totli bir sevinchini yashirolmadi:

— Zebinisaning ovozini aytaman, Xolmat aka... — dedi u, o'zi shu so'zni aytganidan keyin, negadir, bir oz qizara tushib, yerga qaradi.

— Chakki emas! — dedi Xolmat. So'ngra so'radi: — Oti Zebinisami?

— Ha, Zebinisaxon!

Yigitchaning shu «xon» degan qo'shimchasida «mening Zebinisam» degan ma'noda bir maqtanish, bir g'urur ohangi bor edi. Bu ohang juda ochiq eshitilgan bo'lsa kerakki, Xolmat darhol fahmiga bordi va «a, haromi-ey!» deganday qilib unga qaragach:

— Yurakdan urgan ekan-a!.. — dedi.

Yigitcha bu so'zdan o'ng'aysizlandi va tona boshladi:

— Yo'g'-e, ovozi soz deyman-da, ovozi! — dedi, lekin tili gapirgani bilan yuragi «yolg'on, yolg'on» deb turganini o'zi ham bilar, Xolmatning ishonmasligiga aqli yetardi. Shuning uchun masalani chuqurlashtirmasdan, so'zni boshqa tomongaroq burishni ep ko'rdi: — Ovoziga nima deysiz, chinakam qiyomat-a? — dedi Xolmatga

— Ha, ovozi joyida. Saltanatxondi o'rtog'imi?

— Eng yaqin o'rtog'i.

— Kimning qizi o'zi?

— Razzoq so'fi degan bir odamning...

— Razzoq so'fi?

— Ha, Razzoq so'fi. Xudo bergan lekin so'figa!

— Xaridori ham ko'pdir?

— Sovchining ko'pligidan ostonasi yeyilib ketgan, deydilar... Bilmadik, qaysi tolei balandga nasib bo'lar ekan!

— Xudodan tilab turing, «noumid shayton», degan gap bor...

Shu so'zlarni ayta turib, Xolmat ham yigitchaga shayton qarashi bilan qaradi.

Bu vaqtda ashulachi qizlar yalladan to'xtadilar, ingichka-yo'g'on ayol ovozlaridan iborat kuchlik bir xorning:

— Bor bo'lsinlar! — degan olqishi yuksaldi.

Erkaklar o'z olqishlarini ichlarida saqlamoqqa majbur edilar. Ularning to'planganlarini bir-ikkita kampirdan boshqa hech kim bilmas edi. Yalla bitgach, ba'zi qizlar o'rinlaridan turib, u yoq-bu yoqqa jilishdilar, ba'zilari o'choq boshiga choy olgali ketdilar, ba'zilari joylarini almashtirib, yaqin ko'rgan o'rtoqlarining yonlariga o'tib o'tirdilar. Endi erkaklar ham o'zlarini orqaroq olmoqqa majbur edilar, ular ham jilishdilar. Mehmonlardan Qumrixon birdaniga tutning tagiga borib qolib, u yerda ikki erkakning o'ziga qarab kulib turganini ko'rgach, «voy, o'la qolay!» deb, uyalib orqaga qaytdi. Yana Saltining yoniga borib o'tirgach, pichirlabgina:

— Tevaragimizni shundoqqina qishloq yigitlari o'rab olishibdi. Bilmasdan tutning tagiga borib qolsam, ikkitasi menga qarab baqrayib turibdi... Bittasi o'zimizning aravakashmi...

Bu vaqtda bu ikkala qizning nimalar deb pichirlashayotganidan vasvasaga tushgan Zebi sekingina bo'ynini cho'zib, gapga quloq soldi. U faqat Qumrining so'zini — «bittasi o'zimizning aravakash...» degan so'nggi so'zini eshitib oldi. Yuragi o'ynadi... va darhol burilib tashqariga qaradi. Chirog'ning xira yorug'ida kampirlarning ivirsib yurganlarini ko'rdi. Boshqa hech narsa ko'rinmasdi. Yurak o'ynashi bosilmadi. Lablari titramoqqa boshlagan edi... Birdaniga o'rnidan turdi; qizlar yo'l bo'shatdilar, ularni oralab o'tdi. Ayvondan chiqib olguncha hammaning ko'zi unda edi, ayvondan sahnga tushgach, qizlar yana o'z suhbatlariga mashg'ul bo'ldilar. Sahnda uni poyloqchi kampir qarshi olib, peshonasidan o'pdi:

— Ilohim, yomon ko'zdan saqlasin, bolam! — dedi.

Ikkala ko'zidan yana bir martadan o'pgach, ichkari uyga tomon burildi.

— Ha, xola, uyda nima qilasiz? — deb so'radi Zebi.

— Uxlayin, bolam, men qari narsa, yarim kechagacha o'tirolamanmi? Sizlar yosh-yalang, o'ynab-kulib ko'ngillarni yozinglar. Men orom olay...

Poyloqchining bu xislati hammaga ma'qul edi. Ayniqsa, shu topda ko'ngli allaqaylarga tortayotgan Zebi uchun bir xil ezma kampirlardan ko'ra bu — kamgap, seruyqu kampir yaxshi edi.

Yuragi urgan holda bitta-bitta bosib, qorong'ilikka kirdi. U ham tut tagiga — katta so'rining yoniga borayotir edi. Qorong'ida turgan aravakash yigit yorug' tomondan kelayotgan qizni tanidi, birdaniga:

— Ana, o'zi kelayotir! — deb qichqirdi.

Uning bu qichqirishi ixtiyorsiz bo'lgan edi. Allaqachonlar masalaning fahmiga borib qolgan Xolmat shu topda yigitchadan yiroqlashuvni ep ko'rdi. Unga ma'nolik qarash bilan kulimsirab qarab, yelkasiga bir-ikki urgach:

— «Umidsiz shayton», dedim-ku, uka... Mana, biz ketdik... — dedi va quyuq qorong'ilikka kirib, yo'q bo'ldi.

Yigit esa Xolmatning bor-yo'g'ini farq etolmaydigan holdaydi. Shunday paytlarda og'izdan ixtiyorsiz chiqishi lozim bo'lgan «bor bo'ling», «o'lmang» kabi minnatdorlik so'zlari ham esga kelmasdi. U, yuragini hovuchlagani holda, ixtiyorsiz, qari tutning yo'g'on badaniga yopishdi...

Zebi yigitchaning «Ana, o'zi kelayotir!» degan so'zlarini eshitgan edi. Agar esi o'zida bo'lsa, u ham Qumri singari «Voy, o'la qolay!» deb qaytib ketishi kerak edi. Holbuki, u o'zini bilmasdan va hech narsa o'ylayolmasdan, telba qadamlar bilan bitta-bitta bosib, ilgari yurardi... Uning oyoqlari allaqanday yomon bir kuchning afsuniga ilashganlar, o'sha kuchning sudragan tomoniga borardilar. Yosh qiz o'z ko'nglining birinchi marta o'ziga begonalashganini, o'zidan boshqa bir kuchning ko'ngliga egalik qilganini sezardi...

Zebi tegrasiga bir ko'z yugurtib olgach, qadam bosishini sekinlatib, katta tutning o'ng tomonida to'xtadi. Yigitcha chap tomonda edi.

Ikkalasi ham anchagacha jim qoldilar. Qaysi biri oldin gap boshlashni va nima deyishni bilmasdi. Nihoyat, yigitcha bir gap topgan bo'ldi.

— Bugun sahar... aravani qo'shamanmi?

— Nimaga?

— Ketmaymizmi?

Zebi javob berolmay qoldi... Bu savolga javob bo'lgunday bir so'z uning shu topda juda yomon g'ovlab ketgan miyasiga yaqin kelmasidi. So'zga-so'z qaytarmoq uchungina:

— Shoshiltirib nima qilasiz? — dedi va so'zlarning o'z og'zidan uzilib tushib borganini sezdi. Shu topda o'z ovozi ham o'ziga yot edi, shu so'zlarni aytayotgan ovoz uning o'z qulog'iga soyning narigi betidan kelayotganday eshitilardi.

Yigitcha o'zini to'xtatib olgan edi. Endi u dadillanib va kulib turib, qo'lini tutning o'ng tomoniga uzatdi. Faqat ikkalasining orasi ancha yiroq bo'lganidan boshqa bir qo'l uning qo'liga urinmadi. Holbuki, Zebi birovning qo'l uzatganini payqaydigan holda emasidi. Yigitcha Zebidan muqobala ko'rmagach, qo'lini tortib oldi va endi, bu safar bo'ynini egib, ikki ko'zi bilan qizni axtararkan, quvnoq bir ovoz bilan.

— Hali bir-ikki kun o'ynaymizmi? Otga dam beramizmi? — dedi.

Zebidan javob bo'lmagach, ilova qildi:

— Xayr, mayli, sizlar qachon «qo'sh», desanglar shunda qo'shaman.

Zebi tutga suyangan, o'zining qayda turganini unutayozgan, shuncha gapga bir og'iz javob bermasdan, og'ir o'ylarga tolgan edi. U shu topda o'zining yaqin kelajakdagi qora kunlarini, qay rangda ko'rinishi ma'lum bo'lmagan baxti, toleini o'ylardi. Uning butun baxti Razzoq so'fining johil vujudiga bog'li emasmi? O'sha sovuq so'fi shu quvnoq jonni va sayroq qushchani istagan vaqtida baxtli yoki baxtsiz eta olmaydimi? Uning bir og'iz «ha» yoki «yo'q» deyishi qiz bechoraning behad

quvnab yayrashiga yoxud, xazon yaprog'iday, bir nafasda so'lib, nobud bo'luviga yaramaydimi? Qiz sho'rlik, u bir umr qovog'i, o'yig'liq va yuzi kulmas otadan hech bir xayriyat kutmaydi. Otasi to'g'risida o'ylagan vaqtida o'zini o'limga mahkum bir odam, otasini mahkumaning jallodi kabi ko'radi... va titraydi! Bu qishloq sayohati, aravakash yigitcha bilan tasodifan tanishib qolishi, shu tanishuv orqasida ko'nglida sezgani besaramjonliklar bechora qizni haligidek qora o'ylarni o'ylashga majbur qilgan edi. U xil qora o'ylar uning uchun yangi emas, albatta. Yoshi balog'atga yetib uylari sovchilarning qatnov yo'llariga aylanganidan beri u sho'rlikning qora o'ylarga botmagan kuni yo'q! Faqat shirin bir umid bilan, ko'zda ko'rilib, qo'lda tutilgan — naqd bir umid bilan birga kelgan qora o'ylar qiz bechorani yomon ezib tashlaydi! Bir-ikki kundan beri ashula, o'yin deganda o'zini bilmas darajada berilib ketishi, shu iztiroblarning hordig'ini chiqarish uchun emasmi?

Ko'ngliga og'ir tashvishlar solgan yigitchaning shunday yonginasida juda shirin xayollar bilan birga juda qora o'ylarga botib turgan vaqtida birdaniga ayvon tomondan bir ovoz eshitildi:

— Hay, nima bu hammayoq jimjit bo'lib qoldi? Zebinisaxon qanilar? Saltanatxon, aylanay, o'rtoqjoningizni topmaysizmi?

Yana bir ovoz eshitildi:

— Rost-a, hammayoq muzlab ketdi! Hay, qizlar, sizga nima bo'ldi?

Birdan bir necha ovoz ko'tarildi:

— Zebinisaxon, Zebinisaxon!

Qizlar o'rinlaridan turib, u yoq-bu yoqqa yurishib qoldilar.

Bu qichqirishlar har qanday og'ir uyqudan uyg'otishga yarardilar, Zebi ham yarim mastlik holatidan seskanib uyg'ondi va apil-tapil javob qildi:

— Mana men... Hozir boraman... hozir...

Faqat bu safar uning ovozi kasal odamning ovozi singari darmonsiz va jonsiz chiqardi. Yigit buni angladi va tezgina:

— Boring, bemalol o'yin-kulgingizni qiling! Hech

narsadan qo'rqmang, hech bir g'am yeya ko'rmang! — dedi. So'ngra darhol o'zini tutning panasiga oldi.

U yoqdan bir-ikki qiz yugurib kelib, Zebini yetaklab ketishdi. Shularning biri mingboshining kichik xotini Sultonxon edi.

Bu safar faqat o'yin bo'ldi. Yosh juvonlar va qizlarning hammasini deyarlik tortdilar. Shaharliklardan yaxshi o'ynagan Qumri bo'ldi. Qishloq qizlaridan ikki-uchtasi yaxshi o'ynadilar. Hatto kampirlarni ham tortdilar. Enaxonning onasi, o'zi pakana va uning ustiga bukchaygan kampir, o'yin qilgan bo'lib hammani kuldirdi. Enaxonni ko'ndira olmadilar. U «men xizmatlaringdaman», degan bahonani qildi. Mingboshining qizi bir-ikki aylanib to'xtadi, kichik xotini esa ko'nmadi, uni ko'p ham zo'rlay olmadilar. Zebi esa dutorchilar va ashulachilar bilan birga yengil-engil yallalar qilib turdi. O'yin tamom bo'lib, palov dasturxoni yozilganda, oy ancha balandga ko'tarilgan edi. Oshdan so'ng qishloq qizlaridan o'ziga durustroq bir dehqonning qizi o'rnidan turib:

— Ertaga mehmonlarni biz kutamiz, — dedi.

Shundan keyin mingboshining kichik xotini Sultonxon katta kundoshining qizi bilan gapni bir joyga qo'yib, o'rnidan turdi va Enaxonga tomon yuzlanib:

— Bo'lmasa, mehmonlaringiz indinga biznikida bo'lishadi, — dedi, — tuzukmi? Endi bizga ruxsat!

U kundoshining qizi bilan birga ayvondan pastga tushib, kavshini kiya boshlagach, boshqa qizlar ham bitta-bitta o'rinlaridan turdilar. Shunday qilib, bu qiyomat yig'in kecha yarim bo'lganda, «guv-guv» bilan tarqaldi.

IV

Kundoshining qizi bilan apoq-chapoq bo'lib, uyiga qaytgan Sultonxon, mingboshining shaharga ketgan bo'yicha qaytmaganini bilganidan keyin, o'z uyiga kirdi va joy solib, yechinib o'tirmasdan, shundoqqina to'shakchaning ustida birgina yostiqqa bosh qo'yib uyquga ketdi.

Ertalab uyqudan ko'zini ochganida, bosh tomonida

yon qo'shni xotinlardan Umrinisabibi o'tirardi. Tez-tez chiqib, mingboshi oilasining ro'zg'or ishlariga qarashib ko'rpa va to'nlari bo'lsa, qavib, paxtalarini savab beradigan o'rta yoshlardagi bu xotin shu yo'l bilan kichik qiziga sep orttirardi. Katta qizini bundan ikki yil burun chiqargan, endi bu qizi odam ko'ziga ko'rinib kelardi.

Sulton ko'zini ochar-ochmas:

— Yaxshi chiqibsiz, Umrinisa xola, — dedi, — o'zim ham chaqirtirmoqchi edim. Ertaga Enaxonlarnikidagi shaharlik mehmonlar chiqishadi. Osh-suvga qarashib bermasangiz bo'lmaydi. Bugun bir-ikki tandir patir yopib olsak, deyman.

— Men ham shu to'g'rida siz bilan gaplashgali chiqib edim, — dedi Umrinisabibi.

— Juda yaxshi bo'libdi. Nonushtani qilib xamirga urina beraylik bo'lmasa. Bir-ikki joyga borib, dutor-mutor so'rab keladigan ishlaringiz ham bor hali.

Umrinisabibi o'tirgan ko'yi surinib Sultonxonga yaqin keldi:

— Men sizga boshqacha maslahat bilan chiqib edim... — dedi.

Bu so'zlar yarim pichirlash bilan va ham ko'zlar ikki tomonga alanglab turib aytilganidan kelinchakning ko'ngli duv etib ketdi. U ham Umrinisabibi tomonga o'girildi:

— Nimaga pichirlab gapirayotirsiz? Nima demoqchisiz? Yaqinroq kelsangizchi! Imillamay qoling, ilohim! — dedi.

Umrinisabibi endi kelinchakning xuddi qulog'iga egildi:

— Shaharlik mehmonlarni ertaga chaqiribsiz, eshitdim. Kecha kechqurun mening Bahrim o'sha yerdaydi...

Shu so'zni aytgach, u bir nafas jim qoldi. Kelinchakning kichkina, qop-qora va o'ynoqi ko'zlari keng ochilib, qo'shni xotinning og'ziga tikilgan edi. Umrinisabibi yana bir qur ko'zlarini jalanglatib olgach:

— Kishi degan o'z tomiriga bolta chopadimi? — dedi. — Kechasi bilan uxlayolmasdan, shuni o'ylab chiqdim...

Sultonxonning rangi o'cha boshlagan edi, ikki betida-

gi shapaloqday qiziliga so'lg'anlik yugurdi. Og'zi yarim ochilgan, ko'kragi bir yotib-bir turmoqda, darmoni tanidan uzoqlashib borardi.

— Gapiring tezroq... Nima demoqchisiz? — dedi u hansirash bilan.

Umrinisabibi bo'ynini imkon boricha cho'zib turib, ochiq eshikdan tashqariga qaradi. So'ngra, yana kelinchakning qulog'iga egilib, dedi:

— Kelin bo'lib kelganingizga endi besh oy bo'ldi. Halitdan boshingizga yangi kundosh orttirmoqchimisiz? Eringizning qayliqbozligini bilardingiz-ku!

Sultonxon:

— Voy, o'la qolay!.. Jinni bo'libman men! — deb qichqirdi va yuzini yostiqqa qo'yib, chap qo'li bilan boshiga mushtladi...

— Yoshlik qilibsiz, aylanay. Bilmabsiz. U ashulachi qizning dovrug'i dunyoni bosdi... Hammaning og'zida o'sha. Eringizday uchiga chiqqan xotinboz u bulbulnikiday ovozni o'z qulog'i bilan eshitsinu darrov sovchi qo'ymasin — bo'ladimi, qalay?

Kelinchak birdaniga yotgan yeridan turib, Umrinisabibining yelkasiga osildi:

— Nimasini aytasiz, xolajon? Men esimni yebman, esimni!.. Endi nima qildik, endi? Aytsangizchi, nima qildim endi men?

Umrinisabibi uning boshini muloyim-muloyim siladi:

— Endi hovliqmang, — dedi u, — bo'lar ish bo'ldi. Bir ish qilib zarar yetadigan tomirini kesaylik!

— Endi iloji bormi, qalay?

— Shoshmang, o'ylaylik. Bir maslahat topilib qolar.

Ikkalasi jim qolib, o'yga botdilar. Umrinisabibi oq doka ro'molining uchini tugimlab o'ylanar ekan, kelinchak esa qo'lidagi tilla uzugini barmog'idan olib, o'sha bilan o'ynarkan, xayol surardi. Birdaniga tilla uzukni o'zi ko'zi oldiga olib bordi, u yoq-bu yog'ini aylantirib, xo'p qaragandan keyin sekingina qo'l uzatib, uni Umrinisabibining sinchalag'iga kirgizib qo'ydi. Bu vaqtda zo'r berib o'y o'ylamoqda va tadbir axtarmoqda bo'lgan Umrinisabibi tilla uzukni o'zga qo'ldan o'z qo'liga o'tganini ikki ko'zi bilan ko'rib tursa-da, bu kat-

ta topishning qimmatini payqayolg'ani yo'q edi. Keyin uzukka qarab turib, uning qanday qimmatli narsa ekanini, qizi Bahri uchun zo'r bir davlat qozonilganini eslagach, sevinchdan yuzlari alvon tovlab ketdi va tezgina uzukni barmog'idan chiqarib, ro'molning uchiga mahkam tugib qo'ydi.

— Qani, gapiring, xola!

— Nima deyishimga hayronman... Mehmonlarni chaqirib qo'yibsiz. Endi, bir iloj qilib, qaytarish kerak. Kundoshlaringizga bildirmasdan ish tutish kerak. Xayriyatki, kundoshingizning qizi chaqirmabdi. U chaqirganda, yomon bo'lardi.

— Men o'lgur, o'sha kuni Zebixonning ovoziga mast bo'lib, hech narsani o'ylayolmabman-da! Kundoshimning qiziga: «Siz chaqirsangizmikan, men chaqirsammikan?» deb maslahat solibman-a! Meni qarang! Xayriyat, u qiz eslilik qilib: «Men buvimdan beruxsat mehmon chaqirmayman. Siz kattasiz, o'zingiz chaqiring», dedi...

— Aslini o'ylaganda, u ham esipastlik qilibdi. Lekin uning bu esipastligi — sizning foydangiz.

Umrinisabibi bir ozgina jim qolgach, yana kelinchakning quloq'iga egildi:

— Endi siz, bir ish qilib tobingiz qochgan bo'lasiz-u, men borib, Enaxonga aytaman. «Boshini ko'tarib qolsa, men o'zim xabar qilaman», deyman. Shu bilan qolib ketadi... Mehmonlar bugun-erta qaytib ketishar emish. Zebixon juda so'fi odamning qizi ekan. Otasi bir-ikki kunga bazo'r ijozat bergan emish...

Kelinchak hali ham o'ziga kelmagan edi, yana Umrinisabibining bo'yniga osildi:

— Qanday bo'lar ekan? Juda xunuk bo'ladida. Butun qishloqqa gap tarqaladi... Bu kundoshlarim, deng, tarqatmay qo'yishadimi? Boshqa bir ilojini topsak, yaxshi bo'lardi.

Kelinchak Umrinisabibining ko'zlariga bir oz tikilib turgach:

— Shu topda onam notob bo'lib chaqirtirsa, xafa bo'lmas edim! — dedi.

— Bo'lmasa, onangizni kasal qilaylik. U sizni jadal-

latib chaqirtirsin. Siz uzr aytib, jo'nay bering... Shu shaharlik qizlar ketguncha onangiznikida turganingiz ham yaxshi.

— Buni qanday qilamiz?

— Bu oson. Men hozir paranjimni yopinib, sizlarnikiga jo'nayman. Hamma gapni onangizga uqtirib, tezdan qaytaman. Orqamdan dumma-dum odam keladi, siz keta berasiz. Kech payt men o'zim kirib, Enaxonga aytib qo'yaman.

Kelinchak bu maslahatga tamom qoyil bo'lgan edi. Umrinisabibining ko'zlaridan o'pdi:

— Bu yaxshiligingizni bir umr unutmayman, xola,- dedi. — Qizingizni, xudo xohlasa, o'zim to'y qilib, o'zim uzataman! Siz darrov jo'nang! Ana, mistovoqda non, likopchada mayiz bor, nondan, mayizdan olib, yo'lga tushing! Tez bo'ling, jon xola!

Umrinisabibi irg'ib o'rnidan turdi, non bilan mayizning hammasini ro'molchasiga tugib, uydan chiqdi. Uning uydan chiqib, o'z hovlisiga tomon ketayotganini kelinchak eshik oldida kuzatib turdi.

Tashqarida kundoshlardan biri Umrinisabibidan nima qilib yurganini so'ragan bo'lsa kerak, u kichkina darichani ochib, bir oyog'ini o'z hovlisiga qo'yarkan, baland ovoz bilan:

— Sultonxon ertaga mehmon chaqirtirmoqchi ekan, shunga qarashib beray, deb chiqib edim! — dedi.

Bu baland va keskin ovoz Sultonxonning qulog'iga juda xush yoqar edi...

* * *

Ashulachi qizning o'zlarinikiga mehmon bo'lib kelajagini eshitgandan beri mingboshining o'rtanchi xotini Poshshaxon juda xursand edi. Faqat erining shaharga ketib, bedarak yo'qolganiga achinardi, Shaharda bo'lmasdan shu yerda bo'lsa, bir ish qilib, shaharlik qizning ovozini unga eshittirish va shu yo'l bilan kundoshning ustiga kundosh keltirish qiyin emasligini yaxshi bilardi. Erining xotinbozligi esa bir unga emas, butun dunyoga ma'lum edi. Zebini bir ish qilib mingboshiga olib berish ustida o'zining burungi dushmani, ya'ni katta

kundoshi Xadichaxon bilan ittifoq boshlashdan ham tortinmasidi. Shuning uchun bo'lsa kerak, bugungi nonushtani uning uyida qildi, eng mahram sirlarini aytgan bo'lib, uni o'ziga moyil qildirishga urindi.

— Eringizdan shu choqqacha darak yo'q-a? — dedi u kulib turib.

— Ha, eringiz shaharda qolib ketdi. Bilmadim, yana bitta-yarimtaga nàzari tushdimikin?

— Nazarlari qursin u kishining? Hadeb tusha berar ekan-da...

— Siz-biz «tushmasin», deganimiz bilan tushmay qolarmidi? Xudo o'zi tushadigan qilib yaratgan ekan-da.

— Xudovandi karim bu erkaklarni muncha yaxshi ko'rar ekan, a...

— O'zimizdan qiyos-da... Oramizda erkakni yaxshi ko'rmaydigan kim bor?.. Nondan oling! Qiyomga qarab o'tirsangiz-chi...

— Non bilan qiyom har kun bor. Boshqa dardlardan gapirishaylik.

— Non bilan qiyom har kimnikida yo'q. Bu ham bornikida bor. Shukur qilsak bo'ladi...

— Ming qatla shukur-ku-ya... O'z boshingizdan o'tgan, bilasiz, ko'ngilni timtalagan bir narsa bor...

— Mening ko'nglim timtalanib-timtalanib, ado bo'lgan, aylanay... Ko'nglimdagi olovning quruq kuli qolgan, xolos. Endi xudoning taqdiri bilan, mening kunlarim sizning boshingizga tushibdi. Insof qilganda, aylanay, bu kunni xudo hech bir bandasining boshiga keltirmasin. Nondan olib o'tiring...

Poshshaxon o'z kundoshining bu gaplaridagi achchiq kesatmalarni to'ppa-to'g'ri o'z bag'riga borib sanchiladigan nayzalar bilib va sezib o'tirardi. Chinakam, bir zamon o'zi shu bechora xotinning ustiga kundosh bo'lib kelib, uning yuragini timtalagan, uni rashk va ko'rolmaslik olovlarida yondirgan edi. U vaqtda o'zi — kuldi, ochildi, quvondi, gerdayib, osmondan qarab qadam bosdi... Xadichaxon esa ezildi, kuydi, o'rtandi, xo'rlanib-xo'rlanib achchiq-achchiq yig'ladi. Faqat hali bo'yida bo'lmay turib, o'zining peshonasiga ham kundosh bitdi. Butun g'ururi sindi,

gerdayishi poymol bo'ldi, sevinchi so'ndi, yuzi so'ldi, lablari xazon rangiga bo'yaldi, umidlari uzildi, oyoqlari zo'rg'a-zo'rg'a sudralib jiladigan holga keldi. Sultonxon kelgandan beri uning lablari ikki tishi orasidan chiqmas, ko'zlari sal narsaga yosh olib yuborar, ko'kragidagi devlar irg'itgan og'ir toshlardan biri ko'ndalang kelib yotardi... Durust, qorni to'q, ust-boshi joyida, qavat-qavat sarpo, og'ir mehnat yo'q... Lekin yonginasida boshqa bir yulduz charaqlab, ko'zlarini qamashtirib turgandan keyin bu davlatlardan nima foyda?

Xadichaxonning bu haqli kesatishlaridan keyin cho'kkan og'ir bir jimlik ichida faqat og'izlargina quruq nonni chaynashdan chaloplar ekan, Poshshaxon bu narsalarni o'ylardi. Bugun o'zining eski dushmani oldida dushmanning haq ekanini iqror qilish, albatta, yengil emasidi. Faqat narigi — kichik kundosh, mingboshining kumush kamarida eng a'lo naqsh bo'lib yonib turganda, bu zararsiz kundoshing haqligini iqror qilib va uning siniq ko'nglini ovlash, shu bilan uni qo'lga olmoq, hozir ikkala xotin uchun baravar kundosh bo'lgan kichik xotinga qarshi o't ochmoq lozim edi. Bo'shalgan piyolani chertib, uzatarkan:

— Aytganingiz rost, — dedi Poshshaxon, — aytgan gaplaringiz achchiq bo'lsa hamki, rost. Bu to'g'rida men sizga hech narsa deyolmayman, ayniqsa, men kelganda bolalik edingiz siz... Bilaman.

Kundoshining qo'lidan sovibroq qolgan bir piyola choyni oldi-da, bir-bir ketin ikki-uch ho'plab, bo'shalgan piyolani yana qaytardi. So'ngra davom etdi:

— U yog'ini o'ylaganda, na sizda ayb bor, na menda. Qaysi birimiz bu odamga o'zimiz xohlab tegibmiz? Hammamizni ota-onamiz bizdan so'ramay-netmay uzatgan. Bizning ko'z yoshlarimizga kim qaragan, deysiz?

Shu yerda Xadichaxon e'tiroz qildi:

— Yo'q, unday demang. Men, o'zim xohlab tekkanman. U vaqtda kuyovingiz yosh edi, muncha katta amaldor emasidi, nihoyati ellikboshi edi. Birinchi xotinidan bola bo'lmagan ekan, ikki-uch yil umr qilishganlaridan

keyin xotini o'lib ketgan. Meni olgan vaqtida: «Sen ko'z ochib ko'rganimsan», derdi... Mening hech bir noliydigan yerim yo'q edi. Toleimdan xafa emas edim, bu orada mana bu Fazilat tug'ildi. Bola degan ota-onani birbiriga bog'laydi... Fazilat tug'ilgandan keyin men juda xursand edim. Xuddi o'sha paytlarda onam o'ldi. Otam hajga ketib, u yerda qoldi. Shuncha musibatlarni qiynalmasdan o'tkazdim. Nimaga desangiz, uyimdan ko'nglim to'q edi...

Shu yerga kelganda, Xadichaxon ko'ziga yosh oldi, shapaloq gulli obiravon ko'ylagining uzun yengi bilan ko'zlarini artdi. So'ngra yoshli ko'zlari bilan tashqaridagi so'rida ochiq-sochiq yotgan va boshiga oftob tushib qolgan Fazilatga qaradi. Choynakdagi so'nggi ikki ho'plam choyni quyib, bir hamlada ichib bitirib, choynak-piyolani narigi yoniga olib qo'yganidan keyin so'zida davom qildi:

— Buningiz amaldor bo'lgandan keyin aynidi. Mingboshilik yomon hovliqtirdi. O'z qishlog'ini tashlab, bu yerga ko'chdi. Bu katta hovlini sotib oldi. Mana bu katta imoratlarni soldirdi. Bog'-rog' qildi, yer-suv ko'paytirdi. Ko'ngli boshqa savdolarga, o'zga ko'ylarga tushdi... Bola ham ko'ziga ko'rinmadi, xotin ham. Yoniga «haybarakallachilar» kirishdi. Xotin topadigan, maslahat beradiganlar ko'payishdi. Bir haftaning ichida to'y qilib, mening ustimga sizni keltirib qo'ydi...

Shu yerga kelganda, Poshshaxon chidayolmadi:

— Men xohlab kelgan bo'lsam ekan... Oyog'imdan bog'lab, bir cho'riday olib keldilar. Tug'ilganimga, yoshligimda kasal bo'lib o'lib ketmaganimga o'kina-o'kina kelganman.

— Bilaman, aylanay, bilaman... U yog'ini so'rasangiz, bu ayol toifasining ko'pi ota-onaning zo'ri bilan erga tegadi. Shunday bo'lsa ham siz menga kundosh bo'lib kelgansiz-da...

— Kelmay o'la qolay men! Sizga kundosh bo'lib necha yil, necha oyim rohatda o'tdi? Sizku besh-olti yil rohat ko'ribsiz, armoningiz yo'q... Men sho'rlik bir yil ham yayraganim yo'q... Bir kechaning ichida to'y ovozi chiqdi-yu, ertasi kuni namozshomda Sultonxon kirib

keldi... O'lganim yaxshi emasmi bu kunimdan? Otam o'lgur muning yer-suviga, davlatiga qiziqdi, «yax»[1] deb turib oldi. Bu davlatlardan unga nima foyda?..

— Davlati qursin, davlati!.. Enaxonning kelinbibisiga rashkim keladi... Davlat asari yo'q. Ro'zg'orlari zo'rg'a o'tadi. Qo'zichoqday ikki bolasi bor. Eri hamisha yonida... Kundosh alami yo'q...

— Nimasini aytasiz...

Ikkovi ham jim bo'ldilar. Bir ozdan so'ng gapni yana Poshshaxon boshladi:

— Men chidolmayman aslo, men chidolmayman! Men aslo chidolmayman bu alamga!

So'ngra jalanglab tevaragiga qarab olgach, dasturxon ustidan kundoshiga egilib, dedi:

— Yana bittani olib berib, mana bu yashshamagurni qonqora qaqshatsam... Kibru havolarini sindirsam... shashtini qaytarsam... Hovliqishini bossam... Undan keyin sizning dasturxoningizni solib, qo'lingizga suv berib, qizingizning choklarini tikishib, xizmatingizni qilib yotardim! Xoh ishoning, xoh ishonmang!..

— Shu topda siz alamzadasiz, yolg'on aytmaysiz...

Kundoshlik olovlari, zotan, so'nib bitgan bu bolalik xotinga kechagi dushmanning bu kungi xushomadlari shirin eshitildi, Sultonxonning ustiga yana biri kelsa, demak, to'rtinchisi bo'ladi va kundoshlik alami yana ham yiroqlashadi. Shuni o'ylab, Xadichaxon kechagi kundoshining bugun yordam so'rab uzatgan qo'lini qabul qilishga yo'q demas edi. Faqat Poshshaxonning yana ham ochiqroq va aniqroq gapirishini, to'g'ridan-to'g'ri birlik taklifida bo'lishini kutardi. Kundoshi kutdirmadi:

— Qars ikki qo'ldan chiqar ekan! Ikkalamiz bir bo'lsak, Sultonni tuzlaymiz. Undan keyin kundoshlik alami, sizdan ikki pog'ona, mendan bir pog'ona yiroqlashadi. Ikkovimiz ham xotirjam bo'lib, opa-singil tutinamiz. Shu davlatni, qancha kerak, o'z qo'limizga olib, o'rtada baham ko'rishamiz. Yoshligimiz shamolga ketib bo'ldi... Endi davlatdan bir narsa olib qolaylik. Qariganimizda asqotadi...

---

[1] «Yo'q».

Xadichaxonning kutgan so'zlari shu edi. Zotan, u so'zlar uning o'z ko'nglidagi so'zlarning xuddi o'zi emasmidi? O'zi doim yolg'iz qolgan vaqtlarida doim shu to'g'rida o'ylab, shu xil tilaklarda bo'lmasmidi?? Demak, bugun ikkala kundoshning yuragi bir zarb bilan uribdi! Ikkala kundosh bugun bir-birlarini anglab, bir-birlariga qo'l uzatibdilar! Mundan yaxshi nima bor? Bir kishi qilolmagan ishni ikki kishi qila oladi. Ikki kishi qilolmaganini uch kishi qiladi. Gap o'sha uch kishining bir-biriga qo'l uzatib, maslahatni bir qilishida!

— Soz bir qizni to'g'ri qilsangiz, hali ham yo'q demaydi u fosiq! O'ylashaylik, bo'lmasa... — dedi Xadichaxon.

Kundoshi birdaniga o'rnidan turib, uning yoniga o'tdi va, xuddi jonajon o'rtoqlarday, qo'lini yelkasiga tashlab, betlaridan o'pib-o'pib oldi. Bu o'pish riyokor va aldamchi o'pishlardan emasidi. Balki, aksincha, chinakam va astoydil edi. Shu topda Poshshaxonning butun vujudini kundoshlik olovi o'rab olgan, ko'zlari olovning alangalari ila chaqnab yonmoqda, ikki yuzi uning harorati bilan qip-qizil cho'qqa aylanganidi...

Shu osilish va o'pishlar bilan o'zining astoydilligini bildirgandan keyin, Poshshaxon irg'ib o'rnidan turdi, yugurib borib, eshik va derazalarni qarab keldi-da, dedi:

— O'ylab o'tirish nega kerak? Dunyoning eng soz qizi o'z oyog'i bilan qishlog'imizga kelib o'tiribdi... U qizning o'zini ham mehmon qilib chaqirsak... tamom!

— Siz kimni aytayotirsiz?

— Enaxonning shaharlik mehmonlaridan Zebixon degan ashulachisini...

Xadichaxon tan berganday qilib kundoshiga qaradida, dedi:

— Topibsiz-a!.. Esingizga qoyilman! U qizning ta'rifini men ham eshitdim. Balo emish...

— Shunday bo'lgandan keyin bizning ishimiz yana ham yengillashadi. U qizni eringizga maqtab eshitdiradiganlar bizdan boshqa ham ko'p topiladi. Men bilan Sultonni maqtab yedirganlar shunday qizni aytmadi, deysizmi?

Tashqaridan yo'talgan ovoz eshitildi. So'rida yotgan

Fazilat o'rnidan turib kelayotir edi. Ikkalasi ham bu suhbatni shu joyda uzib, mayda-chuyda ro'zg'or gaplariga ko'chdilar.

Bir ozdan so'ng bet-qo'lini yuvib, Fazilat kirdi. U ostonaga qadam qo'yar-qo'ymas, onasi:

— Bet-ko'zingni yuvdingmi? — deb so'radi.

— Ha! — dedi qiz.

— Bo'lmasa, o'choqda kichik choynakda choy bor, ola kir. Nonushtangni qilasan.

Qiz choyni keltirib qo'yib, dasturxonga o'tirar-o'tirmas, gap boshladi:

— Kechasi charchab kelib, uxlab qolibman. Bo'lmasa, sizlarni uyg'otib, ko'rganlarimni gapirib berar edim.

— Nimalarni ko'rding? — deb so'radi onasi.

— Qani, gapirib bering-chi, — dedi Poshshaxon.

— Nimasini aytasiz! Zebixon degan bir ashulachi kelibdi, ovozini eshitsangiz, mast bo'lasiz!

Bular ikkalasi bir-birlariga qarashib, miyig'larida kulib qo'ydilar.

— Yana kimlarni ko'rding?

— Zebixon bilan kelgan boshqa qizlar ham biri-biridan yaxshi, biri-biridan soz, biri-biridan ochiq, biri-biridan quvnoq...

Onasi, «pix-x» etib, kulib yubordi va eshitilar-eshitilmas qilib:

— Pog'onani yana ham nariga cho'zsak bo'lar ekan! — dedi.

— Nima deb yotirsan, oyi? — deb so'radi qiz.

— Hech, — dedi onasi. — O'zimcha bir narsa dedim. Sen eshitmay qo'ya qol...

Bu hazilni o'rtanchi xotin anglagan va quvonib kulish bilan muqobala qilgan edi.

— Mehmondorchilik qanaqa bo'ldi? — deb so'radi onasi.

— Ha, dasturxondan keling, — dedi Poshshaxon.

— Kambag'alning dasturxoni nima bo'lardi? Non, patir, mayiz, o'rikqoqi... savzi qiyom... Oxirida zig'ir yog'i palov... bitta-yarimta go'sht uchrasa bor, bo'lmasa yo'q...

— Voy, o'la qolsin! — dedi Poshshaxon.

— Ha-ya! — dedi qizning onasi.

— Dasturxonga kim qarabdi, deysiz? — dedi Fazilat. — Hammaning aqli-hushi o'yinda, ashulada, qizlarda, haligi Zebixonda bo'ldi. To yig'in tugalguncha hech kim jilmadi. Hech kimning jilgisi kelmadi. Yarim kechadan keyin qaytib keldik. Biz kelganda, hammangiz dong qotib uxlagan edingiz...

— Dasturxoni muncha yomon ekan, sen chaqirmabsan-da, mehmonlarni. Biz bu yerda qiyomat qilib kuzatardik...

— Shuni ayting-a! — dedi Poshshaxon.

— Men sizdan so'roqsiz chaqirishga botinolmadim. Ikkovimiz maslahat qilishdik, ertagi kunga Sultonxon ayam chaqirib keldi.

Ikkala kundoshning ko'zlari birdaniga, o'g'il ko'rganini xabar olgan otaning ko'zlariday, ravshan bir olov bilan charaqladi. Ko'z himoyasi bilan bir-birlariga sevinchli xabar uzatishib oldilar. Ikkalasi bir-birini ko'z uchida qutladi.

— Sultonxon ayang? — deb so'radi onasi.

— Ha, Sultonxon ayam.

— Muncha eslik ekan Sultonxon ayang!

— Shunga ham es kerakmi? — dedi qiz.

Xadichaxon ko'zlarini ayyorlik bilan o'ynatib turib, kundoshiga qaradi:

— Gapni eshitayotirsizmi? — dedi. — Ertaga biznikiga shaharlik mehmonlar kelishar ekan! Sultonxon oyim chaqiribdilar. Sultonxon oyim...

Poshshaxon azaldan ayyor bo'lgan ko'zlariga besh barobar ravnaq berib turib, muqobala qildi:

— Mingboshi dodhoning suygulik xotinlari bo'lganidan keyin nima qilsa ta'bida! — dedi u. — Kim nima deya olardi? Haddi bormi, qalay?..

— Muncha eslik ekan bu Sultonxon ayang! — deb takror qildi Xadichaxon. — Muncha eslik ekan!..

Ikki kundosh o'sha ayyor ko'zlar bilan bir-birlariga qarashib, ma'nolik-ma'nolik kulishdilar.

Qiz bechora, bu kulishlarning nimaligini anglayolmasdan, hayron bo'lib, dam onasiga, dam kichik buvisiga qarardi...

* * *

Ma'lum bazm kechasining ertasi kuni Enaxon bilan mehmonlari qorong'i tushganda, mehmondorchilikdan qaytib keldilar. Mehmon qilib chaqirgan xonadon qishloqning narigi chekkasida yashaganidan bular ancha charchagan edilar. Zebi hammadan orqada qolib, qo'lidagi nasibani aravakashga berib kirgach, Enaxonning onasi o'z qizini xoli topib, Zebi to'g'risidagi fikrni izhor qildi:

— Bu Zebinisa o'rtog'ing topilmaydigan qiz ekan, bolam. Bir rahmdil, bir oq ko'ngil, bir ilinchakki, bu zamonning yosh-yalangi orasida kam topiladi. Shuncha joydan olib kelib, shuncha kundan beri poylab yotgan bechora aravakash bolani boshqa qizlarning bittasi ham esga olmadi, yo'qlamadi. Doim yo'qlab, xabar olib turgan Zebixon bo'ldi. O'zining qo'shnisi bo'lib turib Saltanatxon ham sira yo'qlamadi...

Bu so'nggi jumlani kampir past bir ovoz bilan yarim pichirlab aytgan edi, Enaxon:

— Rost, oyi! — dedi. — Zebixon o'rtog'im bu to'g'rida topilmaydigan, lekin...

Bu so'zlarni aytib turib, Enaxon o'zini tutolmadi va kulib yubordi. Kampir hayron bo'lib:

— Nimaga kulasan? Yo bilmay gapirdimmi? — dedi.

— Yo'q, — dedi Enaxon yana kulib turib, — juda bilib gapirdingiz. Men boshqa narsani o'ylab kulayotirman...

Qorong'ida paranji yopinib o'tirmasdan, ro'molini pana qilib, asta-sekin kirib kelayotgan Umrinisabibini eng ilgari Enaxon ko'rdi, yuzlarida hanuz o'sha kulishning alangasi ila tovush bergani holda, uni qarshi olgali yugurdi. Zotan, Umrinisabibiga Enaxondan boshqa hech kimning darkori ham yo'q edi. Qizning qo'ltig'iga kirib:

— Yuring bu yoqqa, aylanay, sizga ikki og'iz gapim bor, — dedi.

Enaxon uni ayvonga taklif qilib, bir piyola-yarim piyola choy ichishga va mehmondorchilikdan kelgan qatlamadan nasiba olishga chaqirsa ham sira ko'nmadi. Ikkalasi birga ho'... narigi, qo'shni devoriga yaqinlashganlaridan keyin Umrinisabibi qizni to'xtatib, dedi:

— Aylanay, qizim, bu gapni sizga qandoq qilib eshittirishga hayronman. Oraga tushmay o'layin men...

Bu muqaddimadan keyin Enaxonning ko'ngli sovuq bir narsa sezganday bezovta bo'la boshlagan edi.

— Nima gap o'zi? — deb so'radi u, tovushida ochiq bilinib turgan bir talvasa bilan.

— Meni Sultonxon yubordi...

Shuni aytgandan keyin Umrinisabibi so'zdan to'xtab, qizning yuziga qaradi. Qizning yuzi qorong'ida uncha ochiq ko'rinmasa ham, u haligi so'zning qizga qanday ta'sir qilganini anglamoqchi va shunga qarab so'z yuritmoqchi bo'lardi. Qiz, yana ham orta tushgan talvasa bilan, boyagi savolni takror qildi:

— Nima gap o'zi?

— Sultonxonning onasi birdaniga yotib qolibdi... Hali hozir otliq odam kelib, uni olib ketdi. Men erta bilandan beri o'shalarnikida osh-suvlariga qarashib yurib edim, birdan munaqa hol bo'lib qolgandan keyin meni chaqirib olib, «Endi men ketayotirman, noilojman, tezlik bilan borib, Enaxonga mening uzrimni aytib qo'ying», dedi... Paranjimni ham yopinmasdan, yugurib sizning yoningizga chiqdim.

— Endi, ertaga mehmonlarni chaqirish yo'qmi?

— Sultonxon o'zi bo'lmagandan keyin kim ham chaqiradi? U hovlida undan boshqa odamshavanda kim bor? O'zingiz bilasiz-ku, aylanay...

Bu sovuq xabar Enaxonga yomon ta'sir qildi. U nima deyishini bilmasdan, o'ylanib qoldi. Bergan xabarning yomon ta'sirini ko'rgan Umrinisabibi u ta'sirni kamaytirmoq uchun so'z to'qib ko'rdi:

— O'rtoqlaringiz omon-esonlik bo'lsa, yana kelisharku. O'shanda Sultonxon ertaning hissasini chiqarmay qo'ymaydi... Yaxshi bola u... Yotig'i bilan Saltanatxonga aytib qo'ysangiz, eslik qiz, o'zi tushunadi...

— Gapni cho'zish nima kerak, xola? — dedi Enaxon. — Bo'lar ish bo'libdi, mening sho'r peshonam ekan, mayli!

— Unaqa demang, aylanay! Hali yoshsizlar, talay suhbatlarni, talay bazmlarni, talay to'y-tomoshalarni ko'rasizlar. Sultonxonning achinganini aytmaysizmi?

— Endi achingandan nima foyda! Bo'lar ish bo'libdi... Mayli endi.

— Bo'lmasa, yaxshi qoling, men boray. Supralar, xamirlar shundoq ochiq-chochiq qoldi. Borib yig'ishtirib qo'yay. Kundoshlari, o'zingiz bilasiz, qayrilib qarashmaydi...

— O'tirib ketardingiz...

Enaxonning bu so'zlari labining uchidan chiqqan, muni Umrinisabibi ham payqagan edi.

— Yaxshi qoling, bo'lmasa! — dedi Umrinisabibi. So'ngra ayvon tomonga borib o'tirmasdan, devor bo'ylab tezgina ko'zdan yo'qoldi.

Enaxonning kechadan beri tortgan rejalari va qurgan xayollari buzilgan edi. Endi sevgili o'rtoqlarini ko'ngildagidek xursand qilib jo'nata olmasidi. Hech kimga hech narsa demasdan, kelinbibisini chaqirdi va bo'lgan voqeani unga anglatdi. U ham Enaxonning xafaligiga qo'shildi, lekin boshqa biror iloj ko'rsatishdan ojizlik qildi.

Ikkalasi juda uzoq gaplashdilar, har xil yo'llarni axtarib, har turli maslahatni qilib ko'rdilar, hech biri epaqayga kelmadi. Oxirda, ertaga erta bilan haligi xabarni sekingina Saltanatga bildiradigan, agar mehmonlar o'zlari ketmoqchi bo'lsalar, «yo'q» demasdan, ularga ijozat beradigan bo'lib, shu maslahatda to'xtaldilar.

Faqat ertalabgacha mehmonlarga hech narsa demadilar. Ular borgan joylaridan charchab kelishib, o'tirgan o'rinlarida shundoqqina uzanib qolgan edilar.

Erta bilan nonushta chog'ida Enaxonning onasi qiziga qarab:

— Qizim, bugun mehmonlaringni Sultonxonlarnikiga olib chiqarsan-a? — deb qolmasinmi! Bu savol qizni ham, kelinni ham shoshirib qo'ydi, chunki kechagi xabar hali hech kimga eshittirilmagan edi. Uni nonushtadan keyin Saltanatxonning o'zigagina izhor qilmoqchi emasmidilar? Endi bu sodda kampir u «dard»ni ko'pchilik oldida ochib qo'ydi. Qiz, talvasasini berkitishga tirishgani holda, kelinbibisiga qaradi. Kelinbibisi bu qarashning ma'nosini darhol angladi va kampirga javob qaytardi:

— Sultonxonlarniki sal chuchmal bo'lib turibdi... Endi, mehmonlarimiz qayerni xohlasalar, o'sha yerga olib boramiz-da... Bo'lmasa, shu yerning o'zida yana yozilishib o'tiramiz.

Kampir o'rinsiz savoldan yana to'xtamadi:

— Sultonxonlarniki nega chuchmal bo'ladi?

Enaxon bilan kelin endi haqiqatni ochmoqqa majbur edilar. Enaxonga qarab olgach, kelin davom etdi:

— Sultonxonning onasi birdan notob bo'lib qolibdi, qizini kecha oldirib ketgan ekan. O'zi u yoqda, qanday bo'lar ekan, deb turibmiz.

Saltanat endi og'iz ochdi:

— Biz aravani qo'shtirib jo'nasak ham bo'lar edi.

Shaharlik qizlardan ikkitasi bu fikrga qo'shilishdi. Faqat Zebi Saltanatning yelkasiga turtib, qulog'iga sekingina shivirladi:

— Muncha shoshilasiz? Nimangiz qolibdi shaharda? Necha yildan bir kelib ham tuzukroq yozilmaylikmi?

Shu vaqtda, salom berib, mingboshining qizi Fazilatxon kelib kirdi. Yoshlar uni o'rinlaridan turib qarshi oldilar-da, dasturxonga taklif qildilar. Qiz ko'nmadi, ayvonning yonginasiga kelib to'xtadi-da, tik turgani holda dedi:

— Men mehmonlarni aytgali chiqdim. Sultonxon ayam onalari kasal bo'lib, ketib qoldilar. Oyim bilan Poshshaxon ayam mehmonlarni o'zlari chaqiradigan bo'lishdi. Bugun kechqurun, albatta, chiqasizlar!

So'ngra xayrlashib, chiqa boshladi.

Uni to ko'cha eshigigacha uzatib chiqqan Enaxonning besaranjom ko'ngli yana o'rniga tushgan, tashvishlik yuzlariga sevinch qizilliklari yugurgan edi.

V

Akbarali mingboshining belida kumush kamari, yonida kumush sopli qilichi, ustida zarbof choponi bo'lmasa, hech kim uni amaldor demaydi. Oddiy kiyimda ko'rganlar yo oddiy bir qishloq boyi, yo Yettisuv bilan aloqasi bor qo'ychi, yo bo'lmasa, yaylov tomon bilan ish ko'radigan tuyachi, deb o'ylaydilar. Chakka suyaklari turtib

chiqqan, peshona — bo'yiga tor, eniga keng va ham uzun-uzun uch chuqur ajinga ega.. Burun o'rtacha, lekin qanshari past... Ko'z qisilibroq kelgan, parda tomirlaridan ikki-uchtasi va ham ikkala ko'zining bir yonida jindak joyi hamma vaqt qizil, bir ko'zida picha shapag'liq asari ham bor... Iyak — keng, jag' — sergo'sht. Juda siyrak bo'lgan soqol iyakning o'rtasigagina to'planib, echkiniki singari, pastga tomon sangillab tushgan. O'zi qoraroq xotin uchrab, bir chang solsa, hech narsa qolmaydi! Mo'ylov ham soqol singari siyrak. Usta To'xtashning «asrdiyd» do'kati ikki kunda bir qirib turganligidan lab ustidan kalta va tekis bo'lsa ham, umuman o'zi, yarmidan ko'pi yiqitilgan daraxtzor singari, xunuk ko'rinadi, ikki uchida oltitadan o'n ikkita uzun qil, sichqonning dumiday, ingichka bo'lib pastga cho'zilgan... Do'kat bilan ikkala tomonga ikki marta qo'l tegizilsa, u sichqon dumlaridan asar qolmaydi, shu bilan mo'ylov masxaraboz kepatasidan chiqib, odam nusxasiga kiradi. San'atiga berilgan usta To'xtash taassuf berilgan narsani yig'ishtirib qo'yib, «san'at san'at uchun» degan nazardan qarab... Akbarali mingboshiga mo'ylov to'g'risida haligi taklifni qilgan bo'lsa-da, shunday katta bir amaldor ham xalqning ta'nasidan qo'rqib, usta To'xtashning taklifini rad qildi. Shu bilan u masxara mo'ylovlar ayanch bir kepatada sangillagancha qolib ketdilar... Mingboshini bu baland darajalarga ko'tarib, uning vositasi bilan o'z dimog'larini ham chog' qilib turadigan shahardagi to'ralar, uning ikki chakkasida sangillab turgan u ingichka «kokil»larni «ikki osilganlar», deb piching qilardilar... Bu soddadil «sart» amaldori muningdek pichinglarga tushunmasa ham, piching qiluvchi to'ralarning o'zlari mashhur rus adibining[1] «Yetti osilganlari»dan ham so'zda, ham ishda juda yaxshi xabardor edilar...

Akbarali mingboshi o'zi yolg'iz qolib «vijdoni» bilan qarshima-qarshi kelgan vaqtlarida, Miryoqubning ulug' xizmatlarini insof bilan esga olar, unga har to'g'rida minnatdor bo'lganini o'z «vijdoni» oldida iqror qilardi. Chinakam, burungi mingboshiga yaxshi bir uloqchi otni

[1] Leonid Andreyevning «Yetti osilganlar qissasi» nazarda tutilyapti.

bekorga olib bergani uchun ellikboshilikka istihqoq qozonganidan keyin, rosa olti yillik umri o'z qishlog'i bilan mingboshining mahkamasi o'rtasida daftar ko'tarib, ot chopish, qishloqdan odam haydab chiqib, katta yo'lga suv septirish bilan o'tdi. Bu olti yilning mobaynida bir uloqchi otning emas, necha uloqchi otlarning hissasi chiqarilgan, burungi besh-to'rt tanob yerga yana bir necha besh-to'rt tanob yer qo'shilgan bo'lsa-da, ellikboshilik, har qalay, mehnat, urinish va yugurib-yo'rtishni talab qiladigan amallardan edi... Shu chun mingboshi bir yil kuz faslida Ostanaqul boyning katta bir qovun sayil qildirganini sira esidan chiqarolmaydi, Miryoqub bilan o'sha sayilda uchrashib tanishgani uchun sayilni esdan chiqarishga «vijdoni» yo'l qo'ymaydi...

Bu orada ko'p narsalar mingboshining xotiridan faromush bo'lganlar... U, faqat, qovun sayildan ikki kun keyin Miryoqubning uyiga ikki arava qovun-tarvuz bilan ikki zambar uzum, ikki chorakkina qayroqi bug'doy yuborganini eslaydi. Agar xotirasi yanglishtirmasa, shundan keyin biror oy o'tar-o'tmas, bir kun erta bilan kumush kamar bog'lab uydan chiqqanini, undan bir kun burun, kechasi darvozasi oldida shon-shalopli bir mirshabning poyloqchi bo'lib chiqqanini biladi. Mingboshi bo'lganidan keyin oz fursatda Miryoqub turgan qishloqdan hozirgi hovlini sotib olib, u yerga ko'chib bordi. Boshqa gaplar allaqachon esidan chiqib ketgan...

Yurtning keksa odamlari o'zaro so'zlasharkan, bu mamlakatda hech bir xon va xonvachchaning muncha uzoq yurt so'ramaganini so'zlaydilar. Mallaxonlar, Xudoyorlar, Nasriddinbeklar yurt ustidan bahor bulutlari kabi kelib ketgan edilar. Akbarali mingboshi, mana, o'n uch yildan beri shu masnadida o'tiradi, davlati, obro'si, nufuzi tobora oshsa oshadiki, kamimaydi.

— Xudo bergan-da, xudo! — deyishadi keksalar. — Xudoyo «ol, qulim», desa, hech gap emas.

Shundayda ba'zi bir yosh-yalanglar:

— Xudo hadeb shunaqa insofsizlarga berar ekan-da! Biz, bechoralarga ham bir narsa uzatsinchi! — deb qolishadi.

Buni eshitgan keksalar tayoq ko'tarib, yosh-yalang

ustiga yugurishadi, bechora yoshlar tayoqdan o'zlarini olib qocharkan, bir-birlariga qarab piching otishadi:

— Nimaga qochasan? Xudo senga ham berayotir, olmaysanmi?..

Yurtning keksalari butun bu davlat, hukumat va ulug'likning — bir og'iz gapini silliq va yoqimli qilib gapirolmaydigan sodda va to'ng odamga birdaniga «nasib va ro'zi» bo'lib qolishida Miryoqub akaning katta hunari bor ekanini yaxshi bilishadi. Shu uchun Miryoqub aka ko'cha-kuyda ko'ringanda, unga beriladigan salom va qilinadigan ta'zimlar, mingboshinikidan kam bo'lmaydi. Faqat shu qadarisi borki, mingboshi u yoq-bu yoqqa juda kam yuradi, yursa ham mirshablarini orqasiga ergashtirib, kechasi yuradi; kunduzlari bo'lsa, faqat shahardagi ulug'vor chaqirtirganda, zarbof choponlarini kiyib va tatti samanni yo'rg'alatib o'tadi. Unga salom berish va ta'zim qilishdan bellarga og'irlik kelmaydi: chunki oyda bir, o'n kunda bir egilib qo'yish hech gap emas. Ammo Miryoqub akaning yurishi ko'p! U, aksari, piyoda yuradi, yurganda ham negadir shoshilib yuradi. «Assalomu alaykum!», deb dona-dona qilib salom bersangiz, shoshilganidan bo'lsa kerak, «vass...», debgina qo'yadi. Shu bilan birga, siz tomonga bo'ynini qiyshaytirib, juda kichiklik bilan alik oladi, doim kulimsirab turgan ko'zlarini siz tomonga qiyagina bir tashlab olib, yo'rg'alaganicha ketadi... Jinqarchaday hammavaqt va har qayda ko'rinib qoladigan bu «asl mingboshi»ga salom bermoqdan bellaringiz toladi...

Do'konidan har narsa topiladigan bir baqqolga «farang baqqol» deb nom qo'ygan keksalar har ishda qo'li bo'lgan bu odamga «Miryoqub epaqa» laqabini berib, xato qilmaganlar. O'zlari ham bu laqabning to'g'riligini osongina isbot qiladilar:

— U aralashmagan ish epaqaga kelmaydi...

Mingboshining yer-suvi shu qadar ko'pki, hisobini o'zi ham bilmaydi. Lekin xudo bu sevgili quliga davlatni ikki qo'llab uzatsa-da, farzand to'g'risida bir oz o'ksitib qo'ygan. Darhaqiqat, katta xotinidan bo'lgan qizi Fazilatdan boshqa uning farzandi yo'q. Muncha katta davlat kimga qoladi? Yetti yot begonalarga, zurriyoti

yo‘q ayollargami?.. Mingboshi, mana shu amalga iloj axtarib bo‘lsa kerak, bir-ikki yil ichida yosh xotin oldi. Boladan darak yo‘q... Shu chun, ba’zida, o‘zi yolg‘iz qolib, mehmonxonaga berkinganida va hatto o‘z soyasining ham eshitmoq ehtimoli qolmaganda:

— «Bu qiz o‘lgur ham boshqadan bo‘lmasin...», deb qo‘yadi...

Miryoqub uning yoshi anchaga borib qolganda, bunday xotinparast bo‘lib ketishiga shu farzand xususidagi noumidlik sabab bo‘lmaydimikan? deb ba’zi-ba’zida o‘ylab qo‘yadi. Bir kun noyib to‘ranikida (uezd hokimining o‘rinbosarinikida) ichkilik qilib o‘tirishgan edilar, ichkilik quyilmasdan oldinroq noyibning onasi o‘z nevarasini olib kirib qoldi. U — tilla sochli, tarvuzday dumaloq, o‘zi lo‘ppigina va oppoq momiqday bir bola edi. Mingboshi bolani darhol qo‘liga oldi va, o‘z aqidasicha, «kofir»ning va «o‘rus»ning bolasi ekaniga qaramay, mahkam bag‘riga bosib o‘pdi... Bola mingboshining basharasidan qo‘rqqan bo‘lsa kerak, jon achchig‘ida yig‘lay boshlagan edi... Bolani olib chiqib ketdilar. Shundan so‘ng mingboshi bir-bir ustun quyib icha berdi, icha berdi... Miryoqubning imolari, ishoratlari, uy egalariga eshittirmay qilgan tanbehlari, hatto do‘qlari... hech bir ta’sir qilmadi. Mingboshi tamom mast bo‘lgach, «Bolani olib kelinglar», deb so‘radi. Bolaning onasi bu badmast odamga o‘z to‘qlisini bermoq istamas edi. Nihoyat, mingboshi yalinib-yolvorib so‘ramoqqa majbur bo‘ldi. Hatto ko‘zlariga yosh oldi... So‘ngra noyibning amri bilan bolani uyg‘otib keltirdilar. Faqat bu vaqtda mingboshi o‘zidan ketib, divanga ag‘anagan edi...

Farzanddan va esdan mahrum, lekin yer-suv, pul va boshqa boylikka ko‘milgan bu odamning butun borligi Miryoqubning qo‘lida edi. Yerdan chiqqan hosilning qanchasi o‘z qo‘liga kirib, qanchasi Miryoqub omboriga to‘kilganini mingboshi o‘zi hech qachon bilgan emas. Kerak bo‘lganda, mingboshi Miryoqubdan pul so‘rab olar, un, gurunch, go‘sht, yog‘ va ro‘zg‘orning boshqa keraklarini bo‘lsa ichkarining talabiga qarab yana

Miryoqub tayyorlab berar, shu uchun jonning rohatidan boshqani bilmagan mingboshi undan narisini surishtirmas edi.

Miryoqubning topishi yolg'iz shu mingboshi orqali bo'lsa, unga «epaqa» nomini qo'yish to'g'ri bo'larmidi? Miryoqubning qilmagan ishi yo'qligidan shu nomni bergan edilar. Qishloqda ikkita baqqollik, bitta qassoblik do'koni, guzarda ikkita samovar bor. Bilgan odamlar bu besh muassasadan to'rti Miryoqubning kuchi bilan aylanganini so'zlaydilar. Shaharda katta yo'lning bo'yiga — qo'rg'on tashqarisiga bir yangi paxta zavodi tushdi, zavodning kattakon bir paxta saroyi ham borki, paxta terim vaqtida uch tarozi bilan paxta oladi. Ana o'sha zavodga ham Miryoqubni sherik, deydilar. Voqean, uning ikki g'ildirakli sariq faytonchasi va sariq yo'rg'asi aksar zavod oldida bog'langan bo'ladi. Shahardagi katta bankalardan birida «uchyot qo'mitasi»ning a'zosi, haftada bir majlis o'tkazadi... Shu bilan birga, uning biror joyga chaqa soliq to'laganini, biror kasbga biror marta «qizil qog'oz» (patent) olganini hech kim bilmaydi.

Mingboshining boshiga ne qora kunlar kelmadi! Yaxshi advokatlar tomonidan bitilgan g'alati arizalar qanday tergovchilarni keltirmadi! Qanday zo'r to'ralar chaqirib so'ramadilar! Hokim necha martalar g'azab bilan chaqirtirmadi! Unday vaqtlarda mingboshi Miryoqubning ta'limi bilan hamma savollarga «bilmayman», deb javob berar yoki biror ayb-isnod qilinsa, tonib tura berardi. Rasmiy so'roqlar bu xilda borganda, orqadan Miryoqub g'ayrirasmiy yo'llar bilan so'roq berar, bir-ikki kun shaharda qolib, qishloqqa qaytganida, mingboshining ustidan har qanday og'ir tog' ham ag'anagan bo'lardi. Mingboshi qaysi bir to'ranikiga borsa, Miryoqub, albatta, birgalashib boradi; «bu nimaga kerak?» deb so'ragan odam yo'q. Axir, Miryoqub amaldor bo'lmasa, loaqal mingboshiga mirza yo tilmoch bo'lmasa, o'zi o'rus tilini tuzuk-quruq bilmasa... nega munaqa mingboshining ketidan elchib yurardi? Nega?

Miryoqubning ko'p umri mingboshinikida o'tadi, o'zining hovlisi ham shu qishloqning o'zida-ku, lekin chekkaroq joyda. Kechalari uning hovlisida bir-ikki mir-

shabning poyloqchilik qilib chiqqanini gapiradilar, faqat muni o'z ko'zi bilan ko'rgan kishi yo'q, bo'lsa ham ochib gapirmaydi, yo... gapirolmaydi!

* * *

Bir kun Miryoqub noyib to'raning uyida edi. Bu safar olib borgan hadyasi to'raga nihoyat darajada yoqib ketgan bo'lsa kerak, to'ra uni uzoq olib o'tirib, ko'p narsalarni gapirib berdi. To'raning tili charchab, Miryoqubning og'zida birinchi esnash asarlari ko'ringan ediki, tashqaridan bir odam kirib keldi./Ikki tomon yoqasiga tilladan bolg'a surati o'rnatilgan, novcha bo'yli, mosh-birinch soqolli, xushmo'ylov va bir ko'zi jindak g'ilaydan kelgan bu kular yuzli odam ma'ruf injenerlardan edi. Noyib to'ra bilan betakalluf ko'rishdi, Miryoqub bilan ko'rishib o'tirmasdan, to'ppa-to'g'ri stolning to'g'risiga o'tirdi va yumshoq kursini bir qo'li bilan qattiqqina qimirlatib ko'rgandan keyin, avval bilagidagi tilla soatga qaradi, so'ngra «da-da» deb cho'zib qo'yib, kursiga o'zini tashladi./

Shundan keyin noyib to'ra Miryoqub tomonga ishorat qilib va yangi mehmonga tomon burilib:

— Bizning Miryoqub bilan tanishmisiz, azizim? Noyob odamlardan! — degach, u odam o'tirgan o'rnida sekingina bosh silkib qo'ydi.

Miryoqub g'ururining kaltaklanishidan kelgan bir zaharxanda bilan kuldi, injener esa burungi kular yuzini ham no'qtalab oldi. Muni noib to'ra yaxshi payqadi shekilli, Miryoqubga xuddi mehribon otaning sevimli bolasiga qaraydigan qarashi bilan iliq va muloyim kulib qaradi. Miryoqub ham erka o'g'ildek muqobala qildi. Shu bilan bu suhbatning Miryoqub aralashgan ko'rinishlariga parda tortildi-da, ikkala bilimdon so'zga tushdi. Injener, bulbul singari, sayray ketdi, sayray ketdi!

Miryoqub advokat xalqining mahmadonaligini bilardi bu odamning advokat emas, injener bo'lganini ham ajrata olardi. Shu uchun boshda ularning tobora qizishayotgan suhbatlariga u ham qiziqib qaradi. Keyincha to'ra ham, — mehmondan yuqdimi nima? — tillarini burro qilib so'zlashga, mehmonning ko'p da'volarini aksi

da'volar bilan sindirmoqqa tushib ketgach, bizning Miryoqub sekingina qo'l uzatib, stolning bir chetida turgan katta bir kitobni oldi. Kitob surat bilan liq to'la edi, hech sharpa qilmasdan, uni bitta-bitta varaqlay boshladi.

To'ra Miryoqubni unutdi, go'yo u bu yerda yo'q kabi... Injenerning og'zidan, ba'zi-ba'zida sartlarga og'ir keladigan so'zlar chiqib ketganidagina, to'ra boyagi qarash bilan Miryoqubga qarab qo'yar, lekin unday fursatlarda uning ikki ko'zi kitobda bo'lsa ham ikki qulog'i, avrashga tushgan ilonday, dikkayganini to'ra bilmas edi.

Uzoq cho'zilgan bu suhbatda Miryoqubning qulog'i bir marta juda g'alati dikkaydi, hatto uning qop-qora chiroyli ko'zlarida allaqanday sehrli olovlar yondi. Uning boshi ham kitobdan ko'tarilib, yuzlaridan yengil bir qizillik yoyilib o'tdi. O'sha joyda sartlarni kamsitadigan gap o'tmaganligidan bo'lsa kerak, to'ra ham uzr so'ragan qarash bilan Miryoqubga qaramadi. Ikkala suhbatdosh o'sha joyda Miryoqubning quloqlarini dikkaytirgan so'zlarni unga va u mansub bo'lgan xalqqa aloqasiz bir narsa deb qaradilar, shekilli, xuddi Miryoqub shu yerda bo'lmaganday, o'z oralaridagina o'tkazib yubordilar.

Injener turib chiqib ketgandan keyin Miryoqub o'rnidan turdi va ketishga ijozat so'radi. To'ra u bilan xayrlasharkan, injenerning boyagi kamsitishlari uchun yana-tag'in uzr so'ragan bo'ldi. Miryoqub faqat kulibgina qo'ydi, boshqa hech narsa demadi. To'ra bu kulishni Miryoqubning xursand va rozi ekaniga yo'ydi va ko'ngli o'rniga tushdi.

Faqat Miryoqubning ko'ngli bir necha kungacha o'rniga tushgani yo'q. Bir injenerning (u, axir, noyib to'ra singari katta amaldor emas!), nihoyati bir injenerning bir-ikki marta sartlarni kamsitishi Miryoqubni shuncha bezovta qildimi? Yo'q, unaqa kamsitishlar har qadamda bor! Hammasiga bezovta bo'la bersa, Miryoqub bechora to'rt kunda sil bo'lib qolmaydimi? Yo'q, yo'q! Kamsitishlar o'sha onning o'zidayoq unutilgan, o'tgan yilgi qordek erib yo'q bo'lgan, bahordagi yomg'ir kabi asari ham qolmagan...

Injener o'sha suhbatda yangi — hali sir bo'lgan bir xabarni aytib edi: shu shahardan boshlab falon-falon joy-

larga poezd yo'li tushar ekan. Bir shirkat planlarini Peterburgdagi katta mahkamalarga topshirgan, ular tasdiq qilishga va'da berganlar. Allaqaysi bir bankka pul bermoqchi bo'lgan, tekshirish uchun yaqin orada injenerlar chiqar ekan. Imorat — bino ishlariga o'sha injenerni chaqirganlar.

Miryoqub poezdning qayerlardan o'tishini bilib olgan edi. O'sha suhbatda uning qulog'i bir dikkaydi, juda ajoyib dikkaydi, lekin! Ana o'shanda poezdning o'tish joylarini miyasiga joylashtirgan edi.

Oradan bir hafta o'tar-o'tmas, bezovtalik harakatga va ishga aylandi. Bir oyga yetar-etmas, o'sha kelajak poezd yo'li bo'ylaridan Miryoqub juda ko'p — bir necha yuz desatin yer sotib oldi. Yerlarning hammasi deyarlik suvsiz, noobod, tashlandiq yerlar edi. Shuncha ko'p yerga qancha oz pul ketdi. Ko'plar bu shoshilish savdoni bilmadilar; bilganlar Miryoqubni «jinni bo'libdi», dedilar.

Shirkat poezd yo'li solishga ijozat olib, tayyorgarliklarga kirishgandan keyingina, Miryoqub qilgan ishini noyib to'raga aytdi.

— Sen xuddi bir amerikalikka o'xshaysan, Miryoqub! — dedi to'ra. — Lekin ko'nglingga og'ir olma, chakki shu sartiya ichida tug'ilib qolgansan!

Miryoqub ko'ngliga og'ir olish tugul, bu gapga sevindi balki, yuzlariga yana o'sha yengil qizillik yugurdi.

Yangi yo'lning allaqaysi bir joyida ko'z ilg'amas bir cho'l bor edi. Cho'l, qup-quruq cho'l... Suv — pastda, chuqurda. Atrofdagi dehqonlardan ba'zilari u yerni ekin yeriga aylantirish uchun turli davrlarda yakka-yakka urinib ko'rgan, lekin hamma qilgan mehnatlari bekor ketib, u yerdan xafsalalari pir bo'lgandi. Hali ham u cho'lda unumsiz qolgan odam mehnatining asarlari, to'g'risi, xarobalar ko'rinadi: ariqlar, ekin, pollari, marzalar, bir necha tup qurigan tut daraxtchalari...

Miryoqub oz pul, ko'p ustalik sarf qilib o'sha cho'lni o'z nomiga o'tkazdi. Faqat bu vaqtlarda poezd yo'lining rejalari tortila boshlaganligidan, odamlar Miryoqubni «jinni» demadilar, balki «bu — bir narsani bilib qiladi», dedilar.

Poezd yo'li solinib bitmasdan turib, u cho'lga necha tegirmonlik katta suv chiqdi. Avvalo o'z cho'ntagining, qolaversa, otaxon mingboshining yordami bilan cho'lning o'rtasidan katta bir ariqni o'tkazib qo'ydi. Shundan keyin yersiz dehqonlarga chek bo'lib bera boshladi. Ko'p o'tmay, u yerda bir qishloq paydo bo'ldi va suv chiqargan odamning shahardagi otaxoni nomiga atalib «Parpi cheki» bo'ldi (noyib to'raning nomi Fyodor, sartlar «Parpi to'ra» deydilar.) Keyincha cho'lning bir chetiga poezd stansiyasi tushdi, yoni-beriga choyxonalar, do'konlar, saroylar solina boshladi. Poezd yo'li ochilgandan keyin o'sha joydan paxta zavodi uchun yer tanladilar. Bolgariyalardan iborat uch kishilik bir shirkat yana o'sha joydan ancha yer sotib olib, kattakon bir mevalik bog' va zo'r bir sabzavot polizi vujudga keltirdi.

Har qalay, poezd o'tgandan keyin, bir necha yil orasida Miryoqubning qo'lida juda oz yer qoldi, hammasi har kimga o'tib ketdi. Miryoqub yerni uncha sevmaydi, yer qo'ldan chiqsa, xafa bo'lmaydi. Shuncha yer qo'ldan chiqqan bo'lsa, uning baravariga qancha davlat qo'lga kirgandir, muni xudo biladi-yu xudoning sevimli bandasi qorako'z Miryoqub biladi!..

* * *

Mingboshi o'zining rus mirzasi Sokolov, inoq mirshabi Mirzabobolar bilan birga saman yo'rg'a ustida o'z darvozasiga kelib to'xtaganda, qorong'i tushgan, ko'chada o'ynovchi bolalarning onalari eshik tagiga chiqib, «Bemahalda bas endi», deya tergay boshlagan edilar. Mingboshining oti to'xtar-to'xtamas, tashqaridagi mirshablar yugurishib borib, darvozani ochdilar, katta darvozaning bir qanotidan chiqqan ingichka qiytillash ovozi muazzinlarning xunuk va qo'pol tovushlariga qorishdi... Bu ovozlar orasida bolalariga qovushgan sigirlarning og'ir mo'lashlari bilan onalarini sog'ingan buzoqlarning erka ma'rashlari mungli va yoqimli eshitilardi. Mingboshi, otdan tushar-tushmas, so'radi:

— Miryoqub keldimi?

Mingboshining musulmon mirzasi Hakimjon qo'l qovushtirib turib, javob berdi:

— Ha, shu yerda. Mehmonxonada uxlab yotibdi.

Mingboshi o'zidan xursand, kuldi:

— Noinsofning kech kirganda uxlashini qarang! Bor, uyg'otib chiq!

Ikki mirshab mingboshini yechintirmoqqa boshladi. Mingboshi hali ham boyagi kulishida davom etardi:

— Obbo betavfiq-ey. Namozshomda uxlaganini!

Mehmonxonadan ko'zlarini uqalay-uqalay Miryoqub chiqib keldi. U, hali ayvondan tushmay turib:

— Hormang, xo'jayin! — deb qichqirdi.

Mingboshi yana o'sha kulish bilan o'tirgan joyida unga tomon evrildi:

— Ha, xudo bexabar! Nima bu bemahal uyqu?? Namozshom paytida-ya!

— Ha, xo'jayin, shunaqa... Sizni kutib o'tirib, uxlab qolibman.

— Qachon kelib eding?

— Kech peshinda. Shundan beri yo'lingizga ko'z tutib o'tiribman.

— Qani o'tirganing? Uyquni uribsan-ku! Qani, nima gaplar bor? Yangi gaplardan gapir.

— Yangi gapni sizdan eshitamiz. Shaharda edingiz. Kimlarni ko'rdingiz?

— Kimni ko'rardim? Noyib to'rani ko'rdim.

— Nima gap ekan?

— Nima gap bo'lardi. Beriroq kel!

Mingboshining bu amri bilan unga tomon borayotgan Miryoqub mirshablarga ishorat qildi, ular uzoqlashdilar. Shundan so'ng mingboshi ovozini pasaytiribroq so'zlay boshladi:

— Qumariqning paynovidagi dehqonlar mening ustimdan ariza berganga o'xshaydi. Aftidan: «Hamma suvni mingboshining yerlari ichadi-yu bizga tegmay qoladi. Shunaqa qilib, necha yildan beri ekinlarimiz qurib ketayotibdi», deb arz qilishganga o'xshaydi. Noyib to'raning so'zidan shu ma'lum bo'ladi...

Shu yerga kelganda, mingboshining qovog'i solina boshlagan edi, qisiq ko'zlarining tez-tez yumilib pirpirayotganday bo'lganini Miryoqub ham payqadi.

— Xo'jayin, — dedi u, — xotirjam bo'lib, bitta-bitta gapirib bering! Hech bokisi yo'q.

Mingboshi uning bu so'zlariga qunt qilmasdan, zabtlik bir ovoz bilan so'radi:

— Kimning ishi bu? Qani, ayt-chi!

Miryoqub mingboshining hech bir so'zini birdaniga qaytargan odam emasdi. Shuning uchun bu safar ham, eski odaticha, aylanma yo'l bilan javob berishga boshladi:

— Kimning ishi bo'lsa ham bilmay qo'ymaymiz. Ilgari noyib to'raning muomilasini, sizga nimalar deganini gapirib bering.

— Qaysi, xotin taloqining ishi, dedim men senga!

Mingboshi ovozini bir oz ko'tara tushgan edi.

— Noyib to'raning gapidan bilinadi o'zi, — dedi Miryoqub. — Siz bo'lgan gaplarni aytib bering!

Mingboshi yana hovuridan tushmagan edi. Shunday bo'lsa ham o'sha johil ovozi bilan Miryoqubning savollariga javob berdi:

— Noyib to'ra aytadi: men seni yaxshi bilaman, deydi. Sen fuqaroni yaxshi ko'radigan odamsan, deydi. Basharti, arizada bitilgan gaplar rost bo'lganda ham seni ayblashga ko'nglim bormaydi, deydi... yerlaringga qaraydigan mutasaddilar shunday qilsa qilishgandir. O'shalarni chaqirib, tayinlab qo'y, sening yeringga ikki-uch marta suv berganda, bir-ikki marta ularnikiga ham berib qo'ysin. Odamlarning ekinini quritib yuborish yaxshi emas, deydi. Bildingmi endi ariza berganning kimligini? Qani, ayt-chi?

— Bu gaplardan hali bilib bo'lmaydi. Boshqa gaplarini ayting!

— Boshqa gapi yo'q. Bo'lsa ham esimda turadi, deysanmi?

— O'ylang. Men uning hamma gapini bilishim kerak...

— Bilsang bilaqo'y: o'sha taraflarda Yodgorxo'ja, Umaraliboy degan obro'yli odamlar bor, deydi; ularning ham ko'pgina yer-suvlari bor, yaxshi emas, deydi. Qora fuqaro bo'lsa — ish boshqaydi, deydi, fuqaroning gapiga quloq solmayman... Ammo lekin yurtning esli, obro'yli odamlarini xafa qilmanglar, deydi...

— Ana, xolos, ko'rinib turibdi: ariza berganlarning boshida Yodgor echki bilan Umarali puchuq turar ekan! Noyib to'ra op-ochiq aytib beribdi.

Mingboshi kuldi:

— Esingga qoyilman, betavfiq! Shuncha esing bor-u namoz o'qimaysan!

— Sizga ergashib, shunday bo'ldim-da!

Mingboshi endi juda yoyilib kuldi:

— Obbo, benamoz-ey! Gapdan toza bergan senga xudo! Shaylaysan, shaylaysan!

Yana ovozini pasaytira tushdi:

— Yodgor echki bilan Umarali puchuqning bir adabini bermasam, ko'nglim tinchimaydi. Bir ilojini qil! Senga aytaman!

— Xo'p, xo'jayin! Shoshmang, men yana bir surishtiray.

— Surishtirishning nima keragi bor? O'shalardan boshqa kim qiladi?

— Ehtiyot shart, xo'jayin! Adab berish qochmaydi... Masalaning tagiga yetaylik, balki boshqa gaplar ham chiqib qolar...

Mingboshi bu so'zdan shubhaga tushdi:

— Nima deding?! Boshqa gap ham chiqib qoladi, dedingmi? Bu nima deganing?

— Ehtiyot shart, deyman men! Ehtiyot! Yaxshiroq surishtirsak, yaxshiroq bilamiz-da, axir! Sizning ishingiz bo'lmasin, men o'zim ikki kunda tagiga yetib, sizga arz qilaman.

— Ha, mayli, surishtir! Sudrama lekin! Ha!..

Mingboshi shu joyda o'zining Miryoqubga e'timodini ko'rsatmoq uchun uning yelkasiga urib-urib qo'ydi.

— Bo'ldi xo'jayin, xotirjam! — dedi Miryoqub.

Ikkalasi ham jim bo'ldilar. Bir ozdan so'ng mingboshi mirshablarga qarab baqirdi:

— Kim bor, hoy!

Hakimjon yugurib keldi:

— Bor, ovqatdan xabar ol! Qorin ochdi!

Hakimjon yugurib ichkari tomonga ketgach, mingboshi Miryoqubga yuzlandi:

— Qani, gapir endi, sen nima xabar topib qo'yding?

Miryoqub darhol javob berdi:

— To'y.

Mingboshi bu birgina, lekin kutilmagan so'zga bir oz hayron bo'ldi.

— To'y?

— Ha, to'y!

— Nima to'y? Kim to'y qilibdi?

— Men to'y qilmoqchiman...

— Sen? Kimga?

— Sizga!

— A, benamoz-ey! Menga?

— Ha, sizga.

Mingboshi birdan gapning sur'atini tortdi:

— Qo'y endi, bitta-bitta gapirib ber: nima gap o'zi?

Miryoqub yaqin o'tirib, so'zlay boshladi:

— Shaharda bir xudo bandasining ikkala dunyoga arziydigan bir qizi bor ekan!

Mingboshi erkin-erkin kuldi:

— Tavba de, betavfiq! Astag'furullo, de!

Miryoqub «astag'furullo» o'rniga uyat bir so'z aytdi. Mingboshi besh battar yoyilib kuldi.

— A, battol-ey! O, battol-ey! Xudo urdi seni! Xudo urdi endi!.. — dedi u.

Miryoqub asta-asta davom etdi:

— O'zi o'n besh-o'n oltida ekan... Juda yetilgan vaqti...

— Unaqa yetilganlar qishloqda ham ko'p.

— Uning boshqa bir xosiyati bor ekan...

— Xo'sh?

— Juda yaxshi, bulbul singari ashula qilar ekan. Ovozi Dovud payg'ambarniki singari, deydilar...

Mingboshi yana kuldi.

— «Sallala», de, betavfiq! «Sallala», de!

— Qazosini aytaman bir yo'la! — dedi Miryoqub, so'ngra davom etdi:

— Shuni sizga olib beray, deyman.

— Odamlar ayta beradi. O'zing eshitdingmi ovozini?

— Yo'q! Mening xotinim, qizim eshitib, har kun maqtashadi. Hammaning og'zida shu...

— Odamlarga ishonma, dedim-ku. Bu odamlar tegir-

monchi Shamsidinni ham yaxshi qo'shiqchi, deb yerko'kka sig'dirmay maqtaydilar. Ovozini eshitgandirsan? Eshak hangrasa, undan a'lo...

— Xo'jayin! O'zingiz bir eshitsangiz edi...

— Bo'lmaydigan gapni gapirma!

— Nimaga bo'lmasin? Qiz o'zi hozir shu yerda, qishlog'imizda. Katta xotiningizga ayting, mehmon qilib chaqirsin. Eshitasiz...

— Qishloqda? Kimnikida?

— Xolmatnikida.

— Shu Xolmatnikida? Shu o'zimizning Xolmatnikida-ya? U bechora ochidan o'lolmay yuribdi, mehmon chaqirib nima qilar ekan? Bitini berib boqadimi!

— Shuning uchun siz chaqirtirsangiz, Xolmat ham xursand bo'ladi, mehmonlari ham.

— Unday bo'lsa, men katta xotinimga aytayin, chaqirtirsin. Eshitaylik...

Miryoqubning qulog'iga egildi

— Kattaning rashki kelmas-a? — dedi.

— Eng kichigidan boshqa hech qaysisining rashki kelmaydi. Har qalay, katta xotiningiz esliroq.

— Yo'g'asa, — dedi mingboshi o'rnidan turib: — men bir ichkariga kirib chiqay. Ovqatdan shu choqqacha darak bo'lmadi. Sen o'tiratur, ketib qolma!

Ichkariga tomon asta bosib yura boshladi. Hali ham, boyagi odaticha, xursand bo'lib kular va birushta:

— Obbo, betavfiq-ey!.. — deb so'zlanardi.

Mingboshi ichkariga kirib, katta xotinini chaqirganda, mehmonlar Poshshaxonning uyida sertakalluf bir dasturxon ustida edilar. Dasturxon solib xizmat qilishmoq uchun chiqqan Umrinisabibini bir narsadan gumonlanib Poshshaxon quvib chiqargan: u Zebining boshiga kelajak falokatni unga yoki uning yaqin o'rtoqlariga qanday qilib aytishini bilmasdan, o'z uyida parvona singari aylanardi. Poshshaxon bilan Xadichaxonning boshlari osmonda. Sultonxonning katta, darang-lagan uylari bo'm-bo'sh, o'zi bu hangomalardan xabarsiz, dutorchi qizlar halitdan dasturxon yig'ilmay turib, dutor sozlamoqda edilar...

Mingboshining chaqirig'iga birdan ikkala xotin «labbay!» deb yugurdi. Faqat mingboshi katta xotiniga imo qilib:

— Bittang kel! — dedi.

Poshshaxon orqaga qaytdi, lekin bu suhbatdan ko'ngil uzolmasdan, yaqin bir joyga berkinib turdi...

Mingboshi odatda xotinlarga kalta gapirar, ular bilan ezilib o'tirishni o'z erkaklik sha'niga sig'dirolmas edi...

— Xolmatnikiga kelgan shaharlik mehmonlarni chaqirtirib, yaxshi bir ziyofat qilinglar, — dedi u. — Shahardan kelib, Xolmatning quruq nonini yeb ketsa, yaxshi emas!

So'ngra Xadichaxonning javob berishini kutib o'tirmasdanoq:

— Ovqating nima bo'ldi? — deb so'radi. — Jadallat! Qorin och!

Xadichaxon muloyim kulimsiradi:

— Mehmonlar biznikida, shu uchun ovqatimiz bugun kechroq bo'ladi. Men sizlarga non-choy chiqaraman.

Mingboshi mehmonlarning o'z uyida ekanini eshitib, hayron bo'ldi:

— Mehmonlar shu yerda? Qachon kelishdi?

— Namozshomga yaqin.

— Yaxshi, yaxshi.

Bir ozdan so'ng yana takror qildi:

— Yaxshi. Yaxshi...

So'ngra birdan:

— Ashulachisi bormi, yo'qmi? — deb so'radi.

— Bor, — dedi Xadichaxon.

— Ashula qilganda, meni chaqirtir! Durustmi? — shu so'zni aytgach, xotinining javob berishini kutmasdanoq, burilib, tashqariga tomon yurdi.

Butun umrlarida deyarlik bunday sertakalluf ziyofatni ko'rmagan yosh qizlar takallufga yarasha betakalluflik bilan, o'lgudek quturib, o'yin-kulgi qildilar. Horib-charchab, zo'rg'a-zo'rg'a oyoq tashlab qo'shxonalariga qaytgan vaqtlarida, yarim kechadan ancha o'tib qolgan edi. Uyda qolgan ikki kampirga — sahar turib, aravani qo'shtirishga buyurdilar-da, o'zlari ko'zlarini yumar-yummas, og'ir uyquga ketdilar. Bular yoshlikning bepar-

vo quchog'ida, ma'sum go'daklarday, har narsadan xabarsiz, to'lib-toshib uxlarkan, so'ri tomon ikki kampirning tashvishli bir un bilan, allanega besaranjom bo'lib pichirlashgani eshitilardi.

Ularning biri o'zimiz bilgan Umrinisabibi bo'lib, sevimli Zebining yosh umriga qasdlangan yomonlar to'g'risida gapirardi...

* * *

Tong yorishmasdan yo'lga tushib, qishloqdan chiqar-chiqmas ashulani baland qo'ygan Zebi necha yillik g'am-tashvishlardan to'rt-besh kun ichida ortig'i bilan yozilib kelarkan, o'z orqasida o'ynayotgan o'yinlardan xabarsiz edi. Kechasi Umrinisabibidan Zebi to'g'risidagi tashvishli xabarni eshitganidan keyin Enaxonning onasi mehmonlar javdishgan vaqtda Saltanatni bir chekaga chaqirib, haligi xususda ogohlantirgan bo'lsa-da, Saltanat bu qadar yoyilib va quvnab borayotgan o'rtog'ini xafa qilmaslik uchun unga hech narsa demaslikni ep ko'rdi. Saltanat u to'g'rida bu yosh qizga gap ochib, uning yorug' ta'bini xira qilmasdan, o'z onasi orqali Zebining onasiga eshitdirib qo'ymoqchi bo'lardi. Mingboshinikida juda sertakalluf ziyofat yegan bu yosh qiz ziyofat bergan juvonlardan juda minnatdor bo'lmoq bilan birga, shunday qari va nihoyat darajada xunuk odamga, yana kundosh ustiga, tushib qolganlari uchun ularga chin ko'ngildan achinardi. Saltanat bilan birga Zebining o'zi va boshqa hamma qizlar mingboshining davlati va obro'si to'g'risida qancha maqtov eshitgan bo'lsalar, uning badbasharalikda ham tengsiz bo'lgani to'g'risida o'shancha vahimali so'zlarni tinglagan edilar. Qizlardan hech biri mingboshi xotinlarining davlatiga qiziqmagan, ularning tolelariga ko'z olaytirmagan, u davlatlar to'g'risida o'zaro gap ochilganda, ochiq jirkanish bilan, «Davlati boshidan qolsin!» deya qichqirgan edi. Saltanat qizlarning ashulalariga qo'shilmasdan, o'z oldiga og'ir-og'ir o'ylab borarkan, o'zini xayolida — bir nafas uchun mingboshi xotinlaridan birining o'rniga qo'yib qaradi... Ustida go'yo xonatlas ko'ylak, Xitoy tovardan kaltacha, toza beqasam kamzul, qimmatbaho

shohi ro'mol, amirkon kavish-mahsi... Keng hovlida, daranglagan ayvonlar va so'lum uylarda, odamni chiroyli qilib ko'rsatadigan qalin toshoynaklarning qarshisida... Tilla bilak-uzuklar, yoqut ko'zli uzuklar, xina bilan cho'g'day lovullab turgan barmoqlar, surmali ko'zlar... Xontaxta ustida anvoyi noz-ne'mat, turli-tuman meva-cheva... Turgan sari yumsharib, pisha boradigan va pishgan vaqtida og'izga solsa, eriydigan noklar... Quvaning yirik donali va nordon anorlari... Haligi nokning eng to'lganini olish uchun dasturxonga qo'l uzatar ekan, qo'lini boshqa bir qo'l kelib ushlaydi... Uning ham qizlik havaslari uyg'onadi, yuraklari muloyim va yoqimli bir talvasa bilan duk-duk ura boshlaydi: ikki yuzi dasturxon ustidagi anor singari qip-qizil bo'ladi... Endi u o'zining «mingboshi xotini» bo'lganini unutgan, yoshlikka xos keng xayol quchog'ida boshqa olamlarga o'tgan edi. Uning qarshisida o'tkir va serhavas ko'zlarini o'ynatib, yosh bir yigit turgan kabi bo'lardi... Bu qo'l, albatta, o'sha yigitning och va qaynoq qo'llaridan o'zga emasdi... nihoyat, yosh qiz yosh yigitga tomon astagina qayriladi va qayrilgan hamon o'zidan ketib qichqiradi:

— Mingboshi!!!

Muning holidan bexabar ashula qilishib borayotgan qizlar bu qichqiriqni eshitgach, cho'chib tushdilar.

— Voy, nima bo'ldi sizga, Saltanatxon? — dedi Zebi.

Qizlar Saltanatni o'rtaga oldilar. U esa ikki qo'li ko'ksida, rangi o'chgan, o'zini Zebining quchog'iga tashladi. So'ngra asta-sekin ko'zini ochgach, hammaga bir-bir qarab oldi; uning bu qarashlarida og'ir bir horg'inlik bor-di... Keyin ko'zlari Zebiga tikildi, endi u ko'zlarda aybini yashirgan bir gunohkorning qarashlari telmirardi.

— Nima bo'ldi sizga, Saltanatxon? — dedi yana Zebi.

Saltanatxon javob o'rniga qo'llarini keng ochib, Zebiga tashlandi va:

— Zebixon! Jonim Zebixon!! — deya uni mahkam quchog'iga oldi...

Qizlar hayron, hammasining ko'zi ularda.

Saltanatning «mingboshi..,» deya qichqirishi bilan barobar aravani to'xtatgan O'lmasjon ot ustida orqasiga qayrilib — qanday hodisa bo'lganini anglayolmasdan—

tangriqosh nazarlari bilan qizlarga tikilgan edi. Ikki qizning bir-biri bilan quchoqlashib, «aylanay, o'rgilay» qilishlari hali-beri tugalmaydigan bo'lgandan keyin yelkasini qoqib, yana oldinga o'girildi va astagina «cho'x» deb otini qamchiladi. So'ngra, u kichkina bir anhorning kechigidan kecharkan, otini sug'orishga to'xtagan vaqtida Zebi bilan birga Saltanat ham sharaq-sharaq gapga tushgan edi.

Shaharga kirgandan keyin qizlar o'z uylariga yaqin joylarda bitta-bitta tusha boshladilar, shu bilan safar oxirida O'lmasjonning Zebidan boshqa yo'lchisi qolmadi. Ko'ngillaridagi ajib hislarni bir-biriga bildirmoq uchun hali fursat topolmasdan entikkan bu ikki yosh endi o'n-o'n besh minut xoli fursat topganlarida, ortiqcha talvasaga tushgan yuraklari dastidan nima deyishlarini bilolmay entikardilar... Unisi ham, bunisi ham bir og'iz gap aytolmadi. Ikki yosh ko'ngilning shu topda kichkinagina bir tilagi bo'lsa, ham — bir-ikki mahalla o'tgach, yetiladigan hovlining yana bir necha mahalla nariga cho'zilishi, yo bo'lmasa, keksalar aytgandek, «yer tanobi»ning pichagina cho'zilmay turishi edi. Holbuki, shaharga, o'ziga oshna joylarga, o'z otxonasi bor yerlarga kelganini payqagan va qorni ochqay tushgan ot, oshiqma'shuqning ko'ngil tilaklaridan bexabar, qadamini ildamlatar, «yerning tanobi» o'zidan-o'zi tortilib borardi...

Arava Zebilar masjidi oldiga yetganda, Razzoq so'fi bir necha kishi bilan birga, boshqa bir aravada qarshi tomonga o'tib ketdi.

— Otam biror joyga ketayotganga o'xshaydi, — dedi Zebi quvonganini yashirolmay.

— Yiroqroq safarga o'xshaydi. Oq yo'l bersin! — dedi O'lmasjon va yumshoqqina kuldi.

Shu chog'da Zebining ko'nglidan og'ir bir tog' ko'chgan edi.

VI

Saltanatning onasi Zebi to'g'risidagi tashvishni uning onasiga astagina eshittirib ketganidan keyin, bir kun o'tib, Razzoq so'fi qishloqdan keldi.

U eshikdan kirar-kirmas, to'y to'qqizini xotiniga uzatib:

— Qizing qani? — deya so'radi.

Bu shoshilinch savol sho'rlik onaning bag'riga tikondek botdi. Rangi darrov olindi...

— Nimaga indamaysan, hay, Fitna? Nima bo'ldi senga? — dedi so'fi. Xotinining bu ahvoliga u ham qunt qilgan edi.

Qurvonbibi tutilib, zo'rg'a-zo'rg'a gap epladi:

— Shu yerda... shu yerda... qizingiz...

Uch bo'lib aytilgan shu ikki og'iz so'zda ham besaranjom bir jadallik boridi. Erining biror narsa deyishini kutmasdan, bechora xotin boyagi besaranjomlik bilan qatorasiga uch savolni chizib tashladi:

— Nimaydi? Nimaga so'raysiz? Chaqirib beraymi?

Bir-bir ketin va shoshilish bilan berilgan bu uch savol bir onaning qalbida yolg'iz bolasiga qanday zo'r muhabbat saqlanganini Razzoq so'fiday bir odamga ham keragicha ko'rsata olgan edi. U yasama bo'lsa hamki kulimsiraganday bo'ldi.

— Qizim bo'ladi-yu so'ramaymanmi? Qiziq ekansan... Uyga joy qil, jindak orom olay. To'yga borgan odam uyqudan qoladi...

Qurvonbibi endi o'ziga kela boshladi.

— Kim to'y qilibdi?

— Badavlat bir odam. Katta osh tortibdi, lekin! Hast eshonimizni chaqirgan ekan, hammamiz birga bordik... Qiyomat suhbatlar[1] bo'ldi!

Lekin onaning ko'ngli hali ham tinchimagan edi:

— Zebini nimaga so'rab edingiz? — dedi yana.

Endi bu safar so'fining achchig'i keldi va birdaniga:

— O'z qizimni so'ray olmaymanmi! — deb baqirdi.

— Ha, bo'pti... bo'pti.. Baqirmay qo'ya qoling! — dedi kampir va shoshilganicha uyga kirib ketdi.

Hovlida — hovuz bo'yida kashtasini tikib o'tirgan Zebi otasining kelganini payqamagan edi. Faqat bu so'nggi baqirish uning qulog'iga alayna borib yetdi, hatto «o'z qizimni..,» degani juda aniq eshitildi. Shundan

---

[1]Eshonlarning zikr majlisi.

so‘ng ko‘ngli bezovta bo‘lib, darhol o‘rnidan turdi. U bu yoqqa chiqqan vaqtida chol-kampir uyda edilar, shuning uchun u astagina so‘richaga borib o‘tirdi va, ikki ko‘zi uyning eshigida, bilinmagan bir ko‘ngil qoraligi bilan onasining chiqishini kuta boshladi...

Uyga kirib, eshiklarni berkitdirgandan keyin Razzoq so‘fi so‘z ochdi:

— Zebi qachon keldi?

— Siz ketgan kuni...

— Ikki kunga deb ketgan narsa necha kun yurdi, bilasanmi?

— Eshonoyim qo‘ymabdilar...

— Eshonoyim!.. Mendami ixtiyor, eshon oyimdami?

— O‘zingiz, axir, «Mayli, eshonoyimning ra‘ylariga qarasin», demabmidingiz?

— E, ra’ylari qursin, ra’ylari! Yosh bolani bir hafta — o‘n kun saqlaydimi?

Kampir nima deyishni bilolmay qoldi. Kechagina butun ixtiyorni eshonoyimga berib qo‘yib, bugun eshonoyimning tabarruk ra’ylarini ham so‘kib o‘tirgan bu johil so‘figa nima deb bo‘ladi? Har nima bo‘lganda ham, bolasini ko‘rish o‘z zimmasiga tushgan kampir gap topib javob qilmoqqa majbur edi.

— Shuncha vaqtdan beri uyda o‘tira berib yuragi siqilgandan keyin, yosh narsa, uch-to‘rt kun yayramaydimi? O‘zingiz ko‘chadan kirmaysiz-ku!

— Menday bo‘lganda, yuraversin! — deb baqirdi so‘fi.

Kampir ham bo‘sh kelmadi, ovozini ko‘tara turib:

— Sizday bo‘lganda ham xotin kishi biror joyga chiqa oladimi? — dedi. — Bu ro‘zg‘or o‘lgurga kim qaraydi? Tandur qizitib non yopadimi erkak degan narsa? Yo yosh narsani sil qilib, ajalidan besh kun burun o‘ldirmoqchimisiz?

Asta-asta avj olayotgan bu tajang ovozlar allaqachon Zebining qulog‘iga yetib, uning talvasasini besh battar ortdirmoqda edi. U chidayolmadi: so‘richadan turib kelib, uy darpardalaridan birining takkinasiga o‘tirdi. Endi uyda o‘tayotgan gaplarning har birini uning quloqlari bitta-bitta ovlab borardi.

— Ko'p valaqlamasang-chi, Fitna! Quloq-miyamni yeding-ku! Jahlimni chiqarma, ha!!!

Erining o'lgudek badjahl ekanini Qurvonbibi yaxshi bilardi. Bu so'nggi tanbehni eshitgandan keyin hatto Zebi ham tashqarida o'tirib, bir tomondan onasining tashvishini torta boshlagan edi. Kampir birdaniga ovozini pastladi va, mumkin qadar o'zini bosib turib, so'radi:

— Xo'p, mana, shovqin solmayin. Siz ham yotig'i bilan gapirib bering: nimaga tashqaridan kirar-kirmas, Zebini so'radingiz? Bir gap borga o'xshaydi...

Birdan bu qadar pasaygan ovoz Zebining ko'nglini onasi xususida bir qadar tinchlatgan bo'lsada, ikki o'rtada o'tayotgan va o'ziga taalluqli gaplarni ochiq eshittirmaganligidan uni yana umidsizlikka tushirib, ikki ko'zini eshik tomonga telmurtmoqqa majbur qilgan edi.

— Beriroq kel! — dedi Razzoq so'fi.

Oddiy ovoz bilan aytilgan va Zebiga aniq eshitilgan bu ikki og'iz so'zdan so'ng uydagilarning ikkovi ham pichirlashga ko'chdilar. Endi Zebi hech narsani eshitolmay qoldi. Qancha zo'r berib qulog'ini darpardaga qo'ysa ham, darpardaning sekin g'ichillashi bilan birga chol-kampirning pichirlashgani eshitilar, lekin nima deganlarini sira uqib bo'lmas edi.

Qurvonbibi erining qarshisiga borib o'tirgach, so'fi davom etdi:

— Juvonmarg Zebing qishloqqa borib, ashulani toza qo'yganga o'xshaydi. Qishloq odamlaridan ko'p narsani eshitdim... Ammo-lekin tutib olib o'ldirsam ozlik qiladi juvonmargingni!

Shu yerga kelganda, ona bechora bir narsa demoqchi bo'lib edi, Razzoq so'fi baqirib berdi:

— Gapni eshit!..

So'fining «tutib olib o'ldirmoqchi bo'lganini» chalachulpa eshitgan va bu keyingi baqirishdan esa tamom xabardor bo'lgan Zebi otasining aytadigan qo'rqinch gapini bir on avval eshitmoq uchun entikardi. Faqat so'fi yana pichirlashga tushdi.

— Mingboshining yon-verida yuradigan bir-ikki kishi meni xoli topishib, qiz o'lguring to'g'risida ehtiyot bilan gap ochib ko'rishdi...

— Kimga? — deb so'radi kampir hovliqib.

— Kimga bo'lardi, mingboshiga!

— Qaysi mingboshiga!

— Akbarali mingboshiga! Sen tanimaysan uni...

Kampir o'zini tutolmadi. Yuragining hovliqqani avzoyining ko'tarilishiga sabab bo'ldi:

— Mingboshi bo'lsa, xotini bordir? Xudo urib, kundosh ustigami?!

Bu besaranjom savollar qizning qulog'iga juda aniq eshitilgan edi. U ikkala qo'lining qanday qilib ko'kragiga borib qolganini o'zi ham payqayolmadi... Endi uning yuragi, notob bo'lgan kabi, juda sust urmoqda, rangi oqargan butun vujudi, latta kabi, bo'shashgan edi... Devorga suyanganicha, behol o'tirib qoldi.

Miyasida uch-to'rt kun burun o'tgan voqealar jonlandi. Mingboshining daranglagan uylari... Sertakalluf ziyofatlar... Bir-biri bilan bu qadar inoq bo'lib ko'ringan kundoshlar... Sultonxonning birdaniga oradan yo'q bo'lib qolishi... So'ngra mingboshi to'g'risida har kimlardan eshitgan gaplari quloqlarida chinglay boshladi: u — o'lgudek xotinboz... U uch xotin olib, birgina qiz ko'rgan... Shuning alamiga chidayolmasdan, o'zini har baloga uradi... Davlati, boyligi, hech narsasi tatimaydi... O'zi o'lgundek xunuk, badbashara... Odam ko'rsa qo'rqadi... Shunday bo'lsa ham qanday chiroylik va momiqday qayliqlari bor... Bechoralarning sho'ri...

So'ngra birdan uning esiga aravadagi voqea kelib tushdi: Saltanatxonning birdaniga «mingboshi» deya baqirishi... shu barobar rangi o'chib, o'zidan ketib yiqilishi... Ko'zini ochgandan keyin hammaga bir-bir qarab olib, bunga kelganda, uzoq tikilib, keyin birdaniga o'zini buning quchog'iga tashlagani... So'ngra ilgari kunigina Saltanatxonning onasi kelib, buning onasi bilan allanimalarni pichir-pichir gaplashgani... Shundan beri o'z onasining bunga har daf'a ayaganday bo'lib qarashlari...

Oh, shu topda Saltanatxon bo'lsaydi! Shu sirlarni ochib berib, buning ko'nglini tinchlantirdimikin? Balki bu sirlarni u ham bilmas?.. Bilsa aravada aytmasmidi? Yo'l bo'yi gaplashib kelib, hech narsa demadi-ku. Yo

yashirarmikin? Yashirsa uning do'stligi qayerda qoldi? Odam do'st bo'larmidi, qalay!

Bu o'ylar Zebini jon o'rtog'idan farsaxlarcha yiroqlarga olib ketdilar. Endi u na Saltanatxonning kular yuzlariga ishonadi, na Enaxonning... Shu topda u ojiz bir maxluq, qo'li bog'liq bir qul, hech bir ishonadigan kishisi yo'q, yolg'iz va g'arib...

Faqat birgina kishining uyda o'zi uchun kuyib gapirganini o'yladi, shu narsa uning ko'ngliga taskin berdi. Ona, yolg'iz ona... Johil va bag'ritosh bir otaning chegarasiz qaysarligi va teskariligi oldida ojiz bir xotin... nimjon bir ko'ngil...

Ichkarida suhbat davom etmoqda edi. So'zning ketishiga qarab ovozlar dam ko'tarilar, dam bosilardi.

— Siz nima dedingiz, siz? — deb so'radi kampir.

Uning bu savolidan ochiq bir bezovtalik sezilardi: «Bu so'fi o'lgur unab qo'ymadimikan?!»

Razzoq so'fi indamasdan, miyig'ida kulimsirab turardi. Bu kulimsirashda bir mug'ombirlik asari, «Men bo'lamanu indamay qolamanmi?» degan ifodalar boridi... Kulimsirash bilan yana ham xunukroq kepataga kirgan basharasini kampir tomon ko'tarib turib:

— O'sha betavfiq, benamozga qiz beramanmi, qalay? — dedi.

Bu so'zlardan so'ng kampirning ko'ngli bir oz o'rniga tushdi.

— Xayriyat... Shunday dedingizmi?

So'fi bu daf'a nodon xotinini masxara qilib kuldi.

— Ahmoq! — dedi u. — Ularing allaqaylardan daromad qilib kelib, zo'rg'a ipning uchini chiqardi-yu, men «yo'q!» deb tomdan tarasha tushganday javob beramanmi?

— Ha, nima dedingiz?

— Ishqilib mingboshi bilan quda bo'ladigan joyim yo'qligini yaxshi bilishdi... Yana nima kerak?

Suhbat tamom bo'lib, kampir tashqariga chiqqanida Zebi holsiz va darmonsiz darparda yoniga cho'zilgan, uning hali juda yosh va jonli ko'zlarida ko'p yillik mehnat va qiynalishlarning og'ir bir horg'inligi ko'rinardi.

* * *

Razzoq so'fining behuda taqvodorlikka suyangan so'zlari va Qurbonbibining qayta-qayta ishontirishlari ila Zebining ko'ngli bir qadar tinchlandi. Hovuz bo'yida, yosh tollarning ko'm-ko'k bargchalari ostida, hali ham allaqanday belgisiz bir tashvish va hadiksirash bilan sizlab yotgan ko'ksini yumshoq shabadaga berib, kashtasini tikarkan, uning g'amli ovozi g'amli kuylarni shabadaga qo'shib, olislarga uzatardi. Arava bilan u yoq-bu yoqqa qatnaydigan O'lmasjon o'sha kundan beri yo'lni bu tarafga solganligidan bu g'amli ovoz uning qulog'iga ham ba'zi-ba'zida kirib qolardi. Yosh yigit otining qorinbog'isini mahkamroq bog'lash bahonasi ila aravani devor yoniga to'xtatar, qo'li ot tegrasida aylangan holda butun vujudi devor oshib o'tayotgan qadrdon va yoqimli unni ovlashga tirishardi. Bir kun qamchisi belida bo'lgani holda, devor osha ko'ringan toldan xipchin sindirmoqchi bo'lib, arava ustiga chiqdi, unda ham bo'yi yetmagach, tinch turmagan kegaylarga oyoq qo'yib, g'ildirakka tirmashdi... Bir qo'li bilan devorga osilib, yana bir qo'lini tolga uzatgan vaqtida ko'z uchi Zebiga tushdi: bu vaqtda sayrashdan to'xtagan u tutqun qushcha butun mehrini kashtaning ilang-bilang kunguralariga qo'ygan edi. O'tgan-ketganlar gumonsiramasin, deb, yigitcha, ko'z uchi hamon hovuz bo'yida bo'lgani holda, bir qo'li bilan kichkina bir tol novdasini sindirishga urinardi. Nihoyat, kichkina novda qirs etib singach, Zebi ham boshini ko'tarib qaradi, devorda erkak kishining qo'lini ko'rganidan keyin:

— Voy, o'la qolay! Erkak kishi! — deb qichqirdi...

Va ov yegan qushday, kashtasini tashlab, ichkari tomonga qochdi. Bu xil natijani sira kutmagan yosh yigit, gavroni qo'lida, hayron bo'lib qoldi. Faqat o'sha topda ko'chadan o'tayotgan bir taqvodorning:

— Hoy, bola, tush bu yoqqa! — degan sovuq ovozi uni sarosimalikdan uyg'otib yubordi...

G'ildirak ustidan o'zini aravaga tashlagan vaqtida taqvodor yo'lovchi hali ham so'ylanmoqda edi:

— Qanday behayo bolasan! Kap-katta to'ng'izday

bo‘lib qolibsanu, sharmu hayo qilmasdan, nomahram bor hovliga qaraysan-a! So‘fi ko‘rgunday bo‘lsa, «go‘sht ketti!» qiladi. Ha!!!

Yosh yigit ikki beti qip-qizargan holda eshitilar-eshitilmas bir ovoz bilan zo‘rg‘a-zo‘rg‘a:

— Otimga gavron sindiray, degan edim-da... — deya oldi.

So‘ngra noumid qarash bilan yana bir marta devor tomonga ko‘z yugurtirgach, arava ustidan otga hatlab, yo‘liga ketdi.

So‘nggi xabar bilan yuragi siqilganini bahona qilib, bir kun Zebi ham Saltanatxonlarnikiga yo‘l oldi. Zebi oldida o‘zini aybdor sanagan va shuning uchun ko‘nglidan xijolat tortgan Saltanat o‘rtog‘ini ortiq darajada zo‘r hurmat bilan qarshi oldi. Uning o‘z o‘rtog‘iga qilgan muomilalarida hatto «pistoqi ta’zim» qabilidan bir turli yasamalik asarlari ham ko‘rilardi. Qishloqdagi voqealarning tagidan bexabar bo‘lgan Zebi Saltanatning bu qadar mehribonlashganini o‘z ko‘nglida boshqa narsaga yo‘yar va... chin ko‘ngildan xursand bo‘lardi. Nima uchun xursand bo‘lardi bu yosh qiz? U bilardikim, O‘lmasjon Saltanatlar oilasining yon qo‘shnisigina emas, balki ona tomonidan bir qadar qarindoshi va bu xonadonning eng qadrdon bolasi. So‘ngra Zebilar oilasi singari bu oilada ham erkak bola yo‘q, shu uchun qo‘shni va qarindosh bo‘lgan bu bola hamma vaqt shu hovlida, u hovlidan ko‘ra ko‘proq bu hovlining dastyori va yugurdagi. U bola endi kap-katta yigit bo‘lib qolgan... hozir uylantirish to‘g‘risida ayni og‘iz soladigan vaqtlari... Saltanat o‘zining bu sevimli qarindoshiga bu sevimli o‘rtog‘ini olib bermoq istamaydimi? Saltanatda bu istak bo‘lgandan keyin, uni onasi bilan katta onasi bilmay qoladimi? Onasi bilan katta onasi Zebini yomon ko‘radilarmi? Yomon ko‘rsalar, o‘z qizlarini unga muncha jonajon o‘rtoq qildirib qo‘yarmidilar? Zebi Saltanatdan ko‘rgan ixloslarni uning onasidan va katta onasidan ko‘rmaganmi? Ayniqsa, shu safar? Bu safar Saltanat uning tegrasida girgir aylangan bo‘lsa, u ikki keksa xotin o‘z yoshlariga yarasha pirpirashgan emasmi? Zebiday bir qizning kelin bo‘lib kelishini kim istamaydi? Qaysi hovli Zebini o‘z

quchog'iga olishdan tortinadi? Uchta xotin ustiga mingboshi ham talab bo'libdi-ku!..

Bechora qizning butun bu shirin xayollari shu birgina «mingboshi» so'zi kelib chiqishi bilan bir varaqasiga parishon bo'lib sochiladi, to'kilgan tariq kabi, har tomonga tirqirab ketadi. Haligi shirin xayollar bilan kulib, to'lib, cho'g'day qizarib turgan yuzlari, garmsel tekkan ekin kabi, bir nafasda so'lib, o'lib, uchug'dek bo'zarib qoladi...

Har qalay, sevimli o'rtog'idan va uning onalaridan ko'rgan ixlos va hurmatlari uchun haligi mulohaza orqasida Zebi xursand, uning xursandligini ko'rib, o'z gunohlarining kechirilganini yo bo'lmasa, ancha yengillashganini o'ylagan Salti va uning onalari xursand... Ikkala tomon ham bir-birining ko'nglidan bexabar, shu xilda xursandlikka ko'mildi.

Zebining bu xursandligi, albatta, kuzatgan maqsadiga erishmoq bilangina poyidor bo'lardi. U maqsad ham, dovon oshuv qadar zo'r bo'lmasdan, nihoyati devorga osilib, gavron sindirgan yigitni bir ko'rishdan iborat edi... Faqat chorbozorchi bilan aravakashni uyida uchratmoq oson narsami? O'lmasjonning aravakashlikka kirishganiga faqat to'rt oy bo'ldi, lekin shu to'rt oy ichida to'rt marta butun kecha-kunduzni uyida o'tkaza oldimi? Sahar chiqib ketadi, yarim kechada kirib keladi, agar olisga ketmasa! Olisga ketsa, ikki-uch kun o'tkazib keladi. Bolasining darbadarligiga achingan ona o'sha kuni — Zebi Saltanatlarnikiga borgan kuni:

— Hunar bo'lmay o'lsin! — deya so'zlandi. — Bolam bechoraning yuzini kun yorug'ida ko'rolmayman! Ishlab-ishlab topgani nima? Topib keltirgani nima? Ro'zg'orga yuq bo'lmaydi... Qaymog'ini karvonboshi yalaydi, albatta. Bu sho'rliklar yugurgani-yugurgan, qatnagani-qatnagan, karvonboshi — og'zining yeli bilan topadi... Shu ham insofmi?

Bunga otaning g'ashi keldi:

— Muncha jovraysan, hay! — dedi. — Shukur qilsang-chi! Qimorboz bo'lib, bor-yo'g'ingni «gardkam»ga bersa, nima qilarding? Ahmadalining katta o'g'liday butun ro'zg'orini ichkilikka sovursa, nima qilarding? Ishga

kirganiga to'rt oy endi bo'ldi. Haligacha oz topgan bo'lsa, bundan nari ko'p topar. Hali yosh, ishlasin ozroq... Mehnatsiz rohat bormi, qalay!

— Ishga kirganiga to'rt oy bo'ldi-yu, to'rt yillik charchadi bolam! — dedi ona. — To'rt yillik qaridi bolam! Bola tug'ish, katta qilish osonmi? Ko'cha-ko'yda yurib, gapira berasizlar-da! «To'rt oy endi bo'ldi-ya!..» Og'zingizning bir chekasidan chiqadi!.. Yo'q, aravakashligi qursin! Boshqa ishga beramiz... bo'lmadi bu. Boshini yesin karvoning!..

— Boshqa ish oson, deysanmi? — deb e'tiroz qildi ota. — Dunyoda oson ish bormi? Puling bo'lsa, davlating bo'lsa, og'zing bilan gapirib topsang... qani edi... Bu davlatni xudovandi karim hammaga bermas ekan! Berganga berar ekan!

Ona bo'sh kelmadi:

— Bermadi, deb yotaverasizmi? — dedi yana. — «Olma pish, og'zimga tush!» bilan bo'ladimi? Axtargan topadi! Istasangiz, bolangizga durustroq kasb ham topiladi. Sal mundoq dam olib yayraydigan bo'lsin-da!

— Kechagina qizlar bilan qishloqqa borib, bir hafta o'ynab keldi-ku!

Otaning shu «qizlar bilan» degan so'zlari O'lmasjon tenglik yigitlar og'zidan chiqadigan darajada, harorat va iliqlik bilan, turtib aytilgan edi. Ona darhol payqadi:

— Yoshingiz ellikka borib qolsa ham, «qizlar»ga qiziqmay o'ling! «Qizlar bilan», deb bir moylab aytasizki! Shu aftingizga yana qiz olgingiz bor! Bo'yiga yetgan o'g'lingizni o'ylang avval!

Ota u tomonda qah-qah otib kuldi.

— Sen, — dedi u, — qishloqqa borib, bir hafta yayrab kelganidan gapir!

Ona javobni darrov taxladi:

— Besh kun yayrab kelganiga men qancha narsa sotib berdim, bildingizmi? — dedi. — Uch ko'ylaklik chit, ikki belbog', Saltanatxonning bir farang ro'molini sotdirdim!

— Kimga berding pulini? O'lmasing, hali, shuncha pulni yeb keldimi?

— Qayerda O'lmas yeydi!.. O'lmas bir chaqa ham

yegani yo‘q. Ot-aravaning ijarasiga, deb karvon-boshiga berdim. «Endi, bir oygacha, bir chaqa ham bermayman senga!» degan ekan, bola sho‘rlik yig‘lagunday bo‘lib keldi. Unga javr bo‘lmasin, deb, Saltanatxon ikkovimiz, bisotimizdan narsa sotib to‘g‘riladik. Hech narsadan xabaringiz yo‘q, gapira berasiz-da!

Kulishdan to‘xtab endi jiddiylashgan ota yana e’tiroz qilib bir narsa demoqchi edi, darichadan Saltanat bilan Zebining chiqib kelishi uni boshini quyi solib, ko‘chaga chiqib ketishga majbur qildi.

Zebi Saltanatlarnikida turib, bu aytishuvning ba‘zi joylarini eshitgan, o‘z boshiga balo keltirayozgan qishloq safarining bu yo‘qsil xonadonlar uchun juda qimmatga tushganini endi bilgan edi. Shuning uchun darrov o‘rtog‘idan koyidi:

— Qishloqqa hammamiz birga borib edik. Og‘irini o‘zingiz bilan O‘lmasjonning oyisiga tortdiribsiz-da! Men ham qo‘shilishardim-ku...

Saltanat ham o‘rtog‘ini darrov o‘z quchog‘iga oldi.

— Bitta ro‘mol ketdi, xolos, — dedi. — Uni ham mingboshinikidan o‘rab kelmadimmi? O‘ziniki o‘ziga bo‘ldi, jonim!

— O‘lmasjonning onasi-chi? — dedi Zebi. — Bechoraning uyi kuyibdi-ku. Yo‘q, o‘rtoq, ertaga men sizga bir narsa yuboraman! Albatta, yuboraman!

Saltanat bu to‘g‘rida Zebidan hatto quruq so‘zning o‘zini ham eshitmoq istamas edi. Shuning uchun darrov so‘zni boshqa tomonga burdi:

— Yuring, bo‘lmasa! O‘lmasjonning oyisini yupatib chiqaylik...

Bu so‘z bilan birga o‘rtog‘ining qo‘lidan tortib, darcha tomonga boshladi.

Zebining ko‘ngli yana o‘ksib qoldi. O‘lmasjon kechadan beri yo‘q edi. Kech paytda kelarmikin, deb qorong‘i tushguncha qolsa ham boladan darak bo‘lmadi. Saltanat bilan onalari uni yotib qolmoqqa qistasalar-da, otasining qahridan qo‘rqib, sira unamadi. Qorong‘i tushib qolganligidan, «Yosh narsa yolg‘iz ketmasin», deb bir kampirni qo‘shib berdilar. Bular darvozadan chiqib, muyulishga yetganda u yoqdan O‘lmasjon ko‘rindi: char-

chagan otini horg'in-horg'in qamchilab, asta-asta sudralmoqda edi. Ikkalasi bir-birini ko'rishdi, tanishdi... Zebi ehtiyotsiz to'xtab qoldi, O'lmasjon ham o'zi payqamasdan otining boshini tortdi... Faqat, na unisi bir narsa deya oldi, na bunisi ovozini chiqarishga botindi. Ular o'rniga — «nomahramlar qasdidan qo'rish» vazifasini ustiga olgan kampir uh soldi:

— Hay, nimaga to'xtadingiz? — dedi Zebiga qarab. — O'lmasjon, nimaga to'xtading, bolam? — dedi unga tomon burilib.

O'lmasjon javob eplay oldi:

— Sizni ko'rib to'xtadim, xola! — dedi u. — Yo'l bo'lsin kech kirganda?

— Men bu mehmonni kuzatib borayotirman, — dedi kampir. So'ngra, bir-ikki qadam bosgach, orqasiga qayrilib: — Tez boring, oyingiz tashvish tortib qoldi! — dedi...

Va Zebining ketidan yo'lga tushdi. Zebi ham kampirdan qo'rqib, orqasiga qarayolmasdan, lekin ko'ngli o'ynagan va ikki tizzasi yengilgina qaltiragan holda tez-tez yurib ketdi.

Bu yoqda otiga serzarda qamchi bergan O'lmasjonning horg'in vujudi bu qaltis uchrashuvning guldirama olovida yonarkan, o'zidan begona bo'lib ketayotgan Zebining ko'zlarida yirik-yirik marvarid donalari yiltirardi...

VII

Ikkala yosh ko'ngil qorong'i muhitning og'ir kishanlariga bog'langan holda noumid muhabbat bilan bir-birlarining hasratida entikar ekan...

Akbarali mingboshi, kuchli panjalari orasiga olib, yangi bir gazetni g'ijimlamoqda va qimorbozlarga xos og'zi maymoqlik ila gazet yozganlarni so'kmoqda edi.

Jadidlar tomonidan haftada ikki marta zo'rg'a chiqariladigan bir gazetada mana shu besh-olti og'iz so'z boridi:

«...bo'lusining hokimi mutloqi o'lan Akbarali mingboshi butun bo'lusning yagona usuli jadida maktabini

bog'latib, muallimini haq bermasdan haydatdirdi... Uch oygina davom eta olmish bu maktab millat bolalarina ozda bo'lsa oq-qorani tanitdirmoqqa muvaffaq bo'lmish edi. Mingboshining o'zi esa har sana bir evlanmoqdan, xotin yangilamoqdan bo'shalmaydur... Uch xotini ustiga yana to'rtinchisini, hatto besh-olti-ettinchisini... ham oluvga qarshi emas.

Muallim M. M.»

Qarshisida choy quyib o'tirgan Hakimjon shu gazetni topib ko'rsatganiga allaqachon dunyo-dunyo pushaymon bo'lgan edi. U bir necha yil shu odamga mirzolik qilib, uning jahli kelgan va tutoqqan vaqtlarini ko'p ko'rgan bo'lsa-da, bugun shu kichkina maktubchaning bu daraja yomon ta'sir qilganiga hayron bo'lardi. Mingboshi mirzaning qo'lidan dastlabki bir piyola choyni olib, hatto bir ho'plamasdan yoniga qo'ydi va shu bo'yicha uni tamom esidan chiqarib yubordi. Hakimjon sovuq choyni uning oldidan olmoqqa botinolmas edi... Choynakdagi choy ham allaqachonlar sovub bo'ldi. Hakimjonning ikki ko'zi mingboshida, uning qizarib-bo'zargan yuzlarida, jahl bilan, tajanglik bilan qisilgan panjalarida: g'ijimlanib bir musht holiga kelgan gazetda... Xo'jayinning mudhish ovozini ko'rib, sal narida daraxtga suyanib turgan Mirzabobo ham hayron. Darvozabonlik qiluvchi mirshabga: «Arzga kelganlarning hech birini qo'ymaysan. Xo'jayinning fe'li aynib turibdi...», deb Mirzabobo tomonidan ta'limot berilgan, endi darvoza orqali Miryoqubdan boshqa hech kimning oyoq bosib o'ta olishi mumkin emas. Haykalday qotib tura berishdan Mirzaboboning, doim bir vaziyatda qimirlamay o'tira berishdan Hakimjonning bellari qayishib ketdi... Mingboshi dam gazetni ochib, u yoq-bu yog'ini aylantirib qarar, dam bo'lsa, panjalari orasiga olib, uni g'ijimlar, tez-tez darvoza tomonga qarab:

— Miryoqubdan darak yo'qmi? — deya so'rab qo'yardi.

Mingboshi bu savolni qaytargan hamon Mirzabobo yugurib ko'chaga chiqar, bir ozdan so'ng qaytib kirgach, «yo'q», degali botinolmasdan, mo'layib jim qolardi.

Nihoyat, mingboshi qo'lidagi gazetni bir tomonga irg'itib, o'rnidan turdi.

— Miryoqub qani deyman senga, Miryoqub?! — deya baqirdi.

Bu yovvoyi darrandaning bo'kirishi edi! Mirzaboboday odam tutila-tutila:

— Darrov... otni egarlab... uyiga borib kelaymi? Yo... shaharga chopaymi? — dedi.

— Endi esingga keldimi, itvachcha!.. — deb baqirdi mingboshi.

So'ngra asabiy odimlar bilan ichkariga tomon yurdi. Ichkaridan ham uning baqirgan ovozi eshitilardi. Faqat uchala xotin uning nima uchun kayfi ketganidan bexabar edilar. O'zaro bir-birlariga nazar tashlashgach, ko'z ishorati ila katta xotinga vakolat berdilar. Xadichaxon bir-ikki qadam oldinga bosib kelib:

— Nima bo'ldi sizga? — deya so'radi. Shu topda o'zi yengilgina qaltiramoqda edi.

Mingboshi nihoyat darajada odobsiz bir so'z bilan baqirib javob qildi. Ikkala yosh xotin sekin-sekin orqalariga tisarilib, o'z uylariga kirib ketdilar. Xadichaxon turgan joyida qotib qoldi...

— Yelkamda o'n putdan o'ttiz put yukim bor... — dedi mingboshi.

Bu ham baqirishga yaqin bir ovoz bilan aytilgan edi.

Uchala xotin ham bu yukning nimaligini anglab yetolmadilar. Xadichaxonning fikricha, mingboshiga «irim» qilgan edilar. Endi uni «qaytartirmoq»dan o'zga iloj yo'q edi. Bu fikr boshqa kundoshlarning miyalaridan ham o'tmadi emas... Faqat Xadichaxonning bu fikri qat'iy bo'lsa kerakkim, yashirishga lozim ko'rmadi:

— G'animlar qasd qilganga o'xshaydi. Qaytarma qildirib bersammi? — dedi.

— Ayollarning bilgani irim, bilgani qaytarma, bilgani azayimxon... Qovog'i uchsa ham azayimxonga chopadi... — dedi mingboshi.

Va shu so'zlarni aytarkan, uning bulutli yuzlarida jindakkina ochilish alomatlari ko'rindi. Shu ochilishdan dadillanib bo'lsa kerak, Xadichaxon yana e'tiroz qildi:

— O'zingiz, o'z og'zingiz bilan «yuk bosdi», demadingizmi?

Mingboshi kulib yubordi:

- «Yuk bosdi», degan bo'lsam «qanday yuk?» deb so'ragin-da, bachchag'ar! — dedi u.

Bu vaqtda uydagilar ham asta-sekin tashqariga chiqib, yaqin o'rtaga kelgan edilar. Mingboshi davom qildi:

— Uchalang kam yukmisan menga?

— Nima og'irimiz tushdi sizga? — dedi Xadichaxon.

— Gazetni o'qi, bilasan... Senlarning tufaylingdan yomon nomim yetti iqlimga ketdi... Hammang bir qora mo'yimga arzirmiding, qalay?.. Agar olmoqchi bo'lsa, hammangni ikki qo'llab tutardim o'sha gazetchi dayusga!.. Menga bitta xotin bas edi... zurriyotlik bo'lsa... Shuncha davlatni kimga ishonib qoldiraman? Uchta bezurriyotgami?..

— Nimaga hammani barobar ayblaysiz? Fazilatni og'izga olmaysizmi?

— Fazilating menga asqotarmidi? Bir-ikki yildan keyin birovlarning qo'liga suv quyadigan bo'ladi. Qiz farzand bo'larmidi? Qaysi biring ota-onangga asqotding!..

Bu ma'qul gaplarga e'tiroz qiladigan joyi bo'lmasa ham, Xadichaxon yana bir nima demoqchi edi, tashqaridan darvozaning xarxasha bilan ochilgani eshitilib, so'ngra «ha» deguncha ichkari eshik ketidan Mirzaboboning yo'g'on ovozi chiqib qoldi:

— Xo'jayin, Miryoqub akam keldilar!

Mingboshi darvoza ochilgan hamon tashqariga yugurgan edi.

U chiqib ketgach, uchala kundosh bir yerga to'planib, kuyovlarining avzoyini muhokama qildilar. Ancha nariberi gaplardan keyin ertaga erta bilan Xadichaxonni cho'loq azayimxonnikiga yuborishga qaror berildi...

Mingboshini tashqarida Miryoqub ham o'sha sovuq xabar bilan qarshi oldi:

— Xo'jayin, sizni gazetga uribdilar! Mana, ko'ring!

«Salom» yo'q, «alik» yo'q, ikki g'ildirakli aravasidan tushar-tushmas, qo'lidagi gazetni mingboshiga uzatib,

kular yuz bilan shu so'zlarni aytgan Miryoqub mingboshining ko'ziga shu topda itdan ham xunuk ko'rinib ketgan edi.

— Tur-e, afting qursin sening!.. Gazeting boshingni yesin!..

Gazetni olib, uning yuziga irg'itdi.

Miryoqub esa «qah-qah» solib kuldi, yerga tushgan gazetni engashib yerdan oldi-da, qoqib, ko'ziga surtgach, to'rt buklab cho'ntagiga soldi, so'ngra tezgina mingboshining qo'ltig'iga kirib, apil-tapil uni so'richaga keltirib o'tqazdi.

— O'tiring, xo'jayin! — dedi o'zi ham qarshisiga o'tirarkan. — Nima bu tajanglik? Nima bo'libdi? Dunyo buzilibdimi?

O'zi uchun Miryoqubdan boshqa chin ko'ngildan kuyadigan odam yo'qligini mingboshi yaxshi bilardi. Shu uchun uning bu kungi harakatini sira anglayolmay qoldi. Aravasidan tushmay turib, «Xo'jayin, sizni gazetga uribdilar!» dedi, so'ngra o'sha gazetni (o'sha gazetning o'zini) uzatdi... Bu nima gap? Tushimi, o'ngimi? Yo ishongan tog'i ham ag'darilmoqchimi? Yo Miryoqub ham boshqa yoqadan bosh ko'tarmoqchimi? Miryoqubsiz uning kuni kun bo'ladimi? Bu davlatlar, obro'lar, amallar, kattaliklar... hammasi qamishning to'zg'og'iday bir nafasda to'zib ketadimi? Miryoqub burungi Miryoqub bo'lsa, to mingboshi o'zi gap ochmaguncha, bu qora xabar to'g'risida gap ochishga ham botinolmasligi lozim kelardi... Albatta, ko'ngillarida hech gapni saqlamaydirgan og'zi bo'sh odamlar bo'ladi. Lekin unaqa odamlarning nomlari «Miryoqub», ayniqsa «Miryoqub epaqa» bo'lmaydi. Miryoqubning tishlari, har holda, lablaridan kuchliroq-ku! Lablarini tishlari orasiga olsa, tili o'lgur, bir oz ko'milib turardi-ku... Faqat Miryoqub hech bir ishni bilmasdan qilmaydi!

Haligidek bema'ni vahimalardan so'ng, nihoyat, mana shu keyingi natijaga kelganidan keyingina, mingboshi esini boshiga to'pladi va Miryoqubning yuziga gazetni irg'itgani uchun o'z-o'zidan koyidi. Uning tirriq ta'bi ham tezgina o'rniga tushdi, yuzi kuldi...

— Hazilingni qo'y endi, — dedi u oddiy va hatto bir

daraja muloyim ovoz bilan. — Menga bir maslahat top. Yetti iqlimga yomon nomim ketdi...

Miryoqub juda tinchlik bilan, kulib turib, bemalol gapirardi:

— Ha, balli, mana bunday deng! Jahl bilan, g'azab bilan, tutoqish bilan bu to'g'rida hech narsa qilib bo'lmaydi. Bu mahkamangizdagi qora fuqaro bilan bo'ladigan ish emaski, chaqirtirib kelib, Mirzaboboga buyursangizu, yerto'laga olib tushib, qichigan yerini qashlasa! Yozgan odam o'sha berkitilgan maktabning domlasi... jadid! U allaqachonlar o'z yurtiga yetib oldi, gazet bo'lsa, gazetchisi bilan birga Toshkentda... Sizbizning emas, bizdan kattaroqlarning ham bo'yi yetmaydi. Gazet yozadiganlar, odatda, zakonchi bo'ladi... Ular bilan yarim poshshoga o'xshagan ulug' odamlar olishmasa, uncha-muncha odamlar bekor kelmaydi. Jadidlar hammasi mahmadona keladi...

— Jadiding nimasi? Nima degan gap o'zi?

— Maktabini yoptirgan vaqtingizda aytib bergan edim-ku.

— Esda qolgan, deysanmi?

— Jadid degani «yangi» degani bo'lsa kerak. Yurt orasida yangilikni rasm qilarmishlar... Yangi o'qish, yangi maktab, yangi urf-odat, yangi kiyim, har narsa yangi...

— Eskicha bo'lsa, kimga zarari tegar ekan?

— Unisini bilmadim... Ishqilib, jadidlarning qasdi shu emish...

— Yangi mingboshi, yangi qozi ham, desang-chi!

— Albatta, o'ziga mos keladigan mingboshi bo'lsin, deydi jadid...

— Darvoqe, Shamsiddin mingboshi bilan To'raqul bo'lus to'g'risida hech narsa yozishmaydi-ku jadidlaring... Nimaga mening to'g'rimda yozishadi?

— Abdusamat mingboshini osmonga ko'tarib yozganlaridan xabaringiz yo'qmidi?

— Ha, aytgancha, bulturmidi?

— Ha, bulturidi. Qanday maqtab yozishdi.

— Jadidlaringga tushunolmay qoldim-ku! Men butun umrimda to'rtta xotin olibman. Uning ham bittasi o'z

ajali bilan o'lgandan keyin... Abdusamat bir o'ntacha xotin oldi... Hali ham to'rttasi qo'lida — naqd... Nega uni yozmadi jadiding?

— Mening jadidim emas, xo'jayin! Shunday bo'lsa ham, mening bilishimcha, jadidlar yangilikni mayl qiladigan odamni yaxshi ko'radilar.

— Ha, aytgancha, Abdusamat o'z qishlog'iga yangi tartib maktab ochgan emasmi? Durust...

— Abdusamat mingboshi hovlisida muallim saqlab, o'g'illarini o'qitadi. Jadid maktabiga pul bilan qarashadi. Odamlarning bolalarini yubortiradi. O'zi jadid gazeti o'qiydi...

— Shuning uchun jadidlarning ko'zi uning o'nta xotinini ham ko'rmaydi, degin.

— Shunday, Jadidlar, yangi maktabga qarashmagan boylarni, «nodon, johil, u-bu» deb so'kishadi. Ularning maktabiga ozgina yordam qilgan boyni «xamiyatlik boylarimizdan falon, falon...», deb osmonlarga ko'tarib yozishadi... Siz ham jadid maktabini yoptirmasdan, og'iz uchida, «ha-pa» deb qo'ysangiz, sizni ham maqtab yozishardi.

Mingboshi shu yerda Miryoqubga tomon egildi va pastroq ovoz bilan dedi:

— Noyib to'ra qo'ymadi-da, qandoq qilay.

— Noyib to'ra ham ayyor odam. O'zi buyruq berib yoptirsa bo'lardi, unday qilmadi. O'zi bir chekkada turib, siz orqali qildirdi... Tayoq endi kelib, sizning boshingizda sindi!

— Yo'q, shoshma, men noyib to'raning yonlariga boraman, «Ilojini qiling, o'zingiz aytgansiz», deyman. Qani, yo'q desin-chi!

— Yo'q deyishdan qo'rqarmidi? Yo'q, deydi, tonib tura beradi...

— Nega, axir? Nega?

— Bugun tonadigan bo'lmasa, o'sha vaqtda o'zi o'z buyrug'i bilan yoptirmasmidi?

— Tonganiga qo'yamanmi?

— Nima qilardingiz? Urarmidingiz?

— Urib bo'ladimi?

— Nima qilardingiz?

Mingboshi jim bo'ldi. Bir qo'lini chakkasiga olib borib, boshini qashladi...

Ikkalasi ham bir oz jim qolgach, yana mingboshi gap boshladi:

— Bir maslahatini topmasak bo'lmaydi. Men bu ishni shunday qoldirib ketolmayman... Shamsiddin, To'raqul, Abdusamatlar qo'sh karnay bilan jar solishadi... Bilasanmi?

— Bu gapingiz rost, xo'jayin. Ularnikida kechadan beri to'y!

— O'sha maktabdor domlani toptirib kelib, Mirzaboboga topshirsamu, yerto'lada bir burov solsa, deb edim. Shunda, ehtimol, ko'nglim bir oz o'rniga tusharmidi...

— Boya aytdim-ku, endi uning arvohini ham topolmaysiz.

— Nima qilamiz bo'lmasa?

Miryoqub javob bermadi. U aytmoqchi bo'lgan so'zini fikr tarozisiga solib o'lchamoqda edi. Nihoyat, mingboshi tomonidan haligi savol yana qaytarilgandan keyin:

— Nima qilardingiz, tishni-tishga qo'yasiz, xo'jayin!- dedi.

Mingboshi irg'ib o'rnidan turdi.

— Tishimni-tishimga qo'yadigan hezlardan bo'lsam, ma, ol, bu shop-shaloplarni! — dedi u baland ovoz bilan. — Menga pasport olib ber, Makkatulloga jo'nayin!

— O'tiring, xo'jayin! — dedi Miryoqub, uning ovozi ham bir oz ko'tarila tushgan edi. — O'shqirish bilan, zarda bilan bitadigan ish emas bu. O'ylaylik, bir chora topaylik!

So'ngra o'rnidan turib, ayvonga bordi; u yerda choynak bilan piyola turgan edi, sovuq choyni piyolaga to'ldirib quygach, bir shimirishda tamom qildi. So'ngra orqasiga qaytarkan, odatdagidan qattiqroq va tezroq so'zlandi:

— Gazetni shaharda ko'rdim. Shundan beri tadbir axtaraman. Hech bir tadbir topolmaganim uchun nochor-noiloj kulgiga zo'r bergan edim. Katta ariqdan xatlayolmagan vaqtingizda kulgingiz keladi... Bilasizmi?

— Bilaman.

— Yiqilgan polvon ham achchig'ini kulib yengadi, — dedi yana Miryoqub.

Mingboshi bir oz jim qolgach:

— Ishqilib, bir chora topmasang bo'lmaydi, — dedi.

Faqat bu keyingi jumla quturgan darrandaning emas, suvga pishilgan mushukning og'zidan chiqmoqda edi...

O'yga botgan Miryoqub boshini ko'tardi:

— O'zimizning gazetga kelishtirib bitta javob yozamiz. Jadid gazetda sizni so'kkan bo'lsalar, o'z gazetamizda biz maqtaymiz, muallimni yomonlaymiz. Shu bilan tarozining biz tomon pallasi bosib tushadi. Abdusamatlarning karnayi bolalar chaladigan qamish nayga aylanib qoladi. Shu bas!

— Ha, mayli!

— Durustmi? — deb yana qaytarib so'radi Miryoqub.

— Durust! — dedi mingboshi. — O'zing yozasanmi?

— Bilib gapirasizmi, xo'jayin? Men gazetning o'zini tuzuk-quruq o'qiyolmayman-ku, unga xat yozish qayoqda! Muni o'z ahli, o'z ustasi yozadi. Shaharga tushganimda, to'g'rilab chiqaman.

— Bo'pti, — dedi mingboshi. — Ishqilib, o'zing epla.

So'ngra o'rnidan turib, Miryoqubga yaqin keldi va uning qulog'iga egilib:

— Pul kerak bo'lsa, ayama lekin! — dedi. — Pul degan narsa topilib ketadi, obro' topilmay-di, obro'!

* * *

Oradan ikki hafta o'tgandan keyin Miryoqub sart tilida chiqadigan hukumat gazetasining bir nusxasini keltirib, indamasdan mingboshining quchog'iga tashladi. U nusxada quyidagi maktub bosilib chiqqan edi:

«Hurmatli gazet muallifi to'raga salomdan so'ng andog' arz qilinurkim, jadid nom toifaning shaharlarda chiqarilaturg'on gazetida Akbarali mingboshi xususida noloyiq iboratlar bilan ta'rif qilingan bir noma chop qilindi. Shu xususda haqiqat yuzasidan izoh qilib aytur-mizkim, Akbarali mingboshi qariyb o'n to'rt yildan buyon oq podshohimizning azamat davlatlariga sadoqat bilan xizmat qilib, shuncha zamon mobaynida hech qanday sarzanishga mustahiq bo'lmadilar. Shahar va uyezd

hokimi to'ralar va fuqaro va boyonlar va ahli ilm toliblar va hokazo hech kimsa mazkur mingboshidan jiddiy norozi bo'lganlari yo'qdur. Va balki hamisha uning haqida xayri duodadirlar. Ul beodob maktabdor bo'lsa, hamma fuqaroning nazarida past va haqir ko'rilgan edi. O'zi namoz o'qimasdan va maktabda go'dak bolalarga yer mudavvardur, ya'ni misli tarvuz yumaloqdur, deb shariatga xilof ilmlarini ta'lim bergani vajhidan fuqaro bezovta bo'lib, har xil qiliqlar paydo bo'lib, yurtning osoyishiga xalal kelganidan mazkur maktabdorning maktabini janobi Akbarali mingboshi berkitib erdilar. Bu vajhidan tamom fuqaro va alalxusus boyonlar, tolibi ilm mullabachchalar, mudarrislar, imomlar, shayxlar va zokirlar, so'filar bag'oyat mamnun bo'lib, ul shahanshohi jahon oq podshohimizning va ham ul ulug' martabalik yarim podshoh janoblarining haqlariga duo aylab, shunday odil va insoflik fuqaroparvar amaldorlarni qo'yganlari uchun ularga minnatdorlik izhor qiladurlar, vallohi a'lam bissavob.

Tammat-tammat tomon yozguvchi kamina xolis fuqarodin mulla Rivojiddin a'lam Mulkobodiy».

Buni o'qitdirib eshitgandan keyin mingboshi juda xursand bo'ldi. Endi to'y bu tomonda boshlandi. Endi buning karnayi dunyoni buzajak, narigilarniki bo'g'ulajak edi. Endi yetti kishvar, yetti iqlimda Akbarali mingboshining qanday yaxshi amaldor bo'lganini bilajaklardi. Oq podshoh bo'lsinu, yetmish ikki toifaning tilini biladigan tilmochlari bo'lmasin! U tilmochlar tomonidan tarjima qilinib berilgandan keyin, bu maktubni oq podshoh albatta, o'qitib eshitajak... balki o'zi o'qiyajak... balki o'zi gazetning tiliga tushunsa... qo'l ostida shuncha toifa yashaydigan bir podshoh o'z fuqarolarining tilini bilsa ajabmi? Mulla Rivojiddin o'zi ajab bir xushtahrir odam! Yozishini ko'ring: suvday ravon! Hamma uqadi, hamma anglaydi! Oq podshoh nega anglamasin? Shundan keyin Peterburgdan Toshkentga — yarim podshohga telegramma kelsa: «Mening shunday yaxshi amaldorim bor ekan, qadriga yetib, hol-ahvolidan xabardor bo'lib turibsanmi?» Ana, shundan keyin, Toshkentdan chopib keladigan katta to'ralarni ayting! U vaqtda shahardagi hokim

va pristup to'ralar Akbarali mingboshiga «chas» («chest») beradigan bo'ladi! Unda narigilar mingboshi emas, kech kuzdagi chivindan ham battar bo'lib qolishadi!..

Bu safar gazetni bag'riga bosib, shu xil shirin xayollarga botgan mingboshi irg'ib turib, qarshisida o'tirgan Miryoqubni quchoqlash va butun davlatini unga tutib yuborishdan o'zini zo'rg'a to'xtatib qoldi. Bunday odamga qancha qilsa va qancha bersa oz.

Shunday bir xursandlik ichida suzgan mingboshiga Miryoqubning yana boshqa arzlari bor edikim, ular ham ahamiyat jihatidan gazetdagi maktubdan sira qolishmasidi.

— Xo'jayin, ko'nglingiz o'rniga tushdi, shekilli? — dedi u bir turli g'urur bilan, lekin bu so'zlar ortiqcha «moylanish» va xushomaddan yiroq edi.

Mingboshi boyagi kayfni to'la aks ettirib, javob qildi:

— Nimasini aytasan!

— Bo'lmasa, naryog'ini eshiting.

— Naryog'ini?

Mingboshining ko'ngliga darhol iztirob tushib ulgurgan edi. Shunday yaxshi bir xabardan keyinga qoldirilgan arz, albatta, xayriyatdan gapirmaydi. Agar yaxshi gap bo'lsa, Miryoqub uni gazetdagi maktubdan burun aytmasmidi? «Xo'jayinning besaranjom ko'nglini tinchitay, undan keyin yotig'i bilan bu xabarni eshitdiray», degan bo'lsa-chi?! Yo'q, amali ham qursin, obro'si ham! Mingboshilikning shop-shalopi og'ir bo'lmasa ham, o'ziga yarasha og'ir tashvishlari bor... Katta odam bo'lish ham qiyin!..

Mingboshining haligi so'ng savolida butun shu iztiroblarning mazmuni bor edi. «Epaqa» laqabini tashiydigan tulki u savolning ostida yotgan behuda tashvishlarni darhol payqadi. Shu uchun darrov:

— Bugun sizning to'yingiz! — deb qo'ydi.

Va so'zida davom etdi.

Masala Qumariq paynovidan suv ichadiganlarning hokimga bergan arizalari xususida edi. Ariza berganlarning boshida kimlar turganini o'tgan safar noyibning mingboshiga aytgan so'zlaridan anglab olgan Miryoqub Qumariqning etaklarigacha borib kelib, hamma gapni

bilganini va tegishli tadbirlarni o'tkazib kelganini gapirdi. Ariza egalarining adabini berish vazifasi uning o'z bo'yniga yuklatilganligidan, haligi «o'tkazilgan tadbirlar» bilan u o'sha vazifasini ham bajarib kelgan edi.

— Yaxshi. Ariza berganlar Yodgor echki bilan Umarali puchuq ekan. Aniq bilibsan. Xo'sh, endi, qani gapirchi, ular xususiga nima tadbir qilding?

Miryoqub kuldi:

— Nima tadbir qilding, deysizmi?

— Ha, nima tadbir qilding, deyman.

Mingboshi butun diqqatini shu nuqtaga to'plab, Miryoqubga tomon bir oz egila tushgan edi. Miryoqub kulishida davom etib:

— Bolalarga tayinlab keldim: pastdagi yerlarga ham uncha-muncha suv berib turinglar, dedim.

Mingboshi yana ovozini ko'tara tushdi:

— Shu adab berganing bo'ldimi?

— Adab berganim bo'lmasa, shunday qilarmidim, qalay? — deb Miryoqub yana kuldi.

— Nechuk ya'ni?

— Insof ham kerak axir, xo'jayin! Sizning yerlaringizni sug'orib bo'lgandan keyin suvni yana Qumariqqa ochib qo'ysa bo'ladi. Ancha suv ortadi. Hech kim dod demaydi. Ayb chorakor bolalarda. Sizning obro'yingizga tayanib, beparvolik qilganlar.

— Nimaga?

— Nimaga bo'lardi. Ular yerlarni sug'orib bo'lgandan keyin Qumariqqa yana qaytib suv ochmas ekanlar. Shuncha suv yondagi eski ariqlarga, pastliklarga tushib, ekinsiz yerlarni ko'llatib yotar ekan. Pastdagilar o'zlaricha kelib, suvni ochgani qo'rqishar ekan. Mirob bo'lsa, og'iz ocholmaydi.

— Ortiqcha suv bo'lsa, mayli bersin, — dedi mingboshi. — Hech narsa demayman. Lekin haligi ikkovining adabini berish kerak edi. Nimaga mening ustimdan ariza tashlaydi?

— Adabini berish kerak bo'lsa, tutib olib uramizmi? Yo ko'pchilik oldida xo'rlab so'kamizmi? Yo bo'lmasa...

Mingboshi Miryoqubning og'zidan so'zini uzib oldi:

— Har nima qilamiz! — deb baqirdi. So'ngra ovozini

pasaytira tushib ilova qildi: — Men ikkalasini chaqirtirib olib, Mirzaboboga berishdan ham toymayman!

— Bir marta hokimga ariza bergan odamlarni urib bo'lmaydi. Keyin ular hokimga yana qayta arz qilsalar, yo bo'lmasa, hokimning ustidan arz qilsalar, yomon bo'ladi. Advokatlarning arizasini bilasiz-ku!

Mingboshi indayolmay qoldi. Nafasi ichida edi. Faqat o'z fuqarolaridan ikkita boyga kuchi yetmaganiga hech chidayolmasdi. Yo'g'on oyoqlaridagi zo'r-zo'r kavishlari bilan bezovta bo'lib yer depsinardi.

Miryoqub bu holni ko'rganidan keyin uni tinchitmoqchi bo'ldi, mingboshiga juda tanish bo'lgan kulimsirash bilan uning yoniga o'tdi va dushman eshitsa ishonadigan bir ovoz bilan:

— Ularning adabini dehqonlarning o'zlari berishadi! — dedi.

So'ngra mingboshining hayron bo'lib o'ziga tikilganini ko'rgach, Qumariqda ko'rib kelgan dasisalarni so'zlab berdi. Uning so'zidan anglashilardikim, Qumariqqa borgan vaqtida u yerga suv yetmay alamzada bo'lib yurgan oz yerli kambag'allardan bilagi yo'g'on uch yigitni chaqirib, ularning yerlariga suv tegmaslikda mingboshining hech bir aybi yo'qligini, hamma ayb Yodgor echki bilan Umarali puchuqda ekanini so'zlagan. Yigitlar buning sababini so'ragan vaqtida Miryoqub ularni Sadaqayrag'och degan joyga olib borib, ekinlarni ko'rsatgan. Chinakam o'sha joyda mingboshining bir shapaloqqina yeri bo'lib, soya joyda qolib ketganligidan, g'o'zalari uncha o'smagan, ko'p chigitlari chiqmay qolgan ekan. U yerning yon-veridagi ko'p yerlar Umaraliboy bilan Yodgorxo'jaga qarar ekan. Ularning yerlari mingboshining paynovidan suvni juda bemalol ichganlari uchun ekinning ko'rinishi nisbatan yaxshi bo'lgan. Ana o'sha ekinlarni yigitlarga ko'rsatib turib, «Mana, ko'ring endi, kimning yeri ko'p ichar ekan suvni!» degan. Shundayoq yigitlar mushtlarini tugimlab, boylarning yerlari tomonga o'qtalganlar, «Hap siznimi!..» deganlar. Shundan keyin, Miryoqub yigitlarni o'tirishga da'vat qilib, ularga bir yashirin gap aytmoqchi bo'lganini so'zlagan. Ular yuraklariga talvasa tushib va lablari qaltirab, uning og'ziga ti-

kilgach, sirni hech kimga aytmasliklari to'g'risida ulardan qattiq va'da olgan; undan keyin Umaraliboy bilan Yodgorxo'ja tomonidan hokimga berilgan arizadan gap ochgan. Miryoqubning gapidan yigitlar anglaganlarkim, Umaraliboy bilan Yodgorxo'ja yaqinda hokim to'raga ariza berganlar va u arizada o'z yerlarini necha yildan beri suvsiz qolayotganini, Qumariqdagi suvning faqat mingboshiga qarashli yerlar bilan boshqa ba'zi birovlarning yerlarini sug'organini, bularning yerlariga hech bir suv oshmaganini yozganlar... Shu gapni eshitgandan so'ng yigitlarning biri irg'ib o'rnidan turgan va mushtini tugimlagani holda «O'zim tutib olib uraman, zang'arlarni!»... deya o'shqirgan... So'ngra Miryoqub turib, bunday degan: «Mingboshi dodho bo'shagan suvning siz tomonga oqishiga qarshi emas. Lekin o'sha ikkoviga o'chakishib, pastga suv bergisi kelmaydi, «O'shalarning yeri ichadigan bo'lsa, hammaniki qurib ketgani yaxshi», deydi. Baribir, pastga suv berganimiz bilan sizga suv tegmaydi, hamma suvni ular ikkisi to'sib oladi!» Bu so'z yigitlarning yaralariga tuzqalampir bo'lib tushgan; ular uchalasi bir og'izdan «Mingboshi dodho suvni pastga o'tkaza bersin, ular bilan o'zimiz gaplashamiz!» deganlar. Miryoqub ularning o'z oldilarida mingboshining chorikorlarini chaqirib, bo'shalgan suvni pastga o'tkazmoqqa buyruq bergan.

Mingboshi Miryoqubning bu arzini, ertak tinglagan yosh boladay, buyuk bir zavq va nash'a bilan tinglamoqda va erta-indin ikkala boyning boshiga tushadigan hangomalarni ko'z oldiga keltirmoqda edi. Uning fikricha, o'sgan bolaga eski kiyimi tor kelganday, Miryoqubga ham endi «epaqa» laqabi kamlik qilardi. Unga boshqa bir munosib laqab topish lozim kelardikim, unday laqabni endi bu qishloq odamlari topolmasdilar, buning uchun Amir Navoiy yoki Mavlono Jomiy, yo bo'lmasa, Shomashrabning tirilib kelishi darkor edi.

Mingboshi Qumariqda chovrilgan u g'alati nayranglar va u nayranglarning ustasi to'g'risida shunday shirin o'ylarga ketgan, Miryoqub esa mingboshining xursandlik va kayf bilan mast bo'lgan yuzlariga tikilgan bir paytda ichkaridan bir tovoq to'la manti chiqib, dasturxonning

o‘rtasidan joy oldi. Miryoqub bu dargohda tez-tez ko‘rinib turadigan bu serqatiq, semiz va yog‘liq mantilarga qadrdon do‘stini ko‘rganday shirin bir kayf bilan tikildi, so‘ngra ko‘zlarini tovoqdan ko‘tarib, mingboshining yuzlariga qaragach, shu topda tovoqdagi manti bilan tovoqqa tomon egilgan yuz o‘rtasida hech qanday farq ko‘rmadi: ikkalasi ham shu qadar yog‘liq edi!

Mingboshi qo‘l yuvishni unutib, «oling-oling»ga qaramasdan, besh panjasini barobar botirib, tovoqqa hujum boshlaganini ko‘rganidan keyin, Miryoqub irg‘ib o‘rnidan turdi-da, qo‘l chayqamoq uchun ariq tomonga yugurdi. Lekin mingboshi dodhoning ajdar kepatali ishtahasini bir oz to‘xtatmoq lozim edi; shuning uchun Miryoqub uning aqlini o‘g‘irlamoq maqsadida qichiq masaladan gap ochdi:

— To‘yni nima qildik, xo‘jayin? — dedi u qo‘lini chayqab turib.

Mingboshi boshini tovoqdan ko‘tarmay, og‘zida bir manti, qo‘lida ikkinchi manti bilan shoshilib javob qildi:

— O‘zing bilasan! Men qaydan bilay!

Miryoqub mingboshining bu javobidan shu topda uning mantidan boshqa hech bir masala bilan mashg‘ul bo‘lolmasligini angladi. Chinakam, u qo‘lini chayqab dasturxon boshiga kelganida, tovoq yarimlay degan edi. Shu uchun ular ikkalasi ham bir ozgina jim qolishni ep ko‘rdilar. Ayniqsa, mingboshi, og‘ziga paxta tiqqan kabi, jiddiy sukutga tolmishdi...

Tovoqning u yer-bu yerida uch-to‘rtta qatiqsiz manti qolgach, mingboshi dodho tovoqdan boshini ko‘tardi. Faqat ikki ko‘zi va qo‘lining mo‘ljali tovoqda edi.

— Ha, xo‘jayin, — dedi Miryoqub, — bo‘ldingizmi?

— Bo‘ldim hisob! Qani ol sen ham! — dedi mingboshi va o‘z oldidagi yolg‘iz mantiga qo‘l uzat-di... Ungacha Miryoqub ham o‘z tomonidagi mantilarni bir joyga to‘plab olgan edi!

Tovoq bo‘shalib, o‘rtadan ko‘tarildi, uning o‘rniga katta choynakda choy keldi. Shundan keyingina mingboshining gap-so‘zga ko‘chmak istagani ma’lum bo‘ldi.

— Qani, qizdan gapir endi, betavfiq! — dedi u. — Otasi nima depti?

— Siz ilgari qizning o'zidan gapirib bering. Qalay, ovozi ma'qul bo'ldimi?

— So'rab nima qilasan? Senga butun avliyo-anbiyolarni shafe keltirib aytamanki, o'sha qiz menga nasib bo'lsa, undan keyin xotin olishni bas qilaman!

— Hech kimni shafe keltirmay tura turing hali. Keyingi ikkitasini olgan vaqtingizda ham, har safar «bas endi! Shu — oxirgisi!» derdingiz. Bo'lmaydigan va'dalarni til uchiga keltirmang, ichkarida tura tursin... Vaqti kelganda, va'da bermasdan ham bittaga tayanib qolsangiz bo'laveradi...

— Ishonmaganingni qara, benamoz! Men astoydil gapirayotirman. Xudo bitta, so'z bitta!

— Ho'h-ho'!.. Hali shu darajaga borib qoldingizmi? Bo'lgan ekan!

— Nimasini aytasan. U kelsa, uchovidan ham kechmoqchiman. Uchoviga qayrilib qaramay, deyman... boryo'g'imni o'shanga beray, deyman...

— Sizga nima bo'ldi, xo'jayin? Aqlingiz joyidami? Yo yo'qmi?

Mingboshi ko'zlarida allaqanday bir iztirob bor edi. Uning og'zidan chiqqan so'zlar, tildagina aytiladigan so'zlarga o'xshamasdi. Miryoqub butun umrida ko'rilmagan bu hol qarshisida shoshib qoldi. Yana bir necha marta boshini egib, «ho'h-ho'-ho'h-ho'» deya takror qildi.

Oraga jimlik cho'kdi. Faqat Miryoqubning chuqur o'yga ketib, torta-torta choy ichgani eshitilardi. Mingboshi qo'lidagi choyni hech bir luzumsiz aylantirib, sovutmoq bilan ovora edi.

— Ho'h-ho'! — dedi yana Miryoqub. — Otasi qurg'ur yaqin kelmaydi-ku.

— A? — dedi mingboshi. Choyni yerga qo'yib, butun vujudi bilan Miryoqubga tikildi.

— So'fisi qurgur yomon taqvodor ekan, xo'jayin.

— Nima depti?

— Ayta beraymi?

Mingboshi qichqirdi:

— Aytmay nima qilasan! Yashirarmiding?

— Umrida peshonasi sajda ko'rmagan odamga qiz beramanmi? — depti...

Mingboshi negadir «qah-qah» solib kuldi:

— Toza avliyo ekan-ku, — dedi. — Benamozga qiz bermas ekanmi? A, avliyosi tushkur-ey!

— Undan keyin, betavfiq, buzuq yuradigan, depti...

Mingboshi yana «qah-qah» soldi:

— Sen bilan yurib, shunday bo'ldim, betavfiq! Epla endi o'zing. Men bir ish qilib olaman qizni! Menga bermay kimga beradi?

Shu choqqacha zo'r berib allanarsalarni o'ylamoqda bo'lgan Miryoqub yana cho'ntagidan soatini olib qaradi:

— Ho'h-ho', — dedi, — o'n ikkiga yaqinlashib qolibdi. Men ketdim, xo'jayin.

O'rnidan turdi.

— Shoshma, — dedi mingboshi, u ham o'rnidan turgan edi. — Maslahat nima bo'ldi? Otasi bermaydi, deb keta beramanmi?

Miryoqub kavishini kiyib, sallasini boshiga qo'ndirgach, mingboshiga yaqinlashdi.

— Xotirjam bo'ling, xo'jayin! — dedi. Ovozida jiddiylik, keskinlik va o'ziga ishonch to'lib yotardi. — Otasini unatamiz, qiz sizniki bo'ladi. Men o'zim bajaraman bu ishni.

Mingboshi uning orqasiga bir-ikki marta urib qo'yib:

— Senga ishonaman, senga, yo'lvorsim, yo'lvorsim! — dedi.

Mingboshi, kechaning chuqur jimligida kattakon kavishini taqillatib, esnay-esnay, ichkariga kirib borarkan, Miryoqub Mirzaboboni yoniga olib, darvoza darchasidan ko'chaga chiqqan va qishloq itlarining to'polon «vov»lari o'rtasida keta turib, johil so'fining qaysarligini sindirish uchun turli-tuman tadbirlar axtarardi...

VIII

Razzoq so'fining uyidagilar «mingboshi» degan so'zni unutayozgan edilar. Mingboshi to'g'risidagi dovruq bir xil daydi shamollarday to'satdan kelib qolgan, so'ngra so'fining ma'lum so'zlaridan keyin butunlay jimib ketgan edi. Qurbonbibi yana qo'ni-qo'shnisidan ish olib, ko'rpa

qavishga o'tirdi. Zebi bo'lsa, hovuz bo'yiga to'shakchani solib, kashtasiga berildi. O'lmasjon har o'tganida, deyarlik so'fining baland devoriga osilib, xipchin sindiradigan bo'ldi... Endi kashtachi qiz «voy, o'la qolay!» deb ichkariga qochmas, faqat betiga ro'molini parda qilib, ikki beti cho'g'day yongani holda, kulimsiragan ko'zlari ila haligi pardaning yonidan mo'ralardi...

Saraton yaqinlashganga o'xshaydi. Oftob tandurini qizita tushdi. Kechagina ko'klarda qanot qoqib o'ynashdan tuganmas lazzat olgan qushlar endi daraxtlarning quyuq ko'lankali shoxlarida o'tirib olib, issiqdan jon saqlaylar. Ko'cha-ko'ydan birorta otliq yo arava o'tgunday bo'lsa, dunyo-dunyo chang ko'tariladi... Odamlar, jonvorlargina emas, dov-daraxtlar, jonsiz maxluqot ham entikib, bo'g'ilib nafas olgan kabi.

So'fi ham daydishdan tiyildi. Necha kundan beri suhbatga ham bormaydi. Darpardalarga choyshabdan pardalar to'stirib, uyni qorong'i qildirib, bitta kiygizchadan boshqa hamma paloslarni oldirib tashlab, qoqlangan yerlarga qalin-qalin suv urdirib... ertadan-kechgacha uydan chiqmaydi. Oldida yaxna choy, yonida yelingich, o'zicha zikr qilgan bo'ladi. Bir qarasangiz, «Hikmat»'dan baytlar o'qib, ho'ng-ho'ng yig'laydi... Dam bo'lsa, suhbat hofizlari singari asta-asta xirgoyi qiladi.

— Xonaqodan kechib yubordingiz, shekilli! — dedi bir kun Qurbonbibi.

— Valdirama, Fitna! — deb qichqirdi so'fi. So'ngra yana o'z ishiga berildi.

— Eshon buvam xafa bo'lmaydilarmi? Qanday muridsiz! — dedi yana bir kun Qurbonbibi.

— Shu issig'da suhbatga hafsala bormi? Qiziq ekansan... — dedi so'fi. Bu daf'a, teskari burilib, uyquga ketdi...

Allakim ichkari eshik ketidan «So'fi! Hov, so'fi!» deb chaqirgan vaqtida, so'fi og'ir uyquda, Qurbonbibi esa qavib bo'lgan ko'rpani egasiga topshirmoq uchun qo'shnilarnikiga chiqib ketgan edi.

Xo'ja Ahmad Yassaviy asari.

Bu chaqiriqni hovuz bo'yida o'tirib eshitgan Zebi ro'molini pana qilib, eshik oldiga keldi.

— Kimsiz? Nima deysiz? — deb so'radi.

U yoqdan sodda va bir oz dag'al, lekin quvnoq bir erkak ovozi keldi:

— Ha, Razzoq so'fining ojizalarimisiz? Qalaysizlar, omon-eson bormisizlar?

— Xudoga shukur, — deb qo'ydi Zebi.

— Men otangizni aytgali kelib edim...

— Uxlab yotgan bo'lsa kerak. Uyg'otib beraymi? Zarurmi?

— Eshon bobom yo'qlatdilar. Uyg'otmasangiz bo'lmaydi. «Tez, oldingga solib kel!» dedilar...

— Xo'p bo'lmasa, uyg'otib berayin.

Zotan, juda sergak uxlaydigan so'fi birinchi chaqiriqdayoq uyqudan uyg'ongan edi. Darpardaning bir qanotini ochib, tashqariga un soldi:

— Kim u? Nima deydi?

Elchi so'fining ovozini eshitdi:

— Menman, so'fi, menman. Xudoynazar!

Elchining kim ekanini bilganidan keyin so'fi uning nima uchun kelganini so'rab o'tirmadi.

— Shoshmang bo'lmasa, hozir chiqaman, — dedi.

Apil-tapil hovuz bo'yiga o'tib, tahorat yangilay boshladi.

Qurbonbibi qo'shnilarnikidan qaytib chiqqan vaqtda, so'fi allaqachon ketib bo'lgan, Zebi esa uyni yig'ishtirarkan, birgina qizil olma uchun dovol oshib boqqa tushgan yigitcha to'g'risida ashulani dang qo'ygan edi.

— Hay, Zebi, otang qani?

— Eshon buvam oldirib ketdilar.

Ashulaning bo'linishini istamagan qiz javobni kalta qilib, yana sernash'a qo'shig'ini boshladi. Faqat kampir shu topda gapga va gaplashuvga juda qiziqardi. Chunki ko'rpa qaviq uchun bu safar pulni ko'pgina to'laganlar, boz ustiga «muncha chiroyli va tekis qavigani» uchun uni o'z yuziga maqtaganlar, ikkinchi tomondan, cholning «bir haftadan beri uyda sasib yotgandan so'ng» yana xonaqo tomonga yo'l solishi kampirning bo'g'ilgan ta'bini ocha tushgan edi.

— Xudo umrlarini bersin eshonbuvamning! Muncha yaxshi qilibdilar! Erkak degan hadeb uyda yota bersa, sasib ketadi...

— Hali ham ko'rpalaridan allaqanday hidlar buruqsaydi... — dedi Zebi.

— Oftobga olib chiqib yoy! Iloji bo'lsa, hovliga olib o'tib, qoq! — dedi Qurbonbibi besh-oltita siyqa tangani qayta-qayta sanarkan. — Yaxshi bo'libdi, aylanay, bolam, otangning og'ir jussasini eshonboboday odam ko'tarmasa, kim ko'tara oladi?

Bir oz jim qolgach, eski hasratini boshladi:

— Ilohim, qovoqqinasi o'chsin uning... Yuragim laxta-laxta qon bo'ldi. Qovog'idan doim qor yog'adi, vajohati doim qish, doim izg'irin... Yo bir maslahatni aytib bo'ladi, yo ro'zg'or ishini. Koshki, boshqa mo'min-musulmonday bir kasb qilib, besh-o'n tanga topib kelsa... Yo'q, yo'q! O'zi to'y-mo'yga borib, qornini to'yg'azib kelsa bo'ldi, boshqa bilan ishi yo'q! «Uyda xotinim bor, qizim bor, ular nima yeydi?» deb o'ylamaydi. Xonaqoning tekin shovlasini yeb, yomon o'rgangan-da! Mehnat qilib, peshona terisini oqizishga endi ko'ngli o'lguri unamaydi. Akasi sho'rlik qancha yalindi — «Qishloqqa chiq, birga ishlaylik!» deb. Ko'nmadi sira! Mehnatga tobi bormi, qalay? Och qolsa ham, bo'yni ishga yor bermasdan, shu bo'yicha o'tib keta beradi. Tag'in har yil bir qur hajga jovdiraganiga kuyaman! Yonida bir chaqasi yo'q, nimaga ishonib bo'lsaykin, har yil bir qur «boshput» oladi. Chinakam jo'naydigan kishiday, bor puliga un olib, yog' olib — kulchalar yoptiradi. Taraddud bitg'andan keyin, hajga borish qolib keta beradi-da, yog'liq patirlarni xonaqodagi tekinxo'r so'filar yeydi! Ado bo'ldim men mundan!.. Kuydim men mundan...

Ko'rpa-to'shakni hovliga tashib yotgan Zebi bu hasratlarni tinglarkan, sho'rlik onaning tog'day bardoshiga qoyil bo'lardi. Onasining juda og'ir yuk ostida entikkanini bilganligidan, esini taniganidan beri unga har to'g'rida yordam qilishga tirishib, butun ro'zg'or ishini o'zi eplab kelar, onasiga hech bir og'irini tushirmas edi. Zotan, bu ro'zg'orni Qurbonbibining qavigan ko'rpa-to'shak va

guppilari ila Zebining chevar qo'llaridan chiqqan chorsi va do'ppilari tebratib kelmaydimi?

— Peshonamizga bitgani shu bo'lsa, qandoq qilaylik, oyi! — dedi qiz.

Bu vaqtlar ular ikkalasi hovligacha yoyilgan paloslarni qoqmoqqa kirishgan edilar.

— Albatta, bolam, qazoga chora yo'q. Shunday bo'lsa ham ko'ngil to'lib ketganda, chidamay gapirasan-da, odam...

Ikkovi ham jim qolib, o'z ishlariga berildilar. Bir ozdan so'ng kampir kuyinishdan bosilib oddiy ovoz bilan so'radi:

— Eshon bobom nimaga chaqirtirdi ekan? Kelgan odam aytmadimi?

— Bilmadim, juda zarur, shekilli, «Oldingga solib kel», degan ekanlar. Otam o'zi ham apil-tapil tahorat yangilab chiqib ketdi.

— Yaxshi bo'libdi. Biror joyda to'y-mo'y bordir. Otang kelmasa ham ehtimol, bolam, qishloq-pishloqqa chiqishadiganlar. Bo'lmasa, muncha jadallatib chaqirtirmasidi.

— Qishloqqa chiqib ketsa, yana yaxshi! — dedi Zebi.

Shu topda uning yuzlariga quvnoq bir kulish yoyilgan edi.

— Saltanatxonni chaqirtiray, deb edim. Bir kelib o'ynab ketsa, yaxshi bo'laridi.

— Mayli, bugun kechgacha otang kelmasa, ertaga chaqirtirarsan.

Qizning yuziga yoyilgan va borgan sari quyilmoqda bo'lgan quvnoqlik, qumga tushgan tomchi kabi, birdaniga yo'q bo'ldi; uning jiddiylashgan ko'zlariga endi tashvish ko'langalari cho'kkan edi.

— Na unimiz bor, na guruchimiz. Yana nonqoqiga chaqiramizmi? — dedi qiz. Onaning javobini kutib o'tirmasdan, o'rtangan bir ovoz bilan ilova qildi: — Yo'qchilikdan qutular kun bormikin?..

— Koyima, qizim, — dedi ona, — o'rtog'ingni quruq jo'natmaysan. Osh-suvingga yetguligini eplaymiz.

Zebi ko'zlarini keng ochib qaradi:

— Rost aytasizmi?

Qurbonbibi ro'molining uchidan boyagi tangalarni olib, qiziga uzatarkan, ovini yiqitgan mergan singari, ko'ngli sevinch bilan to'lgani holda:

— Mana, bolam, ko'rpa qavig'idan pul tegdi! — dedi.

Zebi ikki qo'lini onasining bo'yniga tashladi; ona uning sochlarini ikki-uch marta yumshoq-yumshoq silagandan keyin, og'zini u sochlarning o'rtasiga qo'ydi. Shunday qilib, ikki alamzada ko'ngil juda qisqa bo'lgan quvonchlarga berildilar...

* * *

Faqat bu to'rt devor orasiga kiradigan quvonchlari o'tkinchining nazariday bir nafasga kirib chiqadilar. Ularning kirganini zo'rg'a payqaganlar chiqqanini payqayolmay qoladilar.

O'sha to'rt devor ichida tug'ilib o'sgan, o'sha to'rt devorning tund nazarlaridan boshqa hech narsa ko'rmagan va unga ko'nikib qolgan bechoralar o'z hollarining muncha fojialarini payqay olarmidilar? Har qanday quvonchni o'zlarining o'sha tor dunyolaridan axtarmoqqa majbur bo'lgan sho'rliklar tashqaridan adashib kirib qolgan oriyat quvonchlariga ishonib, ko'ngil qo'yarmidilar?..

Odatda xufton o'tar-o'tmas yotog'iga kirib, ilk sahar uyqudan uyg'onadigan Zebi otasining kelish-kelmasini bilib, shundan keyin xotirjam uxlamoq uchun anchagacha onasi bilan gaplashib o'tirdi. Ular ikkalasi topgan-tutgan gaplarini bir-birlariga aytishib, uch choynak choyni tamomladilar. Butun el bir uyquni urib bo'lganda ham so'fidan darak bo'lmaganidan keyin ona-bola uning eshonbobo bilan birga biror joyga ketganiga hukm qildilar. Zebi ertaga o'rtoqjonini chaqirtiradigan bo'lib, shirin xayollar bilan uyquga ketdi.

Bir tomondan, juda kech yotib, ikkinchi tomondan, nihoyat darajada totli tushlar bilan ko'p rohat uxlaganligidan u ertasi kuni odatdagidan ancha kech uyg'ondi. Uyqudan ko'zini ochib, tevarak-atrofga qaragach, tashqari eshikning karrakday ochilib turganiga ko'zi tushdi. Demak, so'fi qaytgan edi. O'zining bu qadar qattiq uxlaganiga hayron bo'ldi. Otasi odatda darvozani juda qattiq taraqlatardi. Ichkaridan «labbay» deb javob

berilgandan keyin to birov chiqib darvozani ochguncha, badjahl so'fi bardosh qilolmas, qo'lidagi tayoq bilan zo'r berib darvozani savardi... Demak, butun shu taraq-turuqni eshitmagan Zebining o'lguday qotib uxlagani ma'lum bo'lardi. Endi Saltanatxonni chaqirish havasi yellarga uchdi... Endi yana haftalarcha so'fining boshi uydagi yostiqdan ko'tarilmaydi. Endi yana qanchagacha yosh qizning guldek umri hovuz bo'yida igna sanchib o'tadi.

O'rnidan turib, bet-ko'zini yuvdi, o'choqqa o't yoqib, choydishni qo'ydi, so'ngra tashqari eshikni yopib qo'yib, sekingina uy tomonga bordi. Bir juft darparda yopiq bo'lganidan uyning ichi bir oz qorong'i edi. Astagina quloq berdi: birovning xo'rsinib yig'lagani eshitilardi. Yana ham qunt qilib tingladi. Yig'lagan onasi edi. Ko'ngli shuv etib ketdi. Bir ozdan so'ng so'fining g'udurlagani eshitildi:

— Xotin kishini yig'lashga haq qilgan xudo... Yig'lay ber!

Shundan so'ng uy ichida og'ir bir jimlik cho'kdi. Qurbonbibining yig'isi xo'rsinish darajasiga tushib qoldi. Keyincha u ham jimib ketdi.

Uzoq jimlikdan so'ng so'fining og'ir bir tomoq qirgani eshitildi. So'ngra u odatdagi amirona ovozi bilan:

— Qani, bo'l, choyingni ber! — dedi.

Kampir ezilib muloyimlashgan ovoz bilan:

— Shu yerga beraymi yo eshikka chiqasizmi? — deb so'radi.

So'fi yana o'sha dag'al ovoz bilan:

— Dim uyda nima bor! — deb qichqirdi.

Onasi tashqariga chiqqach, Zebi borib uning bo'yniga osildi. Qurbonbibining ko'zlari qizarib, qovoqlari ko'kargan edi.

— Nimaga yig'ladingiz, oyi? — deb so'radi Zebi.

Onasi darhol javob berolmasdan bir oz o'ylanib turgach:

— Hech... — deb qo'ydi.

Javobning birdaniga berilmagani, so'ngra bu «hech» degan ma'nisiz javob Zebining tashvishga tushgan ko'nglini battar tashvishlantirdi.

— U nima deganingiz? Bekorga yig'laydimi kishi?- dedi u.

Qurvonbibi yana jim qoldi.

— Oyi, bir yomon gap borga o'xshaydi. Mendan yashirib yotirsiz! — dedi Zebi.

Uning ko'nglidagi tashvish endi tilga, ovoziga o'tgan edi.

Ona endi bu safar bolasini qondirgunday javob bermoqqa majbur bo'lganini payqadi. Faqat nima deyishini bilmasidi.

— So'rab nima qilasan, bolam? Otangning fe'lini bilasan-ku, bekordan-bekorga meni g'azablab o'tiribdi...

— Nima deydi, axir?

— Nima derdi? Boshimni olib, bir yerga ketaman, deydi... to'ydim senlardan, deydi...

Zebi onasining bu gaplariga ishonib, ko'ngli ancha tinchigan bo'lsa-da, onaning o'zi o'z og'zidan chiqqan bu yolg'onlarga ishonolmas, «o'zim ishonmagan narsaga qizim bechorani qanday ishontiraman», deb o'ylardi...

— Otamning shunaqa xulqi bor, — dedi Zebi. — Ba'zi-ba'zida fe'li aynisa, «ketaman»ga tushadi. Qo'ying, xafa bo'lmang. Erta-indin bosilib qoladi. Ilgari qilmagan bo'lsaykin...

Zebining bu muhokamasi onaning ko'nglini darrov tinchitdi. Qizining bu so'zlarida va u so'zlarni aytgan vaqtidagi ovozida yosh bolalarda bo'ladigan bir soddalik ko'rinardi. Qiz bechora hali ko'p sodda! U onasining og'zidan nima chiqsa, darrov ishonadi! Faqat ona bechora o'z qizini qanchagacha aldab yura oladi? Qizning bu soddaligi qanchagacha davom etadi? Bu aldashlar erta-indin ochiq haqiqatlar qoshida chilparcha bo'lib sinmaydilarmi? U vaqtda aldamoq uchun so'z topiladimi? Yosh qizning «qars» eta yorilishi mumkin bo'lgan ko'ngil shishasini yamash uchun onaning tadbir sandig'ida hech narsa topiladimi? Sodda qiz til uchida aytilgan bir-ikki og'iz gap bilan tinchlanib, so'riga joy qilgali chiqqan vaqtida ayvonning bir chekkasida o'rnidan jilolmay qolgan onaning ko'nglida shu tashvish va shu andishalar aylanardi. Keyincha qizning tamom tinchlanganini ko'rgach, Qurbonbibi ham iztiroblardan yengillanganday

bo'ldi. So'riga kelib, tayyor dasturxonga o'tirgach, Zebining peshonasidan o'pib-o'pib qo'ydi.

Otasini nonushtaga chaqirmoq uchun kirgan Zebiga Razzoq so'fi nimagadir:

— Choyingni hovliga chiqib ich! — deb buyurdi.

Bu buyruqqa na ona e'tiroz qildi va na qiz. Ayniqsa, Zebi butun bu narsalarni otasining fe'li ayniganidan ko'rardi. Onasining ko'zlarida shuncha iztiroblar qaynab toshgani holda yosh qizning sodda ko'ngli ularni ko'rolmas edi. Onaning ko'ngli sir berkitish orqasida g'ashidan yorilay deganda, qizning ko'ngli dam O'lmasjonni, dam Saltanatxonni erkalatib o'ynardi. Hovuz bo'yida yana o'sha qo'shiq, yana o'sha yoqimli ovoz suvlarning jimjimasi ustida yo'rg'alardi. Yana o'sha kashtalarning, yana o'sha kular yuzli ipaklari ilang-bilang chiziq ustidan borib, kungiralarning shaklini qavartirardi. Yana o'sha devordan yana o'sha aravakash bola mo'ralab, yosh qizning mungli qo'shig'ini bo'lardi...

Bir kun ertalab ikkita qo'y bilan bir arava un-guruch kelib kirgandan keyin onasining andishalik ko'zlariga qaramasdanoq, tunov kungi ko'z yoshlarning ma'nosiga tushundi. Yosh qizning ko'ngil shishasiga bir tosh kelib tekkan kabi bo'ldi...

Nonushtadan bir oz keyin qo'ylar kelgan bo'lsa, tushga yetmasdanoq qassob tayyor bo'ldi va Razzoq so'fi etagini beliga qistirib, yenglarini shimarib tashqariga jomlarni, savatlarni tashimoqqa boshladi. Qo'ylarning qop-qora qonlari yerlarni bo'yamasdan turib, tashqari tomondan xursand ovozlarning:

— To'y qulluq bo'lsin, so'fi!

— Juda soz bo'libdi!

— Bunday davlatni kam bandasiga beradi xudo! — degan xushomadlari ko'tarildi.

Endi onaga qo'shilib qiz yig'lar, qizga qo'shilib ona yig'lardi. Bularning yig'ilari kuchaygan sari tashqari tomondan kelayotgan xushomadlar ham kuchayar, butun mahalla-ko'y Razzoq so'fining baxtini olqishlab, chapak chalardi!

* * *

O‘rtaroq bir xonadonning orzu-havasli kattakon to‘yidan hashamatliroq bo‘lib o‘tgan fotiha to‘yidan keyin Qurbonbibining ko‘zlarida yig‘laydigan yosh ham qolmagan edi. Zebining ko‘z yoshlari sira tinmadi. Bu orada Saltanatxon ikki marta kelib ketdi. Qumrixon keldi, boshqa o‘rtoqlari kelishdi, har yo‘l bilan Zebining ko‘nglini olishga, uni yupatishga urindilar. Bo‘lmadi! Ko‘z yoshlari ariqning suviday o‘zlari kelib, o‘zlari quyulardilar. Ilgariroq kunda yuz marta qizini yupatgan, uning ko‘z yoshlarini yenglari bilan artgan ona endi u yoshlarga ko‘nikib qolgan, indamasdan o‘z ishiga mashg‘ul bo‘lar, to‘y hozirliklarini ko‘rardi.

Har haftada bir keladigan qo‘y, un-guruchni tashimoqdan Razzoq so‘fining qo‘llari qabardi... Toza guruchlar bilan bo‘rdoqi qo‘ylarning palovlarini yemoqdan quyuq yog‘lar me’dasiga urdi... Yog‘liq qo‘llarini arta bermoqdan uning eski bedana mahsisi oynaday yaltirab ketdi. Butun bularning orqasida ona bilan bolaning qaynoq ko‘z yoshlari quyilardi. Butun bu noz-ne’matlar yosh qizning ko‘ngil shishasini sindirish bahosiga tushgan edi. Faqat so‘fi ko‘ngildan va uning nozik shishasidan bir narsa anglaydigan odam bo‘lmaganligidan bu kattakon ishning oqibatini xayol qilgan vaqtlarida «kelasi yilga (inshoollo!) hajga ketish nasib bo‘ladi», degan umidlar bilan xursand bo‘lardi...

Birinchi marta qo‘y kelgan kundan beri butunlay esidan og‘ib qolgan Qurbonbibi fotiha to‘yidan keyin bir oz o‘ziga kelgan edi. Bora-bora Zebining ko‘z yoshlari ham quridi. U ham xuddi suratday jonsizgina sudralib yura boshladi. Burungiday onasining hech bir so‘zini qaytarmas, nima desa, og‘zidan chiqqan hamon bajarardi. Eshushi o‘zida bo‘lmagan bu jonsiz suratning yog‘ochday qotib qolgan qo‘llari va barmoqlari ila ro‘zg‘or ishlarini yana burungiday puxta bajarishlari — onaning qurigan ko‘zlarini ham yana yosh bilan to‘lg‘azib yuborardi. Zebining og‘zidan na bir og‘iz so‘z chiqar, na bir bayt qo‘shiq, na bir oh-voh. Bu hol onaning iztirobini besh battar oshirardi. «Bu ketishda, qizim sho‘rlik, to‘yga

yetarmikan, yo'qmikan?» degan xayollar onaning bag'rini tilardilar.

Eshonning chaqirtirib ketgan kunining ertasiga Razzoq so'fi uyiga qaytib kelganidan keyin — «Qizingni mingboshiga berib keldim, taraddudingni qil!» degan, shundan so'ng Qurbonbibi yig'lashga boshlagan, uni Zebi yupatgan, shu bilan ish fotiha to'yiga borib yetgan edi. Bu orada anchagina vaqt o'tsa ham Qurvonbibi o'z eridan — ilgari rad qilgan mingboshiga keyincha rozilik berishining sabablarini so'ramadi. Gapning rosti, yuragi betlab so'rolmadi. Ilgari Zebi o'z otasidan qanday qo'rqib qochgan bo'lsa, endi Qurvonbibi ham o'z eridan shuncha o'zini chetga tortardi. Zebining haligi ahvoli ko'ngliga tashvish solganidan keyin chidayolmadi; bir kun Zebining yo'q vaqtini topib turib, eriga so'z ochdi:

— Boshim gangib, hech narsa deyolmay yotibman...

— Ha, nima demoqchisan, Fitna? — So'fi avvalgiday quruq va sovuq gapirardi.

Qurbonbibi xo'rsinganidan bir ozgacha nafasi bo'g'ziga tiqilib, gapirolmay turdi. Keyin nafasini bir oz o'nglab, yana boyagiday xo'rsinish ovozi bilan bo'lib-bo'lib so'zladi:

— Bu nima qilganingiz? Bu...

— Ha, nima qilibman, bachchag'ar?

— Ilgari... mingboshi o'lgurga... bermayman, deb kelib edingiz... Qo'rsayib... maqtanib gapirib edingiz... «Benamozga... qiz yo'q!» degan edingiz... Qani u qo'rsayishlar? Nima bo'ldi? Tuppa-tuzuk so'fi odam bir benamoz, bir bo'zaxo'rga qiz berib o'tiribsiz?

— Bersam nima bo'pti, bachchag'ar? O'z qizim...

— O'z qizingiz-ku... Tengini topib bering-da... Eshonbuvamning man qilmaganlariga hayronman. Ha... ha...

Shu yerga kelganda, Qurbonbibi bir oz dadillanib, ovozini ko'tara tushdi. Go'yo eshonbobo tomonida bo'lib, Razzoq so'figa qarshi chiqajak edi:

— Ha... ha... endi bildim! Bu gapdan, vallohi a'lam, eshonbuvaning xabarlari yo'q! Bo'lmasa, sizning bu behuda ishingizni qildirtirmas edilar.

U yoqda so'fi achchig'i kelib, baqirish o'rniga, bir narsadan xursand bo'lganday, miyig'ida kulib turardi.

Qurbonbibi davom etdi. Uning ovozi yana ham ko'tarila tushgan edi.

— Shoshmang! Eshonbuvamga borib dod deyman! Ori rost, bir bo'lgan ishni endi buzdirish mumkin emasku-ya, ishqilib sizdan dod deb bir ko'nglimni bo'shatmasam bo'lmaydi...

— E ablah, Fitna! — dedi so'fi kulib turib. — Esing yo'qligi shu-da! Shu-da esi pastliging! Shu-da xotinliging!

Qurbonbibining achchig'i keldi:

— «Echkiga o'lim, qassobga yog'!» Men o'lolmay garangman, siz hadeb kulasiz. Ha, eshonbuvamga aytolmaymanmi?

— Ha, ayt! Ayt borib! — dedi so'fi yana kulib turib. — Ablahligingni pirimizga ham ko'rsat, Fitna!

— Obbo, aqlli-ey! Shoshmang, hali! Eshonbuvam g'azablagandan keyin esingiz kiradi. Hali yog'liq palovlar bilan mastsiz!

So'fi kulishdan to'xtab, jiddiylashdi.

— Bas, deyman, ahmoq, bo'ldi! — deb qichqirdi u. — Hech narsadan xabaring yo'q, valaqlay berasanmi? Mingboshiga bergin, deb qistab yurib, meni ko'ndirgan eshonbuvamning o'zlari bo'lsa, nima deysan?

Qurbonbibi ixtiyorsiz:

— Voy, o'la qolay! — deb baqirdi. — Eshonbuvam o'zlari boshmi hali? Voy, sho'rim qursin-ey!

Bechora kampir boshlariga mushtlardi.

— Mushtla boshingni, Fitna! — dedi so'fi yana o'sha jiddiyat bilan. — Ko'proq mushtla, yor o'sha esi past boshni!..

Ikkalasi ham jim bo'lishdi. So'fi hamon o'sha jiddiyat bilan bir nuqtaga tikilgan, Qurbonbibi endi bir oz o'zini to'xtata boshlagan edi. U oddiy va tinch ovoz bilan so'radi:

— Eshonbuvam qistagan bo'lsalar, qattiq tursangiz bo'lmasmidi?

Faqat kampirning bu so'zlarida endi taqdirga tan berish unlari bor edi. Bu unni so'fi ham payqadi. U bu-

gun nechundir bir oz yumshara tushgan, xotini oldida o'zini oqlamoqqa tirishganday ko'rinardi.

— Hovliqmay gapirsang-chi, Fitna... Dunyoni buzasan...— dedi u. — Men ko'p olishdim. «Benamozga qiz bermayman!» dedim. «Sen-bizning ming yil ibodatimizu ularning bir kunlik xizmatlari — bab-barobar! Mingboshi qancha mo'min-musulmonlarning hojatini chiqaradi, qancha alamzadaning dodiga yetadi! Qancha o'g'ri, kisavur, qaroqchining jazosini beradi! Qancha nohaq bo'lgan ishlarni haqqa qaror topqizadi. Ibodat ham — ibodat, mo'min-musulmonga xizmat ham — ibodat! Balki bu keyingisi — a'lo!» dedilar. Nima deyin? Nima deb bo'ladi? Men omi bo'lsam, savodim bo'lmasa, oq-qorani tanimasam, u kishi mulla bo'lsa, zabardast bo'lsa, xudoning buyrug'ini tushunsa, shariatni, tariqatni suvday bilsa... nima deyman?

So'fining o'z xotiniga astoydil kuyib-yonib o'z qilmishlaridan buncha duru-daroz hisob berib o'tirishi — mana shu edi. Buni Qurbonbibi tegishincha taqdir qila bildi. Eriga issiq nazar bilan qarab, uning ahvoliga endi bir daraja achina boshladi. Shu uchun ancha og'irlik va bosinqilik bilan:

— Men-ku hech narsa demas edim, — dedi u, — mana bu qizingiz xuddi bir suratga aylanib qoldi... Qo'rqib yotibman...

— O'rtoqlarini chaqirtir, Fitna... O'yin-kulgi qilishsin... U tarafdan men ham to'yni tezlatay... Tezroq berib qutulaylik.

— Saltanatxon o'rtog'ini o'zi ham chaqirmoqchi bo'lib turib edi, — dedi kampir. — Siz uyda bo'lganingiz uchun...

— Men xonaqoga ketaman. Chaqirtira bersin. Unguruch bo'lsa serob... Pul ham bor, orzu-havas qilaman, desa, mana pul. Bozordan oldirsin. Ko'ngli xohlaganini qilsin!

Shu so'zlarni ayta turib, yonidan bitta o'n so'mlik yangi qog'oz oldi, uni barmoqlari orasida uvib, shirshiragan ovoz chiqardi, undan keyin yuzlarida shu choqqacha hech bir ko'rilmagan bolalarcha quvonish bilan kampirga uzatdi.

Kampir umrida ko'rmagan o'ntalikning naqshlariga qararkan, shu naqsh singari jonsiz bo'lib qolgan sho'rlik qizini ko'z oldiga keltirdi-da, ko'zlariga ixtiyorsiz yosh olib yubordi...

IX

Zebini tushirib kelish uchun shaharga borgan xotinlar, ularning o'z tillari bilan aytsak, «qudalar», boshlarida Poshshaxonga o'xshagan eslik va ayyor bir juvon turganiga qaramasdan, negadir Kichkina mittini nazardan qochirdilar. «Kichkina mitti, xon xo'jani yiqitdi», deydi o'zbek maqoli. Qudalar qofila[1]si shaharga jo'narkan, Umrinisabibini aravadan o'z qo'li bilan tushirib yuborgan va unga qarab, «Agar to'yda yo to'ydan keyin men sizni uyda ko'rgunday bo'lsam, mingboshi dodhoga aytib avaqtaga jo'natdiraman!» degan Poshshaxon Umrinisabibining qizini yo ko'rmadi, yo ko'rsa ham nazariga ilmadi. Poshshaxonning qo'ygan qizlari, ya'ni uning o'z «odamlari» shaharning o'zida, yo'lda va har yerda Zebi bilan birga bo'lishib, farishta qiyofasidagi shayton kabi, uning ichiga kirib, pistoqi ta'zimlar va serxushomad gaplar bilan uning ko'nglini ovlab, mingboshi dodhoga uni «isittirarkan», o'zlarining muvaffaqiyatlaridan hech bir shak-shubha qilmasdilar. Tezda-tezda ularni chaqirib, ta'limot berib turgan Poshshaxon o'z odamlarining ma'ruzalarini eshitgandan keyin, boz ustiga o'zi ham chimildiq ketiga o'tib, Zebi bilan jonajon o'rtoqday gaplashgandan so'ng, «qizning muqovamatini sindirdim, o'jarligini yengdim!» deb o'ylardi. O'ziga ko'p bino qo'yganlarning aldanishi yomon bo'ladi! Ikki qiz va bir juvonning butun mehnatlarini Umrinisabibining Kichkina mittisi bir necha og'iz gap bilan yuvib tashlashga juda oson muvaffaq bo'ldi. Umrinisabibini ishga solib qo'yib, o'zi allaqaylarda tajangligidan kokilini yulib yurgan Sultonxon endi shayton kulishi bilan kulib, qo'li tolguncha chapak chalsa bo'ladi. Uning ko'ngli olddan sezish yo'li bilan bir narsa sezgan bo'lsa, hali ham jirtak chalib kulayotgandir. Kim biladi!

---

[1] Q o f i l a — karvon.

Shaharda bir necha minut, qishloqda mingboshinikida undan ham ozroq xoli fursat topib, Kichkina mitti Zebiga aytiladigan hamma gapni aytib oldi. Mingboshini shunday tasvir qildiki, endi uning o'rniga — kuyov rolida — bir dev kirib kelsa, Zebi «jon!» derdi. Buning ustiga, «bechora Sultonxonning ma'sum ko'z yoshlari», «ikki ittifoqchi» (Xadichaxon va Poshshaxon)ning ming bir «hiylalari» ham (xotinlar o'zlari xuddi shu shaklda — «hiyla-a» deb gapiradilar) yosh va ma'sum bir qizning samimiy tili bilan bir-bir bayon qilindi. Shu uchun to'yga yaqin va to'y kunlarida o'z o'rtoqlari bilan kulib gaplashgan, Poshshaxonning odamlariga esa qiyomatlik do'stlarday muomala qilib, ularga «g'alaba» g'ururini bergan Zebi qishloqqa jo'nar kuni birdaniga o'zgarib, yoniga o'z onasidan boshqa hech kimni kirgizmay, birdaniga burungi quruq «surat» shakliga kirgach, «ittifoqchilar» shoshilib qoldilar. Zebi o'zi uchun ajratilgan katta uyga kirib, ipak chimildiqning ketiga o'tgan vaqtida «ikkala ittifoqchi» to'ychi xotinlarni ham unutib, dasturxon va osh-suv masalalarini ham birovlarga topshirib, o'zlari Poshshaxonning uyiga chekildilar va bu o'zgarishning sababini tekshirib, chorasini axtarmoqqa boshladilar, ko'p o'yladilar, ko'p rejalarni chizib ko'rdilar... Faqat, shu Kichkina mitti hech birisining esiga kelmadi. Shu uchun o'zgarishning sababi bilinmadi!

Ular bir chora topishdan ham ojiz edilar, shu qaltis paytda aqllari hech narsani olmasdi. Bir tarafdan, kuyovning kirar vaqti yaqin, ikkinchi tarafdan, hovli yuzi to'la xotin-xalaj, bola-chaqa, yetti iqlimdan odam bor, shovqin-suron, qiy-chuv, miya aynaydi... miya aynaydi, xolos! Bir kuchli ovoz bo'lsa-yu hovliga chiqib o'kirsa va xotin-xalaj bir nafasgina jim bo'lsa... Bular o'ylab, bir fikr chiqarsalar!

Holbuki, xotin-xalajning qiy-chuvi avj olayotir.

— Shoshmang, nima gap? — dedi birdaniga Poshshaxon.

Darhaqiqat, tashqarida xotin-xalajning umumiy xori boshlangan edi. Hovlidagi xotinlar hammasi birdan allanima deb bir so'zni takrorlab, shovqin solardilar. Bular ham birin-ketin hovliga chiqishdi.

Kichkinagina bir voqea bo'lib o'tgan edi.

Zebi kattakon uyning to'g'risida, ochiq deraza yonidagi burchakda, chimildiq ketida onasi bilan birga o'tirardi. Uncha besaranjom bo'lgani ham ko'rilmasdi. Hatto xotinlarning qiziqroq gaplarini eshitsa, kulib qo'yardi... Hovlida derazaning tagginasida turgan ikkita xotin — kim ekanliklari noma'lum! — tik holda o'zaro gaplashib turib, gapni mingboshi dodho va Zebi to'g'risiga ko'chirdilar. Zebi ularning suhbatlarini yuragi o'ynab turib tinglar va onasi suhbatga mone bo'lmoq istasa, yo'l qo'ymasdi. Ikkala xotin ovozlarini picha ko'tara tushib, xotinlar qiy-chuvi orasida suhbatda bemalol davom etdilar, Zebining qulog'i ham go'yo derazaga osilib qoldi.

— Qizingiz yetilib qoldi, mingboshi dodhoga bermaysizmi? — dedi ularning bittasi ovozini ko'tara tushib.

Yana biri ovozini ancha baland chiqarib, bunday dedi:

— Buvatavakkal adirida odam soniday yo'g'on ilonlar bo'lar emish. Shularga bersam bo'lmaydimi!..

Zebi, «oh» deb qichqirdi-da, onasining quchog'iga yiqildi. Xotinlar chuvillashib, chimildiqqa tomon yugurdilar. «Voy, nima bo'ldi? Voy, nima bo'ldi? Voy, o'la qolay! Voy, sho'rim!» Ovozlari har tarafdan yuksaldi. Chimildiq atrofini qurshab, «Voy, nima bo'ldi?» degan xotinlar orasida haligi ikkovi ham bor edi...

Bir ozdan so'ng ular ikkovi oradan yo'q bo'lishdi. Ularning kelib kelmaganini hech kim bilmaydi. Shuncha ko'p xotin-xalaj orasida ikkita xotinga son bormi?

Poshshaxon bilan Xadichaxon voqeani surishtirib ko'rdilar. Har og'izdan har xil gap chiqardi. «Allakim kelinga eshittirib kuyovni yomonladi», deganlar bo'ldi. «O'z qulog'im bilan eshitdim», deganlar bo'ldi. Faqat uydagi xotinlar — «Tashqaridagilar gapirdi!» dedilar, tashqaridagilar ichkaridagilarni aybladilar...

Zebi ko'zlarini mo'ltiratib, qo'li ko'ksida, bedarmon yotardi. Og'zini ochib bir so'z demas, savollarga javob bermas, yoniga kirgan Enaxonni ham tanimasdi. Rangi paxtadek oqargan, qovoqlari burishta uchib tushardi.

Poshshaxon Umrinisabibining eshigiga qulf soldirib qo'yib, «ittifoqchisi» bilan yana kengashgali kirdi. Bu sa-

far kengash juda kalta bo'ldi. Chunki vaqt nozik, tezroq chora ko'rish lozim, kuyov kiradigan vaqt bo'lgan edi.

— Kuyovingizni buguncha kirgizmay tursak, — dedi Poshshaxon. — Ertaga Zebixonni aldab-suldab yo'lga solardik... Keyin, olib kirib qo'ysak, undan narisini erkak kishi o'zi eplab olardi...

— A-v-v... — dedi Xadichaxon. — Koshki ep degan narsa bo'lsa kuyovda...

— Unisi rostku-ya... Har qalay, ertagacha xudo poshsho, egam... Bugunning maslahatidan keling.

— Haligi maslahatingiz durust... Buguncha tursa tursin, o'lmas...

— O'lmaydi, albatta... Peshonasidan ko'rsin... Ishqilib, Sultonxonning oshig'i olchi!

— Nimasini aytasiz. Umrinisa fitna yetkazgandir bu choqqa...

— Qo'yadi, deysizmi? Erta qachon...

— Jirtak chalyapti, desangiz-chi, yashshamagur...

Ikkalasi ham bir nafas jim qolishdi.

— Maslahat haligi bo'ldimi? — dedi yana Poshshaxon. — Buguncha kirmay turadimi? Yaxshi maslahat.

— Boshqa iloji ham yo'q. Ammo u o'jar kuyovni kim ko'ndiradi bunga?

— G'alati ekansiz? Kim ko'ndiradi? Miryoqub akangiz-da...

— O'zingizning akangiz...

— Hammamizning akamiz...

— Chaqirib ayting, bo'lmasa.

— Yo'q, siz kattasiz, siz ayting! Men yaqin yo'lamayman!

Xadichaxon Miryoqubni chaqirib gaplashgali tashqari eshik oldiga chiqdi. Poshshaxon Zebidan xabar olgali yugurdi.

* * *

Sultonxon, to'yga bir necha kun qolganda, onasinikiga ketgan edi. Ketarkan kimdan so'rab — ijozat olib ketishini bilolmadi. So'raganda, kimdan ham so'raydi? Mingboshining onasi rolida hozir Xadichaxon. Unga

kirib yalinadimi? Yo Poshshaxonga ta'zim qilib, undan so'raydimi? Ular nima deydilar? Til uchida «Voy, aylanay, voy, o'rgulay» qilsalar ham, ko'ngillarida «O'la, o'lganing yaxshi! Alam qildimi? Qochging keldimi? Qoch, orqangga qaramay qoch, kavishingni qo'ltiqlab qoch!» demaydilarmi? Mingboshidan so'rash kerak edi, albatta. Uning oldidan o'tmay bo'lmaydi. U er, er — podsho, xotinning inon-ixtiyori o'shaning qo'lida. Faqat shu topda mingboshining ko'ziga oq-qora ko'rinmaydi. Mingboshi shu kunlarda o'z soyasidan ham bexabar. Besh-olti oy burun bor edi uning Sultonxoni. Endi yo'q! Bir yil burun uncha-muncha «Sultonim» deb turardi mingboshi. Tez-tez buning yonida bo'lardi. Bu dargohga erta bahorda Zebining qadami tekkandan beri Sultonxon butunlay nest-nobud bo'ldi. Kechagi botgan quyosh-day... unutildi!

Paranjasini yopindi, Umrinisabibining darchasiga yaqinlashganda, birdan to'xtadi va orqasiga qaytib, Xadichaxonning uyiga tomon yo'naldi.

— Men oyimlarnikiga ketyapman. Uch-to'rt kun aylanib, ko'nglimni yozib kelay...

Xadichaxon «ha, mayli», deb qo'ya qolsa nima bo'lardi? Juda chidamay ketsa — indamasinidi, bunga qarab miyig'ida bir kulsinidi — shu ham yetib ortardi. Yo'q! Poshsha afsunchining bu o'rgatma iloni bir marta nishini botirib olmasa, bo'ladimi?

— Voy, bu nima qilganingiz, Sultonxon? Shunday yaxshi to'ylar bo'lyapti...

Tili zo'rg'a-zo'rg'a qaldirab:

— To'ygacha... kelaman... — deya oldi Sultonxon.

Umrinisabibining darchasidan hatlar-hatlamas ho'ngurak otib, yig'lab yuborgan edi.

U yerda ko'p o'tirmadi. Bir oz hasratlarini aytib, ko'nglini bo'shatgandan keyin, Kichkina mittidan foydalanish to'g'risida bir-ikkita maslahat ko'rsatib, onasinikiga ketdi. Shu bo'yicha to'y kuni ham qaytib kelgani yo'q.

Yangi kelin kelgan kunning ertasiga — xuddi nonushta chog'ida Umrinisabibi yetib bordi. O'pkasi og'ziga tiqilib, o'lguday halloslab turib, kutilmagan yutuqlardan

gapirdi. Kichkina mittining katta ishlari, ayniqsa deraza oldida tomosha bergan ikki xotinning o'yinlari o'lgan Sultonxonni tirgizdi. Uning beholllik va uyqusizlikdan yumilgan ko'zlarini qayta boshdan ochirdi. Umrinisa-bibining burishgan terili barmoqlarida yangi uzuklar yaltiradi! Ikkalasi bir-birini quchoqlab, shirin-shirin nash'aga botdilar.

— Yo'q, xola, hali erta! Erta hali...

— Nima demoqchisiz, aylanay?

— Ma'rakani yig'ishtirishga hali vaqt erta.

— Nima qilaylik, aylanay? Meni u eshikka qadam bostirishmaydi. Qizim kirib yurib edi, haligi ikkala xotinning ishidan keyin o'rtadagi eshikka qulf soldilar.

— Yo'q, xola! Yo'l topiladi, topish kerak.

— Xo'p, aylanay, topamiz.

— Topamiz!.. Topamiz... topamiz... topamiz...

Aqli boshqa joyda bo'lgani holda Sultonxon hadeb shu bir so'zni takrorlardi. Birdan so'rab qoldi:

— Enaxon qayerda? Uni kirgizishadimi?

— U hammavaqt Zebining yonida.

— Bo'lmasa, o'sha bilan gaplashing. Bugunoq gaplashing. Hozir borib gaplashing.

— Hozir jo'nayman bo'lmasa.

— Menga qarang!

Ikki qo'li bilan Umrinisabibining ikki yelkasiga yopishdi. Yuzini uning yuziga yaqin olib bordi.

— Menga qarang, xolajon! Enaxon Zebiga do'st. Chinakam do'st. Mingboshiga xotin bo'lishini hech xohlagan emas. Hali ham xohlamaydi. Qo'rqmasdan, ochiq gaplasha bering. Gapdan gap chiqadi. Gapdan maslahat chiqadi!

Umrinisabibi kattakon belbog'ini un-guruch bilan to'lg'azib, darrov yo'lga chiqdi.

Enaxonlarnikiga borib kirgan vaqtida Enaxonlarning butun oilasi yoyilgan qopning tegrasida jugari uqalab o'tirardilar.

— Aylanay, Enaxon. Shoshilib turibman. Sizga ikki og'iz gapim boridi.

Ikkalasi birga hovliga o'tdilar. Ariq bo'yiga o'tirishgan hamon Umrinisabibi gap boshladi:

— Zebixonning ahvoli qalay, aylanay? Jindak gapirib bering, hech narsa bilolmay, yuragimiz ezilib ketdi. Ko'zimning qoracho'g'iday yaxshi ko'rardim.

— Uni yaxshi ko'rmagan kim bor, xolajon? Hamma yaxshi ko'radi. Yaxshi ko'rish boshqa ekanu, tole boshqa ekan...

— Nimasini aytasiz, aylanay? Yetti uxlab, bir tushiga kirmagan kunlarni ko'rdi sho'rlik...

Bir oz to'xtaldi. Ro'molchasini ariqqa solib ho'llangan yuzini bir qur artib oldi.

— Kuyib ketdim, aylanay... Bir joyda o'tirolmayman... Qizim Bahridan so'rayman, bir og'iz gapni eplab gapirolmaydi. Kecha kechasi o'sha yerdaydi. Shaharga ham birga borib edi. Gap so'rasam, xuddi tili yo'q soqovday «i, i...» qiladi, xolos... Yuragim «tars» eta yorilgunday bo'ldi. Shundan keyin bu yerga chopib keldim, aylanay.

Sodda Enaxon bu yolg'onlarning hammasiga astoydil ishonardi.

— Zebixon endi picha durust, — dedi u. — Kecha kechasi kuyov kirishga yaqin allakimdan bir yomon gap eshitib...

U shoshilmasdan hamma bo'lgan gaplarni aytib berdi. Bu gaplar hammasi Umrinisabibiga ma'lum bo'lsada, eshitmagan odamday birushta «voy, tovba! Voy, o'la qolay! Voy, sho'rlik! Shunaqami?» deb turdi.

— Endi hamma hayron, xolajon... Bugun kechasi nima bo'larikin? Kuyov kirmay turib, bu shunaqa qiladi. Kuyov kirganda nima bo'lar ekan?

— Shuni aytaman, aylanay!

— Men hech chiqqim yo'q o'sha tomonga. Chiqmasak, oqibatdan emas. Bizni deb kelib tuzoqqa tushdi sho'rlik. Menga shunday ko'zlarini mo'ltiratib qarasa, yuragim «jig'g'!» etib ketadi...

— Rost, aylanay, rost... Hamma deganlaringiz rost...

— Bu ishni qilgan kundosh o'lgurlar, endi o'zlari ham hayron...

— Yashshamagurlar...

— Sultonxon bo'lsa, u yoqda jirtak chalyapti.

— Yashshamagur...

— Azayimxonlarga katta-katta sarf qilyapti, deydi... Otasi boy emasmi? Onasida ham bisot kattaymish...

— Yashshamagurlar...

— Bir o'ylaganda, u bechorada ham ayb yo'q.

— Rost aytasiz, aylanay...

— Ana u kundoshlarda ham ayb yo'q.

— Albatta, aylanay...

— Kundoshlik o'zi bir balo.

— Nimasini aytasiz, aylanay...

Enaxon og'ir bir «uh» tortib, o'rnidan turdi.

— Jindak turib yana chiqib bormasam bo'lmaydi. Yuragim bo'lsa sira betlamaydi. Bu kecha nima qilamiz endi, bilmadim...

— Nima qilardingiz? — dedi Umrinisabibi. — Dod-voyiga qaramasdan, kuyovga qo'shasiz-da, aylanay!

— Menga qolsa, bir umr qo'shmas edim, — dedi Enaxon. Yana qaytib joyiga o'tirdi.

Umrinisabibiga bor-yo'g'i shu gap kerak edi. Darhol o'rnidan turib, ariqning u yuziga o'tdi va Enaxonning yonginasiga o'tirdi. Ustozidan olgan ta'limini eslab, ikki qo'lini uning yelkasiga qo'ydi va boshini o'z boshiga tomon tortib turib, ko'ziga mahkam tikilgani holda so'radi:

— Zebixonga chinakam do'stmisiz? Yo'q, aylanay. Xudoyimni o'rtaga qo'yib ayting: astoydil do'stmisiz?

— Gumoningiz ham bormi? Jonimni berishgacha borman!

— Bo'lmasa, mening gapimga kirib, Zebixonning qulog'iga sekingina shipshitib qo'ysangiz: har kun yolg'ondan bo'lsa ham bir soat, yarim soat o'zidan ketib tursa...

Umrinisabibi birdaniga ovozini pasaytirdi:

— Bilasizmi, aylanay, bu kuyov shunday narsaki, har qanday xotin o'zi xohlab borib bo'yniga osilmasa... o'zicha hech narsa qilolmaydi! O'zi ham qarib, darmoni ketib qolgan... Nimaga hadeb uylana berar ekan, hayronman.

— Pul quturtiradi! — dedi Enaxon.

— Rost aytasiz, aylanay, davlat quturtiradi!

Umrinisabibi yana ovozini pichirlash darajasiga tushirdi:

— Bilasizmi, aylanay, oq poshsho yetti qiron bilan urishayotgan emish... Hamma fuqarosi qirilib tamom bo'lipti... Yurtida odam qolmapti. Bugun emas, ertaga mingboshilarning hammasini urushga olib ketarmish...

— Og'zingizga yog', xolajon!

— Rost gap bu... Hakimjon aytipti... Mingboshining mirzasi emasmi? Til biladi u... gazet o'qiydi...

— Sizga kim aytdi?

— Bir joydan eshitib qoldim. Hakimjon borib yuradigan joydan. Siz, aylanay, Zebinisaga sal uchini chiqarib qo'ysangiz bo'ldi. U yog'ini o'zi eplaydi... eslik qiz... Mingboshi urishga ketdimi, hamma qutuladi uning dastidan. Yovlashgan qiron juda kattaymish... Indamasdan kelib o'ldiradigan o'qi bormish... Osmondan qanot taqib kelib urisharmish... Mingboshingiz o'q tegmasdan turib yiqiladigan odam... «Urushga borasan», dedimi, tamom... yuragi yorilib o'ladi!

— Ilohim, aytganingiz kelsin! — dedi Enaxon.

Shu paytda Xolmatning «ena!» deb chaqirgan ovozi eshitildi.

Ikkala hamdard o'rinlaridan turib, ichkariga tomon yurdilar.

Shunday qilib, o'sha kechadan boshlab Zebining tutqalog'i har kun namozshom paytida muntazam tutadigan bo'ldi.

X

Mingboshi ishning bu ravishga kirishini hech bir kutmagan edi. Boshqa hamma kishilarday u ham Zebining tutqaloqlarini «qizning nozi», deb bilar va tezda o'tib ketishiga ishonardi. Shu uchun kunduzlarini juda besaranjomlik bilan o'tkazib, kech kirganda, entika-entika ichkaridan sevinchlik xabar kutardi. Besh kungacha har oqshom bir xilda sovuq xabar chiqib turdi: «kelinchakning tutqalog'i tutib qoldi...» Bu besh kun ichida mingboshi, o'z iqroricha, besh yillik zahmat tortgan edi... Mahkama ishlarini Hakimjonga tashlab qo'ydi, zotan,

to'yga ikki kun qolganda, yonidagi muhr ham Hakimjon kissasiga tushgandi. Miryoqub — bir joyda bir nafas o'tirolmaydigan narsa — olti-etti kundan beri mingboshi yonidan jilmaydi. Jahli chiqib, to'nini teskari kiymoqchi bo'lgan mingboshini gap bilan sovutadi va yo'lga soladi.

— O'zingiz aytasizki, — dedi Miryoqub, — sizga «gah» deganda, qo'lga qo'nadigan tayyorgina qush bo'lsa... Munaqa qo'lga qo'nmaydigan yovvoyi qushlarni ovlashga hunaringiz yo'q ekan. Shunday bo'lgandan keyin tishni tishga qo'yib, chidash kerak, xo'jayin!

— Chidab-chidab shu yerga keldim.

— Obbo-o! Uch kun o'tmay turib-a! Shuncha bardoshsizlikmi? Yovvoyi qushni asta-sekin aldab-aldab o'rgatadilar. Qo'rqitsangiz, «pirr!» etib uchib ketadi.

— Uchib keta qolsin! Shu topda «bor, ket!» degim bor.

— Esingiz joyidami, xo'jayin? Menga qarang... bu nima gap? «Ket», desangiz, jon deydi. Shamolday uchadi. Unga sizning «ket!» deganingiz yovvoyi qushga qafas darichasini ochganday gap. Kim armonda qoladi? Umi?

Mingboshi o'ylab qoldi. So'ngra yuvvoshlanib, dedi:

— Rost aytasan. Qariganda esning ham mazasi ketganga o'xshaydi...

Miryoqub bilan Xadichaxon shu besh kun orasida bir-birlaridan qochmaydigan darajaga keldilar. Xadichaxon uni kunda uch marta chaqirsa, bu uni besh marta chaqirardi. Pichir-pichir gap, pichir-pichir gap... maslahat!

Tutqaloq besh kun batartib davom etganidan keyin, Miryoqub mingboshining juda yomon bo'la boshlaganini payqadi. O'zining ikki g'ildirakli sariq foytunini oldirdi.

— Qani, yuring, xo'jayin! — dedi.

Mingboshining e'tirozi va bahonalariga qaramasdan, yetaklab olib borib, foytunga o'tqizdi va, orqalarida yarog'li ot qorovul, ertalab yo'lga tushdilar.

Shaharda mingboshini eng yaxshi va obod samovarga tushirdi.

— Boplab nonushta qiling, xo'jayin, choy iching. Tomosha qilib turing. Men tezda kelaman! — dedi.

Yana foytunga o'tirib ketdi.

Mingboshi qaymoqlar va shirmon nonlar bilan nonushta qilarkan, shaharga nima uchun kelganini bilolmasdan boshi aylanardi. O'yladi, o'yladi, oxiri: «Bir qaltis ish chiqib qolganga o'xshaydi. Bo'lmasa buncha shoshilinch kelmas edik. Bu Miryoqub bir ishni o'ylamasdan qilmaydi», degan qarorga keldi.

So'ngra yana o'ylashda davom etdi.

«Shu qironlarning bir-biri bilan urushgani yomon bo'ldi... Ko'p odam qirildi, deydi noyib to'ra. Mening mirzam Sokolov ham daraksiz ketdi. Uch oydan beri daragi yo'q. Yurt ham, samovarday asta-asta qaynab yotibdi. Bir toshadi bu! Yomon toshadi lekin. Odamlarning yuziga qarasam, o'ris-musulmon hammasining ko'zi bejo... «yutaman», deydi. Qimmatchilik borgan sari avj olyapti. Shunday oq poshshoning xazinasi qoqlanib qoldimikin? Oq poshsho mening gapimga kirsa, yurt bersa berardiki, tezroq yarash qilib odamlarni tinchitardi. Allaqaylardagi yurtlarni, deb boshini qazoga tutadimi kishi...»

Bu o'ylar mingboshining miyasiga birinchi kelayotgan o'ylar edi. U bunaqa narsalarni o'ylab o'rgangan odam emas. Faqat yurt orasida har xil gaplar yuradi. Hamma amaldorlarni, shu qatorda mingboshilarni ham urushga jo'natarmish, deydilar. Hamma yurtni poezdga solib, Germaniyaga qarshi haydarmish, degan gaplar eshitiladi. Bu gaplar mingboshiga ta'sirsiz qolmaydi. Mingboshi ham «zamona oxir» bo'lishiga ishonadi emasmi? «Zamona, chinakam oxirga yetgan bo'lsa kerak», deb o'ylaydi: «Yo'l ochiq bo'lsa, hajga ketardim», deb qo'yadi. Yana orqasidan: «Yo'l ochiq vaqtida qayda edim? Tavfiqni ham juda kechikib berayotir xudovandi karim...», deydi o'z-o'ziga.

O'ylanib o'tirib, ustunga suyanganicha uxlab qoldi. Ko'zini ochgan vaqtida Miryoqub tepasiga kelib, «Qani, yuring, xo'jayin!» deb turardi.

Bu safar Miryoqubning o'z foytuni emas, kirakash izvosh bilan yangi shahar qismida bir qavatli eskiroq binoning shiyponli zinasi oldida to'xtadilar. Mingboshi xursand bo'lib kuldi, bu joy unga tanish edi.

— Qani, yuring, xo'jayin!

— Qishloqda aytsang bo'lmasmidi? Xuddi zinasining tagiga olib kelguncha hech narsa demaysan.

— Men sizni yomon yo'lga boshlaymanmi, xo'jayin? — dedi Miryoqub va kuldi.

Mingboshi ham ma'lum kulishi bilan kulib, eski gapini takror qildi:

— Obbo, betavfiq-ey!

Shaharning buzuqlik ila nom chiqargan mashhur nomerlaridan biri edi. Bu nomerga keladigan kishilar faqat ayshu ishrat uchungina to'xtalardilar. Shu uchun u bir xonali ayrim uylardan iborat bo'lib, yarim qorong'i uychalarda bir kart, ikki-uch eski kursi, bir ovqat stoli va bir jovonchadan boshqa hech narsa bo'lmasdi. Odamning hayvonlik hirslari avj olgan vaqtda har narsadan go'zal ko'rinadigan bu xonalarga u hirslardan ozoda bo'lib kirgan odamni da'fatan belgisiz bir qo'rquv hissi bosardi. U xil hirslardan ozod bo'lish bilan ko'pda maqtanolmaydigan bizning mingboshiday odam ham burun bir necha marta kelgan vaqtida kutilgan xotinlar kirguncha, deraza oldiga borib — iflos va quruq sahnning xunuk manzarasiga tikilar va shu yerdan tezroq chiqib ketgisi kelardi.

Bu daf'a mingboshi xona ichiga kirganidan keyin o'z ko'zlariga ishonolmadi. Xonalar yaxshilab tozalangan, devorlarga har xil gullarning va yalang'och xotinlarning suratlari osilgan, devorda likkagini o'ynatib, katta bir soat chiqillamoqda, kunduz bo'lishiga qaramasdan, xulyorangli[1] qalpoq ostida yorug' fonarlar yonib turadi. Qatorasiga ikki xona, ikkovini bir-biriga ulaydigan eshiklar katta ochiq... birinchi uy ikkinchidan kengroq, unda katta bir stol, oppoq dasturxon yopilgan, usti to'la har xil ovqat, shirinlik va ichkiliklar... Ovqatlar orasida yasama gullar... Yerda chiroylik bir gilam. Kursilar — yangi va toza. Bir chekkada oynali, kattakon kiyim jovoni, uning ketida oppoq choyshab va qo'sh parquv bolishli kart... Kart oldida — yerda poyandoz gilamcha. Narigi uyda oppoq choyshabli bitta kart, qo'sh parquv bolish, bitta jovoncha — boshqa narsa yo'q. Faqat bunda ham kart oldida poyandoz gilamcha... Har uyning fonari boshqa

[1] Xulyorang — pushtupang.

rang bersa ham, ranglar hammasi odamning hirsini qitiqlaydigan allaqanday sirli va g'alati... Devordagi yalang'och xotinning oppoq va tekis tanlari depsinib turganday, xuddi joni borday jozib... Kulimsiragan ko'zlari yuqoriga tomon bir oz kerila tushgan qilday ingichka qoshlari... havas va o'ynashning choparlari! Ko'kraklari olmaday kichkina va tarang...

Mingboshi kirgan hamon xursandligini ochiq bildirib kuldi va Miryoqubning yelkasiga qoqib turib, dedi:

— O'lma, betavfiq! Boplabsan!

— Kamarni yeching, xo'jayin, — dedi Miryoqub, — ikkala uy sizniki. Hech narsani o'ylamang. Yeng, iching, kayf qiling. Sassiq so'fining nozli qizi axir bir kun shaytonlashlardan charchay-di. Qachon bo'lsa ham u sizniki! Uni o'ylamang sira, undan qolishmaydiganlar bor bu yerda.

Shu yerda mingboshi shodligidan bo'lsamikin ochilmoqchi va ko'nglidagi bir sirni Miryoqubga ochmoqchi bo'ldi:

— Bilasanmi, Miryoqub? Men u qizga qiz deb, xotin deb talabgor bo'lsam ekan...

Miryoqub ko'zlarini keng ochdi va mingboshining yoniga kelib o'tirdi.

— Nima deysiz, xo'jayin? Nima, nima? «Eski og'izdan yangi so'z?»

— O'zim ham hayronman. Ashulasini eshitsam bo'ldi, deyman o'z ko'nglimda. Ashulasiga, ovoziga ishqim bor, unaqa itlik yo'q...

— Obbo! Itlik yo'q! Sizda-a? E tavba...

— Non ursin agar...

Miryoqub irg'ib o'rnidan turdi:

— Bo'pti bo'lmasa! — dedi u. — Itlikni shu yerda qoldirib, uning yoniga odam bo'lib qaytasiz. Unda qiz sizniki! Bo'ldi, xo'jayin! Mana bu yer har qancha itlik qilsangiz ko'taradi...

Shu topda o'zining negadir «odamlasha boshlagani» to'g'risida o'ylab ketib, Miryoqubning so'ng so'zlarini eshitmagan bo'lsa, mingboshini ayblash kerak emas. Bu qabih odam so'ng vaqtlarda o'zining o'zi ekaniga ham uncha ishonib yetolmaydi.

— Men bir aylanib kelaman, xo'jayin.

— Qayerga bormoqchisan?

— So'ramang, xo'jayin. Siz ayshingizga qarang. Hamma itlikni shu yerga ko'mish kerak-a! Bilasizmi? Kerak bo'lsa, o'zingiz bilasiz, mana tugma, shuni bosiladi. U yoqdan odam kirganda, tortinmay buyura bering, hamma narsa bor...

Chiqa boshladi. So'ngra eshik oldidan yana orqasiga qaytdi.

— Xo'jayin, — dedi unga tomon egilib. — Hammasiga bir stakandan quyib berasiz. Undan keyin bittasini tanlab yoningizga olasiz. Boshqalari chiqib ketadi... Tartib shu!

— Bittasiga ko'zim to'ymasa-chi?

— U yog'ini o'zingiz bilasiz. Itlik ham toza joyida ekan, xo'jayin!

U yerdan chiqib, Miryoqub nomer egasining o'z uyiga kirdi. Xo'jayin o'n bitta xotinni uning oldidan — yasov tortdirib to'rt martadan o'tkazdi. Qiziq: Miryoqub birinchi safarda ularning yuzlariga qaradi. Ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi safarda faqat yurishlariga nazar soldi. So'ngra yettinchisini ko'rsatib turib, dedi:

— Mening nomerimga yubor. Men kelguncha jilmasdan o'tirsin. Birovga ko'rsatma! Ha! Vanna bor-a? Vannaga tushirtir. Qolganlari narigi nomerga kirib, bizning xo'jayinga ko'rinib chiqsinlar.

Miryoqubning haligi ikki xonali uydan boshqa o'ziga xos alohida bir xonasi bor edi. Uning ichki ziynati oldida narigi ikki xonali uy ip esholmasa, bunga taajjub qilib bo'lmaydi. Chunki Miryoqub — Miryoqub, mingboshi esa — bir Akbarali, xolos... Akbarali degan bir odamning yonida hukumat muhridan, zoti past bir itlikdan boshqa narsasi yo'q. Miryoqubning kattakon miyasi, o'tkir aqli bor! Mingboshi o'ylaydiki, Miryoqub uning quyrug'i... Miryoqub ishonadiki, mingboshi — tuya, burniga ip o'tkazilgan, ipning uchi — sarbonda, ya'ni tuyachida, sarbonning nomini Miryoqub qo'yganlar... Ana, Akbarali degan odam mingboshi bo'la turib, arzimas xotinlar orasida itlik rolini o'ynab yotadi. Shu topda yurt kuysa, ishi yo'q, parvoyi falagiga! Miryoqub degan kishi ming-

boshi ham emas, savdogar ham emas, dehqon ham emas, shunday bekorchi bir odam — o'n bittaning eng a'losini tanlab qo'yib, o'zi mingboshlikning ishlari, ya'ni yurt qayg'usi bilan piyoda halloslab noyib to'ranikiga ketib boradi. Miryoqubga ma'qul bo'lmagan o'nta xotin kirib mingboshining tevaragini o'raydi... Mingboshi odam shaklidagi it bo'lgani uchun birdan hammasiga chang soladi, hammasini birdan changallari orasiga olmoqchi bo'ladi, quturib terisiga sig'magan sherday, hammasini baravar parchalamoq istaydi... Nihoyat, mastlik bilan va ham o'ta ketkan hayvonlardagina bo'ladigan olchoq, ochko'z, mechkay va yamlovchi his bilan ko'zi ko'r bo'lib, hushyor vaqtda qaralsang, ko'ngil aynaydigan bittasini ilintiradi-da, o'zi iflos, changallaridagi ovi iflos, ikki iflos bir-biriga suykanib, tagsiz botqoq ichiga botib ketishadi! Mastlikda xotin tanlab bo'ladimi? Mastning ko'ziga mushuk — fil, fil — mushuk bo'lib ko'rinadi... Kampirni — pari qiz qilib ko'rsatadigan tilsimli oyna ichkilikdan boshqa narsa emas! Miryoqub — it emas, odam! U yosh bir xotinni bazzoz do'konidan o'ziga toza ko'ylaklik tanlaganday qilib tanladi. Yettinchisi chakki emas... yuzining tozaligi birinchi qarashdayoq barq urib turadi. Miryoqubning o'sha tanlash chog'ida elektrikni o'chirtirib qo'yishi va namoyishni deraza yoniga keltirishi hikmatdan xoli emas. Buni — belida kumush kamari borlargina tushunolmasa mumkin!

Nomer egasi Miryoqubni yaxshi taniydi, uning juda mulkilpisand gumashta, injiq xaridor, zavqi qayralgan shinavanda ekanini yaxshi biladi. Shu uchun yettinchisining tanlaganini ko'rib, oshnasi Miryoqubning yelkasiga qoqdi va «O'lma, Miryoqub! Sart bolasi — fransuz...», deb qo'ydi. Chunki o'n bir xotin orasida yettinchisi bo'lib qo'lga kirgan Mariya Ostrova hali yosh... Yaqindagina yaxshi va najib bir oilaning erka qizi bo'lgan... Xo'jayinning aytishicha, bir xiyonat uni bu ko'ylarga keltirgan... Xo'jayin ham uni ko'z qorasiday saqlaydi... Miryoqubga ko'rsatdi, boshqa ancha-muncha odamga ko'rsatmaydi... Xotin o'zi odam tanlaydi... Yo'q, odam emas, pul tanlaydi! Unga bir yarim ming so'm pul kerak, shuni topadi, so'ngra yiroq bir mamlakatga keta-

di. U yerda turmushini boshqa asoslarda quradi. Gunohlariga achchiq-achchiq yig'laydi. Hozir mo'ljallangan summaning yarmidan ko'pi bor. Uch kishi bilan «ko'rishib» sakkiz yuz so'm topoldi. Biror hafta-o'n kundan so'ng mo'ljallangan summa qo'lga kirajak va yosh xotin yangi turmushga qarab yo'l solajak!

— Ana, oshnang vannaga ketayotir! — dedi xo'jayin ayvondan o'tayotgan yosh xotinni ko'rsatib.

— Bitta yaxshi oqsochni tayin qil, yuvintirsin.

— Xotirjam bo'l, Miryoqub, uning o'z xizmatchisi bor.

— Men sendan xafaman...

— Yo'g'-e!

— Xafaman...

— Rost aytasanmi, Miryoqub?

— Rost...

— Sababi?

— O'zing bilasanki, bunaqa xotinga pul ayamayman.

— Bilaman.

— Bilsang, nega boshqa xotinlarga qo'shib ko'rsatding? Hatto ularning orasiga qo'yibsan...

Xo'jayin xoxolab kuldi:

— Zavqingni sinamoqchi edim, jinni! — dedi. — O'zim bilardimki, o'shani tanlaysan!

Miryoqubning menlik hissi qongan edi. Kuldi.

— Sakkiz yuz so'm ishladi, degin?

— Sakkiz yuz so'm!

— Sen qancha ishlading?

— Men bir oz ortiqroq...

Miryoqubning miyasiga bir fikr kelgan edi. Bir nafas to'xtab o'yladi va darhol qarorini berdi.

— Chakki emas... U bir yarim ming so'm ishlaganda, sen ikki mingga yetkizmoqchisan. Insof ham kerak!

— Insof kerak-ku-ya. Lekin, bunaqa fursatlar ham kam uchraydi. Bizning kasbimiz shu, fursatni qo'ldan chiqarish o'z kasbiga xiyonat qilish, demak...

— Mendan qancha olasan?

— Sendan yuz ellik so'm, xolos!

— Unga qanchasini berasan? Ellik so'minimi?

— Yo'q! Unga o'zing bilib berasan.

Miryoqub o'rnidan turdi. Do'stining yelkasiga qoqdi.

— Shaytonsan, do'stim, shayton! Yetti do'zaxga kunda bo'ladigansan!.. — dedi va tez-tez qadam qo'yib, ko'chaga chiqdi.

Noyib to'ra Miryoqubdan uzr so'radi.

— Meni hokim to'ra chaqirayotir. Hozir bormasam bo'lmaydi. Kechroq uyga kelsang, yaxshi bo'lardi.

— Xo'p bo'ladi. Ortiqcha ishim ham yo'q. Qog'oz-mog'oz bo'lsa, ola ketay, deb edim. Undan keyin, sizga bir narsa topib keldim.

Yonidan gazetga o'ralgan bir narsa oldi.

— Juda yaxshi, juda soz! — dedi to'ra. — Uyda berarsan. Akbarali qayerda?

Miryoqub haligi narsani yana qaytib qo'yniga solarkan, javob qildi:

— Shu yerda.

— Shaharda?

— Ha, shaharda.

Telefon jiringladi. Noyib telefon qulog'ini oldi:

— Men, menman, Aleksandr Vasilevich. Hozir boraman... hozir...

Telefon qulog'ini yana joyiga qo'ydi.

— Shaharda, degin? Nima qilib yuribdi?

— Gap ko'p, to'ra.

— Yaxshi, uni ham uyda aytib berarsan. Xayr, hozircha.

Eshikni ochib, sarkotibni chaqirdi:

— Ignatyuk! Akbaraliga tegishli qog'ozlar bo'lsa, berib yubor!

Noyib shoshilib chiqib, foytunga o'tirdi. Miryoqub qog'ozlarni olgandan so'ng bitta-bitta bosib, hammomga ketdi.

Yuvinib, soqol-mo'ylovlarini «fason» qilib oldirib, nomerga qaytgan vaqtida mingboshi ichkari uyda o'zi yolg'iz uxlab yotardi. Stol usti, yerlar — egasi ko'chgan uydan nishon berardi. Uyning havosi ham buzila tushgan...

U yerdan chiqib, nomer xo'jayiniga uchradi.

— Mingboshiga ovqat berildimi?

— Haligacha berilgani yo'q.

— Xayr, mayli. O'zi uyg'onib so'rasa, berarsiz. Ammo uyni yig'ishtirmasang bo'lmaydi. Odam buyur!

U o'z xonasining eshigini sekingina ochib kirgan vaqtida yosh juvon kiyimlarini yechgan, kartda uxlab yotardi... Boshi yostiqdan tushgan, sochlari tarqalgan...

Miryoqub yana sekingina qaytib chiqib, xo'jayinning yoniga kirdi.

— Borib uyg'ot, do'stim. Turib, yuvinib, kiyimlarini kiysin. Men u bilan to'ppa-to'g'ri kartda uchrashmoqchi emasman...

— Senga nima bo'ldi, Miryoqub? — dedi xo'jayin, kuldi.

— Menga hech narsa bo'lgani yo'q. Mening odatim shu... men oshnachilikni kartdan boshlamayman...

Xo'jayin kula-kula chiqdi. Xotinning bezanishi bir soatga yaqin cho'zildi. Bu orada Miryoqub bardosh qilib o'tirsa ham, xo'jayin tajanglanib besh-o'n marta borib keldi.

Nihoyat, Miryoqub o'z xonasining eshigini ikkinchi marta ochib kirdi. Yosh juvon harir va chiroylik kiyimlari bilan yuvinib-taranib uyning o'rtasida turardi. Elektrikning bilinar-bilinmas qaltirovchi o'tkir yorug'ida uning oq yuzlari, ayniqsa, porloq ko'rinardi. Miryoqub kirgan hamon salom qildi va xuddi eski bir oshnasi bilan ko'rishayotganday kulib turib ko'rishdi. Xotinning qo'l berishida shu xil xotinlarda bo'ladigan bir loqaydlik boridi. Sovuq qo'l sovuqlik bilan uzaladi: «Ha, eski tanimning yangi xaridori», deganday... Miryoqubning odatda hamma qo'lni mahkam siqib ko'rishadigan qo'llari bu kichkinagina, oppoq va yumshoq qo'llarni ham kuch boricha siqdilar. Faqat bu qisishlar ham olovsiz va haroratsiz edilar: «Ha, chuqur cho'ntagimning ochko'z mehmoni!» deganday... Butun bu ko'rishuvlar, qo'l siqishuvlar va ko'z tutuvlarda, shuningdek, bu ko'rishuvni o'rab turgan sharoitda ma'ni degan narsa topilmasdi. Bu ikkala «savdogar»dan bir ma'ni izlash, ayniqsa, shu topda behuda urinish bo'ladi. Faqat ikkalasining ikki juft ko'zi bundan mustasno... Xotinning qovoqlariga og'ir bir alam va iztirobning ko'lagasi tushgani holda yoshlik va juvonlikning kuchi bilan berishmay, bo'sh kelmay tur-

gan, yoz osmoni kabi tiniq va toza moviy ko'zlarida kuchli bir savol alomati boridi, «Boshqalariga o'xshamagan xaridor, kimsan va nima qilmoqchisan?» deganday... Miryoqubning har qanday xotinni loqaydlik holatidan chiqara oladigan qop-qora va dumaloq ko'zlarida esa bir andisha va o'ylanish hokim edi; «Tili ko'nglidan judo bo'lgan maxluq, nega sen bu yerdasan?» deganday... Miryoqub fonarni o'chirib, uning qarshisiga kelganda va ikkalasi bir-biriga havoning tabiiy yorug'ida indamasdangina bir-ikki minut tikilishganda, ikkala tomon ham birbirining ko'zida haligi ma'nini ravshan ko'rdi va o'qidi. Miryoqub hali boya nomer egasining uyida bergan qarorini quvvatlash uchun xotinning moviy ko'zlaridan quvvatli dalillar topgan edi. Xotin esa hozirga qadar qilgan ishlari va muomilalari bilan o'zga «xaridorlar»ga ko'p-da o'xshamagan bu Osiyo odamining, o'z aqidasicha, ayyor ko'zlarida oddiy «xaridorlik» doirasidan chekkaroq chiqadigan alomatlarni mushohada etardi: «Bu odam ham, — deb o'yladi xotin, — boshqalar kabi cho'ntagining kuchi bilan meni olayotir... Bu ham boshqalar kabi yosh gulbundan bir gulni sotib olib, darhol uzajak, uzgan hamon yana o'sha gulbunning oyoqlari ostiga — chang va tuproqqa tashlayajak, so'ngra sovuq qo'lini uzatib, loqayd xayrlashajak, balki xayrlashib ham o'tirmasdan, burilib ketajak. Bir umr uchrashmaslik uchun ketajak!.. Chunki... Lodzli voyajer kabi...» Shundan so'ng, bir onda, o'tgan haftadagi uchrashuvni ko'z oldidan kechirib oldi.

Shu nomerning shu xo'jayini kechasi soat ikkilarda buning eshigini chertib ochtirdi. Bu yechinib yotgan edi. «Turing, Mariya Stepanovna, — dedi, — uchinchi nomerga kiring. Tez! Aytgan summangizni tez to'latadigan bir olijanob kishi bor. Sizni kutib yotibdi!» «Xo'p, hozir kiyinib-taranib boraman». «Yo'q, — dedi xo'jayin, — yo'q! Ayvonda hech kim yo'q. Choyshabni yopinib o'ta bering. Kiyimsiz ham go'zalsiz!» Kuldi va hayron bo'lib turgan xotinning yelkasiga kartdagi choyshabni tashladi-da, quchoqlab ayvonga olib chiqdi. Yangi «kasb»ning munaqa dag'al talablariga o'rganmagan yosh juvon o'shanda butun tanining dir-dir qaltirab

borganini sezdi. Uning yosh va tarovatli tanidan hali sofligini saqlagan, yeyilmagan ruhidan norozilik faryodlari yuksalar-di. «Uvishdingizmi?» dedi xo'jayin mahkamroq quchoqlab! «Yo'q, — dedi yosh juvon, lablari titragan holda. — Ko'nglim ayniydi! Bu qadar olchoqlik!..» Xo'jayin darrov to'xtadi, ayvon ustunidagi xira chiroqning shu'lasida yosh juvonning ko'ziga tikildi. «Olchoqlik? — deb takror qildi xo'jayin. — Mehnatsiz, oson pul topmoqchi bo'lganlar menlik hislarini o'z oyoqlari bilan tepkilashga majburlar... Dunyoning ustuni — pul, pul topish — qiyin! Oson pul topish olchoqlik bo'lsa, mardikorlik qilishga nafsingiz ko'nadimi? Ana, ko'chada Tursunboy degan sart qorovul bor, hali ham ko'cha supurib yuradi. Olti so'm oylik oladi... O'shaning ishini qilishga o'zingizni ko'ndira olasizmi? Xursand! Vaqti chog'! Qachon ko'rsangiz, ashula aytadi. Mening oqsoch xotinlarim bilan o'ynashadi. Topganini o'shalarga sarf qiladi. O'zi doim och...» Yosh juvon boshini quyi egib, yuzini chapga burgan va borgan sari qaltirashi kuchaygan lablarini o'tkir va oppoq tishlari o'rtasida qisardi... «Behuda gaplarni tashlang! Yarim soatdan so'ng qo'lingizda bankning ko'p summali cheki bo'ladi. O'shani so'rib-so'rib o'pingiz (orqa tomonini o'ping, yo'qsa nomeri o'chib ketmagi mumkin)! Ona — bolasini, oshiq — ma'shuqini, bulbul — gulni, badaviy — tevasini, sarlashkar — qilichini o'pganday o'pingiz! Negakim, hamma gap — o'sha chekda, chekbankada, banka — pulning markazi, pul, agar haqiqatga tobingiz bo'lsa, «olloh! Qoziyul hojat!..»

Eshikni ochib, bu yosh xotinni hatto bir daraja qo'pollik bilan uchinchi nomerga kiritib yuborib, xo'jayin eshikni astagina yopdi-da, «Shunaqa xotinlarni qashqarlik mardikorlar bilan birga g'o'za chopig'iga yuborsang, ayni saraton issig'ida!» deb g'udurandi...

Bu xotin shu topda faqat bir narsaga muhtoj edi— isinish! Yozning dim va iliq kechasida paydo bo'lgan bu g'ayritabiiy titramani to'xtatish! Bu — bir. Ikkinchidan, uhdaga tushgan «vazifani» naridan-beri bajarish... Bu yerda, «vazifa»ning go'zalligi, muloyimligi va yoqimligini surishtirib turadilarmi? Bu yerning qonuni qattiq,

unga e'tiroz qiladigan, gap qaytaradigan kishilarni u o'z doirasiga olmaydi. «Kirdingmi, bo'ysunsun!» deydi va o'zicha u ham — haqli!

Ko'ngilni g'ash bosadigan kichkina va yalang'och xonaning fonari o'chirilgan, hech narsa ko'rinmaydi. «Qanday yaxshi! Kechaning bitta fazilati, qorong'ilikning bir yaxshiligi shu!» Ayvondagi xira fonardan bir siqimgina xira shu'la tushib, eski va bo'yog'i o'chgan kartni, kart yonidagi kursini, kursi ustidagi bosma ayilli — tasmali shimni[1], kursi oyog'idagi bir juft rangi belgisiz yarim botinkani zo'rg'a-zo'rg'a yoritardi. Eshik ochilishi bilan kartda yalang'och yotgan erkak boshini ko'tardi, bir qimirladi, yonidan joy bo'shatgan bo'lsa kerak... Yosh xotin kartni ko'rgan hamon hech o'ylab turmasdan choyshabni yerga irg'itib yot erkakning begona qo'yniga kirdi.

— Buncha sovuqsiz! — dedi erkak xirqiroq ovoz bilan. — Xuddi muz!

Xotin indamadi. U hali ham lablarini tishlardi...

Tong otib, uy ichi yorishganda, xotin o'rnidan turdi va darrov choyshabini yopinib, orqasiga qayrildi-da, usti ochilib yotgan erkakka ko'z tashladi: tarvuz singari yumyumaloq, semiz qorni solinib tushgan, ikki beti sego'sht — bo'rtma, kichkina va ma'nosiz ko'zlarga ega bir maxluq! Pishillab nafas oladi, xurrak tortib uxlaydi! Ana, u ham uyg'ondi, joyidan turmasdan, boshini bir oz ko'tardi. Kuldi. Buncha xunuk kuladi! Ikkita tilla tishi o'chayotgan cho'qqa o'xshaydi. Juda siyrak bo'lgan sochlari chala o'rilgan ekinzor kabi...

«Nechuk men butun bir kechani shu bilan o'tkaza oldim?..» dedi xotin o'z-o'ziga, yana lablarini tishladi.

— Beriroq kelchi! — dedi erkak.

Xotin qon chiqar darajada shiddat bilan lablarini tishlagani holda, o'ylab o'tirmasdan, qo'mondaga itoat qilgan soldatday, kartga yaqin bordi.

— Egil bir oz!

Xotin egildi.

— Chakki emas! — dedi erkak, xursand bo'lib kuldi. So'ngra qo'li bilan deraza tokchasiga ishorat qilib:

---

[1] Bosma ayilli shim — tasmali (podtyajkali) shum.

— Ana, chek! — dedi. Yana boshini yostiqqa qo'ydi.

Xotin tezgina chekni olib, xayrlashmasdanoq uydan chiqdi.

O'z uyiga kelganidan so'ng darhol oynaga qaradi, o'z aftidan qo'rqib ketdimi, bilmadim — o'zini kartga tashlab, ho'ngur-ho'ngur yig'lashga tushdi... Uch yuz so'mlik chek qo'lidan tushib, allaqaylarda to'ntarilib yotardi...

Shu uchun Miryoqubga boshqa «xaridorlar» kabi qarayolmasligini bu yosh xotin o'zi ham bildi. «Bu, hech bo'lmasa, olgan molini qadrlay oladigan savdogar muomilasini qildi-ku, — deb o'yladi u. — Xotin kishiga nozik tarbiyali bir fransuz kabi yaqinlasha bildi-ku! Koshki hamma xaridor shunday bo'lsa!» Bu xotin o'zicha haqli, albatta. Qullarini urmasdan yaxshi gapirib ishlatadigan, urganlar kunda o'n besh soat ishlatsa, yaxshi gapirib kunda yigirma soat ishlatadigan xo'jalar ham bo'ladi-ku...

— O'tir! — dedi Miryoqub sensirab. Fonarni yana yoqdi. Stolning past tomoniga o'zi o'tirib, to'r tomonidan unga joy ko'rsatdi.

O'tirdilar. Xotin o'z «vazifa»sini yaxshi bilganligidan, shu topda gap emas, «ish» kutardi va bu tahqirlanishning sababini anglayolmasdi... «Har qanday orginal tip bo'lsa ham, maqsadi belgili. Bu joyda o'zga maqsad bo'lishi mumkin emas!» deb o'ylardi u. Miryoqub bo'lsa, nima deyishga hayron bo'lib, boshi qotib o'tirardi. Bu odam xalq orasida zakonchi hisoblangani bilan rus tilini maqsad anglatarlik bilmaydi. Qarshisida — Osiyo bilan yaqinda tanishgan bir nozik rus xotin, Osiyo bilan yaxshi tanishganda ham sart tilini o'rganishga tanaffur qiladimi? Zohirda bu narsaga dalolat qiladigan hech bir asar yo'q! «Bu xotin, men bilan fransuzcha gaplashsa gaplashadiki, sartcha bir so'z ham bilmaydi», dedi o'z-o'ziga Miryoqub... Holbuki, aytadigan ancha so'zlar, so'raydigan ancha gaplari bor. Bu xotinga boshqa shu xil xotinlarga qaragan singari qarayolmasligiga uning o'zi ham ishonib qolgan. Boshida boshqacha planlar aylanadi...

Nihoyat, shirin maydan bir qadahchaga to'ldirib, uning oldiga qo'ydi. O'zi yarim qadah aroq quydi.

— Ich! — dedi Miryoqub yana sensirashida davom etib.

Birinchi marta sensiraganida, negadir qunt qilmagan xotin bu safar hayrat aralash ranjib qo'ydi. «Bu osiyoli ham «sen» bilan boshladi», dedi o'z-o'ziga. Cho'qishtirib ichdilar. Miryoqub endi bir ish qilib maqsadini anglatishga bel bog'ladi. Ruschaga sira o'xshamagan bir til bilan, ko'proq qo'llariga va yuz-ko'zlarga zo'r berib, maqsadini anglatishga kirishdi. Xotin qotib-qotib kular, yuzlari cho'g'day yonib qizarar, Miryoqubning qistovi bilan shirin maydan bir oz bir oz ho'plab qo'yib, so'z tinglardi. So'zlar boshda Miryoqubning g'alati savollaridan iborat bo'ldi:

— Qachon jo'naysan? — dedi u.

Bu birinchi aytilgan so'z edi.

Xotin anglamadi. Boshini chayqadi. So'ngra Miryoqub qo'l ishoratlari bilan birga haligi so'zni yana takror qildi.

— Qayerga? — dedi xotin.

— Men bilmayman. O'zing bilasan.

Bu narsa xotinni butunlay gangratib qo'ydi. «Nima demoqchi bu sevimli aziat?» Miryoqub maqsadini anglatolmasdan, savolni boshqacha qilib berdi:

— Bir yarim mingga yetdimi? Yo hali ham sakkiz yuzmi?

Xotin tushundi, u shoshib qoldi. «Nimalar deydi bu g'alati aziat? Menga bir yarim ming so'm pul kerakligini, hozir faqat sakkiz yuz so'm yig'ilganini qaydan biladi? Muammo, muammo!..»

Bora-bora kerakli so'zlar osonroq topiladigan, boshqacharoq so'zlar bilan aytilgan mavhumlar ham ikki tomonga anglashiladigan, qo'l va yuz-ko'z harakatlari ko'zga tanish ko'rinadigan bo'lib qoldi. Xotinning yoqimli jaranglab chiqadigan quvnoq ovozi Miryoqubning tanlariga igna botganday botar, lekin nihoyat darajada kayfini keltirardi.

Miryoqub nomer xo'jayinining uyida bergan qarorini mustahkamladi, ya'ni bu juvonni o'zi bilan birga, bir-ikki oy o'ynatib, kelish uchun Qrimga olib ketadigan bo'ldi. Qrimdan so'ng qo'liga ikki ming so'm pul beradi

va mumkin bo'lsa, Petrogradgacha olib borib qo'yadi. Undan nari bu xotin haligi pulning kuchi bilan Germaniyaga (dushman mamlakatiga!) qochadi va unda badavlat akasiga qovushadi. Bu sirlarni u Miryoqubga «ko'nglining yaqinligidan» aytdi va — «sirlarning ochilishi uning halokatiga sabab bo'lishini» ham qayd qilib o'tdi. Miryoqub deraza tokchasidan eski bir kulgili jurnalni olib, undan tuya suratini topdi va «Tuya ko'rdingmi? Yo'q!» degan chuchmal maqolni anglatmoqchi bo'ldi shekilli:

— Ko'rdingmi? Yo'q! — dedi xotinga. Bu so'z ruschada «Videl? Net?» shaklida chiqqanligidan xotin:

— Ko'rganman (videla)! — deb javob berdi.

Xotin uning jon kuydirib gapirgan gapini anglamagan edi. Miryoqub qizidi, barmog'i bilan tuya suratini bir necha marta turtib, yana o'sha savolni takrorladi. Xotin bu daf'a:

— Ha, ha, ko'rib turibman (viju), ko'rib turibman! — deb javob berdi.

Miryoqub tajang bo'lib o'rnidan turdi, tezgina xotinning yoniga o'tib, tuya suratini yana qattiqroq turtib ko'rsatdi, barmog'ini og'ziga qo'ydi, bir oz shu ko'yicha jim qolgach, yana o'sha savolni takrorladi.

Xotin Miryoqubning shu qadar zo'r berishlari ila maqolning mazmunini anglayolmasa-da, uning nima demoqchi bo'lganini anglagan edi: «Ayyor, lekin, bu aziat! — deb o'yladi u. — Demak, sirni hech kimga aytmaydi. Tuya kabi doim jim qoladi». Shu uchun o'tirgan joyida boshini ko'tarib Miryoqubga qaradi, ko'zlari o'ynagan va muloyim kulgan holda:

— Tushundim, tushundim. Rahmat sizga! — dedi.

Shu bilan Miryoqub ham tinchlanib, yana o'z joyiga o'tirdi.

Bu xotin o'zi yosh bo'lsa ham esi joyida edi. Ko'p erkaklarning shirin tillari... birinchi yotoqqacha qaldiraganini, yotoqdan turar-turmas yuzlari burishib, haligi tilning aksiga aylana boshlashini yaxshi bilardi. Gimnaziyaning so'ng sinfini bitirolmay qolgan bu qiz gimnaziyada fransuz tilini tuzuk-quruq o'rganib, handasani durustgina o'zlashtirib chiqmagan bo'lsa-da,

ishqiy romanlarni ko'p o'qigan edi. Arsibashyevning[1] taraqlagan davrlarida o'rtoqlari bilan birga butun kecha uxlamay, o'sha «sevimli» yozuvchini o'qir va kechalari poytaxtning keng parklarida har bir uchragan erkakni bir «oshiq» xayol qilib, har bir — ona suti og'zidan ketmagan tentak gimnazistni bir «ozitqi» deb bilardi... «Bu yana tag'in, yovvoyi bir aziat... Buning gapi, va'dasi bormi? Ertaga unutadi! Ertagayoq o'zining qirqta (!) xotindan iborat ichkarisiga (o'zicha aytsak, «garemiga») kiradi-ketadi! Topib bo'ladimi uni nomi yo'q va nomeri yo'q, bir-biriga o'xshagan ilang-pilang ko'chalarda?» deb o'ylardi xotin. Bir ozdan so'ng bu fikrga o'zi qarshi bo'lardi: «Buning maqsadi kart bo'lsa, ana — kart, men — amriga hozir, nima uchun so'z qiladi-yu, «ish» qilmaydimi? Yo'q, bu boshqa erkaklarga o'xshamaydi!» Shunday bo'lsa ham qo'lda bir dastak bo'lishi kerak. Xotin o'yladi va dedi:

— Sizning bu yaxshi gaplaringiz meni qondirdi. Faqat bu gaplarning ertaga erta bilanoq kul bo'lib uchmasligi uchun birorta dastak bormi?

— Dastakmi? Bilmadim... Siz ko'rsating, men yo «xo'p», yo «yo'q» deyman?

— Gaplaringiz rost bo'lsa, meni ishontirguncha... menga tegmaysiz!

— Boshqalarning ham tegmasligi sharti bilan!

Xotin «Ming bir kecha»dagi zolim hukmdorlarga o'xshagan bu «mutaasib musulmon»ning shu qo'ygan shartidan shu topda juda rozi edi. Faqat bu joyda, bu binoda u shartni bajarish mumkin emas.

Shu uchun u ertasi kuni — Miryoqub hisobiga — shaharning eng a'lo nomeriga ko'chadigan bo'ldi. Miryoqub qattiq va'da oldi, o'zi ham qattiq va'da berdi. Bir haftaga qolmay, jo'nab ketishga jazm qildilar.

* * *

Kech kirgan edi. Ko'cha fonarlari yoqila boshlagan, uylariga qaytayotgan izvoshchilar charchagan otlarini

---

[1] Arsibashyev M. (1878—1927) — XX asr boshlarida axloqiy buzuqlik tashviq etilgan asarlari bilan mashhur bo'lgan rus yozuvchisi.

erinibgina qamchilardilar, otlar ham quruq aravani shoshmasdan asta-sekin g'ildiratardilar... Miryoqub bitta-bitta qadam bosib, noyib to'raning uyiga tomon yurdi. Uning miyasida allaqanday besaranjom fikrlar aylanardi.

«Miryoqub — burungi Miryoqub emas, nega bu qadar sekin yuradi? Uning shu choqqacha sanab qadam bosganini ko'rgan odam bormi dunyoda? Nima bo'ldi o'zi unga? O'zi ham hayron! Akbarali mingboshida bo'lgan itlik bunda yo'qmidi? Bu quturmaganmi? Bu suvdan ham muloyim, sutdan ham oq, chumolidan ham beozor, musichadan ham so'fimi?»

«Yo'q! Bu ham Akbaraliga o'xshagan minglarcha itlarning biri! Faqat bu bilan Akbarali mingboshi o'rtasidagi farq shuki, bu o'zini undan yuqori oladi. Shu yuqorilik hissi, shu g'urur — uning o'zidan itlikni to'sib turadi, o'ziga ko'rsatmaydi, uning o'zini aldaydi...»

«Yo'q! Bu bilan Akbarali o'rtasida tog' qadar farq bor! Ana, Petrograddan kelgan moviy ko'zli dilbar bunga guvoh! Miryoqub, Akbaraliga qaraganda, farishta! Buni Petrograd go'zali ham tili bilan tasdiq qiladi. Miryoqubda itlik yo'q!... Bo'lmasa, shu topda hech narsa qolmadi... Hammasini ana u moviy ko'zli go'zalning bilinmas kuchi yulib tashladi, tag-tomiri bilan yulib tashladi!..»

«Yulib tashladimi? Tag-tomiri bilan yula oldimi? Yo'q! Bekor gap! Necha yillardan beri ildiz yoygan, shox tarqatgan, qulochlab o'sgan narsani bir qarashda yuladigan kuch yo'q va topilmaydi! Uning ildizlari Miryoqubning badanida hali juda kuchli! Ana o'sha kuch emasmiki, uni ketayotgan yo'lida birdaniga to'xtatdi. To'xtagan joyida bir uyning zinasiga o'tirishga majbur qildi. «Itlik» bosh ko'tarib kelardi...»

«Nima behudagarchilik bu? Mashhur bir nomerda ma'lum «kasb» bilan shug'ullanadigan bir xotinga yo'liqdi. Ori rost: bu o'sha joydagi o'zi singari xotinlarga o'xshamasdi. Boshqacha ko'rinardi. Yosh, tarovatli va toza edi. Nima bo'pti? Har qancha tannoz bo'lsa ham — yana o'sha joyning o'shanaqa xotini. Buning uyiga nega kirdi? Nega kirgani ma'lum. Bu kelganda, yechingan ko'yi muning kartida yotishi — nega kirganini ko'rsatib

turadi. Ochiq ko'z bilan o'ylaganda, bunga nima qilish kerak? Belgili, borib eshikni ochib kirib, fonarni o'chirib, indamasdan kartga tortish... U o'zi ham erta bilandan beri shuni kutib o'tirmaydimi? Shu uchun yuvinib-taranmadimi? U — Layli, bu Majnunmidiki, «oh, oh» deb tog'-toshlarda, vahshiy hayvonlar bilan ulfat bo'lib yura bersa? Tog'-tosh qani? Bu — shahar... Madaniylashgan, «evropalashgan» shahar. Har burchakdan — har minutda bir tannoz buriladi va suzgun ko'zlari bilan yegunday bo'lib odamga qaraydi! Shu zamonda majnun bo'laman deganlarni o'lganlaridan keyin tug' ko'tarib mozor qilmaydilar. «Jinni edi, o'lib qolibdi», deydilar va bir kulib qo'yib, o'taveradilar; o'ligi ham ko'chalarda qolib ketadi. O'ligini itlar yesa, egasi xursand bo'ladi. Bekor chirib, sasib yotgandan ko'ra...»

Itlikning shu xilda osiy o'ylari bilan Miryoqub qanday qilib o'rnidan turganini va nomer zinasidan shoshilib yuqoriga chiqayotganini o'zi bilmay qoldi. Yuzlari, ko'zlari kulardi va bu kulish qondirilmagan nafsning birdaniga xuruj qiladigan sho'xliklaridan o'zga emasdi. O'z xonasiga yaqin yetgan, derazadan yupqa to'r parda orqali ayvonga tushib turgan muloyim shu'lani ko'rganidan keyin negadir yuragi o'ynab, qadam bosishini birdaniga susaytirdi. Itlik fikrlari yana orqaga tisarila boshlagan kabi bo'ldi. Eshik oldiga yetgach, qabzaga qo'l uzatolmasdan, to'xtaldi... Ichkaridan yosh xotinning shirali bir ovoz bilan ohistagina aytayotgan ashulasi eshitilardi. Bu xotinning gapirganida jaranglab chiqadigan shirin ovozi endi ashula aytarkan, cholg'u toriday darrov ko'ngilga ta'sir qildi.

«Bu qanday ovoz? «Itlik» asari bormi shu ovozda? Shu ovoz bilan karavotga chaqirib bo'ladimi? O'xshamaydi-ku sira! Boyagi bir tush edi... bir bosiriq kelib kechdi... U og'ir bosinqirashdan uyg'onmoq uchun shu qushchaning sayrashiga ehtiyoj bor ekan! Ana, sayrayotir! O'zi bilgan, o'zi tanigan, o'ziga yoqqan ovoz! O'ziga yoqqani uchun va'da berib, va'da olgan!..»

«Hay, ket! Ket, shaytoni mal'un! Men Akbarali emasman! Mening kumush kamarim, podshohlik muhrim yo'q! Men — Miryoqubman, Miryoqub!..»

«Hay, Miryoqub! Pismiq Miryoqub! Ayyor Miryoqub! Tulki Miryoqub! Shayton Miryoqub! Nafsining bandasi, buzuq, sharmanda Miryoqub! Umringda bir marta salgina, pichagina, qittakkina itlikni tashlash, odam bo'lish fursati topilibdi-yu, shunda ham mag'rur bo'yningni jindakkina egging kelmaydimi? Shunda ham-a! Sen it bo'lsang, shoshma, itlik qilishga hali ulgurasan! Itlik — topiladigan narsa. Pul bo'lsa — bo'ldi! Pul har qayda har qancha, har qanday itlikni amringga omada qilib bera oladi. Puling bo'lsa, butun umringni itliklarning bir-biriga ulanib ketgan zanjiriga aylantirish hech gap emas!..»

«Ettinchi seniki, axir! Seniki! Sendan boshqaga yo'q endi u muloyim maxluq! Seniki u xotin! Hech bo'lmaganda, shu bittani fohisha kabi tasarruf qilma! Hech bo'lmasa, uning ko'nglini o'ldirma! Umidini sindirma. U senga odam, deb qaraydi, «xaridor» degan fikrini tashladi, tashlata olding. Ovozini eshitasanmi? Bu ovoz cho'ntagida puli bor xaridorni kutgan buzuq xotinning o'z yozmishini qarg'ab aytadigan alamlik ashulasidagi ovoz emas! Bu ovoz buzuqligidan zavq oladigan xotinning aynima qo'shig'i emas! Bu, oqshom chog'i kuyovini kutib yotgan, yosh kelinchakning ma'sum ashulasi! Sevganiga qovushgan yosh maxluqning sevinch qo'shig'i! Jufti uyasiga qaytgan ona qushning shukrona kuyi! Miryoqub! Miryoqub! Miryoqub!..»

Miryoqub ikkita edi: biri qochdi, biri quvladi, shu qochish va quvalash sur'ati bilan noyib to'raning uyiga yetib borib, jing'iroqning tugmasini bosgan vaqtida... cho'zib-cho'zib, hansirab-hansirab nafas olardi...

* * *

Uy bekasi — xonim yo'q edilar. Katta zalda noyibning o'zi ovqat stoli ketida choy ichib va gazet ko'rib o'tirardi.

— Ha, keldingmi, Miryoqub? Marhamat!

— Keldim, to'ra. Qalaysiz! Omonmisiz? Bola-chaqa?

— Shukur. Yomon emas. Qani, o'tir! Mana, choy, marhamat qilib o'zing quyib ich. Nondan ol. Mana, saryog', nonga qo'shib ye. Konfet, shirin kulcha... bulardan ol. O'z uying, taklifni kutma.

— Qulluq, to'ra, — dedi Miryoqub o'tirarkan. — O'zim quyib ichaman. Yangi gaplar, yangi xabarlardan gapirib bering bizga. Kattakon gazetlarni o'qiysiz...

To'ra ko'zidan tilla oynagini olib, stol ustiga qo'ydi va o'z tizzasi bilan stol o'rtasida yoyilib yotgan gazetaga qarab, dedi:

— Katta gazetlarda katta xabarlar bor, bir-biridan yomon...

Miryoqub kursini yaqinroq jildirdi, chiroyli bir chinayoqqa[1] samovardan quyuqqina choy quygach, chinayoq likopchasiga ikkita konfet olib qo'ydi. So'ngra, qo'ynidan gazetga o'ralgan narsani olib, ocha boshladi.

— Nima u? — dedi to'ra. — Boya mahkamada aytgan narsangmi?

— Ha, to'rt xat forscha bayt ekan. Shahobiddin domlaga ko'rsatib edim, Umarxon zamonida qozi bo'lib o'tgan Ado degan bir shoirning bayti, o'z qo'li bilan yozilgan, deydi.

— Unday bo'lsa, ko'p ham eski narsa emas, — dedi to'ra qo'lyozmani olib turib. — Lekin chinakam mavlono Adoning xati bo'lsa, tabarruk narsa. Rahmat senga, Miryoqub.

To'ra yana ko'z oynagini kiydi.

— «Limuharririhu...» Chiroylik xat... Mavlono Ado shuncha xushxat ekanmi? Sharqda, islom Sharqida suratkashlik din tomonidan man qilingani uchun rivoj topmasdan, din tomonidan tarvij etilgan bu xattotlik san'ati yaxshi taraqqiy qilgan edi. Xo'p, qani... o'qib ko'raylik...

«Gul rangli ko'z yoshlari va sarg'aygan yuzlar ajib go'zal bo'ladilar, xuddi zar yurgizilgan yoqut kabi go'zal bo'ladilar. Sen agar bodom singari boshdan-oyoq ko'zdan iborat bo'lsang, hech narsa ko'rolmaysan, ammo sevgi surmasi ila ochilgan ko'z ravshan bo'ladi».

To'ra yerli xalqning til va adabiyotini juda yaxshi biladigan ma'murlardan edi. Ayniqsa, fors tili va adabiyotini yaxshi bilar, Turkiston tarixiga oid qo'lyozma asarlarni har yo'l bilan qo'lga tushirishga tirishardi. Uning bu

[1] Chinayoq — chashka, likopchali krujka.

havasini bilgandan keyin Miryoqub har qayerdan qo'lyozma asarlar topib keltiradigan bo'ldi. O'zining yaqin oshnasi bo'lgan Shahobiddin mudarris orqali uch-to'rtta qimmatbaho narsalar topib berdi. Noyib to'ra Miryoqubning bu xizmatlarini sira unutmaydi. Buni Miryoqub o'zi ham yaxshi biladi. Ikkovi ham biri-birining katta-kichik iltimoslari bo'lsa, qo'ldan kelgan qadar bajaradilar. Shuning uchun sovg'a-salom, tansiq qo'lyozma asarlar va ba'zan oz-ko'p pul xususida to'ra Miryoqubga minnatdor bo'lib turadi, amaldorning qo'lidan keladigan ba'zi bir xil himoyat ishlari to'g'risida Miryoqub to'raga minnatdor bo'lib turadi. Ishqilib qars ikki qo'ldan chiqadi va hamma ish go'zallik bilan bitib boradi. «Dunyoda hamma odam bolalari bizning ikkimizdek bo'lsalar, dunyo jannat bo'lardi», deb o'ylaydi to'ra. Miryoqub ham shunday o'ylasa kerak: ikkovi bir jon, bir tan emasmi, axir!

— Mavlono Adoning bu baytiga hech qayda duch kelmagan ekanmiz. Bu jihatdan ham bu yozmaning qimmati bor.

— Baytning ma'nosi nima, to'ra?

To'ra tushuntirib berdi.

— Go'zal she'r... Umuman, Umarxon, eslik podsho bo'lgan edi. Mulla odam, o'zi ham shoir. Vazirlari ham shoir edilar. Undan keyingilarning mazasi bo'lmadi... Shahobiddin mudarris buning mavlono Adodan bo'lganini qaydan bilgan bo'lsa?

— Tagida qozining muhri bor, deydi. O'sha mavlono Ado ekan...

— E, darvoqe bunda muhr ham bor... shoshma... ha, mana, mana: «Qozi Abdillatif... Sayyid al-muslumin Amir Umar»... Chinakam, bu xat Umarxon davrining asari ekani ma'lum bo'ldi. Ammo buni yozgan Ado bo'lmasa kerak. Mavlono Adoning nomi Sultonxon bo'lsa kerak... Men o'qib edim. Abdillatif emas. Shahobiddin xato qilibdi. Sizning domlalaringiz munaqa narsalarni yaxshi bilishmaydi...

— Men bilmadim, to'ra. Shahobiddin maxsum shunday dedilar. Men yana surishtirib yuribman, topsam olib kelib beraman.

— Hali ham ko'p qimmatbaho narsalarni berding, Miryoqub. Sening madaniyatga xizmating katta... O'tgan yil bir tarix kitobi bergan eding, u to'g'rida Petrograddagi kattakon majmualarga maqolalar yozdim. Sening nomingni ham ko'rsatdim. Hozir u kitob to'g'risida Angliston, Farangiston va Lamsa (nemis) mamlakatlarida kattakon majmualarga ko'p narsalar yozildi. Rahmat senga, Miryoqub! Katta xizmat qilding.

Ikkovi ham jim bo'lishdi. Bir ozdan so'ng Miryoqub gap ochdi:

— Gazet xabarlaridan gapirib bering, to'ra.

To'raning bu choqqacha kulib turgan basharasiga birdaniga g'am cho'kdi. Qovoqlari solindi, lablari bezgakday, yengilgina qaltirab uchdilar. Qo'lyozmani stolga qo'ydi.

— Shunaqa, do'stim, ishlar yomon. Bizning, adadi hammanikidan ko'p bo'lgan mudhish o'rdumiz bir-bir ustun yengilayotir... Eng usta va eslik qo'mondonlarimizning butun tadbirlari natijasiz qolayotir... Mustahkam qal'alar bir-bir ketin dushman qo'liga o'tmoqda, qancha viloyatlar, o'lkalar, shaharlarni dushman egalladi...

— Oq podsho qayerdalar? Bir chora ko'rmaydilarmi? Hammamiz sevgan oq podsho...

— Bu savolni, Miryoqub, biz hammamiz bir-birimizdan so'raymiz. Hech qaysimiz javob topolmaymiz. O'z-o'zimizdan so'raymiz. Tajanglanib, xafa bo'lib, qizib so'raymiz, shoshilmay, taammul bilan, o'ylanib turib so'raymiz. Na o'zimizdan javob bor, na boshqadan! Bu — mal'un savol. Miryoqub!

— Unaqa demang, to'ra... Biz, sartiya xalqi, xudodan keyin oq podshoga ishonamiz.

— Ishonganlaring yaxshi. Biz ham hammamiz sizlar singari ishonamiz, faqat... og'zingga ehtiyot bo'l... faqat... ishonish boshqa, ish, amal, voqea — yana boshqa. Bir-biriga zid! Bilasanmi, Miryoqub, rus xalqining o'qiganlari orasida ma'yuslik bor, og'ir bir ma'yuslik bor. Ular butun bu baxtsizliklarni oq podshoning o'zidan ko'radilar...

— Oq podshodan? Hech bir podsho o'z yurtini yovga bergisi keladimi?

— Senlarning xonlaring bilan bizlarning podshohimiz yurtlariga ko'p ham achinmaydilar, shekilli... Senlarning Xudoyorxoningga «O'ruslar Oqmachitni olib qo'ydi», deganlar. Xudoyorxon «U yurtim necha kunlik yo'lda?» deb so'ragan, «Bir oylik yo'lda», deganlar. «Unday bo'lsa, menga unaqa olis joydagi yurtning keragi yo'q. Olsa ola bersin!» degan... Bizniki ham, vallohi a'lam, undan qolishmas.

Miryoqub nima deyishini bilmay qoldi. Bunaqa siyosatlarga sira aralashmagan va bu to'g'rida shu choqqacha hech bir bosh qotirmagan kishi bunday katta siyosiy masalalar oldida birdaniga shoshmasdan iloji ham yo'q edi. Quruq bo'lmasin, deb gapga aralashib qo'ydi:

— Ilgari bir oylik yo'l bo'lsa, endi poezd bilan uch kunlik yo'l bo'lib qoldi...

— Havo kemasi bilan ertaga uch soatlik yo'l bo'ladi. Umuman, ertaga — masofaning ahamiyati qolmaydi, Miryoqub. Bizning kattalarimiz asrning sur'atini anglamoq istamaydilar. «Shoshilmasang yetasan» degan maqol boshimizga bir balo bo'ldi. Germaniya nega kuchlik?

— Siz bilasiz, to'ra.

— Men, albatta, bilaman, sen ham bilib qo'y. Germaniya sur'at bilan yutadi. Sur'at mashina bilan hosil bo'ladi. Germaniya bizdan necha barobar kichik, odami bizning uchdan birimizcha ham kelmaydi! Ammo bir qarich yeri temir yo'lsiz, tosh yo'lsiz emas. Bugun, aytaylik, Samarqandda bo'lgan askarini ertaga Oqmachitga olib borib to'ka oladi. Biznikilar bir izlik temir yo'l bilan sudralib borguncha ish tamom bo'ladi... Nimaga germanlar Farangistonda qarishlab oldinga jiladilar? Chunki Farangiston ham Germaniya singari sur'at degan narsani biladi. Texnikaga boy. Bizning shaldirama aravamiz, sizning anovi devsifat aravalaringiz butun-butun xalqlarni uxlatadigan narsa...

— Chora nima, to'ra?

— Chorani o'ylashga ham qo'rqaman, Miryoqub, shoshma bittadan ichib olaylik.

To'ra o'rnidan turib, jovonga tomon bora boshladi.

Shundagi oyoq bosishidan Miryoqub uning bir oz shirakayf ekanini angladi. Demak, bu qadar zo'r masalalarni hech o'ylab o'tirmasdan, og'iz yeli bilan chiqarishi ichkilik ta'siri bilan edi.

— Kel, ichaylik, Miryoqub. Biz, ruslar, aroq ichishni hammadan yaxshi bilamiz... Senlar ham iste'dodli xalq ekansan, bizdan o'tkaza boshlading...

Cho'qishtirdilar. To'ra allanarsaning sog'ligiga ko'tardi. Faqat Miryoqub «...sog'ligiga» deganinigina anglab qoldi. So'zning bosh qismi, g'oliban, ichda aytilgan edi.

— Sen chora nima, deb so'raysan, — deya boyagi so'zini davom ettirdi to'ra. — Chorasini topishdan biz, amaldorlar, ojizmiz. Durust, ichimizdagi dushmanga, qora xalqqa qarshi bo'lsa — tadbir oson. Qozoq o'risimiz, mirshabimiz, jandarmamiz, askarimiz bor... fyusht!.. Xorijdan kelayotgan yovga biz ojizmiz, nima qilishimizni bilmaymiz. Biz bilan birga bizning tomondan jang maydoniga tushgan qironlar ham bizga ishonmay boshladilar. Bu — yomon, bu juda yomon hol, Miryoqub. Kel, yana bitta ichaylik...

— Chorani aytmadingiz, to'ra. «Chorasiz dard yo'q», deydi bizning hakimlar... «O'lim bilan ishqdan boshqa hamma dardning chorasi bor» deydilar.

— Safsata hammasi, safsata... Chorani bizning ichki dushmanlarimiz, ya'ni inqilobiyun degan toifa ko'rsatadi. Lekin o'zicha ko'rsatadi...

— Qani, nima deydi u toifa?

— Podshoni ham hayda, amaldorni ham hayda. Mirshablarni yo'qot, jandarmlarni o'ldir, urushni to'xtat, boylardan yer-suvni, fabrikachilardan fabrikalarni, zavodchilardan zavodlarni tortib olib, xalqqa ber, — deydi. Ularning «xalq» degani — qora xalq, yalang-oyoqlar... Yurtni o'shalar so'rasin, deydi.

Miryoqub xoxolab kuldi.

— Noma'qul otning tezagini yepti o'shalar! Savodi yo'q, omi bir yalangoyoq kelsinu so'rasin emish... Boylardan yerni tortib olib, kambag'al ekar emish... Kambag'al shuncha so'kib urishsangiz ham yeringizga bunday bir hafsala qilib ishlamaydi-yu... xo'jayin bo'l-

masa, ishlar emishmi? O'sha urushni to'xtatsin, degani durust... Urush chiqqandan beri yurt qimmatchilik bo'lib ketdi. O'ziga yarasha davlati, savdo-sotig'i bor odamlarni jin ham urgani yo'qku-ya... qayta, mollarning narxi oshib, biri besh bo'ldi. Ammo, shu qimmatchilik bo'lgandan beri odamlarning ko'ziga qarasangiz, qo'rqib ketasiz, to'ra.

— Habbarakallo! Bizning hamma xavfimiz o'sha «ko'zlar»dan... U ko'zlar ko'p xunuk qaraylar. U ko'zlarning soni-sanog'i yo'q. Germanni yengsak, ko'zlar yuvoshlanadi. Xudo saqlasin, agar shu xilda keta bersak — u ko'zlar bizni yeb tashlashi mumkin...

To'ra jim bo'ldi. Miryoqub ham jim qolib, unga tikilgan edi. To'ra olis xayollarga ketib turib, boshini chayqadi. So'ngra boshini og'ir-og'ir tebratib turib, dedi:

— Xullasayn kalom, bu ulug' kema... bu ulug' kema... bu buyuk «imperiya» dahshatli to'lqinlar ichida zulmatga, belgisizlikka, yo'qlikka qarab ketayotir. Uni to'xtata oladigan va qutqarib qoladigan hech bir kuch ko'rinmaydi... Balki, unday kuch aslida yo'qdir o'zi...

— Bir so'z aytdingiz, to'ra... «imperi»mi, nimaydi?

— Ha, imperiya, imperiya.

— U nimasi, to'ra?

To'ra bir oz o'ylab turgach, podshoning devordagi suratini, so'ngra o'zining yelkasidagi pogonini ko'rsatdi.

— Mana shu imperiya...

Miryoqub hech narsa anglamadi. So'ngra to'ra og'ir bir nafas olgandan keyin:

— Menga qara, Miryoqub, — dedi, — qo'y endi bu gaplarni!

— Ha, qo'ying, to'ra, odamni xafa qiladigan gaplarni gapirmaylik. «Ertaning g'amini eshak yeydi». Ertaga xudo poshsho egam...

— Hali «Akbarali shu yerda», deding. Uylanganiga bir hafta bo'lmay turib nega tushdi? Bironta ish bilanmi?

Shundan keyin Miryoqub o'zining g'amxo'r otaxoniga butun voqeani gapirib berdi:

— Eh-he, hali shunaqa degin!

— Ha, shunaqa, to'ra.

— Akbarali ahmoq! Eshshak!

— Rost aytasiz, to'ra, bir oz esi pastroq...

— Sizning shariatingiz to'rt xotin olishga yo'l qo'yadi. Bu qonun, aslida, chakki qonun emas... Har bir erkak buni biladi... Faqat, u bundan yuz yil, ellik yil burun durust edi, zamon ko'tarardi. Endi zamonlar boshqa, Miryoqub. Hozir to'rt xotin olib, to'rt tashvishni yelkaga ortishning nima hojati bor. Odam degani, albatta, bittaga qanoat qilolmaydi... bu ma'lum. Lekin buning uchun uylanib o'tirish kerakmi? Bekorchi xarxashani ko'paytirib nima qiladi kishi?

To'ra ovozini pasaytira tushdi:

— Hay-havas uchun mutloq uylanib o'tirish shart emas. Sen o'zimiznikisan, senga ishonib aytganda, mening bir oshnam bor: urushga ketgan ofitserning xotini. Yosh, chiroyli narsa. Yaqinda, ziyofatda, bir savdogar boyning xotini bilan tanishdim... bu oqshom o'shanikiga bormoqchiman... ochiq, dilkash narsa. Mana xolos! Ahmoq. Akbarali ahmoq!..

— Rost aytasiz, to'ra, rost. Mana, men ham bittaga «qanoat» qilib o'tayotirman-ku... hay-havaslarim qolib ketayotgani yo'q...

— Habbarakalla, — dedi to'ra. — Xotinning bitta, ayshing joyida...

Keyin barmog'i bilan «hap seni» qilib turib:

— Sen, Miryoqub, yomonsan lekin... — dedi.

Miryoqub avval bir oz qizarindi, so'ngra kulimsirab to'raga qaragach, javob berdi:

— Xudovandi Karimning rahmat daryosi keng, deydilar, to'ra. Shunga ishonib, uncha-muncha erkalik qilamiz-da. Uncha-muncha...

— Tog'day-tog'day gunohlar ham uncha-muncha bo'lar ekan-da!

Miryoqub xoxolab kuldi:

— Tog'day-tog'dayini endi sizdan o'rganamiz, to'ra, xudo xohlasa... Siz, axir, mulla odamsiz...

To'ra ham «qah-qah» solib kuldi. So'ngra devordagi soatga qaradi: 8 dan 15 minut o'tgan edi. O'rnidan turdi.

— Sen o'tirib tur, men kiyinib olay. Birgalashib chiqamiz.

To'ra kiyinib chiqqandan keyin Miryoqub ham o'rnidan turdi.

— Qani, yur buyoqqa. Boqcha tomondan chiqaylik. Xonim kelmagan, kampir uxlab qolibdi. Eshikni berkitib oladigan kishi yo'q.

Ayvonga chiqdilar. Sahnga tushgach, to'ra to'xtadi.

— Miryoqub, yangi gapdan xabaring bormi?

— Yo'q, to'ra.

— Tog' tomondan olomon qo'zg'alon ko'tarib, bir-ikkita amaldornikiga o't qo'yibdi. Ertaga tushdan keyin, yonimga askar olib, chiqib ketayotirman. Bugun ham o'n yetti kishini ushlab keltirdilar. Olomon quturgan, deydi.

— Qachon kelasiz?

— Ikki-uch kun qolsam kerak. Sen Akbaraliga ayt, tezroq joyiga borsin.

— Xo'p, jonim bilan. Biz ham ertaga chiqib borarmiz.

— Hozir har bir mingboshiga yana yettidan yigit berish masalasini ko'tardik, ehtimol yaqinda ruxsat bo'lib qolsa.

— Yaxshi bo'lardi.

Bularning ovozini eshitib, oshxona tomondan to'raning oshpazi Zunnun keldi. Miryoqub bilan ko'rishdi.

— Miryoqub aka, chiqib ketayotirsizmi? Biznikiga bir kirib chiqing. Bitta choy damlab beray. Sizga bir gapim boridi...

Miryoqub to'raga qaradi.

— Juda yaxshi! Bir oz choy ichib, gaplashib borarsan. Zunnunboy zerikkandir.

To'ra kumush boshli hassasini yerga ura-ura panjara eshikdan chiqib ketdi. Bular oshxona tomonga burildilar.

* * *

Zunnun akaning uyi oshxona bilan don omborining o'rtasida edi. Bu bir qavatli, tor derazali, xom g'ishtdan yopilgan bostirmalar esa, sahnning to'g'risida, noyib to'raning o'z uylari o'rnashgan pishiq g'ishtli yaxshi binoning qarshisida bo'linardi. Bu bostirmalarning keti boqcha va gulzor. Oshxonaning derazasi sahnga — oldin-

ga qaragani holda, Zunnun aka turadigan uyning faqat boqcha tomondan bir kichkina deraza va eshigi boridi. U uyga oshxona orqali o'tsa ham bo'lardi. Oshxonadan ham sahn, ham boqcha tomonga eshik ochilardi.

Zunnun akaning uyiga kirmasdan, gulzorda bir skameykaga o'tirdilar. Miryoqub tezroq borib o'zining yangi yulduzini yana bir ko'rmoqchi va o'z boshiga yolg'iz qoldirilgan mingboshidan ham xabar olmoqchi edi. Mingboshi boladay narsa... uni ko'p ham yolg'iz qoldirib bo'lmaydi. Shu uchun Miryoqub choy qo'ymoq uchun turayotgan oshpazni to'xtatdi:

— Zunnun, men shoshilib turibman. Gapingni ayt. Tezroq bormasam bo'lmaydi.

Miryoqubning ovozida allaqanday besaranjomlik ham yo'q emasidi. Buni Zunnun payqadi.

— Nima bo'ldi sizga, Miryoqub aka! Ovozingizda bir bezovtalik bor...

— Hech narsa bo'lgani yo'q, shoshilib turibman.

— Unday demang. Baribir, men bilaman. Bizning to'ra ham juda xafa. Xonim bo'lsalar tez-tez «Rusiyaga ko'chib ketsakmikan?» deb qo'yadi. «Sen ham ketasanmi?» deb so'raydi. Ular dunyoning hamma holu ahvolini bilib turadigan odamlar, bir narsani sezishgandir-da, men bu yerda har xil o'ruslar bilan gaplashaman. Hammasi har narsa deydi. O'ylab ko'rsangiz, hammasining gapi bor: «Bir balo bo'ladiganga o'xshaydi».

Miryoqub boshini ko'tardi.

— O'ruslar shunaqa deydimi? Qani, gapir, yana nima deyishadi?

— Aytdim-ku, hamma har xil gapiradi. Lekin gapning tagi bir joydan borib chiqadi: «Bir balo bo'ladiganga o'xshaydi». Nima balo ekan, bizning aqlimiz yetmaydi. Har qalay, bir balosi bor.

Miryoqub ahvoldan bu daraja xabardor bo'lgan odamdan sir yashirishni lozim ko'rmadi:

— Rost aytasan, — dedi. — To'ra menga ko'p gaplarni aytdi. Biri-biridan vahimalik... Uning gaplarini eshitib, men o'z-o'zimga «Zamona oxir bo'pti. Qiyomat yaqin shekilli», dedim...

— Shuning uchun men sizni chaqirib edim.

Zunnun Miryoqubning yonginasiga o'tirdi.

— Men qirqqa borib qoldim. Haligacha bitta boshim ikkita bo'lgani yo'q. Keng ko'rpada yolg'iz o'zim qaltirab yotaman... Mening ham orzu-havasim bor. Uylansam, bola-chaqa ko'rsam, deyman.

— Juda yaxshi. O'zingga loyiq bir qiz topiladi, albatta.

— Qiz tayyor... qishloqda mening bir xolam bor, o'sha darak solib topgan ekan. Endi qistab yotibdi.

— Uylana ber, nimasi bor? Taraddudingni qila ber, to'yni birgalashib o'tkazamiz.

— Men xo'jayinning oldidan bir o'tib qo'ysammikan, deb edim.

— To'g'ri, sening otaxoning bo'lib qoldi. So'raganing yaxshi.

— Shuni aytaman.

Zunnun kuldi. Miryoqubga tomon yana ham yaqinroq burildi.

— Shu to'g'rida xo'jayin bilan gaplashib bersangiz, deb edim...

— O'zing-chi?

— O'zim... betlayolmayman.

— Nega? Ayta ber.

— Siz aytsangiz, deyman.

— Yaxshi, men aytay.

Miryoqub birdan suhbatdoshiga tomon burildi:

— Xonim bilan qalaysan?

— Juda qalin...

— Bo'lmasa, unga ayt, eriga o'zi aytadi.

Zunnun kulib yuborib, o'rnidan turdi, ikki qo'lini chakkasiga qo'yib, suhbatdoshidan besh-olti qadam yiroqlashdi. Unga orqasini o'gurgan holda quyigaroq etilgan boshini qattiq-qattiq chayqab, so'ngra birdaniga yugurib Miryoqubning yoniga keldi. Hamon qizarib kulishini davom ettirgani holda, Miryoqubga egilib, dedi:

— Siz bilmaysiz, xo'jayin!

— Albatta, bilmayman. Sening ko'nglingni men qaydan bilay? Gapir!

Miryoqubning bu so'zlarida bir oz qattiqlik asari bordi. U, g'oliban, o'ziga teng bo'lmagan bir kishi bilan or-

tiqcha bachkanalanishni istamas edi. Vaholanki, Zunnunning qiliqlari bachkanalikka qarab ketdi. Zunnun suhbatdoshining ovozidagi o'zgarishni payqadi va darhol uning yoniga o'tirdi.

— Hamma balo xonimda-da! — dedi u.

Miryoqubning ko'zlari olaydi. Yana suhbatdoshiga tomon burildi.

— Nimalar deyayotirsan?

— Xonim bo'lmasalar, erta qachon uylanib olardim, aka!

— Obbo xudo urdi! — dedi Miryoqub, irg'ib o'rnidan turdi. Boshini chayqadi: ikkala qo'lini Zunnunning yelkasiga qo'ydi. — Nima balo, senga ko'ngli tushib qolganmi?

Zunnun zo'r berib kulardi.

— Hoy, tentak, gapir, deyman! Nima balo bor o'rtangizda?

Zunnun hali ham kulardi.

Shu onda birdaniga hovli tomondan xotin kishining chorlash ovozi eshitildi: «Zunnun! Zunnun!..» Bu xonimning ovozi edi.

Zunnun irg'ib o'rnidan turdi.

— Turing, darrov mening uyimga kiring! Chirog'ni yoqmasdan deraza oldidan tomosha qiling...

Nafas o'tmay, Miryoqub deraza oldida o'tirib, tashqarini kuzata boshladi. Zunnun gulzor o'rtasidagi elektrik fonarni o'chirdi, o'zi yugurib oshxonaga kirdi. Oshxonadagi yorug' fonarning shu'lasi eshik tirqishidan uy ichiga tushib turardi. Tashqarida — gulzor tomonda esa ola qorong'ilik hukm surardi. Miryoqubning o'tkir quloqlari oshxona tomonni tinglarkan, ikki kishining pichirlashib gaplashganini aniq eshitdi, yuragi objuvoz likopiday ura boshladi:

— Shoshma, Zunnun, shoshma, Zunnun, deyman! Bu yerda yaxshi emas...

— Bu yerda yaxshi emas, deysiz... Uyimga kirgali unamaysiz.

Xonim sekin javob qildi:

— Mendan uni kutma! U to'g'rida gapirma ham! — So'ngra ovozini bir oz pastlab dedi: — O'zing bir yaxshi

mening uyimga kela bilasan... Shoshma, Zunnun! Sursan! Shoshma, deyman senga! Xo'jayining qani?

— Bir joyga ketdi. Kech kelaman, dedi. Zarur ishi bor ekan...

— Bas, deyman! Karmisan? Vaqti bor har narsaning! Xafa bo'laman bekor! Yana yarim kecha — saharlarda keladi, desang-chi! Oh, bu erlar!..

— Ha, kechroq kelaman, dedi.

— Buncha sur bo'lding? Mastmisan, nima balo? Yur, boqchaga o'taylik. Darranda...

Birdan oshxonadagi fonar o'chdi.

— O'chirma! Zunnun, yoqib qo'y, jonim... Yoq, deyman!

Avval «cho'lp» etgan kuchli bir o'pish eshitildi. So'ngra fonar yondi. Undan keyin oy qorong'isida qo'ltiqlashgan ikki kishi deraza oldidan bir-ikki marta u yoq-bu yoqqa o'tdilar. So'zlari eshitilmasdi. Zunnun o'z hunarini ko'rsatmoqchi bo'ldi, shekilli xuddi deraza qarshisiga kelganlarida, xonimni mahkam quchoqladida, derazaning pastgina supachasiga o'tqizdi. Miryoqub ichkarida yuragini hovuchladi: to'raning xotini lablarini oshpaz Zunnunning lablariga qo'yib, uning quchog'ida hansirardi...

Biror minutdan so'ng xonim irg'ib o'rnidan turdi, shu onda oshxonaning eshigi ochildi. So'ngra oshxonaning hovli tomonidagi eshigi oldidan xonimning so'zlagani eshitildi:

— O'zim aytaman... mana shu vaqtlarda... o'zing bilasan-ku...

Oshxonaning u eshigi ham yopildi. Bir ozdan so'ng Zunnun kirib, o'z uyining fonarini yoqdi. Miryoqubning rangi o'chgan edi...

— Toza bo'lgan ekan bo'lgulik! — dedi u. — Hali gap shu degin?

— Bir-ikki yildan beri ahvol shu... Qani, yuring, gulzorga chiqaylik.

Gulzorga chiqib, yana skameykaga o'tirgach, Zunnun davom etdi:

— Mana shu ahvol. Gapini eshitdingiz-a? Bugun xo'jayinning chiqib ketganini bilmay qoldi, o'zi uyda

yo‘q edi. O‘zi uyda bo‘lsa, bunday hollarda, xo‘jayindan so‘raydi: «Qachon kelasan?» deydi. «Yana yarim kecha-saharlarda kelarmikansan? Kutib o‘tiraylikmi? Samovarga bir qop ko‘mir tashlaylikmi?» deb o‘shqirib ham oladi. Xo‘jayin — «Bugun ish juda muhim. Garnizon boshlig‘i ishtirok etadi. Shuning uchun kech kelsam kerak. Soat 2 dan avval kela olmasman... Sizlar, bemalol yota beringlar», deydi. Xotinidan uzr so‘raydi, bechora! U ketgan hamon xonim meni chaqirtiradi. Onasi oldida buyruq qiladi: «Xo‘jayining kelguncha zalda o‘tir. Kelganda chiqib eshikni och. Sekin yur! Bizning uyqumizga xalaqit berma!» deydi. «Xo‘p», deb zalda qolaman. Zalning bir yonidagi eshik xonimning uylariga ochiladi, bir yonidagisi yo‘lakka, yo‘lakdan — ko‘cha eshigiga. Onasi bo‘lsa, bola bilan birga, ho‘... narigi chekkadagi uyda yotadi. U mana bu vaqtlarda dang qotib uxlab qoladi. Bola ham yuvosh, mo‘mingina... Men zalda qolaman. Zal bilan yotoq uyi o‘rtasidagi eshikning bir qanoti ochiq... Xullas, xo‘jayin chang‘iroq chalgan-da, sekingina o‘rta eshikni yopib, yo‘lakka chiqamanu, uyqusirab, esnab, paypaslanib, eshikni ochaman. Xo‘jayin aksari mast keladi, hech narsani bilmaydi. Hushyor kelganda, «Bor, endi, joyingga chiqib yot! Sekin yur, xonimni uyg‘otasan. Shu choqqacha taxtalik polda yurishni bilmaysan. Ho‘kiz!» deydi...

Miryoqub hayratlar ichida qolgan edi. Shuncha gapni eshitishga vaqti bo‘lmasa ham shoshilganini unutib, diqqat bilan quloq soldi va birushta boshini chayqab o‘tirdi. Bir oz o‘ylanib turganidan so‘ng boshini uzun-uzun chayqab:

— Imperiyasi tag‘in ham botmasinmi? — dedi u. — Necha ming, necha lak fuqaroning joni shularning qo‘lida. Bularning joni esa mana shunaqa manjalaqilar qo‘lida ekan!..

— Nima deysiz endi, Miryoqub aka?

— Qaysi to‘g‘rida? Sening uylanishing to‘g‘risidami?

— Ha.

Xayoli boshqa tomonda bo‘lgan Miryoqub:

— Yaxshi, uylan! — dedi. — Qayliq olish yaxshi narsa.

— Uni bilaman. Xo'jayinga aytish maslahatini so'rab yotirman.

— Ha, u to'g'rini aytasanmi? Yaxshi. O'zim gaplashib beraman. Lekin hali emas, bir-ikki oydan keyin...

— Ungacha qish kelib qoladi-da?

— Xotin degan qishda kerak-da. Yozda xotinsiz ham issiq o'zi...

— Bor bo'ling, topdingiz! Men sizga ishonib turaman, bo'lmasa.

— Ertagayoq so'rab berardim. Tushdan keyin xo'jayining tog' tomonga chiqib ketar ekan. Ikki-uch kunsiz kelolmayman, deydi. Undan keyin biror hafta o'tkazib, o'zim ham Qrimga jo'nayman. To'yni bizsiz o'tkazma, Zunnun!

— Ha, albatta, albatta! Mingboshi tog'am bilan siz ikkovingiz bo'lmasangiz, to'y tatiydimi?

— Bo'pti.

Zunnun yana kuldi.

— Ertaga xo'jayin uyda bo'lmas ekanmi?

— Shunday dedi.

— Menga qarang, Miryoqub aka.

Miryoqub burildi. Zunnun egilib turib, so'radi:

— Bizning xonim qalaylar? Tobingiz bormi shu kishiga?

Miryoqub birdaniga javob bermadi. O'ylanib qoldi.

— Ayta bering, aka. Men o'z kishingizman...

— O'zi qalay, deb so'rasang, chakki emas, semizgina, lo'ppigina, badani oppoq, tarovatini saqlagan, ancha yosh ko'rinadi... O'zi ham, 27—28 dan nari emasdir?

— 27 da bo'lsa kerak.

— Ha, men adashmayman. Endi «tobingiz bormi?» deb so'raysan. Nima deyishga hayronman... Biz erkak xalqini o'zing bilasan. Itmiz! Shayton hamma vaqt yelkamizda... Tizginni doim chapga burib turadi... Lekin, Zunnunboy, ikkovingiz ham yetib ortasiz bechoraga...

— Nega ikki kishi bo'lsin? Bir kishi, xolos...

— Nima demoqchisan?

— Eri — nomiga er. U boshqa xotinlar bilan yuradi. Uning o'ynashlari ko'p.

— Sen qaydan bilasan?

— Men hammasini bilaman. Ba'zi birlarini o'z xotini ham biladi. Uning menga buncha osilishi ham besabab emas. Ikki kishi demang, bir kishi. Menman, xolos! Ehtimol, tashqarida bo'lsa... Yo'q, agar bo'lsa sezardim, albatta. Siz menga qarang, ertaga xo'jayin uyda bo'lmasa, kechlatib keling. Allaqaysi bir mingboshi to'raga bir to'qqiz ilvarsin yuborgan ekan. Uchtasini alohida tuzlab qo'ydim. Yaxshi palov qilaman. Xonim ham bo'ladi. Tobingiz bo'lsa, u yog'i oson...

Miryoqub indamasdan o'rnidan turdi. Yonidan pul olib Zunnunga uzatdi.

— Yaxshi. Shomdan keyin kelaman. Mana bu pulga ichkilik ol... Ko'ramiz.

Zunnun pulni olmoq istamasa-da, Miryoqub qo'ymaganidan keyin, noiloj olib, stol ustiga tashladi va o'sha maqtanchoq kulishi bilan kulib turib:

— Ertaga kutaman, — dedi.

— Xo'p, — dedi Miryoqub. Yana boyag'iday bosh chayqab uydan chiqdi.

Nomerga qaytib borarkan, hamon boshini chayqab o'z-o'ziga so'zlanardi:

«Imperisi chiribdi... Yiqilsa ham hech kim tankir qolmaydi. Mening miyamda shu bugun g'alati fikrlar qo'zg'aldi. Nimaligini o'zim ham bilmayman... Ilgari hech bunaqa gaplar yo'q edi. Allakimdan allanimalarni so'ragim, bilgim, o'rgangim keladi. Bir pirni topib — tariqat so'rasammi? Bir zakonchini topib — zakon so'rasammi? Yo bir muallimni topib — masala so'rasammi? Hayronman...»

«Imperiyani kemaga o'xshaydi, deydi... Yo'q, kema, deydi, kema... Nimaligini bilsam edi! Imperiya, nima desam, oq podshoni, o'zini, pogonini ko'rsatdi. Oq podshoning nimaligini o'zi aytib berdi, o'zining kimligini o'zim bilaman, bugun yana ham ochiqroq bildim, ertaga juda ravshan bilsam kerak... Endi, yelkasidagi pogoni qoldi. U bir latta, zardan tikilgan bo'lsa hamki, bir latta... Mashinachi tikadi. «Eshagiga yarasha tushovi», degan gap bor. Egasiga yarasha — pogoni... Demak, imperiya botishga boradi».

«Biz nima bo'lamiz? Fuqaro nima bo'ladi? Bizning

topgan-tutganlarimiz, ortdirgan davlatimiz nima bo'ladi? Azbaroyi xudo, kimdan so'rasam? Shoshma, yangi oshnamdan, meni zanjirsiz bog'lab qo'ygan ayyordan so'rayman! U, har holda, o'rus-ku... o'qigan-ku, biladi. Yo'q, shoshma, u o'zi nima bo'ladi? O'zi? Shunday katta imperiya botadi-yu, u sog' qoladimi? Nima, azbaroyi xudo, bu imperiya? Kimdan so'rayman endi? Kimdan?!»

* * *

Soat o'n birlarda nomerga kelib, mingboshining yoniga kirdi. U ikki xotinni yoniga olib, ikkalasining bo'yniga baravar qo'l tashlab, mudramoqda edi... Kirgan hamon baland ovoz bilan qichqirdi:

— Turing, dodho! Xirmonga o't ketdi!!!

Mingboshi seskanib uyg'ondi, irg'ib o'rnidan turdi.

— Qayerda qolding, noinsof? Meni yolg'iz tashlab?

— Kim noinsof? Ikki tannozning o'rtasida o'tiribsiz-ku, yana yolg'izman, deysiz...

— Zerikdim bularingdan... ko'nglimga urdi. Yur, ketaylik!

— Qulluq bo'lsin, itlikning yo'qolishi! Xudoga shukur, ming qatla shukur, odam bo'libsiz.

— O'tir! — deb baqirdi mingboshi.

Ikkala xotin cho'chib tushdi. Miryoqub yoyilib-yoyilib kuldi.

— Qayerda qolding?

— Nimaga?

— Imperiyaga o't ketgan ekan. O'chirishgali borib edim...

— Nimaga?

— Imperiyaga... Imperiya...

Xotinlarning biri uning yoniga o'tdi.

— Siz imperiya dedingizmi? — deya gap boshladi xotin. — Bizning shahrimizda «Imperial» degan bir nomer bor edi. Tog'ning shundoqqina tepasida, pastda— daryo. Nomerning oldi — bog', bog'ning oldi — pastlik, jar...

— Imperiya o'zi ham jar bo'yiga kelib qolgan emish, — dedi Miryoqub.

Xotin uning yoniga suqilib kirib:

— Nima dedingiz? Anglamadim, — dedi va qo'lini Miryoqubning yelkasiga tashladi. Miryoqub uning qo'lini muloyimlik bilan o'z yelkasidan olib qo'yib, o'rnidan turdi-da, mingboshiga yuzlandi:

— Men ketaman! Eski shaharda ishim bor.

— Shoshma! — deb baqirdi mingboshi. — Men ham birga ketaman!

— Siz buguncha shu yerga yota turing. Qorningiz to'qdir, albatta?

— Qornim to'q, ammo zerikdim. Qachon ketamiz?

— Indinga erta bilan, sahar, xudo xohlasa. Zerikkan bo'lsangiz, ertaga boshqa nomerga ko'chiraman. U yer— yaxshi.

— Indinga ketadigan bo'lsak, menga bir dutor chalib, ashula aytadiganini topib ber. Bu — til bilmaslaring bilan zerikib ketdim...

— Xo'p, xo'jayin. Ertaga kunduzi hammasi bo'ladi. Indingacha imperiyani bostiramiz...

— U nima deganing?

- «Itlikni o'ldiramiz!» deganim... Yaxshi tush ko'rib yoting, xo'jayin! Xayr endi, xonimlar!

Tez-tez hatlab tashqariga chiqdi. Ayvonga o'tishi bilan o'z uyidagi qizil fonarning shu'lasi ko'rindi. «Demak, mening uyimda».

Eshikni sekingina ochdi. Yosh xotin stul ketida kitob o'qib o'tirardi... Miryoqubni ko'rgach, o'rnidan turib joy bo'shatdi va to'rga taklif qildi. Miryoqub soddagina ko'rishib, to'rga uni o'tqazdi va o'zi pastga o'tirdi. Avval yosh xotinning ko'zlariga qaradi: horg'inligi, uyqusiraganligi ochiq ko'rinib turardi. Kartga qaradi: odam yotgani bilinmaydi. Shundan so'ng ko'nglida bir sevinch qo'zg'aldi, butun badanini bir zavq o'rab oldi... Yana yosh xotinga tikildi: u bir bet qolgan kitobni oxiriga yetkazmoq uchun urinardi. Bu daf'a Miryoqub xuddi o'zining necha yillik sinoqta xotinini ko'rganday bo'ldi. Bu xotin go'yo necha yildan beri har kun shu ravishda buni kutib umr o'tkazgan... Imperiya esidan chiqdi. Xotin kitobni bitirguncha, ehtiyot bilangina esnab oldida, so'ngra bu ishdan o'zi uyaldi shekilli, yuzini qo'li bilan to'sib kuldi. Yumshoqqina kuldi... Betlariga qizil qon

oqinlari yugurgan edi. Miryoqub ham kuldi va sekingina o'rnidan turdi.

— Xo'p, yotib uxla, bo'lmasa, men Eski shaharga tushib ketayotirman.

— Yaxshi, bora bering. Bugun xo'jayin eshikni chertib kelgan edi, «tobim yo'q», deb kiritmadim.

— Nima deydi?

— «Bir sart boyvachcha keldi. Besh yuzdan kam olmaysiz. Maqsadingizga yetdingiz... O'zi ham yosh, chiroylik, original...», deydi. «Yaxshi, indinga kelsin. Tobim qochib turibdi, vannada sovuq oldiribman...», dedim. «Attang, attang...», deb qaytib ketdi.

O'zi xohlamasdan, bo'lib-bo'lib, oddiy ovoz bilan bu voqeani so'zlab bergan xotin endi bu safar xuddi yolvorishga yaqin bir ovoz bilan dedi:

— Ertaga shu yerdan ketarmikanmiz?

— Albatta, erta bilan kelib o'zim to'g'rilayman.

— Narsalarni qanday qilamiz?

— Narsalaring ko'pmi?

Xotin kuldi.

— Bir chamadon, xalos.

— Oson ekan. Ertalab shu uyga chiqarib qo'yalasanmi?

— Ertalab bo'lmasa, kechasi bir ish qilib eplarman.

— Unday bo'lsa, xotirjam sen kiyimingni kiyib chiqaverasan, tamom!

Miryoqub chiqib ketishga mo'ljallay boshladi.

— Yo'q, shoshmang! — dedi xotin. Men bu pasportim bilan u yerda turolmasman...

— Obbo! — dedi Miryoqub. — Hali bu masala ham bor ekan.

— Nima qilamiz? — deb so'radi xotin.

Miryoqub o'ylanib turib, dedi:

— Bir yo'lini toparmiz... shoshma.

Bir ozdan so'ng yuzlari kulib, keskinlik bilan dedi:

— Xotirjam bo'l, pasport topaman. Ertaga erta bilan qo'lingda bo'ladi.

— Tashakkur etaman.

Miryoqub tashakkurga javob qaytarishni bilmasdi... Lekin u, shu topda negadir o'zi ham xursand bo'lib al-

lanechuk charaqlab ochilib ketdi. «Miryoqub epaqa har ishni eplaydi», degan xayolga bordimi yo boshqa bir yoqimli xayolga bordimi, har qalay ta'bining choqligidan bo'lsa kerak, yosh xotinning yoniga borib, peshonasidan bir o'pib olmoqchi bo'ldi. Faqat yana darrov o'zini to'xtatdi: «Yo'q, qizigan olovmiz ikkovimiz ham... Qancha yiroq bo'lsam, shuncha yaxshi...», dedi o'z-o'ziga.

— Xo'p, yot, orom ol, bo'lmasa. Eshikni ichidan berkitib yot!

Miryoqub o'rnidan turdi.

— Tabiiy, — dedi xotin, u ham sekingina o'rnidan turib, eshik tomonga yurdi.

Miryoqub ayvonga chiqqach, ichkaridan kalitning shiriqlagani eshitildi. «Men uchun ochiladigan eshik boshqalar uchun yopildi!» dedi u o'z-o'ziga. Xursand, ko'ngli ochilgan, allanechuk yengillagan ko'zlari, yuzlari, butun borlig'i bilan kulgani holda ildam-ildam bosib, ko'chaga chiqdi.

Muyulishda uxlab yotgan izvoshchini uyg'otib, ikki otni choptirganicha yarim kechada, noyib to'ra mahkamasining kotibi Ignatyukni qidirib ketdi.

* * *

Kecha kechasi ko'cha eshigi zinasida arvoh Ignatyukning quruq changaliga qistirilgan o'n so'mlik qog'oz o'z vazifasini bajargan edi: ertalab soat 10 da mahkamaga kelib kirgan Miryoqubning qo'liga Ignatyuk bir yangi pasport uzatdi, 24 yashar Yevdokiya Zaxarovna Kobilina nomiga yozilgan bu muddatsiz pasport yosh xotinning kechagi tashvishini tamoman bartaraf qila olardi. U yozlik kiyimini kiyib chiqib, to'ppa-to'g'ri birinchi klass nomerga bordi va o'zi uchun ajratilgan kichkinagina chiroylik va soz uyiga o'rnashdi. Bir soat o'tar-o'tmas, narigi nomerning yo'g'on gavdali, devsifat, uzun soqol xizmatchisi bir qop ichiga solib, xotinning chamadonini keltirib berdi. Uning narigi nomerdagi xonasida endi hech narsadan xabari yo'q xizmatchi xotindan boshqa narsa qolmagan edi...

Miryoqub mingboshini ham boshqa bir nomerga

ko'chirgandan keyin, o'z nomerining hisoblarini tamomlab, nomer egasi do'stiga qo'l uzatdi:

— Xayr endi, men qishloqqa jo'nayman.

— Xayr, Miryoqub, kelib tur, do'stim. Xotin qalay?

— So'rama. Bir-ikki kundan keyin yana kelaman...

— Arziydi... arziydi, chyort vozmi! — dedi xo'jayin. O'zidan xursand bo'lib kuldi. So'ngra so'radi: — Qancha berding?

— Ishing nima?

— Ayta ber... himmatingni bilayin, deyman. Kechadan beri o'zi ham senikidan chiqmaydi.

— Menikidan chiqmagani rost, faqat notob o'zi...

— Sen uni sovuqqa oldirib qo'ygansan. Kecha bir boyvachcha kelgan edi. «Notobman», deb chiqmadi. Sen menga katta zarar keltirding. Vagonchi boyning o'g'li edi... Vahob... Bilasanmi? Ana, pul degan narsa o'shanda! Bir quchoq!

— Bu xotin shu yerda bo'lsa, vagonchi boyvachchalar ko'p keladi hali... Shoshma!

— Albatta, albatta! Har holda qancha berding? Ayt!

— Ko'p emas, faqat... ming so'm!

— Ming so'm? Rostmi?

— Nega yolg'on bo'lsin? Ming so'mlik chek berdim. Bankaga ketdi.

— Chyort vozmi! Bir yarim mingdan oshib ketibdi... «ketaman», deb qolmasin.

— Pul shirin... Qancha ko'paysa, yana shuncha ko'paytirgisi keladi.

— Rost aytasan. Bir ish qilib yana bir-ikki hafta olib qolaman. Qo'yamanmi men?

— Sen qo'ymaysan, bilaman. Xayr endi!

— Yaxshi bor!

Miryoqub o'z do'stining ahmoqligidan kulib, ko'chaga chiqdi.

— Ertaga erta bilan qishloqqa jo'nayman, — dedi u ko'ngli ilingan xotinga. — Ko'p bo'lsa, besh kun turib qaytaman. O'sha kuni jo'nab ketishimiz kerak.

— Men sizga ko'p tashakkur qilaman, aziz do'stim. Siz chinakam aziz do'stim bo'ldingiz. Keling, men sizni bir singil sifatida o'pib qo'yay...

Miryoqub bu so'zlarning ma'nisiga tushunguncha yosh xotin kelib peshonasidan o'pdi. Bu o'pish har qanday yaramas hisdan uzoq va ehtiyotli bo'lsa-da, xotin kishining bu qadar yaqinlashib kelishi Miryoqubni dir-dir titrashga majbur qildi. Unga nisbatan xotin juda tinch va loqayd edi. O'pib bo'lgandan so'ng, Miryoqubning yonidan uncha uzoqlashmasdan, uning qop-qora va besaranjom ko'zlariga tikilib turgan xotin, g'oliban, uning shu topda kechirayotgan talvasalaridan xabardor emasdi. Miryoqub bir-ikki qadam orqaga chekin-di.

— Eski pasport qani?

— Nomerda qoldi.

— U kerak emasmi?

— Yo'q, yo'q, yo'q! Yaxshi bo'ldi, juda yaxshi bo'ldi. Men butun qora kechmishimdan qutuldim. Rahmat sizga, men, bundan so'ng, Mariya Stepanovna Ostrova emasman, Yevdokiya Zaxarovna Kobilinaman. Xunuk nom, xunuk familiya... o'zim yoqtirmayman. Lekin menga bundan nari shu nomdan qadrli narsa bo'lmayajak! Yo'q, kechiringiz, bu nomni menga bergan kishi, albatta, undan qadrliroq! Rahmat sizga, aziz do'stim.

Yana kelib, Miryoqubning bir qo'lini ikkala qo'li orasiga oldi va silkitib-silkitib siqdi. «Qanday qizg'in va yoqimli qo'llari!..»

— Rahmat, aziz do'stim!

«Arzimaydi», deb qo'yishni bilmaydigan bu go'l «aziat» butun vujudi bilan yana qaltiray boshlagan edi. Tag'in ikki qadam orqaga chekildi. Eshik oldiga yetib oldilar. Buni payqagan xotin orqasiga qaytdi va uni o'tirishga taklif qildi.

— Yo'q, men ketaman. Eshikni ichidan berkitib o'tir, tashqariga chiqa ko'rma... — dedi Miryoqub.

Orqasi bilan eshikni ochib yo'lakka chiqdi. Eshik yana ichidan berkitildi... «Boshqalar uchun yopildi, men uchungina ochiladi bu eshik!» deb o'yladi Miryoqub yana. O'zida yo'q xursand yugurgani-cha zinadan tusha boshladi.

Ichkarida o'z ixtiyori bilan qamalgan yosh juvonning ko'zlari shu topda sevinch yoshlari bilan ho'llangan edi...

* * *

— Keling, Miryoqub aka. Kechikib qoldingiz?

— Ha, ertaga ertalab qishloqqa jo'naymiz. Ishlarni bitirishim kerak edi.

Oshxonadan uyga o'tdilar. Zunnunning uyi juda chiroyli qilinib yig'ishtirilgan edi. Yerda katta yangi gilam, devorlarda suratlar, o'rtada katta stol, oppoq dasturxon, stol to'la noz-ne'mat, ichkilik... Derazada chiroylik to'rpardalar. Stol tevaragi to'la kursi.

— Uyingni tanib bo'lmaydi, Zunnun.

Zunnun o'sha burungi kulishi bilan kuldi.

— Hammasi xonimning ishlari...

— Bo'lmasa, sen uylanib nima qilasan?

— Bola-chaqa, ro'zg'or ko'rgim keladi.

— Bolasi yo'qlar bolaga qiziqadi. Lekin bolaning «balo» bo'lgani ham bor...

— Yo'q, Miryoqub aka. Men bolani yaxshi ko'raman!

— Xo'p. Men kurortdan kelay, darrov to'yingni qilamiz.

— Tezroq keling ishqilib...

— Qani, hech kim yo'q-ku?

— Kelishadi. Xonim keladilar...

— Boshqa?

— Boshqa yo'q. Xo'jayin jo'nab ketdi. Uni ham chaqirib edim, uzr aytdi. «Bizning kichkinagina bir hayitchamiz bor, xo'jayin, Miryoqub akamlar keladilar», dedim; «Mening o'rnimga xonim borib, bir piyola choyingni ichib, Miryoqub bilan gaplashib keladi», dedi. Xonimga mening o'z oldimda tayinladi. Xonim, men sizga aytsam, erining oldida noz qilgan bo'ldi. Peshonasini uqalab, bo'shashgan bo'lib, «Boshim og'rib turibdi...», deydi. «Boshing og'risa, piramidon ichib, jindak uxla, kechgacha yozilib ketasan. Zunnunni o'ksitma!» dedi xo'jayin. Bo'lmasa, undan ilgari xonim bilan gaplashib, gapni bir joyga qo'yganmiz...

— Shoshma, — dedi Miryoqub, — seni u yaxshi ko'radi... seniki bo'lib qolgan. Men nima qilaman bu yerda?

— Qiziq ekansiz, Miryoqub aka. Meni sevsa, erim deb sevarmidi? Yo men o'sha bilan umr o'tkazarmidim?

Shunchalik gap-da... ermak... Ana, kelayotir. Jindak kayf qilgandan keyin yoniga o'tib, dadil-dadil tegisha bering. Bu kecha men bu yerda yo'qman! Tuzukmi? — dedi Zunnun.

Chopib chiqib ketdi. Xonim, uning bolasini ko'targani holda onasi kirib keldilar. Deraza, eshiklarning ohistagina taraqlab yopilgani eshitildi.

Hammalari Zunnunni qutladilar va stol atrofiga o'tirib, uning sog'lig'iga qadah ko'tardilar. Xo'jayinning yo'qligiga achindilar. «Unday olijanob va ko'ngilchan kishining bu zamonda kamyob ekanini» so'zlab o'tdilar. Xonim ikki gapning birida o'z oilasi a'zolarining odam bolalariga mehribon va ulfat bo'lganini qayd etib o'tdilar.

Xonim hirsli va maylli ko'zlarini suza-suza Zunnunga qarab olib:

— Biz hammamiz Zunnunni yaxshi ko'ramiz, — dedi. — Bu bizning oilada eng qadrli kishi. Bizning hovlimizga kelgan vaqtida 12—13 yashar bola ekan. Endi, mana, kap-katta kishi bo'ldi. Yaqinda uylab qo'ymoqchimiz... Shunday-a, Zunnun, azizim?

Zunnun uyalib qizardi.

— Valya, uyaltirma Zunnunni, — dedi onasi.

Zunnun tez-tez ichkilik quyib, ularni ichishga qistardi.

Xonim stol ustidagi bir chiroylik shishani Miryoqubga ko'rsatib:

— Eng sevgan likyorim, — dedi. — Mast bo'lguncha icha beraman... Juda nafis narsa.

— Ataylab siz uchun oldim! — dedi Zunnun.

— Zunnun mening zavqimni yaxshi biladi...

Xonim katta bir sir aytganday qilib, tog' voqeasini aytdi:

— Bilasizmi, biz bunda ichishib o'tiribmiz. Xursandmiz. Yaxshi do'stlar to'planishganmiz. Fedya sho'rlik nima holdaykin? Bilasizmi, yuz ellikta soldat bilan, to'p-to'pxonalar bilan ketdi. Tog' odamlari juda mergan keladi. Mening Fedyam, siz bilmaysiz, juda dovyurak narsa. Soldatlardan oldinda o'zi chopib ketadi... qilichini sug'urib! Birorta sartiya qirg'iz mergani otib qo'ymasin, deb qo'rqaman. Xotya sartlar uni yaxshi

ko'rishadi... O'zingiz bilasiz, tilni juda yaxshi biladi. Sart kitoblarini o'qiydi. Sartcha yozadi. Sartlar uni «Parpi to'ra» deyishadi... Bilasizmi, u o'zi ham sartlarni juda yaxshi ko'radi. Yuvosh, qo'yday xalq, deydi. Qancha jabr ko'rsa, qiynalsa ham «xudo» deb tura beradi, deydi. Sartlarning shu dindorligini, ayniqsa, yaxshi ko'radi...

Zunnun xo'jayinning sog'ligiga ko'tardi. Qadahlarning jaranglashidan mukammal bir simfoniya hosil bo'ldi.

— Ilohim, eson-omon qaytib kelsin... Ilohim. Yuragim uzilib ketayotir... Bilasizmi, sartlar ham endi aynib qolishdi. Ko'p ichkilik ichishadi. Mastlik qilishadi. Yangi shahar buzuqxonalarida bir-biriga pichoq solganlari ko'p bo'lar ekan. Mast bo'lib qolsa, sart juda yomon yovvoyi bo'larmish... Qani, ko'taring, Miryoqub, sartlarning sog'ligiga...

Ichdilar. Xonim bir oz aljiy boshladi.

Biror soat o'tgach, xonimning onasi o'rnidan turdi.

— Bola uxlab qoldi, endi men ketay. Yaxshi qolinglar! — dedi.

Xonim ham turdi:

— Endi men ham boray. Kunduzi ko'p yurib charchabman... Kechir, Zunnun!

Zunnun «yo'q, yo'q» degan ma'noda qo'lini chaypidi: — Sizga javob yo'q, xonim! Siz xo'jayin tomonidan vakilsiz. O'tirasiz bir oz. Hali ko'p gaplashamiz. Ertaga kunduzi uxlarsiz.

— Ha, shunday bo'lsin! — dedi Miryoqub.

Kampir qizga yuzlandi:

— Sen o'tir, Valya, gaplashib borarsan. Vaqt hali erta, uyga borganing bilan uyqung kelmaydi. O'zing yolg'iz zerikasan.

— Xayr, mayli, — dedi xonim, — bo'lmasa, besh minutga ruxsat beringlar. Uylarni berkitib, eshiklarni qarab kelay.

Chiqdilar.

— Buncha sergap ekan bu xotin? — dedi Miryoqub. — Gramafon-a!

— Endi bildingizmi? Juda ochiqko'ngil narsa. Ichib qizigandan keyin o'zi ham ochilib ketdi...

Miryoqubga yaqin keldi:

— Uyni berkitib kelaman, dedimi — bo'ldi? Endi hamma gap o'zingizda!

Miryoqub ham aroq quvvati bilan qizisha boshlagan edi...

Xonim kelib kirib, uyning kalitini deraza tokchasiga qo'yganda, ikkala erkak uni chapak bilan olqishladilar.

Yana ichish boshlandi. Mastlik avj olardi. Xonim bir to'xtamay gapirardi. Miryoqub o'ziga tanish «imperiya»ni yana necha marta eshitdi. Faqat endi undan osonroq bo'lgan gapni ham anglaydigan holda emasdi. Ko'zlari cho'qqa aylangandi. Xonimning ko'zlari esa suzilib yumila boshlagan edilar. Faqat ayyor Zunnun boshqalarni ko'proq ichirib, o'zi kamroq ichar, hushyorligini qo'ldan bermasidi.

— Turing o'rningizdan, Miryoqub aka! — dedi u. — Xonimnnig yonlariga o'ting. Zerikmasinlar...

Miryoqub bir oz dovdiranib xonimning yoniga o'tdi.

— Mumkinmi, xonim?

Xonim ko'zi bilan yonidan joy ko'rsatdi!

— Pojalyusta...

Miryoqub o'tirar-o'tirmas qo'lini xonimning yelkasiga tashladi. Xonim og'irlashgan boshini burib, mast ko'zlari bilan eshik tomonga qaradi. Zunnun uyda emasdi. Shundan so'ng yana Miryoqub tomoniga burilib, qo'lini uning yelkasiga tashladi. Yana ichdilar... Xonim, hamon so'zlardi. Faqat so'zlari, tomchilab tomizilayotgan dori singari, bitta-bitta to'kilib borardi. Xonim tamom mast bo'lgan ko'zlari bilan goh-goh eshik tomonga qarar. Zunnunning kirishini kutardi. Zunnun kirmadi. Yana ichdilar... Yana ichdilar...

Miryoqub sharpa sezib ko'zini ochgan vaqtida, xonim oyna qarshisida sochlarini tuzatmoqda edi. Miryoqub o'rnidan turmoqchi bo'lib yostiqdan boshini ko'tardi. Xonim darrov orqasiga burilib uni ko'rgach... qizarib kuldi.

— Shoshmay tur, Miryoqub, azizim, — dedi. — Men chiqib ketay, so'ngra turarsan. Qarama menga...

So'ngra sekin kelib, kartga o'tirdi:

— Endi men uyga boray. Ko'p ichib qo'yibmiz, boshim og'rib yotir... — deya labini Miryoqubga uzatdi.

— Ko'rishib turaylik, — dedi Miryoqub.

Xonim ochilib kuldi:

— Jonim bilan... — dedi eshikdan chiqa turib.

Miryoqub kiyinib tashqariga chiqqan vaqtida tong yorishib kelardi. Oshxonadan Zunnunning besaranjom xurragi, yiroqlardan xo'rozlarning cho'zib-cho'zib chaqirishlari, hovli tomondan ochilayotgan eshikning sharpasi eshitilardi...

Hamma uyquda...

* * *

Miryoqub ko'chaga chiqdi. Doim bir-ikkita izvosh to'xtaydigan joyga — uezd mahkamasining narigi muyulishiga bordi. O'ndan ortiq izvoshchilarning qator-qator chizilib turganlarini ko'rdi. To'g'ri bittasiga chiqdi. Izvoshchi unga tomon burilib:

— Tushing, aka, biz bandmiz, — dedi.

Naridan rus mirshab qichqirdi:

— Kim u? Tush aravadan!

Miryoqub izvoshdan tushdi. Hayron bo'lib u yoq-bu yoqqa qaradi. Mirshab yetib kelib, izvosh fonarining mazasiz yorug'ida uning yuziga qaradi. Tanigan bo'lsa kerak, sizlab gapirdi:

— Bu yerda turmang, aka. Bu izvoshlar band. Yarador soldatlarni lazaretga olib borishadi.

Miryoqub boshini chayqay-chayqay, Eski shaharga — hammomga tomon piyoda yo'l soldi. Boshi og'irlashgan, garang, qovoqlari toshday qotib ketgan, tizzalari o'z-o'zidan bukilib borardi. Uning miyasida yana ikkita Miryoqub paydo bo'ldi: biri — tergovchi, yana biri — javobgar.

Eski shahar bilan Yangi shaharning orasi yiroq edi. Uyushgan majolsiz va bo'shang oyoqlarini sudrab, eng yaqin hammomga yetib borguncha tong otib, ko'cha-ko'yda odamlar o'rmalasha boshladilar. Lekin qancha ezilgan bo'lsa ham Miryoqub yo'lning uzoqligini sezmadi. Chunki miyasi ajib bir quvvat bilan harakatga

kelgan va zolim tergovchi borgan sari zabtini oshirib tergardi:

— «Xo'sh, Miryoqub, kayfing qalay?»

— «Joyida... Kayfim joyida...».

— «Yolg'on gapirma, Miryoqub. Sen tergovchi qoshidasan. Biz ko'nglingda yozilganlarni barala o'qib turibmiz. Veksildan yo yer vasiqasidan sen qanday kopiya olsang, biz ham sening ko'nglingdan o'shanaqa kopiya olganmiz. Shuning uchun rostini ayta bersang, o'z hayriyating. Bari bir, bizni yolg'on gapga ishontirolmaysan. Xo'sh, gapir: kayfing qalay?».

— «Kayfim uncha joyida emas...»

— «Habbarakalla, gapir, gapir!»

— «Ta'bim kir, ko'nglim aynigan, allanarsadan jirkangan kabiman...»

— «Allanarsadanmi? Yo allakimdanmi?»

— «Bilolmadim».

— «Yaxshiroq o'yla. Allakimdan bo'lmasin?»

— «Allakimdan desam ham bo'ladi. Lekin kimligini bilolmayman».

— «Bilmasang biz yordamlashamiz. Menga qara, kimdan jirkanasan? Miryoqubdan emasmi? Nega indamaysan? Nega daming chiqmay ketdi? Biz to'g'ri aytgan ekanmiz, bo'lmasa? Shundaymi?»

— «To'g'ri aytdingiz, Miryoqubdan jirkanaman...»

— «Haqqing bor, haqqing bor! Miryoqub, qancha balandparvoz bo'lgani bilan, o'z bo'yidan ortiq ko'tarilolmaydi. Chunki, u bir it! Olchoq va ayanch bir it! U o'z-o'zini goh arslon rangiga, goh qoplon rangiga, goh sher va goh er bo'yoqlariga bo'yab ko'rsatadi. Faqat ohakka ag'anab, kaptarlar orasiga kirgach, yana o'z ovozi bilan «g'o-og', g'o-og'!» deb yuborgan go'ng qarg'a singari uning asil itligi barala ko'rinib turadi. Doim ko'rinib turadi. Miryoqub Akbarali mingboshini haqir ko'radi, xo'rlaydi, uning itlanishidan kuladi. Uyalmaydi Miryoqub, xijolatidan yetti qat yer ostiga kirib ketmaydi. A... uni yer ham o'zining mahram qo'yniga olishdan tortinadi, chekinadi!..»

— «Men o'zimni tergovchi oldida deb bilib, faqat, savollarga javob berishga tayyorlangan edim. Endi ko'ramanki, o'sha tergovchining o'zi qoralovchi sifatida chiqa

boshladi. Men nima qildim endi? Qaysi biriga nima dedim?»

— «Sen jim tur, Miryoqub! Biz kerak bo'lganda, so'roq so'raymiz, kerak bo'lganda qoralash nutqi bilan o'rtaga chiqamiz. Sen chidab tur, Miryoqub! Senga Miryoqubni himoya qilishga yo'l qo'yiladi. Sen, hali so'z olasan, gapirasan. Shoshilma! Shoshma! Vaqtini, soatini kut! Har narsaning vaqti bor!!!»

— «Men bunday tergovchi va bunday qoralovchiga javob bermaslikka o'zimni haqli sanayman!»

— «Nima deding, qahramon Miryoqub? Hali tergovchi bilan qoralovchiga e'tirozing, noroziliging ham bormi? Sabab?»

— «Ko'p odamlar, ot bilan xachirni ajrata olmaydilar. Bunga hech narsa deb bo'lmaydi. Bu mumkin, chunki ular bir-birlariga o'xshab ketadilar».

— «Xo'sh, xo'sh? Qani, gapir-chi!»

— «Ammo ot bilan eshakni ajratmaydigan odamlar adolat mansabiga o'tirib, birovni tergamasin va qoralamasinlar. Bunga ularning haqlari yo'q!»

— Xo'sh, Miryoqub, gapir! Bu xilda gapirishing bizga yoqadi... Xo'sh, nima demoq istaysan?»

— «Akbarali mingboshi bilan tenglashtiriluvimga, hatto u bilan — qay darajada bo'lsa ham muqoyasa qilinuvimga qattiq norozilik bildiraman! Haqorat bu, so'roq emas!..»

— «Ko'nglingni to'q tut, azizim: Miryoqub bilan Akbarali mingboshi o'rtasida yer bilan osmon qadar farq borligiga biz qattiq ishonamiz! Akbarali boshqa odam. Miryoqub butunlay boshqacha odam...»

— «Bu izohdan so'ng men qoniqdim. So'rog'ingizda davom etingiz!»

— «Sen qoniqqan bo'lsang, u — o'z ishing. Qoniquvingda bo'l! Ammo biz hali qoniqqanimiz yo'q».

— «Ya'ni?»

— «Biz Akbarali mingboshini Miryoqubdan ko'ra odamroq deb bilamiz...»

— «Nima, nima?!» — Miryoqubning nafasi bo'g'ziga kelib tiqildi.

— «Afsuslar bo'lsinki, bu — shunday!»

— «Nega shunday bo'ladi! Nega!» — Miryoqub sherday o'kirardi.

«Miryoqub! Sen shu kechani qayda va kimning qo'ynida o'tkazding?»

«Miryoqub tutilib qoldi. Qizardi, bo'zardi... qochmoq istardi. O'zidan-o'zi qochib ketmoqchi bo'lardi... Yo'q, kishi o'zidan yiroqlasholmaydi!

— «Gapir, Miryoqub! Ko'nglingdan olingan kopiya ko'z oldimizda... Gapirganing, iqror qilganing yaxshi!»

— «... Men bu kechani noyib to'raning hovlisida o'tkazdim... Uning oshpazi Zunnun aka ziyofatga chaqirib edi».

— «Shu xolosmi? Yo yana bormi?»

— «Shu xolos... ertalab mahkama oldiga chiqsam, tog' tomondan yarador saldatlar kelganini aytdilar...»

— «Rahmat, Miryoqub! Shu xabarni biz hali eshitishga ulgurganimiz yo'q edi... Rahmat senga. Faqat, sen bizga aytib ber: kechani kimning qo'ynida o'tkazding?»

— «Men anglayolmadim... Tong yorishganda, uyqudan ko'zimni ochsam... O'zim kartdaydim, yaqinimda noyib to'raning xotini turgan edi. Kechasi ko'p ichgan edik, nima bo'lganini bilmayman...»

— «Sen demoqchi bo'lasanki, u ishlar hammasi ixtiyorsiz bo'ldi, sen o'zing istaganing yo'q. Shundaymi?»

— «Shunday!»

— «Seni — qilich yalang'ochlagan mirshablar o'rab kelib, o'sha xotinning qo'yniga tashlab yubordilarmi? Bechora Miryoqub! Senga jabr bo'libdi. Zindonga tashlabdilar seni! Shundaymi?!»

— «Yo'q! O'zim — o'z oyog'im bilan keldim... O'zim istab otildim u xotinning quchog'iga!»

— «Ichkilik olish uchun pul ham berding?»

— «Berdim!»

— «Xotin kiyinib chiqib ketarkan, «Ko'rishib turaylik», degan kim edi? Bilmaysanmi?»

— «Men edim».

— «Xotin «Jonim bilan» deganda, sevingan kim edi?»

— «Men edim».

— «Miryoqub! Adolat tilida shu fe'lni «bosqinchilik» deb ta'rif qiladilar; «o'zga kishining xotiniga bosqinchilik

qilish!» Akbarali mingboshi butun umrida shunday bir ish qilganmi? Bilmaysanmi!?»

— «Qilmagan bo'lsa kerak. Bilmayman...»

— «Barakalla! Akbarali mingboshi senga kim bo'ladi?!»

— «Otaxon. Valine'mat...»

— «O'shaning orqasida katta davlatga erishdingmi? Ko'nglingdan olingan kopiya qo'limizda, gapir!»

— «Erishdim».

— «Xo'p. Poshshaxon degan nomni eshitganmisan?»

— Bilmayman. Yo'q!»

— «Yaxshilab o'yla. Juda yaxshi bilasan!»

— «Ha, bilaman!»

— «Kim u?»

— «Akbarali mingboshining, agar yanglishmasam, ikkinchi xotini».

— «To'g'ri aytasan. Endi sendan eshitmoqchimiz: u ham birovning xotini edi, uning eri, o'z iqroringcha, hatto otaxoning, valine'mating edi. Uni nega yo'ldan urding?»

— «Siz menga tuhmat qilasiz! Men uni yo'ldan urganim yo'q!»

— Qizimay gapir. Biz senga quloq beramiz. Nechuk sen uni yo'ldan urmading? Sen bilan o'ynashib yurganidan tonasanmi?»

— «Tonmayman. Haqiqatda meni yo'ldan urgan u o'zi bo'ldi...»

— «Nechik?»

— «Ruxsat etsangiz, men birinchi voqeani aytib bersam».

— «Bizga haqiqatni bilish kerak. Bo'lgan gapni aytib ber!»

Miryoqub bir-ikki yo'taldi, u yoq-bu yoqqa qarab oldi, so'ngra so'zga boshladi:

.....

«...Mingboshining boshqa hamma xotinlari kabi, u ham mening oilam bilan borish-kelish qilib yurardi. O'zimizning sartiya rasmi bo'yicha, har bir zarurat ko'rilganda, dasturxon qilib kelib, bir-birlarini yo'qlab turardilar.

Bundan, chamalab aytganda, to'rt-besh oy burun, erta bahor fasli edi, shekilli, xotinim menga — «Mingboshi dodhoning ikkinchi xotinlari Poshshaxon buncha yaxshi juvon ekan! Bizga shunday mehribonki, sira qo'ya qoling. Tez-tez dasturxon qilib keladi. O'tirib, gaplashib, ba'zi kunlari yotib ketadi», dedi. Men «Mingboshi dodho bu bechoraga javr qildi. Yosh narsa, eri hech xabar olmasa... zerikib siqilganidan keladi-da»,— dedim. Xotinim bu fikrimni to'g'ri topdi.

Bir kun kech payt — shomga yaqin, boshida dasturxon, darvozadan kirib keldi. Men tashqarida — mehmonxona ichida bo'lganimdan tezgina derazaga yaqin kelib qaradim. Paranjisidan va yurishidan bildimki, o'sha edi. Men kavishimni kiyib, tashqariga chiqqunimcha, u ichkariga o'tib ketdi. Orqasidan dumma-dum kirdim. Ichkarida hech kim yo'q edi. U yoq-bu yoqni qaradi.

— Voy, hech kim yo'q-ku! Bular qayerga ketishib qoldilar ekan? — dedi.

— Bolalarini olib onasinikiga ketdi, — dedim men.

— Voy, o'la qolay, sizmisiz? Men bilmabman, bir borib, gaplashib yotib kelay, debman. Esizgina...

Tashqariga tomon chiqa boshladi. Men ham orqamga burilib, undan burunroq, tashqariga chiqdim va ayvoncha oldida to'xtadim. U ham tashqariga chiqib, devorga yaqin bir joyda to'xtadi.

— Esizgina... Gaplashib yotib kelay, deb kelib edim,— dedi yana. — Zerikdim... Aytgancha, qachon kelishadi? Endiyoq kelishib qolmasmikan?

— Kelsa, ertaga kechqurun keladi. Undan burun kelmaydi.

— Qachon ketib edi?

— Kecha kechqurun...

— Tovba! Bilmabman... attang... Yana qaytib, o'sha o'yga boraman ekan-da. O'la qolsin...

U yoq-bu yoqqa qaradi.

— Voy, o'la qolay, qorong'i tushib qoldi. Endi qandoq qilib uyga ketaman ekan? Yolg'iz o'zim qo'rqib o'laman...

— Men birga olib borib qo'ysam bo'lmaydimi?

— Voy! Ko'cha-ko'yda ko'rganlar nima deydi?

Shundan keyin bu xotinning to'g'ri niyat bilan mening uyimga kelganiga gumonsirab qoldim. Shu gumon menga dadillik berdi. Endi gap boshlayman, deb edim, u o'zi so'rab qoldi:

— O'zingiz yolg'iz qoldingizmi?

— Qandoq qilaylik?..

— Bechora... Yolg'izlik qursin! O'zingiz bilasiz, boshimdan o'tgani uchun aytaman.

— Dasturxoningizda nima bor?

— Jindak manti qilib kelib edim.

Bu xotinning bir g'arazi borligiga borgan sari ishonchim ortdi. Men ham o'zlaringga o'xshagan odamman... itligim qo'zg'aldi.

— Mantiga juda ustasizlar... bilaman. Attang biz yeyolmas ekanmiz-da, — dedim men.

— Nimaga yeyolmaysiz? Mang, mehmonxonangizga olib kirib yeng. Osh bo'lsin! Sizga deb pishirganman...

Dasturxonni olay deb unga tomon bora boshladim. Birdan:

— Voy o'la qolay! — dedi. — Darvozangiz kap-katta ochiq! Ko'chadan o'tganlar gaplashganimizni shundoqqina ko'rishib turibdi. Berkitib qo'ysangiz bo'lmaydimi?

Holbuki, uni darvozaning bir qanoti to'sib turar, ko'chadan o'tganlar faqat menigina ko'ra olardilar. Bundan tashqari, o'sha paytda ko'chadan ham hech kim o'tgani yo'q. Men ko'rib turibman.

Shu gap, shu muomila, shu himolardan keyin maqomiga yarasha javob qilmasam... yo farishta bo'lardim, yo jinni! Darvozaning narigi qanotini ham yopib, ichidan zanjirlab qo'ydim. Shaytonning ham qo'lidan kelmaydigan bir kulish bilan kuldi:

— Voy, o'la qolay, qamalib qoldim-ku... — dedi.

Boshidan dasturxonni oldim.

— Qani, yuring, — dedim, — charchagandirsiz... jindak dam oling. Ovqatni birgalashib yeylik. Undan keyin biror maslahat topilib qolar...

Bir-ikki qadam bosib, to'xtadi.

— Hay, shoshmang. O'zingiz yolg'izmisiz?

— Ha, yolg'izman.

— Rostdan-a?

— Non ursin!

— Qarg'anmang... yomon bo'ladi. Yolg'iz bo'lsangiz, sizga bir-ikki gapim ham bor edi... Otaxoningizdan dod demoqchi edim...

Dadil bosib orqamdan kirdi. Mehmonxonada chirog' yoqilmagan, qorong'i edi. Eshikdan kirgach, to'xtadi.

Dasturxonni tokchaga qo'yib:

— Qani, o'tiring! — dedim.

— Voy, o'la qolay! Eshigingiz, derazangiz katta ochiq... o'tirib bo'ladimi bu yerda?

Darrov borib derazani berkitdim. Mehmonxona eshigini ham ichidan zanjirladim.

Chirog'ni yoqib edim, yana qichqirdi:

— Xotiningiz xotin emas ekan! — dedi. — Deraza degan pardasiz bo'ladimi? Shunday ko'rinib turibdi...

Derazaga parda to'sdim.

— Mana, endi o'tiring!

— Mana endi... Endi... endi...

Shu so'zni cho'zib-cho'zib uch marta qaytardi, so'ngra birdaniga:

— Siz o'z akamsiz-ku! — dedi. — Sizdan qochib o'tiramanmi?

Toza paranjisini iflos obrezga irg'itdi.

Ertasi kuni tushga yaqin dasturxonni ko'tarib, mening mehmonxonamdan chiqib ketdi».

.....

— «Poshshaxonning men bilan birinchi uchrashuvi shu xilda bo'ldi. Men bo'lgan gapni gapirdim».

— «Bu hikoyada yolg'oni yo'q. Biz unga ishonamiz. Biz...»

Bu «biz» so'zi tergovning boshidan beri juda ko'p takrorlandi. Bu hol natijasida Miryoqub o'zini chinakam sud so'rog'i oldida to'xtaganday seza boshladi. Uning humor bilan kuyib yongan miyasi, shoshilish poezdning o'txonasiday, tez va, soat mexanizmiday, muntazam ishlardi. Sud oldida to'xtaganiga o'zi ishongan va sudning har holda o'ziga hayrixoh kishilardan, ya'ni badavlat odamlardan iborat bo'lganini bilgan Miryoqub endi

dadillandi, har bir savolga ochiq va o'zicha to'g'ri javoblar bera boshladi. Badavlatlar sudi bunga yomon ko'z bilan qaramasligi ma'lum, negakim badavlat odamlar qancha ko'p davlatga ega bo'lsalar ham yana pul-davlat degan narsaga loqayd qarayolmaydilar. Pul degan narsa Miryoqubda oz emas. Hali bu tergovchilarda har bir bandada bo'ladigan «muhabbat» (mullajiring muhabbati) yo'q, deb kim ayta oladi?

— «Biz Poshshaxon voqeasida, shu birinchi ko'rishuvning hozirlanishi va yuzaga chiqishi ustida seni ayblamaymiz. Xuddi shu bir parcha voqeada sening aybing yo'q! Ammo-lekin biz Poshshaxonni ham ayblamoqchi emasmiz. U shunday qilishga majbur edi. Boshqa ilojini topolmay u yosh juvon... senga kelmasa, boshqa birovga borar edi. Holbuki, senga kelish osonroq... Bu yerda ayb boshlicha mingboshiga tushadi. Shu bilan birga Poshshaxon ishida biz seni butunlay ayblamasdan o'tolmaymiz...»

— «Nima, nima?»

— «Tinch bo'l, Miryoqub! Avvalo, sen mingboshiga, uning mashru' xotiniga xiyonat qilgan bo'lmasang, har holda, o'z xotiningga xiyonat qilgansan...

— «Bu foniy dunyoda o'z xotiniga xiyonat qilmagan erkak bormi o'zi? Bizning sartiya o'rtasida o'z xotini, hatto ikki-uch xotini ustiga «bola» asraganlar kammi? Xotinimga xiyonat — birinchi emas, minginchi!.. Ko'nglimning kopiyasini yaxshiroq o'qingiz!»

— «Yaxshi, u jihatga ham ko'z yumaylik. U to'g'rida hech birimizning peshonamiz oq emas... Faqat, Poshshaxonni o'sha nomashru' munosabat yo'lidan to'xtatib qolish, unga, mingboshidan chiqib ketib, boshqa — o'zi teng bir erga tegib, rohat yashov imkonini berish sening qo'lingdan kelardi... Sen shuni qilmading! Sen...»

— «Shoshmang, taqsir, shoshmang! Nechik mening qo'limdan kelardi?»

— «Bizning savollarimizga kalta-kalta va to'g'ri javob bersang, masala o'z-o'zidan ochiladi. Butun dunyoda mingboshiga gapi o'tadigan bir kishi bo'lsa, u ham sensan, deb o'ylaymiz biz. To'g'rimi?»

— «To'g'ri!»

— «Poshshaxon bir odam orqali mingboshiga yolvordi: «Menga javob bering, boshqa er qilay. Hali yoshman, ko'nglimda orzu-havaslarim bor. Qolgan umrim xazon bo'lmasin!» dedi. O'sha odam shu gapni mingboshiga eshittirganda, sen ham bor eding. Yolg'onmi?»

— «Rost!»

— «O'shanda mingboshi nima dedi?»

— «Esimda yo'q!»

— «Ko'nglingda yozilgan gaplarni eshit bo'lmasa: mingboshi juda keskin javob berdi: «Menga xotin bo'lgan kishi boshqa birovga ham xotin bo'lsa, men el-xalq orasida qanday boshimni ko'tarib yuraman? Mening qo'limga tushibdi, taqdirga tan berib o'tirsin. Mendan javob yo'q! Mendan bejavob ketib ko'rsin, qani?» Javobini tugatar-tugatmas kelgan odamni haydab chiqardi. Yolg'onmi?»

— «Rost!»

— «Sen o'shanda biror og'iz bir narsa dedingmi? Desang, mingboshi ko'narmidi?»

— «Demadim, ehtimol ko'nardi...»

— «Nega demading?»

— «Ochiq ayta beraymi?»

— «Albatta!»

— «Poshshaxon bilan tanishganimdan keyin men uni mingboshidan chiqmaslikka ko'ndirgan edim...»

— «Albatta, loaqal haftada bir marta ko'rishib turar edingiz. U sendan xursand edi. Faqat sen nima uchun uni mingboshidan chiqmaslikka ko'ndirding? Maqsading nima edi?»

— «Otaxonimning ko'p uzoq yashayolmasligini yaxshi bilardim. Yuragida kasali bor... So'ng vaqtlarda qiynalibroq nafas oladi...»

— «Bilamiz, bilamiz. So'zingni kalta qil!»

— «Qazo yetib o'la qolsa, Poshshaxonga uylanmoqchi edim... chunki, mingboshidan tegadigan meros chakana bo'lmasidi...»

— «Yaxshi, juda yaxshi... Katta merosga ega bo'lishni hammamiz ham istaymiz... Bu mashru' niyat. Faqat mingboshining u katta davlatiga, har holda, besh

merosxo'r bor. Birgina Poshshaxonga tekkani seni qanoat qildirarmidi? Sen, axir, o'zing ham badavlat odamsan!»

— «Mening hech bir kasbim bo'lmasa, savdo-sotiq qilmasam, qizil qog'oz olgan bo'lmasam... ozgina yer-suv bilan nechik badavlat bo'layin?»

— «Bizni aldayolmaysan, Miryoqub! Biz seni nihoyat darajada hurmat qilamiz. Bugun huzurimizga olib kelib so'roq qilganimiz uchun sendan kechirim so'rashgacha boramiz. Sen — bizning olamimizda ulkan kishilardansan. O'rislar senga o'xshaganlarni kitoblarda maqtaydilar. Sening hamma hunaring, yeng ichida ish ko'rib, shuncha pul topishingda. Sen zavod parraklarini aylantirayotgan kishisan. Faqat bir joyga bir chaqa soliq to'lamaysan. Shunday bo'lgandan keyin, senday ulug' bir odam bir ishni chuqur o'ylamasdan qilmaydi. Haligi masalada bizga haqiqiy planingni aytib ber!»

— «...Nima desam? Hayronman... Boringki, mingboshi o'lishiga yaqin uning Poshshaxondan boshqa merosxo'ri qolmasligi kerak edi. Yo bo'lmasa, vasiyatnoma bo'yicha hamma narsa o'shaning nomiga yozilardi...»

— «Biz ishonamizki, bu narsa sening qo'lingdan kelardi! Yaxshi, Poshshaxon masalasida biz seni ayblashdan voz kechdik. Bizning olamda shunday dadil niyatlarni qoralash emas, oqlash kerak!»

— «Rahmat! Endi menga ruxsatmi?»

— «Yo'q. Jindak shoshma! Biz seni noyib to'raning xotini to'g'risida chinakamiga ayblamoqchimiz! Biz...»

— «Yo'q, taqsir! Poshshaxon masalasida meni oqlagan mahkama bu masalada qoralayolmaydi. Mantiq degan narsa bor...»

— «Xo'sh, gapir!»

— «Poshshaxon masalasida xiyonatim katta edi, ham mingboshiga, ham uning to'rt merosxo'riga... Unutmangizki, shu to'rt kishi ichida Fazilatoy singari balog'atga yetmagan qiz bola, umr bo'yi mingboshiga xizmat qilib o'tgan Xadichaxon bor... Bu katta xiyonat edi! Bu ishda meni oqladingizmi?»

— «Oqladik!»

— «Unday bo'lsa ikkinchi ish to'g'risida bir emas,

ming marta oqlashingiz kerak! Nega desangiz, imperiya— oq podshodan, noyib to'radan va uning pogonidan iborat ekan. Shuncha ming fuqaroning va ham biz singari bebizat bechoralarning ixtiyori, o'zingiz bilasizki, noyib to'rada, ya'ni «pogon» egalarida, ularning butun inon-ixtiyori esa — xotinlari qo'lida bo'lar ekan. Poshshaxon — katta merosga ega bo'lish uchun bir qurol edi, meros — davlat demak, davlat— pul demak. Imperiya — «pogon» demak, «pogon» shunday narsaki, doim «pul, pul!» deb turadi. Ko'plar uning so'raganini, ya'ni pulni beradilar, qaytib hech narsa olmaydilar. Holbuki, ish bilgan kishi pogon «pul» deganda besh so'm berib, uni — o'sha pogon yordami bilan — besh yuz so'm qilib oladi. Men shunaqa ishlarga o'zimni epchil, deb bilaman... Kecha kechasi noyib to'ra xotinining mast lablariga qo'ndirilgan mast o'pishning yolg'iz birgina ma'nosi bor edi: pul! Taqsirlar, men noyib to'raning xotini bilan ayshu ishrat qilmadim, o'lay agar! U, bizning ish ustidagi birinchi uchrashuvimiz, o'z tilimizda aytsak, birinchi «bay ochishimiz» edi!..»

Shu so'zlardan so'ng boyagi tergovchi va so'roqchilar go'yo o'z-o'zlaridan erib, yo'q bo'ldilar. Sud zali bo'shab qoldi. Miryoqub ko'zini ochdi:

Hammom miyon xonasining yon gumbazlaridan biri. Xodimgarning bo'z lungisi tanga dag'al-dag'al urinadi... Boshida mushtday qattiq lungi-yostiqcha... Yonida bir choynak ko'k choy... Miyada sud majlisi, noyib to'ra xotini, nomerda kutib yotgan moviy ko'zli dilbar...

Allaqayda mungli, hasratli bir ashula ovozi hammom aksi sadosi bilan jaranglab eshitiladi:

«...Musulmonning ishqi kofirga tushdi-ey,
Yor, yorlarim...»

XI

Kun botishga borayotgan vaqtda «otaxon» bilan «bolaxon» katta darvozadan kirib bordilar. Ayvonda ag'nab yotgan Hakimjon mingboshini qo'yib Miryoqubga arz qildi:

— Yurtda hali-hozir tinchlik. Unaqa zo'r degunday ish yo'q. Mayda-chuyda arizalar ko'p, albatta. Ularning ko'pini o'zim to'g'rilab yubordim. Besh-to'rtta kattaroq arizalar bor, ularni o'zimcha hal qilishga botinolmadim.

Ichkarida ahvol tuzukka o'xshaydi. Yangi kelinning otasi ikki kecha yotib, bugun sahar jo'nab ketdi. Qizi, aftidan, ancha yumshargan, shekilli: katta kundoshlari tomonidan ham harakat katta... Har kun qorilar kelishib, «chillayosin» o'qilib turadi... Xo'jayin ketganlaridan beri kelinchak o'zi ham tinchib qolganga o'xshaydi. Tutqaloq tutmas emish. Bilmadim, xo'jayin keldilar, yana boshlanmasa... Kunduz kunlari kulib, dutorni sayratib, ashulani baland qo'yarmishlar.

Aytgancha, xo'jayinning uchinchi xotinlari — Sultonxon ham otasinikidan kelib qolibdi. «Hamma baloni o'sha qildi», derdilar, o'zi ham juda bo'g'ilib, nima qilishini bilmay, o'tiradigan joy topolmay yurar ekanmish. Endi birdaniga juda boshqacha bo'lib kelibdi. «Hamma hayron», deydi. Katta kundoshlari uning bu xilda o'zgarishiga sabab topolmasdan hayron bo'lishar emish. Darvozadan xuddi yaqin o'rtog'ini ko'rgali kelgan qizday kulib va quvnab kirib, to'ppa-to'g'ri kichik kelinning yoniga kirgan emish. Kechagina qarg'ab, so'kib «o'ldirsam!» deb yurgan kundoshini o'pib, quchoqlab, silab-siypab bir nafasda ikkalasi «qalin do'st» bo'lgan emishlar. Endi kichik kelin ham tez-tez «Sultonxon ayam qanilar?» deb so'rab turarmish. Bu kichik kelinning kelishi o'sha Sultonxonning boshida bo'layotgan nayranglar emasmi? Nega bu xotin bunday qiladi? Hayronman, Miryoqub aka!

— Hayron bo'lmay qo'ya qol! — dedi Miryoqub. — Xotin kishining ko'nglini xudodan boshqa hech kim bilmaydi. Birdaniga bunday o'zgargan bo'lsa, tagida bir gap bor. Ishqilib bundan qo'rqqulik!..

— Shunga hayronman-da! — dedi yana Hakimjon.

— Men boshqa narsaga hayronman, — dedi Miryoqub.— Men Hakimjonning mingboshi dodhoga beshinchi xotin bo'lib tegmaganiga hayronman.

— Tilingiz qursin, Miryoqub aka! Shu ham gapmi endi?

— Qayerdan bilding bo'lmasa bunday ikir-chikirni? Bu hammasi xotin kishi biladigan gaplar.

— E, Miryoqub aka! Siz xo'jayin bilan birga yurasiz shaharma-shahar, qishloqma-qishloq — kayf qilib! Men bo'lsam, qoqqan qoziqdek shu joydan bir qarich jilolmayman. Ish bo'lsa, ham shu yerdaman, ish bo'lmasa ham. Bo'sh vaqtim ko'p... zerikaman. O'tgan-ketgan xotin-xalaj, qiz bolalarni to'xtatib, gapga solaman. «Birga ming qo'shib» uzatishadi. Ayniqsa, mening bir do'stim bor: Umrinisabibi degan. Bahrining onasi bor-ku? Ko'p gapni o'shandan eshitdim.

— Qo'y endi, kechqurunning maslahatini qilaylik. Bugun kechqurun kuyovni bir ish qilib suyganiga qovushtirmasak bo'lmaydi. Juda alangasi osmonga chiqib ketdi! O'zi ham xunuk ish bo'ldi. El og'ziga tushsa, yomon bo'ladi.

— Albatta. Hali ham uncha-muncha gap-so'z yo'q emas. Yangi kelinni ancha bo'shashib qolgan, deyishadi. Xadicha xolam bilan gaplashib ko'ring.

Miryoqub darvoza oldiga borib, Xadichaxonni chaqirdi. Xadichaxonning aytgan gaplari Hakimjon bergan ma'lumotning ayni o'zi edi. Miryoqub kulib qo'ydi... Miryoqubning fikricha, endi nozli kelinga — mingboshining shaharda izhor qilgan fikrini, ya'ni uning faqat dutor va ashulaga oshiq bo'lganini, itlik tuyg'ulari to'g'risiga kelganda, ularni astoydil niqtalashga bel bog'laganini eshittirilsa, balki qiz ham «yo'q» demasdi, birinchi uchrashuv tutqaloqsiz o'tib olsa, undan keyin oson bo'lardi. Bu mulohazani Xadichaxonga eshitirdi. Buni eshitgach, Xadichaxon uzil-kesil o'z fikrini bildira qo'ydi:

— Unday bo'lsa ish jo'n, — dedi. — Hozir kirib gaplashaman. Kechgacha xayriyatlik xabarini eshitdirarman. Siz ayvonga, kuyovning yonlariga boring: jindek ovqat boridi, hozir chiqaraman.

O'rnidan turgach, bir ko'zining bir chekkasi bilan Miryoqubga qaradi:

— Sizga javr bo'ldi, Miryoqub! — dedi. — Mingboshi dodho xuddi bir go'dak bola; siz — ona... Siz bo'lmasangiz, ochidan o'ladi u kishi...

Ovqatdan so‘ng bir-ikki choynak choy ichildi. Hakimjon bir-ikkita ariza ko‘tarib kelib, mingboshidan fikr so‘radi.

— Sira esing kirmadi-da, Hakimjon! — dedi mingboshi. — Shu topda ariza quloqqa kiradimi? Qulog‘im— ichkarida! Ertagacha tura tur, bir-ikki kun kechiksa, hech balo bo‘lmas! Juda shoshilsang, ana u betavfiqdan so‘ray qol!

Xadichaxonning chaqirishi bilan eshik oldiga borib bir nafasda yana qaytgan Miryoqub mingboshining yelkasiga qoqdi. Mingboshining ikki ko‘zi undan uzilmasdi.

— Suyunchi bering, xo‘jayin! Bugun, mana, ashula eshitasiz.

— Shukur-ey! Shukur-ey! — dedi kuyov. — Og‘zingga qantu novvat!

— Bilib qo‘ying, xo‘jayin, — dedi Miryoqub jiddiy bir chehra bilan: — Menga bergan va’dangiz bora-a! Dutor, ashula! Itlikni tashqarida qoldirib kirasiz...

So‘ngra ovozini pasaytirdi va muloyim qilib, dedi:

— Rost aytaman, xo‘jayin. Dastlabdanoq cho‘chitib qo‘ymang... Yosh narsa.

Miryoqub uyiga ketdi. Mingboshi, kech kirguncha o‘tadigan «bir necha yillik» vaqtni qisqartmoq uchun qorong‘i mehmonxonaga kirib, ko‘zini yumdi.

* * *

Miryoqub to‘ppa-to‘g‘ri o‘z uyiga borib, zarur bir ish bilan ikki oylik safarga chiqayotganini aytganidan keyin, xotinining qo‘liga yetarlik pul berdi. Ba’zi bir gaplarni tayinladi. Guzarga chiqib, o‘ziga qarashli baqqolga uyidan xabar olib turish vazifasini yukladi. U yoq bu yoqqa borib, o‘zining xususiy ishlarini to‘g‘riladi. Xufton paytlarida mingboshinikiga kelib, ahvoldan xabar oldi. Kuyovning ichkarida ekanini, birinchi ko‘rishuv tutqaloqsiz o‘tganini, lekin hali hozircha dutor va ashula ovozi eshitilmaganini aytdilar. Bu to‘g‘rida ham ko‘ngli joyiga tushdi. Hakimjonga mingboshi dodhoning mansabiga oid ba’zi ishlarni tayinlagach, ertaga erta bilan yana shaharga tushib chiqmoqchi bo‘lganini aytib, u yerdan chiqdi.

Ichkarida xotini yig'lab o'tirardi. Bolalari uxlagan edilar. Tovoqdagi oshning ko'pi yeyilmay qolganligi ko'rilardi. Dasturxon ustida guruch donalari ko'p edi. Demak, oshni bolalar o'zlarigina yeganlar. Onalari yemagan...

— Nimaga yig'laysan? — dedi Miryoqub.

— Shahardan bugun keldingiz. Endi ikki oyga ketaman, deysiz... Yosh-yosh bolalaringiz bo'lmasa ham mayliydi...

— Bolalarimga yetarli pul qoldirdim. Baqqolga tayinlab qo'ydim, nima desang, berib turadi. Ikki oy uzoqmi? Lahzada o'tadi-ketadi. Ish bo'lmasa, yurmas edim, ish bor, nochor-noiloj yuraman. «Ish qilma, pul topma!» de, ishni sen qil, pulni sen top, men uyda o'tiray, jon deyman...

Xotini jim bo'ldi. Faqat yig'idan tiyilmagan edi.

— Gugurt ber. Mehmonxonaning chirog'ini yoqay.

— Men sizga ana u so'riga joy qilib qo'ydim. Ketadigan kuningiz bolalaringiz bilan birga yoting endi.

— Sen o'zing bilasanki, men ichkarida yotolmayman. Ichkarida yotsam, kechasi bilan ko'zimga uyqu kelmaydi. Gugurtni ber, chiqib tashqarida, ayvonchada yotay. Tinch uxlasam, sahar turib, jo'nab ketaman.

Xotin gugurtni uzatdi.

— Tur, o'rta eshikni zanjirlab ol.

Xotin indamasdan o'rnidan turdi va uzun yengi bilan ko'z yoshlarini arta-arta erining orqasidan darvozagacha keldi.

— Qachon uyg'otay? Yo'lga nimalarni tugib qo'yay? — deb so'radi xotin xo'rlikdan ovozi tutilgan holda.

— Hech narsa kerak emas. O'zim uyg'onaman.

O'rta eshik juda ohistalik bilan yopildi. So'ngra yana o'shanday ohistalik bilan zanjir solindi. Undan keyin, ayvonchaga yetib qolgan Miryoqubning quloqlariga yana o'sha tomondan ho'ngrab yig'lagan bir ovoz eshitildi...

Mehmonxona eshigini ochib, gugurtni chaqqan vaqtida mehmonxonaning o'rtasida ikki qulochini keng yozib... Poshshaxon turardi!

Bu daf'a Miryoqub, bir tomondan, nomerda qolgan oltin sochli dilbarni o'ylab, yana, bir tomondan, mud-

hish sudning so'roqlarini eslab, Poshshaxonga sovuq muomala qildi. Uni hali vaqt o'tmasdan uyiga qaytib ketishga qistadi. Nasihat qilgan bo'ldi...

Faqat u nasihatlardan hech narsa chiqmadi. Hayotida shu nomashru erdan boshqa hech bir yupanchi bo'lmagan yosh xotin uning bo'yniga mahkam osildi, shu qadar hirs bilan osildiki, Miryoqub uning irodasiga bo'yin egishga majbur bo'ldi.

«Bu foniy dunyoda mashru yo'l bilan bitadigan biror narsa bormi o'zi» — dedi Miryoqub o'z-o'ziga.

XII

Miryoqub ertalab uyqudan ko'zini ochgan vaqtida allaqaysi stansiyadan jo'nagan poezd u izdan-bu izga do'qillab o'tmoqqa edi. Vaqt hali erta bo'lganligidan birinchi klass vagonning yumshoq yo'lagi tomonidan hech qanday oyoq tovushi eshitilmadi. Demak hali hamma yo'lchilar uyquda. Ehtiyot bilan bosib o'tgan bir oyoq sharpasi bir nafasgina eshitilib, so'ngra uzun yo'lakning chuqurliklariga botib, yo'q bo'ldi...

Poezd stansiya chegarasidan o'tib, ekin dalalari orasiga kirgan edi. Bir terilgan paxtalar yana chaman-chaman ochilib yotardilar. Allaqayda bir sigirning mung'ayib ma'rashi eshitildi. Eshak mingan bir yo'lchi stansiyaga tomon namlangan tuproq ustida, bolalarning olma parra kegaychalari singari, ko'zga ilashar-ilashmas qimirlardilar. Undan keyin orqalarida chang bulutlarini qoldirib, otliqlar o'tdilar. So'ngra aravalar, piyodalar, yana eshak, yana otlar bir-birini ta'qib etdi.

Erta bilanning sovuq shabadasi sur tuproq changlarini asta-sekin vagon derazasi orqali ichkariga tomon sura boshladi.

Miryoqub bir nafasga ko'zini yumdi. Poezd keskin burilish bilan chapga qayrildi, chang bulutlariga ko'milgan qishloq ko'chasi o'ng tomonda qolib ketdi. Olisdagi tog'larning nil rangli suratlari gavdalandi. Baland-past daraxtlarning uchlarida hamda keng dalaning bir qismida ertalabki quyoshning parchavaga o'xshab yoyilgan shu'lasi ko'rindi. Qalin daraxt oralaridagi noma'lum

qishloqlardan ko'tarilgan tutun ustunlari u joylarda odamlar yashaganini ko'rsatardi. Poezd chapga burilgandan keyin sovuq shamol dalalarning xush yoqadigan salqinini olib kelib, yuzlarga urdi...

Shu topda ko'zlar ixtiyorsiz pastga qaraydi...

O'z yozmishini begona bir osiyolikning qo'liga topshirib qo'ygan va mashru nomi tashlanib, qalbaki nom berilganiga xursand bo'lgan moviy ko'zli go'zal yumshoq o'rinda silkina-silkina uxlamoqda edi. Shu kecha ayniqsa baxtli bo'lganmi bu juvon yoki shirin tushlarning sehrli quchog'ida suzadimi — nima bo'lsa bo'lsin— shu topda muloyim kulimsirab, juda chiroylik uxlaydi. Bu uxlashning chiroyliligini Miryoqub tushunolmaydi, albatta!

Bu xotin butun kecha bo'yi juda tinch va xotirjam uxlaganga o'xshaydi. Bir oyog'i tizzadan quyisi bukilib, so'richadan pastga osilibdi, bir oyog'i unisini quvlab borib so'richaning qirg'og'ida uxlab qolibdi. Uzun ko'ylagi butun badanini kam-ko'stsiz yopib turadi. Faqat bir yengi tirsakkacha shimarilib qolgan... Oppoq qo'llari va bilaklari o'z yonida — o'z onasining to'qlisiday — bir chiroylik uxlaydi. Miryoqub undan ko'zini ololmaydi. Yuqoridan turib, shu bir siqim vujudni tomosha qiladi. «Meniki, shu go'zal maxluq meniki, butun meniki», deydi va quvonadi. Faqat qulog'i ostida kapa tikib yotgan tergovchi darrov o'z borligini bildiradi:

— «Miryoqub! Qaysi ko'zing bilan shu chiroylik manzaraga qaraysan? Haqqing bormi unga bu xilda quvonib qarashga? Sen bilan ko'rishganidan beri, bu juvon boshqa har narsani unutdi. Berlindagi sevimli akasi ham esiga kelmaydi. Bilasanmi, tushida ham seni ko'rayotir u! Sen nonko'rni! Sen bevafo do'stini! Sen usta savdogarsan, bilamiz, hurmatlaymiz! Sen pulni o'ynatasan, pul bilan o'ynashasan! U sening qo'lingdan keladi, ortig'i bilan keladi! Pul bilan o'ynashsang, pulni o'ynatsang, yaxshi bo'laridi. Sen chakki — munaqa go'zal maxluqlarning ko'ngli bilan — o'ynasha boshlading Go'zal xotinlarning ko'ngli jonon piyolaga o'xshaydi, sendek qo'pol kishilar uning jaranglaganini eshitmasdan turib sindiradilar... Singandan so'ng ulardan ayanch narsa qolmaydi dunyoda!»

— «Meni behuda ayblaysiz. Men uni iflos joylardan o'g'irlab olib chiqdim. Endi hech bir harom qo'l, nomahram qo'l tegolmaydi unga! U hozir nomusli bir erkakning nomusli xotiniday toza...»

— «Sen o'zing-chi? Sen o'zing? Endigina qilingan yangi gunohlaring bilan?»

— «Yangi gunoh qilganim yo'q. Hali ham eski gunohlarim ketimdan quvalab yuribdi. O'shalardan qutulay, deb qochdim. Qochib ketayotirman. Bas endi muncha ta'na».

— «Har, nima desang, de, ikki kun avval noyib to'raning xotini, bir kun avval mingboshi dodhoning xotini sening qo'yningda edi. Endi bugun-erta bu oq ko'ngil maxluqqa ham chang solasanmi? Qanday botina olasan?»

— «Men munga tegmoqchi emasman, tegmayman ham. Siz bilmaysiz, shu xotin bilan ko'rishganimdan beri o'z-o'zimni taniy olmay qoldim!»

Miryoqubning bu so'zlari to'g'ri edi. U, chinakam, hamma vaqt bu xotinning yonida o'tirib, u bilan bir xonada yotib borishga majbur bo'lsa ham, unga qo'l uzatish degan vasvasali fikr bilan doim kurashib kelardi. Belgisiz bir joyda, belgisiz bir zamonda, belgisiz shartlar ichida ular ikkalasi, o'z-o'zlaridan qo'shilib qolishlari kerak edi. Xotin ham shu xilda o'ylab, shu xilda tushungani uchun o'zini ona qo'ynida ketayotgan kabi sezardi. Shu uchun bo'lsa kerak, Miryoqubning mumkin qadar o'zini chetga tortishga urinishlarini anglayolmasdi.

Hayfki, ular ikkalasi bir-birining tilini yaxshi anglayolmaganlari uchun yo'l bo'yi o'ylab va o'ylanib borishga majbur bo'lsalar-da, har kungi o'ylari va ishtibohlarini bir daftarchaga yozib borishni eslariga keltirmadilar. Ular ikkovi bittadan «kundalik daftarcha» yuritgan bo'lsalar, mana bunga o'xshagan yaxshigina sarguzashtnoma hosil bo'laridi.

J a k o b.

(Xotin tomonidan Miryoqubga berilgan nom.)

«Bilmadim, bu poezd meni qayerga olib boradi? Qrimga deb yo'lga chiqdim. Biletlar Moskvagacha. U yerda nima bo'ladi? Ungacha nima bo'ladi? Bilmayman.

Bilmayman. Nima uchun bu safarga chiqqanimni ham bilmayman... Qishloqqa jo'naganimda, to'rt-besh kun turarman, deb o'ylagan edim. Bir kecha yotdim, xolos. Sahar turib, haligi bo'ynimga osilgan ilonni chiqarib tashlagach, ichkariga kirdim. Xotinim ichkarini supurayotgan edi. Ko'ziga qaradim, tuni bo'yi uxlamagani ko'rinardi. Men ham tuni bo'yi uxlayolmay chiqdim... Ilon kirgan edi qo'ynimga! Ilonni o'pgan harom lablarim bilan uxlab yotgan bolalarimni o'pay deb quyiga egildim, ko'nglim chidamadi. Ko'rpaning qirg'og'ini o'pdim. Xotinim ko'rib turgan edi. «Bu odam bizdan kechib ketayotganga o'xshaydi. Hatto o'z bolalarini ham o'pkisi kelmaydi», deb o'ylagandir, to'lib-toshib yig'lagandi. Bechora xotin, bilmaydiki, bolalarimni o'pmasligim ularni sevganligimdan edi».

M a r ya m.

(Miryoqub tomonidan xotinga berilgan nom; xotinning asl nomi Mariya emasmi?)

«Yo rabbiy! Yo rabbiy! Nima bu? Tushimmi, o'ngimmi? Qaydaman? Nima holdaman? Kecham nimaydi? Bugunim nima? Ertamda nima bor?

Jakob nomerning eshigini ochib chiqib ketdi. Men darhol ichdan qulflab oldim. Uning o'z ko'ziga qarab loaqal besh kun o'zimni qamoqqa hukm qilgan edim. Besh kunda besh marta kechasi hamma uxlaganida tashqariga chiqib kelishni chamalardim. Boshqa vaqtlarda doim uyda, doim shu kichkina, shirin va ishonchli uyda! Besh kun ichida nimalar bo'lmas edi, deysiz? Ko'nglimda tashvishlarim yo'q emasmidi, balki kelmay qoladi? Balki mendan aynidi? Balki bir oydan, bir yildan so'ng kelar? Balki tez orada kelar, lekin o'ylari va niyatlari o'zgarib, oddiy bir «xaridor» kabi kelar, bir soatga kelar, yarim soatga kelar... Shunday bo'lsa, men nima qilaman? Yana o'sha iflos muhitga qaytamanmi? Yo'q! Yo'q! O'lim undan yengil... ancha yengil.

Nima uchun men unga ishondim? Nima uchun? Nima uchun yot bir odamning quruq so'zi bilan butun niyatlarim, qasdlarim va xulyalarimdan kechdim? Qanday esi past xotin ekanman men! Yana qaytib botqoqqa sakramoq uchun balandroqqa chiqibman...

Balandroq yerga chiqib turib, xuddi dengizga o'zini tashlaydigan hopituvchilar kabi, o'zimni yana o'sha handaqqa tashlamoqchi bo'libman! Bilmabman, o'ylamabmanki, handaqning ichida turgan vaqtingda odam uning havosiga ko'nasan. Faqat bir marta u yerdan chiqilgach, ochiq va sof havoga chiqilgach, tog' havosi kabi toza havoli tepalarga chiqilgach... qaytib xandaqqa tushib bo'ladimi? Telbaman men! Telba! U puli ko'p bir savdogar edi, shuni bilardim. Nima uchun men unga «Ming so'mga chek yozib ber, shunda ishonaman!» demadim? Yozib berardi. Undan keyin istar kelsin, istar kelmasin edi. Man qo'limda pulim bilan yo'lda bo'lardim... maqsad yo'lida bo'lardim. Yozib bermasa, sevmaganligini bilardim, unga ishonmas edim... aldanishdan qutulardim. Men telba!..

Ikki kecha, ikki kunduzning qanday o'tganini bilmadim. Chunki haligi xilda fikrlar, vasvasalar menga kun bermaylar edi. O'ylardim, o'ylardim, na yig'lashimni bilardim, na kulishimni! Yo'lakda eshigim yonida ehtiyot bilan bosilgan qadamlar eshitila boshladi. O'z-o'zini qamoqqa olgan yosh va go'zal xotinga qiziquvchilar to-pildi, shekilli. Xizmatchi ovqat keltirgan vaqtida «Nimaga chiqib yurmaysiz?» dedi. «Meni so'ragan kishi yo'qmi?» dedim. «Yo'q, — dedi,— Kim kelmoqchi edi?» «Erim», dedim, jim bo'ldi. Shundan so'ng oyoq sharpalari ham eshitilmas bo'ldi.

Tushimmidi, o'ngimmidi? Ohistalik bilan eshikning chertilganini eshitdim. Uning men bilan xayrlashib chiqqaniga faqat ikki kecha, ikki kunduzgina o'tgan edi. Bu chertish xizmatchining chertishiga o'xshardi. Xizmatchi bo'lsa kerak, deb so'ramasdan ochdim. U kirib keldi! Oh, shu aziat! Biz ko'rishmadik, nima uchundir u qo'l uzatmadi, men ham unutdim. So'z ham aytmadi. Soqov kabi kirib kelib, qo'lidagi biletlarni ko'rsatdi. Xizmatchini chaqirib, hisoblarni uzdik. Darhol vokzalga chiqdik.

Ikkimiz bir uyda yotibmiz. Ko'ngillarimiz — bir. Badanlarimiz — boshqa. Poezd tez yurib ketayotir. Ko'zlarim yumildi... Tushimmi, o'ngimmi?..»

J a k o b.

«Toshkentdan kechasi o'tganga o'xshaymiz. Odamni zeriktiradigan quruq cho'lga kirib boramiz. Vagonimizda yangi nusxa Toshkent to'ppisi kiygan, sochini, bir enlikkina o'stirgan, po'rim kiyimli bir odam paydo bo'ldi. Kaltagina, chiroylikkina mo'ylovi bor... Oq yuzli. O'zi ham chiroylik. Juda olifta qadam qo'yadi. Toshkent odamiga o'xshaydi. Maskovchi savdogarmikin? Yo zakonchimi? Yo mahkamalarda ishlaydigan odammi? Har qalay, o'ris tiliga omil bo'lsa kerak, qo'lida o'ris gazetlari ko'raman. Bizning xonamiz oldidan bir necha marta u yoq-bu yoqqa o'tdi. Sinchiklab qaraydi. Bilmadim, mengami, Maryamgami? Qo'rqamanki, ko'zlari Maryamda! Toshkent savdogarlari olifta bo'ladi. Ovro'pa xotinlarini yaxshi ko'radilar. Eshikni berkitib qo'ydim... Xona ichi dim. Maryam o'ng'aysizlana boshladi. Eshikni qaytadan ochib qo'yishga majbur bo'ldim.»

M a r ya m.

«Jakob meni sevadiganga o'xshaydi. Sevmagan odam munday qilmaydi. Oh, agar rost bo'lsa!

Chiroylik bir sart yigiti bizning xonamizga ko'p qaraydi. Unga qaraydimi, menga? Bilmayman. Menga qarasa kerak. Chunki erkak erkakka nega qarasin! Xotya, sartlarda erkak erkakni sevadigan odat bor emish... Qiziq!

Jakobchik, mening sevimli Jakobchigim ochiqdan-ochiq bezovta bo'la boshladi. Eshikni bir qur yopdi. Keyin men bir-ikki marta og'ir «uh» tortib edim, ochib qo'ydi. Oh, biz xotinlar! Shu sart yigiti tezroq gap tashlasaydi. Jakobni yaxshilab sinardim. Tezroq sinasam, ko'nglim o'rniga tushsa.

Shu uchun yo'lakka chiqdim. Ochiq derazaning orqasida ketsiz cho'l, yalang'och sahro uzala tushib yotadi... Qanday to'ydiruvchi yaknavlik! Yolg'iz bo'lsam, ilinchagim bo'lmasa, zerikib o'lardim. Tomosha boshlandi: orqamdan darrov Jakob chiqdi. Yonimga o'tib, to'xtadi.

— Havo yaxshi-da? — dedi.

— Chakki emas, — dedim, kuldim.

Bu olov bilan o'ynashayotgan bolaning beparvo kulishi edi...

Sart yigit ham deraza oldida edi. Jakob uning

tomoniga o'tib to'xtadi. Poezd stansiyada bir oz to'xtab, jo'nagandan keyin sart yigit yonimizdan o'tdi, bizga qo'shni bo'lgan deraza oldida — mening qatorimda to'xtadi. Shundan keyin sekingina Jakob ham o'sha tomonga o'tdi.

Sart yigit nega gap tashlamaydi? Janjal bo'larmidi? Bo'lsin! Janjal qo'zg'aladi, yotadi, faqat uyg'onib «hoy», degan ko'ngil javob eshitadi: «Labbay!» Menga shu kerak. Sart yigit, u ham aziat! Xotin ko'nglini bilmaydi. Achchig'im keldi, uyga kirib, eshikni yopib qo'ydim.

Shoshma, shoshma! Nima gap? Ular ikkovi so'zlasha boshladilar. Faqat janjalga o'xshagan yeri yo'q...

Yana achchig'im keldi. Nu, ix!..»

J a k o b.

«Xayriyat, Maryamga emas, menga qaragan ekan. Men bilan tanishmoqchi bo'lganini so'zladi. Tanishib oldik. Toshkentlik savdogar. Finlandiyaga borayotir emish. U qaysi mamlakat?»

M a r y a m.

«Jakob sart yigit bilan qalinlashdi. Endi u bizning xonada ko'p o'tiradi. Men bir chekka-da. Yonimda Jakob... Jakobchik. Uning yonida yigit. Ruschani juda yaxshi bilar ekan bu yigit. Jakobni xijolat qildi. «Xotiningiz bilan tanishtirmaysizmi?» dedi, shekilli, Jakob menga qaradi. «Bu kishini taniysanmi?» dedi. Men qaydan taniyman? Qiziq! Qo'limni uzatdim. «Sharafuddin Xodjayev», dedi. Qanday qiyin ot! Jakob, Jakobchik... Bu boshqa. O'zi chiroylik narsa, lekin».

J a k o b.

«Savollarimning javobini endi topadiganga o'xshayman. Bu yigit jadidlarning kattalaridan biri ekan. Endi «imperiya»ni so'rab olay, deyman. Shunday gaplarni gapiradiki, ko'zim piyoladay bo'ldi. Men uyquda ekanman... g'aflat bosgan ekan bizni. Millat degan narsamiz bor ekan, biz — omilar uni — «fuqaro» deb yurganmiz. Bu yigit «millat» degan vaqtida allaqanday shirin eshitiladi.

Lekin «bu kishi kimingiz?» deb so'ragani yomon bo'ldi. Nima deb javob berishga hayron bo'lardim. Hali javob topolganim yo'q edi, o'zi yordam qildi: «ahliyan-

gizmi?» «Ha, ahliyam». Qutuldim! Undan keyin bizning xonaga kirib o'tirib, «Ahliyangiz bilan tanishtirib qo'ymaysizmi?» dedi. Men Maryamdan «tanishmisan?» deb so'ragunimcha bo'lmaydi, Maryam qo'l uzatib o'tiribdi. Kofirning qizi! O'rganib qolgansan-a!

Xayr, mayli, men bu yigitga ishonaman. Uning boshida xotin savdosi borligini payqaganim yo'q. U o'z «millati» bilan ovora.

Haddidan oshib ketsa, biz, oddiy xalq, musht ham ko'tara beramiz!»

M a r ya m.

«Sart yigiti balo bo'ldi. Jakob ertadan-kechgacha o'sha bilan gaplashadi. Men hech narsa anglamayman. O'z tillarida gazetlar o'qishadi. Yigit o'rischa gazetlarni o'qib tushuntiradi. Bir tomondan olganda, bu yaxshi, Jakobning fikri ochiladi. Odam bo'ladi. Madaniylashadi.

Faqat men uni — shu yovvoyi holida ham sevaman, shekilli. Zerika boshladim. Nima qilsam? Kitob topib o'qiy.

Jakobning yuzida va ko'zida o'ychanlik aralash bir tabassum paydo bo'ldi. Diqqat qildim: ko'nglida ajib bir olov yona boshlaganga o'xshaydi. Oh, yo rabbiy! Meni sevgan ko'nglidagi muhabbat olovi emasmi? Faqat... unday bo'lsa, u ajib va shirin kulish bilan kulgan ko'zlari nima uchun menga emas, boshqa yoqlarga, olislarga qaraydi? Boshqa sevgining olovi emasmi? Oh, yo rabbiy! Yo rabbiy!..»

J a k o b.

«Bu yigit boshqacha chiqdi. Men izlagan pir shu bo'lsa-ya. Nima uchun men shu vaqtgacha jadidlarni so'kib kelganman? Agar jadid shu bo'lsa, nimaga men jadid emasman, nimaga mingboshi jadid emas, hamma jadid emas?.. Faqat noyib to'ra boylardan yerlarni, zavodchilardan zavodlarni tortib oladiganlardan gapirdi, ular ham jadidlarga o'xshagan yangi toifa emish... Yo'q, men mundan ehtiyot bilan bir so'rab ko'raman. O'zi aytib berar.

Noyib to'ra bilan o'rtamizdagi aloqani, noyib to'raning musulmon tiliga va xatiga omil ekanini, uning «imperiya» to'g'risidagi gaplarini gapirib berdim. U ham

gapirib ketdi... gapirdi... gapirdi... og'zidan ajoyib ta'sirlik so'zlar to'kiladi. U so'zlarning har bir donasi ko'zimdan bir qavat pardani sidiradi.

Ochildim... Umrimda birinchi marta yangi tanishgan bir kishiga ko'ngil, sirimni aytib berdim. Maryam voqeasini mendan batafsil eshitgandan keyin kaltagina bir so'z qildi:

— Siz endi bu xotinni qo'ldan chiqarmang! Bu, bizning boshimizda danak chaqayotgan bir dunyoning qizi. Biz bularni ko'ngildan yomon ko'ramiz. Bular — bizning dushmanlar! Faqat bular hammasi, butun holda, dushman! Yakka-yakka bo'lganda, oralaridan do'st topa olamiz. Yaxshi do'stlar topiladi. Juda yaxshi do'stlar... U do'stlar bilan og'iz burun o'pishar ekan, ularning changalidan qandoq qilib qutulishni bir nafas ham unutmaymiz!

Siz uni iflos chuqurdan tortib chiqaribsiz. U muni taqdir etadi, o'zining yosh va toza ko'nglini sizga tutadi. Sizga qarashlaridan anglaymanki, uning ko'ngli ko'pdan sizniki bo'lgan! Siz baxtlisiz. U ham sizni endi siz uchun yangi bo'lgan bir dunyoga olib kiradi. Siz unda haqiqiy onalarni ko'rajaksiz. Millat bolalarining baxti haqiqiy, madaniy onalar qo'lida bo'lmasa, bizning oqibatimiz yomon! Siz undan ko'p narsa ola bilasiz. Singillaringiz, qizlaringizni shularga o'xshab tarbiya qilsangiz, shundagina vazifangizni bajargan bo'lasiz! Eskilarning tili bilan: «Qo'shoq qaringiz!» deyman... Qo'shoq qaringiz — millatning, millat onalarining saodati uchun!...

Bizning tilimizni biladigan amaldor oshnangiz to'g'risida kelsak... Bizning mamlakatimizga rus hukumati bir «mustamlaka» deb qaraydi, ya'ni mamlakatlarning o'gayi singari... Shu uchun bu yerga yaxshi amaldorni yubormaydi. Bitta-yarimtasi adashib kelib qolmasa... Ulardan bizga do'st yo'q... Bizning do'stimiz — o'zimiz. Bizning do'stimiz — millat! Ular millat dushmanlari... Biz ularga dushman! Shuni unutmangiz!

Mamlakatning tarixi, adabiyotiga oid qimmatbaho asarlarni tekinga berish hamda bir rus amaldoriga berish, bilmadim, nimaga teng? Mencha, bu — millatga xiyonat!

Unday asarlarni siz to'plangiz, milliy kutubxona tashkil qilaylik. To'g'ri yo'l — shu!

Bizdan necha baravar kichkina millatlar mustaqil bir hukumat qurib, o'z davlatlari ila Ovro'paning, shu madaniy Ovro'paning markazida, ya'ni kindigi singari joyda yashaydi. Toshkent tramvayini o'shanaqalar aylantiradi... Bizning baxtsizligimiz — nodonligimizda, xolos. Millat uyg'onsin, ko'zini ochsin, o'qisin, bilim olsin, madaniy millatlar qatoriga kirsin, so'ngra u ham o'z davlati, o'z baxti, o'z saodatini quradi.

Millatni uyg'otish — uyg'onganlarning vazifasi. Mana siz: ancha eslik, hushyor, ziyrak odam ko'rinasiz. Ish bilasiz ekan. Davlatingiz bor ekan. Faqat birgina aybingiz shuki, zamon ahvolidan xabardor emassiz. Gazet o'qimaysiz. Shu zamonda mundan yomon gunoh bormi? Qanday yaxshi gazetlar bor. Orenburgda, Qozonda, Ufada, Bokuda, Astraxanda, ayniqsa Moskvada, urush bitgandan keyin chetdan oldirib o'qing! Boqchasaroyga besh so'm pul yuborsangiz, bir yilgacha har kuni «Tarjumon» keladi. Bilasizmi, «Tarjumon» nima deydi?

Shu yerda men uning so'zini bo'lib, dedim, chunki juda payti kelgan edi:

— Boylarning yer-suvi, zavodchilarning zavodlari olinib, yalang oyoqlarga berilsin, demaydimi? Shuni aytib bersangiz.

— Siz sotsialistlarni aytasiz, — dedi. — Bizning oramizda sotsialistlar yo'q. Biz sotsialistlardan yiroqmiz. «Tarjumon» nima deydi? «Tarjumon» — jadid gazetalarining otasi Ismoil boboyning gazeti. Eng eski gazet... «Tilda, fikrda, ishda birlik!» deydi, ya'ni biz musulmonlar, turk xalqlari, bir til bilan gapiraylik, bir fikrda bo'laylik, bir ish qilaylik, deydi. Mundan yaxshi nima bor? Boylarning yerlari, zavodchilarning zavodi, fabrikachilarning fabrikalari bilan bizning ishimiz yo'q. U ularning o'z ishlari. Biz o'qiydigan gazetlarning hech biri unday demaydi. Ular qayta: «Boy bo'l! Zavod sol! Fabrika och! Besh minglab, o'n minglab rabochiy ishlat! Milliy sanoatni rivojlantir!» deydi. «Vaqt» gazetasining mutasaddisi kim? — Romeyev. Bilasizmi, u kim? — U millionchi. Tilla konlari bor. Jadidlardan qo'rqmang.

Millatni biling, taning, unga xizmat qiling. Shu bilan siz ham jadidsiz. Nomingiz tarix betlariga yoziladi. Kim pul topma, deydi sizga? Mana, men; Finlandiyada magazinim bor, Peterburgda magazinim bor: har yil yarmarkaga borib ish qilaman. Fransiyada Lion, Germaniyada Hamburg shaharlariga boraman. Teri, mo'yna, mahalliy sanoat mollarini o'tkazaman. Dunyoning pulini topaman. Faqat mening o'g'lim — uloqchi ot minib, poygalarda yurmaydi, mendan pul olib, qimor o'ynamaydi, mening topganimni besoqolga, fohishaga bermaydi. O'qiydi, bilim oladi, odam bo'ladi, madaniyat kasb etadi. Bir ukam — Finlandiyada Xelsingfors gimnaziyasining 5-sinfida. Bir ukam Ufada mashhur Oliya madrasasida. Akamning bir o'g'li — Toshkent real maktabida. O'z o'g'lim hali kichik bola, Finlandiyada, maxsus muallim solib berganman, o'qiydi...

Endi bu jadidning gapdan to'xtashini istamay qoldim...

M a r y a m.

«Jakob meni unutdi. U, haligi sartning afsuni ostiga tushdi. Nima qilaman men? Xayr, mayli, chidayman. Madaniy Jakob, albatta, til bilmas, yovvoyi, aziat Jakobdan yaxshiroq. U meni handaqdan tortib chiqardi, endi mening sababim bilan o'zi ham madaniy odam bo'lib ketsa, qanday yaxshi!

Faqat, zerikdim. Kitob oldim. Jurnal oldim. O'qidim... O'qiyman... bo'lmaydi. Yo'l uzoq. Yaknav manzaralar... Zerikishdan bo'g'ilaman. Jakobning bo'yniga osilib bo'g'sam, deyman!

Nihoyat, bir rus xotin bilan tanishdim. Eri Toshkent shahrida advokat ekan. Onalarini ko'rgali Moskvaga ketayotir. Endi menga ham so'zlashadigan odam topilib qoldi. Birinchi, ikkinchi, uchinchi, va h. k. gaplarimiz... sevgi to'g'risida bo'ldi!»

J a k o b.

«Qiziq: gap degan narsa shuncha ta'sirlik bo'ladimi? Kechagina men «jadid» degan so'zni eshitsam, belim qayishardim. Yurtimizning katta, obro'li, eslik odamlari hammasi jadidlarni yoqtirmasidi. «Jadid — kofirning ashaddiysi», derdi Shahobiddin domla. Gazet o'qiy tur-

gan bitta mullabachchani madrasadan rasvo qilib haydagan edi. Shahardagi katta boylarimiz bo'lsa, ular to'g'risida «tirranchalar», «haromilar» demasa, gapirolmasdi.

Mana, men endi jadidni ko'rib o'tiribman. Erta-kech gapiga quloq solaman, qulog'imni uning og'zidan uzib ololmayman... Bir yomon joyini ko'rganim yo'q. Gaplari hammasi ma'qul. Birovning mol-mulkiga chang sola turganga o'xshamaydi... O'zi ham badavlat odam. Halol kasb qilib pul topishni, dunyo orttirishni bilar ekan... Bu yomonmi?

Agar jadid shunday bo'lsa, men ham jadidman... Fursatni to'g'ri keltirib turib:

— Imperiya nima degani? — deb so'radim.

— Nega so'rab yotibsiz? — dedi.

— O'zingiz bilgan amaldor oshnam bir kun «Imperiya botib boradi», dedi, shunda juda xafa bo'lib gapirdi.

— Uning imperiya degani o'ris podshosining qo'l ostidagi yurtlar. Unda har qaysi millatdan bor, shu qatorda biz sho'rliklar ham bormiz. Ular, urush muvaffaqiyatsiz bitsa (shu so'zini tushunolmadim), o'sha yurtlarning parcha-parcha bo'lib bo'linib ketishidan qo'rqadilar. Rusiyani, shu quloch yetmas keng o'lkani, qilich kuchi bilan, qozoq o'risning nayzasi bilan qo'rqitib, butun holida qiyomatgacha ushlab qolmoq istaydilar. Sog'in sigirni kim istamaydi? Oppoq, shirin suti bor...

— Nimaning suti bor? — deb so'radim men.

Kuldi.

— Siz-biz sog'in sigirmiz, bizning shirin sutimiz bor, ruslar va boshqa ajnabiylar bizni emib yotadilar. Bir biz emas. Qarangiz; Hindiston, Sharqiy Turkiston, Tunis, Jazoyir, Mag'ribiston, ya'ni Marokash... Misr ham Angliya qo'liga kirib bitdi. Endi asta-asta Turkiyani bo'layotirlar. Butun islom olami, musulmon o'lkalari birma-bir ajnabiylar qo'liga o'tayotir. Qarangiz Eronni, bir tomondan, bizning Ivanlar, bir tomondan, «Makkor Albiyon» o'z nufuzlari ostiga oldilar.

U gapiradi, gapiradi. Men ham hayron bo'laman. Muncha nomlarni qaydan biladi? Hammasi qandoq qilib

esida turadi? Hammasini o'z ko'zi bilan ko'rganmi? Yo meni laqillatib, o'z ichidan chiqarib aytadimi? Hali Finlandiyada bir shaharning nomini aytdi, til o'lgurni bir munday enga keltirib aytib bo'lmaydi... Har qalay, bu xotin menga hech narsa bermaganda ham roziman. Ko'zimni to'sib yotgan pardalarni olib tashladi-ku.

... Faqat Maryam allaqaysi bir uyda bir xotin bilan tanishib olib, bizga o'xshagan suhbat boshladi. Bir xabar olib qo'yay, suhbatlariga birorta begona erkak oralamadimikin?

— Men bir xotinimdan xabar olib kelay! — dedim. Yonidan jildim.

Borsam, Maryam kitob o'qib yotibdi, narigi diqqat bilan quloq soladi. Bir erkak bor, yuqori so'rida uxlab yotadi. Xayr, mayli, zerikmasin, bechora Maryam.

Yana jadidning yoniga qaytdim. U, birdaniga so'rab qoldi:

— Sizning musulmon xotiningiz ham bormi?!

— Bor... yo'q, yanglishdim: bor edi...

— Har holda musulmon xotin bilan turib ko'rgansiz-ku?

— Ha... albatta.

— Endi, mana, tarbiyaning nimaligini o'z tajribangiz bilan bilasiz. Tarbiyasiz, ongsiz va nodon musulmon xotin bilan tarbiyalik madaniy ovro'palikni solishtirib ko'rasiz. Farq yer bilan osmon qadar! Darhol bilinadi.

— Hali ham o'g'limni o'ris maktabiga beraman, deb qo'ydim.

— Bu fikringiz xato. Ibtidoiy tarbiyani rus maktablaridan boshlab bo'lmaydi, uni milliy maktablarda berish kerak. Ilgari milliy hissini o'stirib, o'z millatini tanigandan keyin rus maktabiga berish kerakki, hunarga, ixtisosga tegishli ilmlarni o'qisin. (Bu odamning gaplarida shunaqa men anglamaydigan so'zlar ko'p: u o'zi o'ylamasdan gapirib keta beradi. Tez-tez to'xtatib so'rashga men uyalaman. Ba'zi so'zlarni anglamasam-da, hamma gaplarini anglayman. Gazet o'qiy bersam, tushunib ketarman). Undan keyin Germaniya, Fransiya, Angliya mamlakatlariga, hatto dunyoning narigi chekkasidagi Amerikaga yuborib o'qitish kerak...

— O'ruslarning o'zida ham ilm ko'p, shekilli-ku, nariga yuborish nimaga kerak?

— O'ruslarda ilm ko'p. O'ruslar mutaraqqiy millat. Lekin ular o'zlari ham asl ilmni o'sha yoqdan oladilar.

— Shundaymi?

— Shunday. Mana bu urush tugasin. Finlandiyaga bir keling. Undan nari birgalashib Germaniyaga boramiz, Fransiyani ko'ramiz, Angliyani tomosha qilib kelamiz. Shundan keyin jadidlarning nima demoqchi bo'lganini bilasiz...

— Men hali ham sizning gaplaringizga qoyil kelib o'tiribman...

— Qoyil kelgan bo'lsangiz, millatga xizmat qilingiz, g'aflatda qolgan xalqni uyg'otingiz, yangi maktablar ochingiz! Bolalaringizni yangicha o'qitingiz.

— Albatta, albatta. Bundan keyin shunday qilaman endi. Ko'zim ochildi... men ham taraqqiy qilib qoldim... Millatni odam qilishga urinaman endi...

— Habbarakalla! Siz Abdisamat mingboshi deganni taniysizmi?

— O'zimizning Abdisamat kalmi? Taniyman. Qishlog'i bizga yaqin.

— Ana, haqiqiy millat xodimi o'sha! Hamma mingboshi va amaldorlarimiz o'sha odamga o'xshasa, millat tez taraqqiy qilardi.

— Qizlarini yangicha o'qitadi, deb eshitaman.

— Qizlarini yangicha o'qitish uchun Ufadan maxsus muallima oldirgan. Hozir o'sha muallimaga o'z uyida yangicha qizlar maktabi ochib bermoqchi bo'libdi. Yaqinda yuqoriga ariza berib, «usuli jadid» maktabi ochishga ruxsat oldi. Toshkentdan biz muallim jo'natdik. U odam millatning otasi. Hammamizning otamiz! Ko'rsangiz, salom ayting. Hamma jadidning orzusi o'sha odamni bir ko'rish!

Maryam chaqirdi. Bilmadim, nima gap? Bu to'yilmas suhbatni bo'lib chopdim».

M a r ya m.

«Qarta o'ynab-o'ynab zerikdim. Jakob mendan tamom kechib yubordi... Jonimdan yomon ko'raman u madaniy sartni! Yer yutsin uni!

Qartadan fol ochsam, bir-bir ketin «baxtsizlik» (neschaste) chiqadi. Qo'rqib qoldim. Demak, mening Jakobimni tortib olajaklar! Madaniyatdan yomon narsa bormi ekan dunyoda? Hatto madaniylashgan sart ham ertadan-kechgacha valdirashdan bo'shamas ekan...

Chidayolmadim. Chaqirdim. Kelsa, chinakam gaplashib, masalani hal qilaman. Ana, kelayotir... keldi. Jakob!!»

J a k o b.

«O'yga kelib kirishim bilan, Jakob, — deb bo'ynimga osildi. Eshik ochiq, hammaning ko'zi bizda! Ana, ho'ngrab yig'lay boshladi!

Boshimga balo bo'ladiganga o'xshaydi. Mening fikrim hozir boshqa yoqlarda, boshqa ko'chalarda. Maryam muni bilmaydi... Har qalay, silab-siypab yupatdim. «Biz ozdan so'ng qaytib kelib, tuni bo'yi sen bilan gaplashib o'tiraman», dedim. Kulimsiradi...

Yo'q, shu kulimsirashidan kechib ketolmayman!»

M a r y a m.

«Hech narsa deyolmadim, tilim tutildi... Bo'yniga osilib yig'ladim. Erkalatib, yupatib, va'da berib ketdi».

J a k o b.

«Moskvada bir-ikki kun to'xtaymiz. Shu vaqtda Maryam masalasini bir yog'liq qilish kerak. Shunga jazm qildim. Ungacha Maryamni yupatib borish kerak.

Maryam masalasi — kichkina masala. U oson hal bo'ladi. Ammo miyamda paydo bo'lgan fikrlar meni qayerga olib boradi? Shunga hayronman».

M a r y a m.

«Jakobchikning menga muomilasi o'zgardi. Qanday baxtliman! Faqat... «U mening kimim, nimam? Uni men sevamanmi?» degan savollar miyamni tintalaydi. Keyingi savolning javobini o'zim berishim kerak. Endi bu to'g'rida qat'iy bir fikr aytadigan vaqt keldi. Soddalik bas endi! Bir narsa deyishim kerak. «Sevamanmi, yo'qmi?» O'zimga beradigan javobim Moskvagacha berilmagi lozim!»

J a k o b.

«Orenburgdan jo'nab edik, shirin so'zlik «jadid» shaharni ko'rsatdi. Qaradim. Shahar orqada qolgan edi...

— Bu yerda bir madrasa bor. Nomini Husayniya deydilar. Uch qavat ovro'pacha imorat. Unda jadid ilmlari o'qiladi. Bilasizmi, uni kim soldirgan? Jadidlarning eng katta otaxonlaridan Ahmadboy Husainov... Juda boy odam edi. Usuli jadid maktablariga ko'p pul sarf qildi. Millatga qilgan xizmati sanoqsiz... Bizda ham shunday boylar bo'lsa? Andijonda Mirkomilboy bor. Eshitgandirsiz? Millat yo'liga bir chaqa bermaydi. Johil!..»

Temir ko'prikdan o'tib, daraxtzor ichiga kirdik. O'rmon daraxtlari sarg'aya boshlagan edi.

— Menga qarang, — dedim men, — jadidlar ham: «Boylarning yer-suvi olinsin», der emish-ku? Birov menga shunday dedi, juda ishontirib aytdi!

— Yo'q, yo'q! Aslo. Ilgari ham aytib edim-ku: ular, sotsialistlar. Jadidlar sotsialist emas. Aslo! Aslo! Endigina Ahmadboy Husainov to'g'risida gapirdim. Shunday odam jadidlarning otasi sanaladi...

— Unday bo'lsa, juda yaxshi, — deb qo'ydim men.

— Ori, rost, jadid. — Ilgari jadidlar orasida ham haligi aytganingizdek, sotsialist bo'lib yurganlar bor edi. Chunonchi, tatarlardan Ayoz Ishoqiy. U bir necha yil burun boylarga qarab ayyohannos tortardi. Hozir Moskvada boylardan yordam olib, gazet chiqaradi. Xolisanlillo millatga xizmat qiladi... Moskvaga borsangiz, o'sha gazetni topib o'qing... «So'z» gazeti... juda yaxshi gazet!

Ko'nglim bir muncha tinchlandi. Jadidlarga endi ishonib qoldim. Ulardan yolg'onchi chiqmaydi. Yaxshi odamlar!

Maryamga va'dam bor edi, vagonda chirog'lar yoqilgach, xayrlashib, uyimga ketdim».

M a r y a m.

«Bu kecha Jakob men bilan bo'ldi. Chala-chulpa u gapirdi — men angladim, chin ko'ngildan men gapirdim — u angladi. Anglashdik. Qanday baxtliman men! Hech shubha yo'qki, Jakobning o'xshovsiz ko'zlari bor... qop-qora, o'ynoq, jonli! Yo'q! Men u ko'zlardan kechib ketolmayman!..

Nima bu? Iqrorimmi? Sevganimni iqror qildimmi shu bilan? Sevamanmi men uni?

Sevamanmi?

Yo'qmi?

. . . . . .

Sevaman!

Lekin... u sevmasa?

Mendan oladiganini olib, qo'limga chek uzatsa?

Muni o'ylashdan ham qo'rqaman!

Lekin...

Sevishga haqqim bor!

Sevaman!

Narisini bilmayman!..»

J a k o b.

«Jadid yana Maryam masalasiga to'xtaldi. Ko'p gapirdi.

— Yurtingizda qolgan bolalaringizning tarbiyasini shu xotiningizga topshiring! Odam bo'ladi ular.

— Milliy maktabda o'qimaganlar-ku? — dedim.

— Unday bo'lsa, davlatingiz bor, xususiy bir muallim yo muallima oling. Tez bo'ladi. Siz agar Qrimga borsangiz, Boqchasaroy degan yerga tushing. «Tarjumon» gazetasini izlab toping. O'sha yerdagi ustodlar bilan gaplashing. Balki muallim, muallima xususida sizga yordam beradilar, yo'l ko'rsatadilar.

Qo'limga gazetning nomini yozib berdi. Musulmoncha xati xunuk ekan... Maryam masalasini Moskvada hal qilishga to'g'ri keladi. Yangi ko'rishgan kunim chizilgan rejalar buzildi... Endi uni Moskvaga tashlab, o'zim yana o'z yurtimga qaytib ketsam-mi? Jadidning so'zlari meni qo'zg'atib qo'ydi, uning so'zlarini men ham boshqalarga xuddi o'shaning o'zidan chiroylik va ta'sirlik qilib gapirsam, deyman. Odamlarning ko'zini ochsam, deyman.

Yo'q... bo'lmaydi. Maryamni tashlab ketish qo'limdan kelmaydi. Shoshma, jadid domla ham Maryam to'g'risida ko'p narsalar dedi-ku! «Millat onalari yetkazish uchun g'ayrimillatning onalaridan o'rnak olaylik», dedi. Hali Maryamning o'rnak bo'lishi bor... Yo'q, uni tashlab bo'lmas.

Qani, Moskvaga boraylik-chi. Ertaning g'amini eshak yeydi. Ana, Moskva atrofidagi yozloqlar ham bir-bir ketin o'ta boshladilar».

M a r y a m.

«Moskvaga yaqinlashib kelamiz. Ana, dachalar... baland imoratlar... katta shahar...

Faqat ko'nglimni bir qistov, bir xafalik changallaydi. Allanarsaning belgisiz tashvishi, andishasi bor...

Nima u?

Ayriliq!

Yo'q, men ayrilib ketolmayman!»

J a k o b.

«Ozoda musofirxonalardan biriga tushdik. Ikkimiz ikki xonadamiz. Maryamning ko'zlarida haqorat qilingan bir qarash pirpiraydi. Bechora...

Jadid ketdi. U bilan vagonning o'zida xayrlashdim. Shundan keyin ko'rmadim. Endi, uning shirin ovozi qulog'imdan yiroqlashgach, ta'sirli so'zlarining shoshilish oqimi uzilgach... u so'zlarni es tarozisida solib ko'rayotirman.

Rostmi u gaplar? Yolg'on emasmi? Bir musulmon odamni din yo'lidan, ota-bobolar, burungilar yo'lidan chiqarish uchun g'ayridinlar tomonidan qurilgan tuzoq emasmi? Bu yigit namoz-niyozni bilmaydi. Qiyofatida musulmonlik asari yo'q... Domlalarimizning aytganlari rostmi ekan? Nega men u yigit bilan bahs qilishmadim?

Yo'q, u bilan bahslashib bo'lmaydi. Uning gaplariga gap topib javob berish qiyin. Uning gaplariga hech kim javob aytolmaydi.

Qani, ko'raylik, nima bo'lar ekan. Qrimga bormay ilojim yo'q. Men Maryam uchun bo'lsa ham boraman. U yerda jadidlarning kattalari bor emish. Ularni ko'raman, gaplashaman. Agar jadidlarning asosi puch bo'lsa, «Xalifayi Rum» jadidlarga tarafdor bo'larmidi? Hamma tartib, nizom o'sha tomonda, deydi-ku. Yangicha o'qish Rumdan kelgan... kalta kiyim Rumdan chiqqan... Rumcha yoqalar o'sha tomondan kelib, rasm bo'lgan...

G'alati ahvolga tushib qoldim men. Miyam g'ovlab ketmasa, deb qo'rqaman. Ilgari tinchgina pul topishimni bilardim. Ota-bobomiz yurgan yo'ldan bora berardim.

Endi allakim chiqib, «Ota-bobolarimning yo'l egri edi, to'g'ri yo'l bu yoqda!» deydi. Odam ishonadigan qilib aytadi.

Shu ikki yo'ldan birini tanlab olishim kerak. Birdanga ikki yo'ldan yurib bo'lmaydi.

Yana jadidlar bilan ko'p so'zlashmoq kerak. Gazet o'qish kerak. Har kun-har kun yangi-yangi gazetlarni o'qish kerak. «Moskvada yaxshi gazet bor», degan edi, shuni axtarib topay. Yangicha kitoblar topib olib, ularni ham tatalab ko'ray.

Mayli, ishqilib ko'zim ochilsin. Bilmagan narsalarni bilay. Ko'p narsa o'rganay. «Bilgan bilmagandan yaxshi», deydi jadid. Mana bu gap — haq lekin!»

M a r y a m.

«Moskvagacha Jakob men bilan bo'ldi. Muomilasi butunlay o'zgardi. Qarta, o'lgur, aldadimikin? O'zim yanglish ochdimmi? Yo teskarisiga aytadigan qartamikan?

Faqat, nima uchun nomerda ikkovimiz ikki xonaga tushdik?? Demak, Jakob men bilan ayrilishmoq istaydi. Agar ko'nglida muhabbat bo'lsaydi — shaharda uch kecha birga bo'ldik, yo'lda olti kechani birga o'tkazdik— menga yaqinlashardi.

Men qarshimanmi yaqinlashsa? Yo pul berish kerak, deb qo'rqarmikin? Men hozir pul degan narsani o'ylamayman. Istasa, o'z pullarimni ham beraman. Faqat haydamasa bo'ldi!

Men shoshib qoldim. Nima qilishimni bilmayman. Bu Jakob juda berk odam, hech narsaga tushunib bo'lmaydi. Yaponlarni shunday bo'ladi, derdilar. Bu ham Osiyo bolasi emasmi? Hammasi bir balo!..

Xo'p... ikkimiz bir xonaga ham tushdik, u kelib meni o'pdi ham deylik... quchoqladi ham deylik... Albatta, u holda men o'zimni tutolmayman... u ham tutolmaydi...

Faqat natija? Natija nima bo'ladi? Odatda erkaklar shundan so'ng sovunadilar. Bu ham sovunsa... Qo'limga chek uzatsa... Xayr-ma'zur, degani bo'ladimi? Yo'q, yo'q! Cheki qursin! Puli qursin! Istamayman!..

Chora nima, chora? Bilmayman...

Menda nima ixtiyor? Meni sotib olgan u, pul unda... Ixtiyor unda... O'shaning og'ziga qarayman-da. Ket, dermikin o'sha og'iz? A?!»

J a k o b.

«Qrim sanatoriyasidan ikkitasining adresini oldim: «Ikki kishilik joy bormi?» deb telegramm bermoqchiman. Telegrammni yozdiray, deb edim, bo'lmadi... Chunki, ikki joymi, bir joymi?

Ilgari Maryam masalasini hal qilish kerak. Men uchun-ku, u masala hal bo'lgan, faqat u nima deydi? Hozir borib to'ppa-to'g'risini so'rasammi? So'ray. Yo'q! So'z bilan so'rash bo'lmaydi... Qani mening chek daftarim? Ha, mana. O'ruscha yozishni bilmayman-ku. Bo'lmasa, sifrini yozib, tagiga qo'l qo'yay... bo'ldi!»

M a r y a m.

«Jakobni kuni bo'yi ko'rmadim. Ovqatdan keyin o'z uyiga chiqib ketdi. Anchagacha kutib o'tirdim, kirmadi. Nima bo'ladi bu ishlarning oxiri? Men haydaladigan bo'ldimmi? O'zini bu qadar chetga olishidan, og'ir o'ychanligidan qo'rqaman.

Soat necha? Ho'h-ho'... 11 ga yaqinlashibdi. Kech kirganda, yomon uxlabman. Jakob yotib qolgandir endi? Erta bilangacha yana judolik!

Endi o'rmimdan tursam... bir vannaxonaga chiqib... yaxshilab yuvinsam, undan keyin bir narsa yeb... pastga tushsam... Zerikdim. Baxtim yo'q mening!

Xazon vaqti... tabiat asta-sekin o'lib boradi... Shunday-da, mening o'luk ko'nglim tirildi. Yana o'lish uchunmi?..

. . . . . .

Bir yaxshi sovuq suvki!.. Rohatlar qildim. Bu nima? Yo tavba! Men chiqib ketgandan keyin Jakob kirganga o'xshaydi...

Chek! Tamom! Sho'rim quridi...»

J a k o b.

«Bir quchoq gazet olib kelib o'qidim. Tili g'alizroq... tez charchayman. Shu kecha Maryam bilan birga yotib, erta bilan qo'liga chekni beray, deb edim, keyin mulohaza qildim: mundan — «Ishing bitdi. Xayr endi!» degan narsani anglamasin, dedim.

Chekni avval berdim. Anglarmikan? Bir ozdan so'ng uyimni qulflab, yoniga boraman».

M a r y a m.

«Qancha yig'lasam, shuncha darmonim quriydi. Qrim sayohati peshonamga yozilmagan ekan. Bir kecha-ikki kecha «ket», deguncha birga bo'laman. Mendan oladiganini oladi... So'ngra pulni olib chiqib ketaman. Yana burungi hulya: Petrograd, Germaniya... aka. Faqat u hulyadan shu qadar qo'rqamanki!

Nima qilay, sart yigiti yo'ldan urdi. «Sart xotiningni tashlama!» dedi shekilli, tag'in ziyoli. Iblis!

Men qarorimni berdim, qat'iy qaror: men uni sevaman. U meni quvayotir. Mayli, bir-ikki kun tamoman meniki bo'ladi. Sevgan odamim bilan ikki qiyomat kechasi o'tkazganman, deb shunga quvonib yurarman! Bo'ldi!

— Tuxum qovurmasimi? Mayli, bering. Bir shisha portveyn ham qo'shib keltiring! — dedim xizmatkorga.

Oh, may! Ko'nglimda bir nash'a paydo bo'ldi. Negadir sevinaman. Eshikni chertdilar. Kim u? Jakob!..»

J a k o b.

«Kirganimda, kechki ovqatni yeb bo'lgan ekan. May ham ichibdi. O'zi xursand! Tushunganga o'xshaydi. Shunda ham shoshilmoqchi emasman. Ilgari bir oldidan o'tib, ba'zi vazifalarni bo'yniga qo'yish kerak, deb bilaman. Turib kelib, bo'ynimga osildi. Mastlik bilan juda qattiq jinnilarcha osildi. Men ham muqobala qildim... Faqat bir ozdan so'ng qo'lini bo'ynimdan olib qo'yib:

— O'tir, — dedim.

— «Meni quvma, Jakob! — dedi. — Men senga bir-ikki kechalik mehmonman! Shu ikki kechaning ixtiyori menda! Men jinlanganman, men o'tman, olovman! Qarshi kelma menga!»

Kuldim.

— Men senga xotin bo'l, deb taklif qilmoqchiman. Sen nega mehmonman, deysan? Yo men bilan birga yashashni istamaysanmi?

Rangi o'chdi. Ko'zlari yoshlandi. Qaltiroq bosdi. Nafasi ichiga tushdi. Yoniga o'tib erkalatdim. So'ngra o'ziga keldi.

— O'ngimmi, tushimmi? — dedi. — Rost aytasanmi? Yo hazilmi? Munaqa hazillar odamning o'lishiga sabab bo'ladi, Jakob!

— Bilasanmi, Maryam, mening ikki qizim, bir o'g'lim bor.

— Bo'lsin.

— Katta qizim 12 da, qolganlari undan kichik...

— Juda yaxshi.

— Bolalarning saodati uchun xotinga javob berishga to'g'ri keladi. Boshqa chora yo'q. Qizlarni-ku bermas, o'g'limni olaman-u, tarbiyasini senga topshiraman. Nima deysan?

«Rost aytasanmi», deganni qilib, ko'zimga qaradi. Men «rost» degan ma'noda bosh tebratdim.

— Men senikiman. Nima desang shu!

Ikki kishilik joy so'rab, sanatoriyaga shoshilish telegramm jo'natdim. Deraza yonidagi keng va yumshoq kursiga o'zimni tashladim.

— Endi meniki bo'ldingmi, Maryam? — dedim.

Totli-totli kulimsirab kelib, qarshimda to'xtadi:

— Ko'rishgan kunimizdan beri! — dedi.

O'zi juda sokin va yuvosh edi. Telbalarcha quturishlari ko'rinmasidi. Ko'p intizorlikdan so'ng sevganiga qovushadigan haroratli juvonga o'xshamasdi. Nechundir ko'pdan beri er bilan yashab kelgan bir oila xotinining sokinligi boridi. Iliq sokinlik...

— Tugmani bos, — dedim.

Xizmatchi keldi, soat 11 bo'lib qolganiga qaramasdan, vannani qizitishga buyurdim. Nomer xalqi pulni yaxshi ko'radi. Bitta uch so'mlikni olib, bir nafasda hozir qildi. Maryamning pardozi uzoq ketishini bilganim uchun bemalol yuvinib chiqdim. Men chiqquncha Maryam kiyinib bo'lgan edi.

— Soat necha? — deb so'radim.

— 12 dan bir oz o'tibdi.

— Qani, yur bo'lmasa!

Ko'zlari olaydi!

— Qayerga? Yarim kechada-ya?

— Yura ber, sen menikisan.

Yana totli-totli kuldi. Maskovda no'g'oylarning ma-

chiti borligini toshkentlik yigitdan eshitgan edim. U yigit shuni ayta turib ham jadidligini qildi: «Ko'rdingizmi, — dedi, — dinli bo'lish libosga qaramaydi. Bizning johil ulamo kimning salla-choponi bo'lsa, musulmon, deydi. Holbuki, musulmonlik kiyimda emas, qalbda, dilda. Rus tilida bo'lsa ham besh vaqt namozlarini tark qilmayturgan musulmonlar bor.

Yarim kechada biz — ikki telba ta'qibdan qochgan o'g'riday Maskov ko'chalarida ot qo'yib ketdik.

Imomni uyg'otib chiqdilar.

— Nikoh, hazrat, — dedim, no'g'oylar domlalarni «hazrat», der ekanlar.

Bir menga, bir unga qaradi.

— Siz-ku musulmonsiz, bilaman. Bu xonim musulmonmi, yo'qmi? — deb so'radi.

— Hali-hozircha yo'q.

— Qanday bo'lar ekan?

Uyquli ko'zlari bilan menga qaradi. Bitta o'n so'mlikni uzatdim:

— Musulmonchilik — asta-sekinlik, hazrat. Asta-asta yo'lga solib olamiz.

Pulni olib, doktorlar singari qaramasdan, kissasiga soldi:

— Voqean, — dedi hazrat, — shariatda ham javob bor-ku-ya...

Ko'p o'tmasdan, so'fini chaqirib chiqdi. Uni shohid qilib turib, nikohimizni o'qidi. So'figa ham bir narsa berdik. Shu bilan mening nomim o'zicha qolib, yangi xotinimning nomi «Bibi Maryam Oysha qizi» bo'ldi...

Oysha qizi bilan er-xotin bo'lib uyga qaytgan vaqtimizda, soat ikkiga yaqinlashib kelardi».

M a r y a m.

«Yo rabbiy! Nikoh o'qitib keldik, nikoh! Men agar boshim aylanib yiqilsam, hech bir taajjub qiladigan joyi yo'q. Mundan bir necha soat burun ko'z oldimda o'limdan boshqa hech narsa ko'rinmasdi. Ko'zimdagi tuman boshqa narsani ko'rsatmas edi. Holbuki, hali yosh edim va yashamoq istardim!»

Endi — nikoh! Nikohli er! Manfur botqoqdan abadiy qutulish!

Faqat... qanday nikoh? Boshqa begona bir dinning haddan tashqari sodda va, o'z ummatlari singari, vahshiy nikohi...

Na jilo, na porloqlik! Na savlat, na hasham! Hind faqiri qadar sodda va yalang'och... O'chgan yonar tog'lar kabi nursiz va ziyosiz. Eskirgan kema kabi ravnaqsiz va ayanch...

Yo'q! Yo'q! Yo'q! Bu, balki, hamma uchun — shunday. Ammo men uchun... men uchun: undan issiq, undan yorug', undan porloq va muhtasham nikoh yo'q! Endi hamma iztiroblar — orqada, hamma qora kunlar — o'tdi. Endi u — meniki, o'zimniki!»

J a k o b.

«Mana, Maryam endi meniki bo'ldi. O'zimniki, o'zimdan boshqaga tirnog'i ham tegmaydi. Ana u aytgandek, dushmanning bu fitnachi qizini qo'ynimga olarkan, uning hali hech bir qondirilmagan, chanqoq va qizg'in lablariga lablarimni qo'yarkan, millatni, uning johil onalarini, bechora qizim, singlim va opalarimni o'ylashim kerak...

Odamning nafasi shunaqa o'tkirmi? Bir xushmo'ylov toshkentlik to'rt kunda meni boshqa ko'chalarga burib yubordi! Men hali puxta jadid bo'lganim yo'q... Jadidlar to'g'risida gumonlarim yo'q emas. Lekin ko'nglim o'sha tomonga moyil bo'lib qoldi. Men ham endi «millat odam bo'lsin!» deyman. «Ota-bobolar yo'li haq», deyishga endi tilim bormaydi. Jadidlarni ham «bular — haq!» deb ochiq aytolmayman... Ammo jadidlarning deganlarini boshqalarning deganlaridan ko'ra osonroq va tezroq anglayman... Yo ular o'zlari shunaqa chechan odamlarmikan? Bizning Shahobiddin domla to'rt og'iz gapirguncha odamni sil qilib yuboradi. U gapirganda — o'z gapiga o'zi ham ishonolmaganday gapiradi... Hech bir ta'siri yo'q!

Yo'q, bizning musulmonlar ham endi tartib, nizomga tushmasalar bo'lmaydi!

Maryamning ko'zlarida g'alati bir olov yonadi. Shu topda, shu ko'zga jon bersam arziydi. Bir hafta-o'n kun burun nomerda — ko'p qatori — tasarruf qilgan bo'lsam, bugun qanday asar qolardi? Hech qanday! Akbarali

nechtasini tasarruf qildi? Behisob! O'zim ham behisob tasarruf qilganman. Bugun bir asari bormi? Yo'q! Qo'l yuvib to'kilgan suvday, izsiz-asarsiz o'tdi-ketdi hammasi... Bu-chi? Bu qanoat orqasida qo'lga kelgan davlat! Bu, xushmo'ylov yigit aytganday, millat bolalariga haqiqiy onalar qozonish yo'lini ko'rsatadi. Bu millatga xizmatning boshi, boshlanishi!..»

M a r y a m.

«Jakob fonarni o'chirgan edi, men yana yoqdim. Bu daf'a u hayron bo'ldi: uning ko'z oldida boyagi chekni mayda-mayda qilib yirtdim. U peshonamdan yumshoq-qina bir o'pib qo'ydi. Shundan keyin fonar endi bu kecha yonmaydigan bo'lib o'chdi. Tashqarida telba shamol quturardi... Mayli, qutursin, menga nima!..»

XIII

Sultonxon...

Zebining mingboshiga unashilganini eshitgandan keyin Sultonxon har narsadan umidini uzgan edi. O'sha kunning o'zidayoq masalani ko'ndalang qilib qo'ydi.

— Men chiqaman mingboshidan! — dedi onasiga. — Boshqa erga tegaman. Ustimga kundosh kelishiga tobim yo'q.

— Bir oz bardosh qil, qizim.

— Bardoshi nimasi? Poshshaxon necha yildan beri bardosh qilib, yosh umrini chiritdi. O'sha badbashara kuyovning yuzini ham besh oygina to'yib ko'rgan emas!

— O'shalar ham qanoat qilib o'tiribdi-ku, qizim.

— Ular esini yegan bo'lsalar, men yeganim yo'q! Mening esim bor. Umr degan bir keladi. Yoshlik ham bir keladi. Ular ham umrlarini, ham yoshliklarini o'z qo'llari bilan o'tga tashlar ekanlar, men ham shu jinnilikni qilaymi? Men yoshman!

— Nima qilaylik bo'lmasa?

— Otamga ayting. Chiqarib olsin.

— Otang xafa bo'larmikin?

— Xafa bo'lsa, chiqarib olmasa, mendan koyimasin. Shunday ishlarni qilayki, boshini ko'tarib yurolmaydigan bo'lsin!

— Hay, unday dema, qizim. Yaxshi niyat qil.

— Niyatim yaxshi. Sevmaydigan erdan chiqib sevadiganiga tegaman, deyman. Nimasi yomon? Ikkita opam bir yaxshi, o'z tengi bilan umr qilib o'tiribdi-ku. Mening aybim nima? Ertagacha otamdan javob olib bering. Bo'lmasa, hammangizni yerga qarataman!

Zarda qilib o'rnidan turdi va kavishini naridan beri oyog'iga ilib, onasi yonidan chiqa boshladi. Bu bir do'q edi.

— Jinni bo'lma, qizim, — deb qichqirdi onasi orqasidan. — Bugunoq gaplashaman otang bilan. Tepa soching tik bo'lmay tursin!

— Ertaga javob kutaman! — degan ovoz keldi yiroqdan.

Ayb Sadriddin cho'loqning o'zida edi. Tevarak-atrofdan ko'p sovchi chiqdi bu qizga. Hammasini qaytardi. Ba'zilariga qiz o'zi ham roziydi, onasi ham yo'q demasdi. «Yo'q, — dedi Sadri cho'loq, — ikki qizimni qishloqiga berdim, bittasini shaharlikka beraman. Juda loyiq, qobil joyini topib, badavlat, obro'lik odamga beraman!» Qizning yoshi o'n yettidan o'tganda, ona tashvishlandi: «Nimaga shaharlikka beraman, deysiz? Qizning yoshi o'n sakkizga ketdi. Bekor qaritib qo'yasiz!» Bunga qarshi o'jar cho'loq: «Avval quda qilib, keyincha o'zim ham shaharga ko'chmoqchiman», deb javob berdi. Xullas, uning o'jarligini yengolmadilar. Qiz chiroylik, oppoq, do'ndiq va ta'rifli bo'lganidan cho'loqning bu katta umidi ancha davom etdi.Uning bu ahmoqlarcha o'jarligini faqat mingboshining obro'si sindira oldi. Mingboshiga rad javobi berib, uning qo'l ostida tinch turolmasligini bildi va «xo'p» dedi. Mingboshi ta'rifiga qiziqib uni olgandan so'ng, bir kun o'tmasdan, odamlarga «Qari qiz ekan», deb gapirdi... Shunda, Sultonxon ota-onasini qarg'ab, qancha yig'lagan edi.

Hozir qiz 19 ga yetayozdi. Chinakam, mingboshi yangi qayliqni olib, muni butunlay tashlab yubordi. Jabr axir yosh narsaga!

Xotinining ma'qul so'zlarini qaytarolmagan Sadri cho'loq o'z o'rtog'i Abdulla sarkorni mingboshiga vakil qilib yubordi. «Shuncha yil yaxshimi, yomonmi — xiz-

matlarini qildi. Endi yangi kanizaklari bor. Munisiga ruxsat bersalar. Yoshi o'tmay turib, bir joyga bersak».

Sadri cho'loqning elchisiga ham mingboshi Poshshaxonning otasi tomonidan qo'yilgan elchiga bergan javobni berdi. Muning ustiga yana ta'na ham qilib qo'ydi: «Kim olardi endi u kampirni?» Sadri cho'loq bu javobni eshitgandan keyin alamiga chidolmasdan, bir oyog'i bilan dikang-dikang qilsa ham, tishini tishiga qo'yib chidashga majbur edi. Mingboshiga kuchi yetadimi? Shaharga ariza berishi mumkin: «Advokat yaxshi pul olib, yaxshi ariza yozib beradi. Foydasi bo'ladimi? Hamma amaldorning tili bir emasmi? Shuncha ariza berganlar nima qiloldi? Bu zolimning jabriga xudo o'zi xat tortmasa, bandasi nevlaydi!»

Kampir yig'lab yubordi. Yengi bilan ko'z yoshini artarkan:

— Qizning avzoyi buzuq! — dedi. — Mingboshidan chiqarib olmasa, satanglar bilan do'st tutishaman, deydi. Nima qildik endi?

— Nima qilarding? — dedi Sadri cho'loq pastgina ovoz bilan. — Bardosh qilasan, chidaysan. Boshqa iloji yo'q.

— Satanglarnikiga borib dutor-mutorga ilasharmikan? Yosh narsa...

— Yotig'i bilan ayt: mayli endi, vaqtini choq qilib yursa yura tursin, ammo-lekin haddini bilsin, haddini...

Cho'loq o'rnidan turdi.

— Voy, o'la qolay! — dedi kampir. — Sho'rim bor ekan!

Otasi fotiha bermasa ham, yosh juvonga o'z ko'nglini bir ish qilib ovutmoqdan boshqa chora qolmagan edi. Bu to'g'rida unga maslahat ko'rsatadigan mahram o'rtoqlari bo'lmaganidan hamda opalari biri unda, biri bunda sochilib, o'z-o'zlari bilan ovora bo'lganlaridan ovunish yo'llarini qizning o'zi axtarishga majbur. Undan keyin, opalarga ishonib bo'ladimi. Opa — ba'zida do'st, ba'zida — dushman... Singil ham shunday!

Ishni avval o'zi tug'ilgan uyda boshladi. Mingboshinikiga borishni bir yoqqa tashlab qo'yib, har kun o'rtoqlarini to'plar, o'yin-kulgi, dutor, ashula bazm-

lari qilardi. Keyincha ular bilan birga u yoq-bu yoqqa yuradigan bo'ldi. Bular hammasi jonga tekkanda o'tirib yig'lar, so'ngra mingboshinikiga qarab jo'nardi. U yerda ko'proq Umrinisabibinikiga, Enaxonlarnikiga o'tar, qallob baqqolning egizak qizlari bilan dalalarga chiqib o'ynardi.

Zebi kelin bo'lib kelib, birinchi marta shaytonlaganda, yana kurash olovi tutashdi. Umrinisabibining harakati bilan tutqaloq har kun tutadigan bo'ldi. Bechora soddadil Sultonxon hovliqma Umrinisabibining so'zi bilan u tutqaloqlarga anchagacha umid ham bog'lab yurdi. «Mingboshi bir jahli kelsa, haydab soladi yashshamagurni!» deb o'yladi. Rashk olovi bir oz pasayganda, orqa-oldini ham o'ylab ko'radi: «Xo'p, u yashshamagurni haydadi. Yaxshi! Mundan menga nima? Uni haydab, menga qaytarmidi? Yana bittani oladi. Men yana yetim bo'lib yura beraman. Mayli, o'sha yashshamagur bilan bo'la qolsin!» Bu insof ovozini boshqa bir ovoz chiqib bosadi: «Bu ishni qilgan Poshshaxon bilan Xadichaxon. Men u shaharlik qiz bilan olishmayman. Unga adovatim yo'q. Men nomus kuchidan anovi ikkalasi bilan olishaman!» Mana shu ovoz uni ko'p kuchlar sarf qilib, bir necha kun Zebini shaytonlatdirishga majbur qildi.

U ham bir necha kun, xolos...

Chunki bir-ikki kundan keyin o'zi ham bu fikrdan qaytib qolgan edi. Ikkinchi tomondan, ikkala katta kundoshning Zebini yumshatish uchun juda qattiq harakat qilayotganlarini eshitdi. Endi Umrinisabibi bilan uning qizini oyoq bostirmay qo'ydilar. Enaxonga ham katta kundoshlar sovuq muomila qilganlar. U endi kam chiqarmish. O'zi yolg'iz qolgan Zebi qachongacha chidash beroladi?

Shu bilan Sultonxon bu kurashda yengilganiga o'zi-o'ziga iqror bo'ldi. Endi nima qilish kerak? «Yana o'z kayfimga qarayman!» dedi u o'z-o'ziga.

Qandoq qilib «o'z kayfiga qarash» masalasi oson masala emasidi. Endi u masalang «qandoq qilib yosh umrimda orzu-havas ko'rib qolaman», degan shaklda qo'yishga to'g'ri kelardi. Satanglarni uncha ham jini sevmas edi. Uning miyasida boshda chuchmalroq bo'lsa

ham satanglikdan ko'ra yomonroq va mudhishroq qadamlarga tortuvchi xayollar qo'zg'aldi...

Uch kecha, tuni bo'yi uxlamasdan, butun xayoliga zo'r berib, ag'nay-ag'nay o'ylagandan so'ng qat'iy qarorini berdi... va shu bilan tinchlanib, uyquga ketdi. Ertasi kuni peshingacha dang qotib uxlaganini ko'rgan kampir hayron bo'ldi:

— Shunaqa ham uxlaydimi odam degan? Tur, aylanay, bolam.

Ko'zini ochib, bir oz qarab turgach, onasini quchoqladi:

— Oyi, o'ping peshonamdan! Menga insof kirib qoldi. Endi kundoshlarimning yoniga jo'nayman. Ular bilan apoq-chapoq bo'lib yashayman.

— Aylanay, bolam, eslik bolam, kenja bolam! — deb erkalatdi kampir.

O'sha kuni kechlatib, mingboshinikiga jo'nadi.

Hakimjonning Miryoqubga aytgan quyidagi so'zlari to'g'ri edi:

«Endi, birdaniga juda boshqacha bo'lib kelibdi. Darvozadan kulib, quvnab kirib kelgan emish. Hamma hayron, deydi».

Miryoqub ham bekor aytadi, deb bo'lmaydi:

«Xotin kishining ko'nglini xudodan boshqa hech kim bilmaydi. Ishqilib, mundan qo'rquvlik!» degan edi u.

* * *

Ikki katta kundosh dushmanlarining bu xilda o'zgarishi sababini bilolmadilar. Xadichaxon:

— Esini topsa-topgandir, — dedi.

Poshshaxon bu fikrga qo'shilmadi:

— «Tashi yaltiroq, ichi qaltiroq» degan gap bor, — dedi u. — Muning bu kulishidan qo'rqaman! Zebixon bilan muncha apoq-chapoq bo'lishi bekor, deysizmi?

Xadichaxon o'z so'zida qattiq turdi:

— Nima qilsin? Qo'lidan nima keladi? Kuyovingizdan chiqib, boshqa erga tegaman, deb edi, kuyovingiz ko'nmadi. Otasi qizini har qancha yaxshi ko'rsa ham, mingboshi bilan o'chakishuvdan qo'rqadi. Mingboshi bo'lsa, qayrilib ham qaramaydi... Nima

qilsin? Qayerga borsin? Nochor-noiloj o'zini xursand qilib yuradi-da.

— Zebixon bilan apoq-chapoq bo'lganiga nima deysiz? O'zining ashaddiy dushmani?

— U ham noilojlikdan, aylanay. Boshqa iloji yo'q. Undan keyin Zebixon yomon qizmi? Kim o'rtoq bo'lishni xohlamaydi? Xushchaqchaq, bazmbob, ochiq...

— Yo'q, jonim, xom o'ylaysiz. Juda xom o'ylaysiz.

— Ko'rarmiz. Bir kun ma'lum bo'ladi.

— Ha, ko'rarmiz.

Sultonxon bo'lsa, ko'zini to'rt qilib, tashqaridan bironta arizachi xotinning kirib kelishini kutardi. Mingboshiga ariza olib keladigan xotinlar, aksari, qatiq, qaymoq va qovun-tarvuz singari narsalarni ko'tarib kelib, uch kundoshdan qaysi biri uchrasa, shunga yolvoradilar.

— Aylanay, oyimposhsha, shu arizani eringizga berib qo'ying. Nohaqdan bola-bechoraga zulm qilayotirlar... Aylanay, bolam, orzu-havasingizga yeting, bola-chaqa ko'ring, tilagingizni bersin xudoyim!

Mingboshi dodhoning xotinlari munaqa yolvorishlarga juda balanddan turib qarardilar. Arizachi xotinlarning yaxshi tilaklari ularni ko'pda qiziqtirmas edi.

— O'zingiz bering, xola! Biz aralashmaymiz...

— Aylanib ketay, sizdan nima ketadi? Bir og'iz so'z... Bizning qo'limizdan olmaydi.

— O'-o'v... xola! Juda shallaqi narsa ekansiz. O'zi olmasa, mirzasiga bering.

Bechora kampirlar yig'lagunday bo'lib, ichlarida qarg'ay-qarg'ay, chiqib ketardilar.

Mingboshi shoshilish ravishda shaharga chaqirilgan edi. Sultonxon «Arizachi kampirlarning ichkariga qatnashi endi avj oladi», deb kutardi. Hech kim yo'q... Kechgacha hech qayerga chiqmay, dam uyida, dam ayvonda, dam sahnda o'tirib, ko'p kutdi... Hech kim kirib kelmadi. «Nima balo bo'ldi bu arizachilarga?— deb o'ylardi u. — Kerak bo'lmaganda, quloq-miyangni yeydilar. Kerak bo'lganda, jimib ketadilar... Teskari dunyo!»

Nihoyat, asr bilan shom o'rtasida bir kampir kirib keldi. Shu topda ikkala katta kundosh Zebining uyida ovqat ustida edilar.

— Aylanay, bolam, — dedi kampir. — Mingboshi dodhoga arz bilan kelib edim...

— Obbo, yana bitta arizachi keldi. Shulardan to'ydim bu dargohda! — degan ovoz eshitildi Zebining uyidan. Poshshaxonning ovoziydi.

— Qaerdan keldingiz? — dedi Sultonxon va ayvondan pastga tushdi.

— Qo'ya bering, — dedi u yoqdan Xadichaxon. — Kundoshingiz muomila qilayotir. U hali zerikmaganga o'xshaydi.

— Toshloqdan keldim, aylanay. Shuncha joydan piyoda keldim. Qari narsaman.

— O'zingiz kim bo'lasiz?

— Men, aylanay, Qiyomiddin hojining onasi bo'laman. Tanirmikansiz?

— Voy, aylanay, xola, — dedi birdaniga Sultonxon. — Qiyomiddin hoji akamning onasimisiz? Voy, u kishi otamning eng yaqin o'rtog'i-ku!

Ikkala «qadrdon» quchoqlashib ko'risha ketdilar, Sulton butun bu suhbatni kundoshlariga eshitdirmoq uchun mumkin qadar baland ovoz bilan olib borardi.

— Ana, topishib, ham ketdi! — dedi Xadichaxon ichkaridan.

— «Pes pes bilan... qorong'ida!» — dedi Poshshaxon.

— Hay, ana u xotinni... Nega unday deysiz? Nafasingiz qursin!

Bu Zebining ovozi edi.

— Xo'p, xolajon, Qiyomiddin hoji akamning ishlari bo'lsa, albatta, to'g'rilaymiz. Paranjingizni olib, bir nafas o'tiring, biror piyola choy ichib, dam olib ketarsiz.

— Yo'q, aylanay, o'tirsam, kechga qolib ketarman, Shomdan keyin yolg'iz ketishga qo'rqaman.

— Odam qo'shamiz, xolajon. O'tiring, choyim tayyor.

— Voy, aylana qolay, ishimning o'ngidan kelganini qarang.

Choyga o'tirdilar.

— Qani, arizangizni menga bering-chi.

Arizani olib, u yoq-bu yog'ini qaradi. So'ngra o'ng cho'ntagiga solib qo'ydi.

— Qiyomdan oling, xolajon. Arizangizni darhol to'g'rilatamiz.

— Xudo yarlaqasin, bolam.

Kampirga ikkinchi piyola choyni uzatib, uyiga kirdi. O'ng cho'ntagidagi arizaning ichiga chap cho'ntagidagi «ariza»ni ham olib qo'shgach, yana kampirning yoniga chiqdi.

— Nonga qarang, xola. Qiyomdan oling!

— Endi men jo'nayman, bolam. Arizani o'zingiz kuyovingizga topshirib qo'yarsiz.

— Odam qo'shaymi?

— Yo'q, aylanay, ovora bo'lmang. Vaqt bor, o'zim ham keta olarman.

Turdilar.

— Xolajon, tashqarida Hakimjon degan mirza bor. Bu arizani o'sha kishiga berib o'ting. «Mingboshi dodhoning xotinlari — Sultonxon ayangiz tayinladilar», deng. Undan keyin o'zim ham chaqirib tayinlayman. Hamma ish o'shanda. O'sha o'zi to'g'rilab yuboradi.

— Ilohim, orzu-havasingizga yeting, aylanay!

— Ehtiyot bo'ling, xola. Boshqa birovning arizasini ham qo'shib qo'ydim. U ham zarur edi. Kampir paranjisini yopindi.

— Xolajon, — dedi Sultonxon ovozini pasaytirib, — mirzaga jinday pul berish kerak edi.

Kampir yonini kavladi.

— Bori-yo'g'i uch tanga pulim bor ekan, bo'larmikan?

— Shoshmang xola, eplaymiz.

Uyga kirib, bitta uch so'mlik qog'oz pul olib chiqib kampirga uzatdi.

— Yaxshi qoling, aylanay, bolam!

Hakimjon, ovqatni endi yeb bo'lib, so'richada choy ichib o'tirardi.

— Aylanay, bolam, Hakimjon mirza sizmisiz?

— Ha, men.

— Mana bu arizani...

— Mingboshi o'zlari yo'q, xola, ertaga olib keling.

— Mingboshi dodhoning xotinlari Sultonxon ayangiz

tayinladilar. Mana, ikkita ariza, — dedi kampir va ustiga pulni qo'yib uzatdi.

Birinchi galda pulni cho'ntakka solgach, arizani ocha boshladi.

— Bo'pti, xola. Siz bora bering. Juma kuni erta bilan javobini olasiz.

Kampir duo qila-qila chiqib ketdi. Hakimjon kampirning arizasini, o'z odati bo'yicha, naridan-beri o'qib chiqdi. «Ha, oson ish ekan», deb qo'yib cho'ntagiga soldi. Ikkinchi arizani ochdi.

— Xudoyo tavba! Bu nima gap?

Chiroqqa yaqin olib bordi. Bir choy qog'ozining orqasiga oddiy karandash qalam bilan:

Fatonatlik[1] ey yaxshilar sarvari,
Basharmusen yo maloik, yo pari,
Jafo qilsang, ko'p oshiqning daftari,
Ne gunohim, menga tanho aylading[2], —

deb to'rt xat bayt yozilgan. Tagiga juda savodsiz va xunuk xat bilan quyidagi so'zlar ortdirilgan edi:

Dardingizda ezilib ado bo'ldim,
Ko'rishmak iloji bormikin?

Hakimjon bu xatni qayta-qayta o'qidi. O'zi juda yuvosh va beozor bo'lgan bu bola umrida birinchi marta yuragining o'ziga bo'yinsunmaganini, nogahon uyg'otilgan ko'nglining g'alati hislar bilan entikkanini, ko'kragida og'ir bir to'qmoqning to'xtovsiz bir ko'tarilib, bir tushib turganini va o'ziga yot bo'lgan allaqanday tumanli xayollarning miyasida poyga qo'ya boshlaganini sezdi.

«Ariza»ni beruvchi ham, oluvchi ham bu kecha uxlagani yo'q.

Ertasi kuni ertalab ikki katta kundosh Zebi bilan birga hovlida hovuz bo'yida nonushtaga o'tirdilar. Dasturxonda yangi uzilgan va shudring yegan salqin

[1] Fatonat — o'tkir zehnli, xushfe'l.
[2] Muqimiydan.

uzum boridi. Zebining so'rovi bilan Xadichaxon yomon ko'rgan kundoshini — Sultonxonni ham chaqirdi.

— Xo'p, — dedi Sultonxon, — birgalashib nonushta qilaylik. Men Hakimjonni chaqirib, kechagi Qiyomiddin hoji akamning arizalarini tayinlab qo'yay... Juda uyatlik odamlar edi. Undan keyin hushchaqchaqlik qilishamiz.

Xadichaxonni hovuz bo'yiga jo'natib, o'zi tashqari eshik oldiga keldi. Eshikdan boshini chiqarib, u yoq-bu yoqqa qaradi. Hech kim yo'q...

— Hakimjon, ho, Hakimjon!

Mehmonxonadan Hakimjon chiqib keldi.

— Xo'sh, kim u chaqirgan?

— Menman, men. Sultonxon ayangiz. Bir-ikki og'iz gapim boridi.

O'zini panaga oldi. Hakimjon qizarib, cho'g'day yonib, eshik yonida to'xtadi. Ikki ko'zi ko'cha tomonda — darvozada...

Sultonxonning ovozida hech qanday qaltirash, qo'rqish va tortinish asarlari yo'q edi, xuddi qichqirganday chiqardi. Har bir so'zi dona-dona va dadil-dadil aytilardi. «Xat yozgan boshqa bo'lsa kerak, — deb o'yladi Hakimjon. — Munaqa nozik gaplar munday dadillik bilan aytilmaydi».

— Mirshablar qani? — deb so'radi Sultonxon ovozini pasaytirib, o'zi panada turardi.

— Ikkitasi shaharda, bittasini guzarga chiqardim, ellikboshini topib kelish uchun...

— Yaxshi qilibsiz...

So'ngra ovozini ko'tara tushdi.

— Kecha bir kampir sizga arizani topshirgan bo'lsa kerak. Men tayinlab edim.

— Ha, topshirdi.

— O'sha ariza bergan odam otamning juda qalin o'rtog'i. Mingboshi dodhoning qo'llari tegmasa, o'zingiz bir narsa qilib, to'g'rilab yuboring. Juda uyatlik odam edi. Qiyomiddin hoji degan, toshloqlik.

— Oson ish ekan. O'zim to'g'rilab yuboraman.

— Shunday qiling, mirza.

Ovozini pasaytira tushdi.

— Mingboshi kelgani yo'qmi?

— Hali tez kelmas. Mingboshi shu topda guzarda bormi, yo'qmi...

Eshikdan mo'ralagan bo'lib, Hakimjonga jindakkina ko'rinib qo'ydi. Hakimjon battar qizardi va orqaga tisarildi.

— Muncha qo'rqasiz? Yaqinroq keling... — dedi Sultonxon juda past ovoz bilan. — Sizni birov yeb qo'yadimi?

— Yo'g'-e, — dedi Hakimjon zo'rg'a-zo'rg'a.

— Xatni o'qidingizmi?

— Ha... o'qidim...

— Achchig'ingiz kelmadimi?

— Nega, nega... xursand bo'ldim...

— Xursand bo'ldingizmi? Rostdan-a?

Shu onda hovuz bo'yidan kundoshlarning baland qahqahalari eshitildi.

— Boshim osmonga yetdi.

— Nechaga kirdingiz? — dedi birdaniga Sultonxon. Yana ko'rinish berdi.

Bu kutilmagan savolga Hakimjon hayron bo'ldi.

— Yigirma to'rtga? Yosh ekansiz... Muncha qochasiz odamdan? Nimadan qo'rqasiz? Beriroq kelsangiz-chi...

Hakimjon bir-ikki qadam oldinga bosib, ko'zlarini yerdan ololmay to'xtadi. Sultonxon boshini chiqara tushib Hakimjonga tikildi. Suzilgan va maylli ko'zlari o'tdek yonardi. Sekingina bir «uh» tortdi. «Qip-qizil cho'g'...», dedi o'ziga-o'zi.

— Shunaqa uyatchangmisiz?

— Uyalg'anim yo'q...

— Ha, yolg'onchi! Nimaga, bo'lmasa, qip-qizil cho'qqa aylanib ketibsiz?

— Bilmasam... Xatga achchig'ingiz kelgani yo'qmi?— deb yana so'radi Sultonxon.

— Yo'q... nega? Juda xursand bo'ldim...

— Kichkina hujrada kecha-kunduz bir o'zingiz zerikmaysizmi?

Hakimjon angladi.

— Zeriksam qandoq qilay? Xudo, ovunchoq berib qolar...

— Astoydil tilab tursangiz, ajab emas. Ha, boring endi, sizni qiynab qo'ydim...

Hakimjon o'rnidan jilolmay qoldi. Hovuz bo'yidan yana qahqaha yuksaldi. Sultonxon qizarib turgan yosh yigitga oxirgi marta tashna nazarlarini tashlab, asta-sekin yiroqlashdi...

* * *

Sultonxon yaqindagina mingboshining yosh va sevimli xotini bo'lganligidan ichkaridagi uylarning eng katta, yasog'liq va savlatlisi unga berilgan edi. Ichkarining etagida bir yangi hovuz oldidagi maydonchaga yopishadigan bu sirkorlik uy ichkaridagi boshqa uylarning har biridan bir, bir yarim baravar zo'r keladi. Poshshaxon bilan Xadichaxonni o'rtagan alamlarning biri shu uy emasmikin? Ajab emas: eng yaxshi uy eng sevimli xotinniki bo'ladi-da!

Zebining to'yiga ikki-uch kun qolganda Sultonxonning yo'qligidan foydalanib, ikkala katta kundosh u katta uyni bo'shatdilar: Sultonxonning uncha ko'p bo'lmagan ro'zg'or va kiyim-kechaklarini bevosita tashqariga yopishadigan kichkinagina, pastgina, taxta shiftli va oddiy ganchli, bir uychaga ko'chirib qo'ydilar. «Ortiqcha haqorat bo'lib ketmasin», degan mulohaza bilan Xadichaxon o'zi Sultonxonning hamma bisotini kichkina uyga chiroylik qilib joylab ham qo'ydi. Hatto katta uyda yetimdek ko'rinadigan bir siqim ro'zg'or va kiyim-kechak kichkina uychani kemtiksiz to'ldirdi, katta uyning bir chekkasida na u yoqqa va bu yoqqa qarashini bilmay sargardon bo'lgan chiroyli qashqar gilami bu kichkina uyga juda choq keldi. Shunday qilib, bu majburiy ko'chirish Sultonxonga chigilingina va so'limgina bir uycha baxsh etdi. U kichkina uychaning ichkari tomon yonboshida, Xadichaxonning dahlizi bilan bir qatorda, kichkina bir ganjinacha bo'lib, unda qish ichi meva-cheva va qovun-tarvuz saqlanar, bir-ikkita semiz oshqovoqlar chirib tamom bo'lguncha, o'sha qorong'i ganjinada qolardilar. Ganjinaning o'ng tomonida bo'rgarlik obrez yonida tashlangan bir o'choq, necha yildan beri yotgan bir quchoq o'tin, devorda sirkadan bo'shalgan bir-ikkita

qovoq... Ganjinaning butun borligi shundan iborat! Chap tomonda esa bir odamning yarim bo'yi qadar keladigan tor va kichkina daricha. Bino bo'lganidan beri ko'p bo'lsa ikki-uch marta ochilgan, ichkaridagilardan hech birining esida va xayolida ham qolmagan bu darichadan oshib o'tsangiz, qator-qator uylarning ketidagi kattakon va tartibsiz o'stirilgan boqchaga tushasiz. Darichaning chap tomonida — besh qadam narida ichkari boqchasi bilan tashqari boqchasini bir-biridan ayirgan besh paxsali eski devor. Devorning uylarga yaqin bir yerida — bu ham o'ng qadamdan oshmaydi — ichkariga ochiladigan bir qanotli eski eshik, ichkaridan zanjirlanadi. Eshikdan u yoqqa o'tsangiz, tashqarining cho'ziq, ensiz boqchasi. Unga faqat mirzaxonadan bir deraza va bir eshik ochiladi. Deraza oldida Hakimjonning ish stoli. Mirzaxonadan bir eshik dahlizga ochiladi, bir eshikcha Hakimjonning kichkinagina hujrasiga olib kiradi. Ichkaridagi uylarning boshqa hech biridan boqcha tomonga na deraza bor va na eshik. Chunki boqcha ko'cha demak, ko'chada nomahram bo'ladi, nomahram nazaridan o'z nomusli xotinini saqlash har bir musulmonning vazifasi!

Qat'iy qarorini berib, miyada chala-chulpa ishlangan planlar bilan erinikiga qaytgan Sultonxon bu majburiy ko'chirishdan xursand va o'z kundoshlarini ko'ngildangina olqishlagan edi.

Hovuz bo'yida kundoshlari bilan o'ynab-kulib nonushta qilgandan keyin, ichkarining keng sahni o'rtasida — shaftoli tagidagi so'richada yig'ishtirilmasdan turgan o'rinlarini yig'ishtirdi, asta-sekin uychasiga tashimoqqa boshladi.

— Hay, qishga bir talay bor, halitdan uyga ko'chayotirsizmi? — dedi Xadichaxon sahndan o'ta turib.

— Eri yo'q; sovuq qotib qolgandir, sho'rlik, — deb kesatdi naridan Poshshaxon.

— Erdan umidni uzganman erta qachon! — dedi baland ovoz bilan Sultonxon. Keyin o'ziga tomon kelayotgan Zebiga qarab izoh berdi: — Tunov kun mana bu kigizning tagidan kattakon bir chayon topib o'ldirdim... Undan keyin xuddi yong'oqday bitta buzoqboshini

o'ldirdim. Shundan beri kechalari uxlayolmay chiqaman. Tushimga kiradi, bosinqirayman... Uy yaxshi, jonginam.

— Qirov ham tushib qoldi o'zi. Yaxshi qilasiz, jonimni qoqay! — dedi Zebi.

Shu «jonimni qoqay» so'zi Sultonxonning qulog'iga allaqanday shirin eshitilib ketdi. Zebining chin ko'ngildan chiqarib aytgan bu so'zi uning xitoy chinniday jaranglagan ovoziga burinib, dutorning «g'o'ng-g'o'ng»i singari mayin va yumshoq un bergan edi. Sultonxon o'z kundoshini mahkam quchoqlab o'pdi.

U yoqda mingboshi shahardan yangi gaplar topib kelgan edi. Tashqaridan uning so'zlangani eshitilgach, shom chog'ida xotinlar eshik oldiga bordilar.

— Shunday nozik vaqtda Miryoqub noinsofning o'ynagani ketganini aytmaysanmi? — Mingboshi Hakimjonga qarab so'zlardi. — Bitta o'rus xotin bilan Sevastopolga ketibdi... — Mingboshi xoxolab kuldi, ichkarida Poshshaxon ko'kragini g'ijimlardi. — Bachchag'ardi bolasi-yey! Juda tannoz narsani topibdi, deydi. Ikki oygacha o'ynatarmish... To'ralarimizning qovog'idan qor yog'adi... Yaqin borib bo'lmaydi. Har bir mingboshiga o'ntadan, har bir aminga ikkitadan, har bir ellikboshiga bittadan yaroqlik yigit beradigan bo'lishibdi. Yarim sarfi — g'aznadan, yarim sarfi yurtdan! Endi odam daraklash kerak. Mingboshilarga hokim to'ra o'zi va'z qildi. «Mahkam bo'l hammang! Tog'dagi gaplar bo'la ko'rmasin», dedi.

— Aytgancha, tog'da nima gap bo'ldi?

— Tog'da olomon xuruj qilipti. Bir mingboshini o'ldiripti. Ikki amin zo'rg'a qochib qutulibdi. Ellikboshilar qo'rqqanidan olomonga qo'shilib ketibdi... Mahkamalarga o't qo'yishibdi. Bir-ikkita sudxo'r boyni do'pposlashibdi. Bizning Yodgor echkilar ham eshitib qo'ysa bo'lardi. Ortiqcha hovliqadi, qiztaloqlar!

— Xayr, tog'dan gapiring, xo'jayin!

— Bizning noyib to'ra 150 ta soldat bilan chiqib, to'polonni bosib keldi. Ikki qishloqni teptekis qiliptilar. Ba'zi qishloqlarda ba'zi birovlarnikiga soldatlar o't qo'yibdi. Chopish ham bo'pti... Uch-to'rt yuz odam qi-

rilganga o'xshaydi. 137 kishini shaharga olib kelib qamaptilar. Yaqinda katta sud bo'ladi, deydi. Noyib to'raning gapiga qaraganda, sud juda shoshilinch bo'ladiganga o'xshaydi. Bir nafasda hukm qilib ota beradi, deydi-ku! Soldatlardan ham to'rt-besh kishi o'lipti. Yarador yigirmatacha bor, deydi. Aytishlaridan, o'rus soldatlari qishloqlarda musulmon ayollariga ham daxl qilganga o'xshaydi... Xunuk gaplar bor, ishqilib.

— Biz nima qilamiz, xo'jayin?

— Nima qilardik. Yana yettita yigit qilamiz. Hushyor bo'lamiz. — Mingboshi bir oz o'ylandi. — E, bizning yurtlar tinch. Fuqarolarimiz hammasi yuvosh, qo'yday. Men bo'lsam ularning otaxoniman... Qattiq gapirmayman. Jabr qilmayman... Nimaga to'polon qilsin? Uxlay ber, bemalol! Mening soyai davlatimda, xohlasang, boqqa chiqib yot! Ha!

O'zidan xursand, kula-kula ichkariga qarab yurdi. Xotinlar chekildilar. Uch-to'rt qadam bosib, yana to'xtadi:

— Aytgancha, Absamat yomon xijolat bo'ldi, lekin!

— Xo'sh, xo'sh? — dedi Hakimjon.

— Hamma mingboshining oldida hokim to'ra undan koyib berdi. Uyiga allaqanday bir no'g'oy xotinni oldirib, yangicha maktab ochgan ekan: erkak bolalarga ham yangicha maktab ochmoqchi bo'lib, Toshkentdan bir po'rim maktabdorni chaqirtirgan ekan. Shularni aytib koyidi. Bir nima balo, dedi... Ha, yosh sartlarga ergashmang, dedi... Ular yosh turklardan o'rgangan, dedi. U nima degani bo'lsaykin... «Yosh sartlar»i nimasi?» «Yosh turklar»i nimasi? Nimani o'rgatadi ular? Bilolmadim. Miryoqub bo'lsaydi kovlab topardi, betavfiq! Xayr, yot endi! Rohat qil!

Bir ozdan so'ng katta uydan Zebining bidratma dutori va shirin ashulasi eshitildi. Kundoshlar so'rilarga chiqib yotdilar. Sultonxon, negadir, uyg'oq: uyiga kirmasdan, sahnda — ayvon chekkasida o'tirardi. Nihoyat, hamma uxlab ketdi. Shundan keyin Zebining ashulasi tindi. Yana bir oz keyin dutor tovushi ham allanechuk birdaniga uzilib qoldi. Bu uzilishda allaqanday bir zarda qilish, birdaniga dutorni irg'itib tash-

lash boridi... Shu bilan u katta uyga ham bir nafasda jimlik cho'kdi.

Yerga tushgan uch-to'rtta xazon yaproqlari kuz kechasining sovuq shabadasi bilan yer betida shitir-shitir surinardilar. Uzoq-yaqindagi itlarning hurishi va yaproqchalarning shitirlashidan boshqa un qolmadi.

Shundan so'ng Sultonxon sekingina uyiga kirdi. Yuragi bir oz o'ynagani uchun bir piyola sovuq suv ichdi. Derazaning bir qanotini ochiq qoldirib, eshigini ichidan berkitdi va qorong'i uyda jimib yo'q bo'ldi...

Ko'ziga uyqu kelmagan Hakimjon yarim kechaga yaqin mirzaxona derazasining ohistagina chertilganini eshitdi. Tashqarida o'zidan boshqa hech kim yo'q edi: mirshablar — darvozaxonada va otxona tomida uxlardilar. Yuragi o'ynashini arang bosib, shu tobda o'zidan boshqa kimsa yo'qligini bilganligidan dadil yurib, mirzaxonaga chiqdi va tovush chiqmasin, deb eshigini emas, past supali derazani ochdi.

Derazani yana berkitib, bu bemahal mehmonning orqasidan ohistagina o'z hujrasiga qaytdi: uyatchang ko'zlarini yerdan sira uzib ololmasidi. Faqat u — yosh va zoriqqan xotin chidayolmadi: o'zicha otilgan o'q singari tomog'idan ixtiyorsiz otilib chiqqan kuchli va intiq ovoz bilan:

— Berahm... — deb qichqirdi...

Va o'zini uning quchog'iga otdi.

XIV

Mingboshi shahardan tegishli dasturlarni olib qaytgach, boshqa hamma mingboshilar kabi to'xtovsiz ishga kirishdi. O'z qo'l ostidagi hamma amin va ellikboshilarni o'z mahkamasiga chaqirib, bir kun ertadan kechgacha behuda intizor qilgandan keyin, nihoyat, ayvonda choy ichib o'tirib, «kengash majlisi»ni ochdi. Poyma-poy va bir-biriga qovushmagan gaplar bilan «zamona ahvoli»dan, tog' voqealaridan va uning natijalaridan daromad qilgach, maqsadga o'tdi:

— Shunaqa, yaxshilar, — dedi u, — endi mening uch

yigitimga yana yetti yigit qo'shildi. Aminlar ikkitadan, ellikboshilar bittadan olishadi. Yigitlarning hammasiga soldat beshotari beriladi. Otadigan azamat topilarmikin?..

Hech kim javob bermadi. Hamma jim edi.

— Nega indamaysanlar? Og'zingga paxta tiqdingmi hammang? Gapir, Matxoliq!

— Ishqilib... kattalarimiz bir ish qilsa, bilib qiladi, — dedi Matxoliq amin.

— Ha, albatta, bilib qiladi, — dedi bir ellikboshi.

— Biz nima derdik? Ma'qul maslahat, — dedi yana birov. So'ngra yonidagilarga qarab, so'radi: — Shundaymasmi, yaxshilar?

— Ha, shunday, shunday! — deb shovqin soldi har kim har joydan.

— Senlar aytmasanglar ham maslahat ma'qul, — dedi mingboshi ovozini ko'tara tushib. — Uni bilaman. Soldat beshotarini otadigan azamatlar topiladimi, deb so'rayman. Munga javob ber!

— Yurt emasmi, chiqib qolar, — dedi Matxoliq amin.

— Bilmasa o'rganar, — dedi bir chekkada turgan Hakimjon. — Ishni to'xtatish kerak emas. Yigitlarni ola beraylik, bilmaganiga shahardan odam chaqirib, o'rgatdirarmiz.

— Ma'qul, — dedi mingboshi. Kuldi. — Hammangning aqling shu tirranchaning aqlicha bo'lmadi-ya, hayf senlarga.

Amaldorlar jim qoldilar.

Mingboshi davom qildi:

— Bo'lmasa, maslahat shuki, har amin o'ziga kerakli ikki yigitni topib, indingacha menga bildiradi.

— Ro'yxatini topshiradi, — dedi Hakimjon.

— Ha, ro'yxatini topshiradi, — deya takror qildi mingboshi. — Mundan tashqari, har amin menga ham bittadan yigit topib beradi. Qolganini o'zim shu qishloqdan olaman. Undan keyin aminlarning o'zlari qishloq-ma-qishloq yurib, yurtga eshittiradi.

Mingboshi to'xtadi, shamasini kam tushirishga harakat qilib, choynakdan piyolaga choy quya boshladi.

O‘tirganlar bir-birovlariga qarashdilar: «Nimani eshittiramiz?» degan shivirlashlar boshlandi. Mingboshi so‘zini tugatmagan edi, Hakimjon so‘radi:

— Nimani eshittiradi bular?

— Ha, aytgancha, — dedi mingboshi, — esimdan chiqipti: yigit olishni eshittiradi, undan keyin pul to‘g‘risini.

O‘tirganlar bir seskanib oldilar.

— Qanaqa pul, taqsir? — dedi Matxoliq amin.

Hammaning ko‘zi uning og‘ziga tikilgan edi, undan keyin hamma ko‘zlar birdaniga mingboshi tomonga burilib, uning og‘ziga osildilar. Ko‘plar og‘izlari bilan ham tinglardilar.

Mingboshi kuldi:

— Qanaqa pul bo‘lardi! Yigitlarning yarim oyligi g‘aznadan, yarmi yurtdan.

O‘tirganlarning og‘zidan xor bilan aytilganday yaxlit va besaranjom bir ovoz chiqdi: g‘u-v-v!.. Xuddi «dod-d» deganday... Zo‘r hovlining keng sahniga go‘riston jimligi cho‘kkan edi. Hakimjon ohistagina bir «uh» tortib, o‘rnidan turdi, ayvon ustuniga chig‘anog‘i bilan bir-ikki urgach, bitta-bitta bosib, jamoatga yaqin keldi. Shu topda uning juda ehtiyot bilan — hech bir sharpa chiqarmay — bosgan qadamlarining bo‘shang shitirlashi ham o‘tirganlarga malol kelgan kabi edi.

Hamma ko‘zini yerga tikib, uzun yakandozning mag‘izi bilan o‘ynardi...

— Nimaga imoning o‘chdi birdaniga? — deb qichqirdi mingboshi haybatli ovoz bilan.

— Yarim puli qancha bo‘ladi, taqsir? — dedi yana Matxoliq. — O‘zingizga beriladigan yetti yigitning beshtasiga ham yurt to‘laydimi, dodho?

— Ha, bo‘lmasa men yonimdan to‘laymanmi? — dedi mingboshi dag‘allik bilan.

Yana jimlik cho‘kdi. Mingboshi davom etdi:

— Uch kun orasida yurtga eshittirib, bo‘lgan gapni menga ma‘lum qilasanlar.

— Xo‘p, taqsir! — dedi Matxoliq.

Boshqalar jim qoldilar. Mingboshi qichqirdi:

— Nega boshqalaring indamaysan? Qanjiqsan ham-

mang! Senlardi amin qilib, qo'lingga amal bergandan xafa bo'ldim-ku!

— Bekor qilib qo'ysangiz ham tuzuk edi, taqsir, — dedi bir amin.

Hamma unga tomon o'girildi.

— Seni bekor qilmasdan burun otxonaga qamab kaltaklataman... Shoshmay tur!

— Taqsir, taqsir, taqsir! — degan ovozlar yuksaldi har tomondan.

— Bo'lar ish bo'ldi, yaxshilar, — dedi Matxoliq jamoatga yuzlanib. — Yurtning katta-kattasini chaqiramiz-u, «buyruq shu» deb eshittiramiz. Bizning ishimiz shu. Yurt «yo'q», desa, kattalarimiz biror maslahat ko'rsatar.

— «Yo'q», deb ko'rsin qani? — dedi mingboshi. — Oq podshoning o'z buyrug'i bu! «Yo'q», deb ko'rsin!

— Shu choqqacha «yo'q», demagan, endi ham «yo'q», demas, — dedi Hakimjon.

— Rost aytasan, mirza, — dedi mingboshi. U bu so'zning avvalgi hijjasini qalin qilib aytardi. — «Yo'q», deydigan topilmaydi.

— Rost aytasiz, taqsir, — dedi Matxoliq, — «Yo'q», demasa kerak. Ammo-lekin podsholikning pastarin bir iti bo'lganimdan ko'rgan, bilganimni aytib qo'ymasam, bo'lmaydi.

— Ayt, aytma, degan odam bormi?

Hamma Matxoliqqa tikildi.

— Yurtning vajohati buzuq, taqsir. Gap ko'tarmay qoldi. Asad oyida ro'za tutgan bangiga o'xshaydi, taqsir... Endi, yurt — ko'pchilik, ehtiyot kerak, deymiz-da.

Hamma birdaniga tasdiqladi:

— Rost, taqsir, rost!

— Rost bo'lsa rostdir, yolg'on degan odam yo'q. Ammo-lekin «Kim katta — yurtmi, oq podshomi?» deb so'raganda, nima deysanlar? Qani?

Hech kim og'iz ochmadi. Yana Matxoliq gapirdi:

— Albatta, «oq podsho», deymiz, taqsir!

— Unday bo'lsa, gap tamom. Omin ollohu akbar! Bora ber hammang o'z ishingga...

Ellikboshilar o'rinlaridan turib, u yoq-bu yoqqa

yoyilgan, mingboshi Matxoliqni chaqirib oldi. Uning bir qulog'ini qo'li bilan yaqin keltirib, dedi:

— Absamatni yiqitsam, seni mingboshi qilib qo'yardim. Abjirsan, bachchag'ar!

Matxoliq kuldi.

— Qulluq, taqsir, xizmatingizni qilsam, bo'ldi. Shunga xursandman.

Mingboshi uning boshini yana ham o'ziga yaqinroq tortdi:

— Bu qish ichi na bitta qovunim bor, na bir dona tarvuzim. Uch-to'rt aravagina eplagin, hissasini chiqarib beraman.

— Xo'p, xo'jayin, jonim bilan.

Matxoliq uzoqlasha boshlagan edi, yana chaqirdi:

— Aytgancha, esimdan chiqibdi. Bularingga ayt: yurtni namozga ko'proq haydab turishsin. Buyruq shu!

Matxoliq hammani chaqirib olib, baland ovoz bilan bu yangi buyruqni ham eshittirdi. Shu bilan tarqalishdilar.

* * *

Kengash majlisini o'tkazgandan keyin mingboshi darhol o'ziga yigit to'plashga kirishdi. Yetti kishi o'rniga yigirma-o'ttiz talabgor bir qishloqning o'zidan chiqdi.

Hakimjon muni mingboshiga arz qilib turib, dedi:

— Ishlar yaxshi, taqsir, yettita desak, o'ttiztasi kelib o'tiripti.

Hakimjonning birinchi jumlasida sezilarlik darajada ochiq bir piching bor edi. Lekin u pichingni mingboshi dodho payqayolmadi.

— Bekorchi ko'p qishloqda, bekorchi! — dedi mingboshi.

— Yo'q, xo'jayin. Men gaplashib ko'rdim. Hammasi chorikor bolalar. «Jonimizdan to'ydik, bola-chaqamiz och...», deydi.

Mingboshi birdaniga qo'pol bir ovoz bilan kulib yubordi. Hakimjon bu nogahon kulishning sababini bilolmay hayron edi. Keyin mingboshi o'zi anglatdi:

— Jonidan to'ygan bo'lsa yaxshi! — dedi u. — Jonidan to'yganlar yaxshi so'qishadi. Oq podsho «vay-

na»da[1] qiynalib qolsa, qishloqning hammasini yig'ib jo'nataman! Ish yirik, mirza.

Yana o'sha xunuk ovoz bilan kula-kula ichkariga kirib ketdi.

Hali qorong'i tushib, palovga dasturxon yozilgan yo'q ediki, tashqariga bir mehmon kirib keldi. Hakimjon uni kular yuz bilan, sevinib qarshi oldi. Bir oz keyin ichkaridan chiqqan mingboshi ham unga nisbatan bir qadar mulozimat bilan muomila qildi. Lekin bu mulozimatning yasamaligi shu qadar ochiq ediki, mehmonning ko'zlari Hakimjonning ko'zlarini to'g'ri keltirib turib, u to'g'rida bir himo qilib o'tdi. Hakimjon ham ko'z qorasi bilan mehmondan uzr so'radi. Mehmon esa «muning o'zi nima-yu, muomilasi nima bo'lardi?» degan ma'noda kulib qo'ydi, xolos.

Palov yeyilib bo'lgach, ko'k choyni ichib o'tirib, ular uchovi suhbatga tushdilar. Mehmon Hasanov degan bir tatar yigiti bo'lib, qishloq qarz shirkatlarining inspektori edi.

— Urushdan gapiring, abziy! Urush nima bo'lyapti?

— Urushni siz bilasiz, mingboshi. Sizdan eshitaylik, — dedi Hasanov.

— Men urushni qaydan bilay? Gazit o'qimasam?

— Siz, axir, bir bo'lusning kattasisiz.

— E, kattaligi qursin! Kerak bo'lsa, oling shu kattalikni!

Mingboshi bu so'zlarni jiddiyat bilan aytardi. Mehmon kuldi:

— Zerikdingizmi, xo'jayin? Darhaqiqat, bu nozik zamonda katta amal ham zeriktiradi.

Hakimjon o'z xo'jayinining ta'bi bir oz olinganini payqadi shekilli, uning yordamiga yetishmoqchi bo'ldi:

— Chinakam, — dedi u, — shu zamonda amaldor odamga juda qiyin... Siz bilmaysiz. Men, mana, doim xo'jayinning qo'ltig'idaman. Yaxshi bilaman. Juda qiyin...

— Bilaman, juda yaxshi bilaman, — dedi Hasanov.— Albatta, oson emas.

---

[1] V o y n a — urush.

Mingboshi hali jim edi. U qo'lidagi bo'sh piyolani aylantirib o'ynardi. Hakimjon davom etdi:

— Zamon nozik bo'lmasa, mingboshilarning yigitlari ortdirilarmidi?

— Shunday gap bormi? — deb so'radi Hasanov.

— Gap bor emas. Buyruq bor. Biz odam chaqirdik. Uchta yigitimizga yettita qo'shiladi...

Mana shu joyda mingboshi ham birdan gapga aralashdi:

— Hammasiga soldat beshotari bermoqchi... Soldatlikka mashq qildirmoqchi... Munga nima deysan?

— Juda soz! — dedi Hasanov. Papirosini uzun so'rib tortgan holda o'ylab ketdi.

— Nimasi soz? — dedi mingboshi qo'pol bir xitob bilan.

— Juda soz, mingboshi afandi. Faqat... men ishonmayman munga...

— Nimasiga ishonmaysan? — dedi mingboshi yana o'sha qo'pollik bilan.

— Bizning musulmon-turk yigitlarining qo'liga rus hukumati beshotar miltiq berib qo'yarmidi? Hukumatning esi bor.

Mingboshi hayron bo'lib qoldi. Bu yetti uxlab bir tushiga kirmagan fikr edi. Ko'zini keng-keng ochib, mehmonga qaradi. Bu qarashda ham hayrat bor edi, ham qo'rquv...

— Nega bermasin? O'zi buyurib o'tiripti-ku?

— Bitta-yarimta esi pastrog'i buyurgandir, taqsir. Esi borlari munga yo'l qo'ymaydi!

Mingboshi indamadi. Hakimjon butun borlig'i bir diqqatga aylanib, ikki ko'zini mehmonga tikkan edi. Mehmon davom etdi:

— Musulmonning qo'liga yaroq bermaydi bu hukumat. Biz, musulmonlar, turk bolalari, o'zimiz yaroq olmasak, dushmanlarimiz o'zi o'z qo'li bilan bermaydi.

— Kim dushman? — dedi mingboshi.

Bu savolda endi po'pisa asari boridi. Mehmon sira shoshmasdan, bemalol javob berdi:

— Sizning dushmaningizni aytayotganim yo'q, dodho afandi. Turk-islom xalqining dushmanlarini aytaman...

— Germonni aytasanmi?

Hakimjon birdaniga kulib yuborishdan o'zini zo'rg'a to'xtatib qoldi.

— Shunday, taqsir! Germonni aytaman. Turk millatiga yarog' berib qo'ymaydi u! U, turk millatlarining jon va qon dushmani!

— Unday bo'lsa... butun qishloqni yig'ib, qo'liga beshotar berib, Germon bilan urushgani jo'natmoqchi bo'lganimga nima deysan?

Mingboshi bu so'zlarni g'urur bilan kulib turib so'zlardi.

— Nima derdim? Unday qilsangiz, sizni «g'oziy», derdim... Islom millati sizning bu xizmatingizni hech bir unutmas edi...

— Millating bilan ishim yo'q. Turkingni ham bilmayman men. Mana bu mirza aytadiki, qishloqda jonidan to'ygan ko'p. Shularning hammasini Germon urushiga jo'natsam — oq podshoning qo'li yuqori keladi, bu qishloqlar yalangoyoq, bezorilarning kasofatidan qutuladi!

— Hay, hay! — dedi mehmon. — Muning savobiga kim yetsin! Juda zo'r xizmat qilasiz, dodho! Favqulodda buyuk xizmat!..

Shu suhbatdan keyin Hakimjonda mingboshiga nisbatan bir qarash tug'ildi. U qarashda ixlos va hurmatdan boshqa hamma narsa boridi. Bu qarashni o'sha kechasi mingboshi yotgani kirib ketgandan keyin Hakimjon mehmonning o'ziga ham bir oz izhor qildi. Mehmon Hakimjonning e'tirofini eshitgandan keyin juda o't olib, qizib gapirdi:

— Bizning butun fojiamiz shundaki, — dedi u, — do'stimiz bilan dushmanimizni ajrata olmaymiz. Eshitdingizmi uning gaplarini? Bizning dindoshimiz, millatdoshimiz bo'lgan Turkiya bilan bir safda urushayotgan Germaniya bizga, biz Turkiston turklariga dushman emish...

Mehmon bir oz to'xtadi. Papirosini qattiq-qattiq tortib, og'ir-og'ir bosh tebratdi.

— Bular barchasi ilmsizlik kasofati, Hakimjon! Nodonlik mevasi. Bu yo'g'on sallali, bo'sh kallali

hayvonlar, Buxoroi sharifni spekulyatsiya qilib, islom millatini zaharlovchi mikroblar bizni shu holga keltirdilar... Eh... eh... eh!..

Astoydil kuyib gapirayotgan mehmon Hakimjonning ko'zi uyquga ketgandan keyingina so'zdan to'xtadi.

Ikkalasi so'riga joy qilib uzalgan vaqtlarida, Hakimjonning yana uyqusi qochgan, birinchi xo'rozlar unda-munda qichqira boshlagan edilar.

Bular ikkalasi ko'rpaga uzalgandan keyin ham anchagina gaplashib, mingboshidan, umuman zamonning hamma amaldorlari, hukumat va idora usullaridan shikoyat qilishdilar. Mehmon bir vaqtlar noyib to'raning Miryoqubga aytgan gaplarini yana ko'proq tafsilot bilan Hakimjonga aytib berdi. O'z mingboshisining ishlariga qarab hamma mingboshilar va umuman shu zamon hokimiyati to'g'risida ko'p ham yaxshi fikrda bo'lmagan Hakimjon shu suhbatdan so'ng o'zining xom va chuvalashgan fikrlarini pishitdi, bir oraga yig'di, boshidagi fikrlar bir tartib doirasiga tushib, yangi-yangi pardalarni uning miyasidan sidira boshlagach, o'zida allaqanday bir o'zgarish bo'layotganini o'zi ham sezdi: o'sha kundan boshlab uning hamma narsaga qarashi boshqa bo'ldi! Mingboshi — burungi mingboshi emas, farsaxlarcha yiroqlarda. Yaqinlashib kelganda ham xuddi buni o'ldirgani kelayotganday... Miryoqub, uning ishbilarmonligi, epchilligi, ziyrakligi... «U agar haq yo'lni topsa bormi, noyob odam bo'ladi». Har bir katta sallalik domla — bemorga zahar berayotgan tabib... Har bir boshini quyi solgan eshon — odamlarning kissalariga yashirincha qo'l uzatgan kisavvur... Abdisamat mingboshi, — uni o'ylaganda, Hakimjonga jon kiradi! «Uni ko'rsa tikilib, ko'zini olmay, uzoq-uzoq qarab tursa, ziyorat qilib qo'lini o'psa, nima buyursa, shuni qilsa!..»

Hasanovning fikrlari, ayniqsa yangi olinadigan yigitlar to'g'risidagi fikri mingboshiga ham ta'sirsiz qolmagan edi. Mingboshi, Hasanovdan bir oz qo'rqqan va shu uchun unga sovuq qaragan bo'lsa-da, uning o'sha yigitlar to'g'risidagi fikriga qarshi kelmasdi. U ham ichkariga kirib, joyiga cho'zilgach, u to'g'rida anchagina o'ylab yotdi.

«Bu bachchag'arning gapi qursin! Nimaga bo'lsaykin, uning gaplarini eshitganda odam cho'chib tushadi. Xuddi... oq podshoni so'kib yuboradiganday? Xuddi uning so'kkanini birov eshitib qolib, Yodgor echki yo Umarali puchuqqa yetkazadiganday? Ular bo'lsa, oqizmay-tomizmay, hokim to'raga chaqadiganday? Boz ustiga ular — «oq podshoni so'kib turgan vaqtida Akbarali mingboshi «ha, ha» deb turgan edi!» deyishdan ham toymaydiganday! So'ngra hokim to'ra chaqirib olib, g'azabiga oladiganday! Mingboshilikni tortib olib, el ko'zida tamom sharmanda qiladiganday! Abdisamat bilan Yodgor echki, Umarali puchuqlar yana qo'sh karnayi bilan jar soladiganday!»

— «Lekin, bachchag'ar kofir, bir narsani bilmasdan aytmaydi. Nimaga desangiz, u «zakon» kitobini ko'p o'qigan, hamma vaqt o'risning ichida qaynaydi, o'ris tilini suv qilib ichib yuborgan... Kattalarimiz o'rus-da, axir! O'ris bo'lganidan keyin musulmonga yon bosmaydi. Bu rost! Shu yerda Hasan abziy bilib aytadi! Musulmonning qo'liga yaxshi beshotarni berib qo'yarmidi? Yo'q! Agar men o'rus bo'lsam (astog'furullo!), musulmonning qo'liga aslo yarog' bermasidim! Aslo! Abziy rost aytadi. Abziy, abziy, abziy!..

Mana shunday o'ylar bilan mingboshi zo'rg'a uxlab ketdi.

Erta bilan uyqudan uyg'ongach, yana o'sha — yigit masalasini o'yladi. Yigitlarning uchta yo o'nta bo'lishi mingboshi uchun barobar edi. «Ko'p bo'lsa, g'alvasi ham ko'proq bo'ladi», deb o'ylardi u. Faqat... faqat...

— O'nta yaxshi yigitga yaxshi ot, yaxshi sarpo, yaxshi yarog'-aslaha berib, o'z mahkumimni bir aylansam, iloji bo'lsa, Abdisamat turadigan qishloqdan bir ot choptirib o'tib qo'ysam... bas! Shundan keyin kattalar uch yigitni bittaga qoldirsalar ham mayli edi!..

Bu o'yning natijasi shu bo'ldiki, ertasi kuniyoq qishloqdan odam ola boshlab 2—3 kunda yettita navqiron yigitni chertib-chertib mirshablikka qabul qildi. Undan-bundan so'rab, so'ratib, iloji bo'lmaganda...

tortib olib bo'lsa-da, hammasini yaxshi otga mindirdi, allaqaylardan ov miltiqlari topib, o'novini yaroqlantirdi, ust-boshlarini tekisladi, o'zi ham eng yaxshi zar choponini kiyib, tilla kamarini bog'lab, uzun qilichini osib, saman yo'rg'ani minib, yo'lga chiqdi.

XV

Ikki kun burun Qumariq qishlog'iga yettita yigiti bilan mingboshi kelib ketgan edi. Uning bu kelishi qiziq bo'ldi. Hech kimga hech narsa demasdan, to'ppa-to'g'ri machitga tushib, domlani yo'qlatdi. O'zlari xabar topib machitga kelgan amin va ellikboshilar hayron bo'ldilar. «Nimaga bizga hech narsa demaydi mingboshi dodho?» deb bir-birlaridan so'rashdilar.

Ellikboshilardan biri yugurganicha borib domla-imomga xabar berdi. Domla-imom yaqindagina uylangan yoshroq bir mullavachcha bo'lganligidan «Mingboshi chaqirayotir», degach, ancha tashvishga tushdi. Sallachoponini kiyib, machitga tomon borarkan, o'yladi: «Nima uchun yo'qlatgan bo'lsa?»

Mingboshining uni izlatishga zohiriy bir sabab yo'q edi. Shuning uchun turli xayollarga borib ko'rdi:

«Tunov kun, shaharga tushganimda, mudarris domlaning o'g'illariga qattiqroq tegishib qo'yuvdim... O'zi ham, bachchag'ar, ipak sallani chambarak qilib o'rab, yomon ko'zga ilashadigan bo'pti-da! Ustimdan arz qilgan bo'lsa-ya, haromibachcha?»

«Yo... burungi imomat qilgan joyimda vahiy[1] yerni Sadriddin boy bilan chiqishib, ikki-uch yil o'zim yolg'iz tasarruf qilib edim. Mahalladan bitta-yarimtasi shuni qo'zg'adimikin».

«Yo bo'lmasa, o'tgan hafta qovun sayilida yangicha maktab ochgan toshkentlik no'g'oy domlaga yo'liqib qolib, ancha qattiq so'kib edim. Uning maktabini Abdisamat mingboshi ochib bergan ekan, men uni bilmabman... Bu bizning mingboshiga Abdisamat mingboshi itob qilib yozdimikin? Keyin maktabning asl sohibi

---

[1] Vahiy — vaqf.

Abdisamat mingboshi ekanini bilib, haligi no'g'oy domla bilan murosaga ham bordim-ku-ya... Har qalay, boshda ahvoldan bexabar, qattiq gapirib qo'yib edim... Attang! Shu tashvishlarga Abdurahmon ponsod sabab bo'ldi, bachchag'ar! Noinsof! Bo'lmasa, jimgina o'tirib edim. Keyin no'g'oy domlaning oldida odamlarga bir-ikki og'iz va'z qilib, la'nati jadidning ko'nglini ko'tarib qo'ydim-ku-ya...». Albatta, dedim, no'g'oy ham — musulmon, ahli sunnat, toshkentlik ham — musulmon, ahli sunnat... Hammamiz bir odam. Dunyoviy ilmlarni o'qish ham shariatimizda bor, chunonchi, janobi hasti payg'ambarimiz «utlubudilmu valavkana bissi», ya'ni «Chin mulkida, ya'ni Xitoyda bo'lsa ham ilm talabida bo'lg'il», deganlar. «Bu «hadisi sahih», dedim. Jadid domla xursand bo'lib ketdi: «Shunday haqiqiy ulamolar bo'lsa, millat taraqqiy qiladi», dedi. Shu «Millat» degan so'z tufaylidan yana jindik munozara qilib olishdik. Abdurahmon ponsod no'g'oy domladan «Millatingiz nima?» deb so'rab qoldi, no'g'oy domla avval «Islom millati», dedi, undan keyin negadir «Islom va turk millati», deb «turk» degan toifani ham qo'shib qo'ydi. Men chidayolmadim: «Yo'q, dedim, musulmon odamdan «millating nima?» deb so'ralsa, «Millatim Ibrohim Xalillullo» deb javob berishi vojib. Dinimiz — islom, millatimiz — millati Ibrohim Xalillullo. «Turk» degan toifa O'zgan taraflarida bor, o'zlari elatiyadan, bizning sartiyadek kasir ul-adad[1] emas, uning millatga hech bir dahli yo'q!» dedim. Undan keyin hasti Ibrohim Xalillullo to'g'risida xasti So'fi Olloyordan dalil keltirdim:

Xalillullo uchun yondirdilar nor,
Qadam qo'ymay o'shal o't bo'ldi gulzor.

Jadid domla turib «Ibrohim payg'ambar — yahudiylar payg'ambari, hatto to'rt kitobdan biriga ham ega bo'lgan emas», dedi. «Tavba, de, eshak!» deb baqirdim. Ortiqcha qizib ketibman. Keyin pushaymon bo'ldimku-ya... Endi foydasi yo'q. Afsus! Afsus!»

Kasir ul-adad — ko'p sonli.

Imom domla kelgandan so'ng, ko'p o'tmasdan, mingboshi machitdan chiqdi. Otiga otlanib turib, ellikboshi bilan bir-ikki og'iz gaplashdi. Aminga va boshqa ellikboshilarga sipo qarashi bilan bir qarab qo'yib, yana darhol yo'lga tushdi. Guzarda o'tirgan besh-olti kishi hayron bo'lishib, bir-birlariga qarashdilar. «Nimaga keldi-yu, nimaga darrov jo'nab qoldi?» degan savolga javob axtardilar.

— Nimaga aminni chaqirtirmasdan, imom domlani chaqirtiradi?

— Nimaga imom domla kelar-kelmas, jo'nab qoladi?

— Nimaga bu safar yigiti ko'p?

— Nimaga qishlog'iga qaytib ketmasdan, daryo tomonga o'tdi?

— Nimaga guzarda o'tirganlarga hech narsa demay o'tdi?

— Nimaga? Nimaga?.. Nimaga?..

Duv-duv gap ketdi. Har kim har tordan har xil ovoz chiqardi, lekin hech bir ovoz quloqqa yoqmadi, «soz tushmadi». Machit tomonda imom ko'rindi. Uning yuziga tikildilar.

— Hoy, kal, sarason soldingmi? Hali o'tganida, imom domlaning qosh-qovog'i soliq edi. Endi ochila tushibdi. Xayriyat bo'lsa kerak.

— So'raymiz qo'yamiz-da, jinni, — dedi kal.

— Sen so'ra, tilla bosh, senga aytadi.

— So'rayman, qovoq bosh. So'rayman, nima?

Imom domla sekin-sekin, lekin ishonchli va xotirjam oyoq tashlab, guzar o'rtasiga keldi. Ikki tomondan salomlar ko'tarildi.

— Taqsir, choy bor ekan! — dedi kal. — Bir piyola tutaylik.

— Qulluq! — dedi domla, to'xtadi. — Uyga boray...

— Bilamiz, taqsir, yangi uylangan odamdi gapga tutib bo'lmaydi: mingboshi dodho nima xabar olib kelgan ekan, deb so'ramoqchi edik.

Imom domla kuldi.

— Uylangandan emas, Hasanboy, — dedi. — Boshinglar qichimaganda, tilinglar qichib turmasa bo'lmaydi-da, a?

Guzardan kulgi ko'tarildi.

— Qichig'ini bosib o'ting, deymiz-da, domla! — dedi kal Hasan.

Yana kuldilar. Domla qip-qizarib ketdi.

— Mingboshi dodho yurtning omon-esonligini so'rab o'tdilar, xolos. Boshqa gap aytmadilar. Xo'sh, menga javob endi!

Domla yana yo'liga tushdi. Guzar odamlari uning gapiga ishonib yetmadilar, Hasan kal dedi:

— Bizdek fuqaro yolg'on aytganda, ishonmagan odam bir-ikki marta zo'raki yo'talib qo'ysin. Amaldor bilan domla-imom yo obro'yi katta boylar yolg'on aytsa, ishonmagan odam kavishini qo'lga olib tursin: «O'g'ri ketdi» bo'lmay iloji yo'q!

Yana kuldilar.

Narida ko'prik boshida domlaga Umaraliboy duch keldi.

— Ha, domla, Akbarali nima dedi?

— Mingboshi dodho hech narsa deganlari yo'q. «Jamoatning namozga yurishi qalay?» deb so'radi. «Ma'nisi yo'q», dedim. «Ellikboshiga aytaman, ko'proq haydab beradi». Shu xolos.

Umarali qahqaha solib kuldi.

— Umrida bir marta peshonasi sajda ko'rganmikin, so'ramadingizmi?

— Katta odam. Men nima deyolaman.

— Xayr, domla! — dedi boy. Yo'lga tushdi. Keyin orqasiga qayrilib kuldi va dedi: — Zamonaning oxir bo'lgani shu-da, taqsir. Benamoz rais bo'lib, namozdan qolganni tergaydi!

Uch kundan keyin juma namoziga juda ko'p odam yig'ildi. Umuman, machit bilan hech bir aloqasi bo'lmagan kishilar ham qoq yerga belbog'larini yozib, faqat peshonalariga yarasha joyni to'shadilar, imomdan burun bosh ko'tardilar, imom «ollohu akbar» deb sajdaga egilganda, bular qiyomga ko'tarildilar... Saflarda pix-pix kulishlar ketdi. Salom berilar-berilmas, yo'talga zo'r berib o'rinlaridan turgan «namozxonlar»ni so'fining, yog'lanmagan aravaniki singari, ingichka va g'ashga tegadigan ovozi to'xtatdi:

— Xaloyiq! Yaqin-yaqin kelib, imom domlaning va'ziga quloq solinglar!

Xalq orasida o'tirgan amin va ellikboshilar ham ularning belgilab qo'yilgan kishilar so'fining so'zlarini ilib oldilar:

— Ha, jamoat! Domlaning so'zlarini eshitish zarur!

Yuqorida ayvonning ichkarisida o'tirgan domla saf oralab tashqariga chiqdi. Panjara eshik oldida to'xtab, gap boshladi.

Mingboshi o'sha kungi kelishida, shahardan berilgan ta'limotga muvofiq, hamma machitlarda to'xtalgan, jumadan so'ng odamlarga va'z aytib, «ularni tinch tiriklik bilan shug'ullanishga va har xil fitna-fasodlarga berilmaslikka» chaqirish vazifasini machit imomlari zimmasiga yuklab ketgan edi. Bizning domla, so'z topolmasdan tutilibroq va qiynalibroq boshlasa-da, keyincha jo'nashib ketdi, qavmining hammasi deyarlik savodsiz qishloq odamlaridan iborat bo'lganiga qaramasdan, «balog'ati arab va fasovati fors»ni mumkin qadar ko'p ishlatdi, eshon So'figa juda muxlis bo'lganligidan uning ma'nilik baytlaridan anchasini har yer-har yerga qistirib o'tdi. Bir qancha vaqt zo'r berib, shahardagi hokim to'ralarni, o'zimizning «Mulla Akbarali dodho»ni, shular qatorida — garchi boshqa mahkumning ulug'i bo'lsa-da — «farosatlik, hushyor, donishmand, saxiy va muruvvatmand» hukumatdorlardan mulla Abdisamat mingboshini maqtab o'tdi. «No'g'oy domla eshitsin», deb yangi zamon maktablaridan, unda Qur'onning tajvid bilan maxrajiga to'g'rilab o'qitilishidan, u maktabda o'qigan bolalarning «Shariatu imon»ni kattalardan yaxshiroq bilganlaridan, ozod bo'lishiga yaqin Misr ohangida salovat o'qiganlaridan, uni eshitgan odam yig'lamay o'tolmaganidan, hatto... hatto garchi u maktabning domlasi bolalarga «Yer mudavvar, ya'ni bamisoli soqqa yoki yong'oq va yoki tarvuz — dumaloq», degan bo'lsa ham, bu da'voning shariati Mustafoga uncha xilof kelmaganidan, ya'ni, eshon So'fi Olloyor, Amir Navoiy, Mavlono Fuzuliy, eshoni Haziniy abyotlarida falakning gardishi, ya'ni aylanishi xususida ko'p so'zlaganidan gapirdi. Bosh qizib, gap qozoni qaynagandan so'ng dom-

lamiz aljiy boshladilar. Gaplar poyma-poy kela boshladi. Undan keyin qavmning namozga kam yurganiga, boylarning zakot va sadaqa xususida shariat amridan chetlashganlariga, qishloq odamlari orasida «xamr», ya'ni aroq ichadiganlarning ko'payganiga o'tdi... Hech kimni qoldirmay, so'ka boshladi. Endi bu ruhoniy gramofonni to'xtatish qiyin edi. Domla koyisa yonidagisi, albatta, xursand bo'lardi. Domlaning o'tkir tillaridan faqat ellikboshilar bilan aminlargina qutulib qoldilar.

Domla so'zni tamom qilgandan keyin odamlar yana o'rinlaridan tura boshlagan edilarki, ayvonning ichidan Umaraliboyning xirqiroq ovozi ko'tarildi.

— Domla yaxshi aytdilar! Balli domlaga! — dedi boy. — Benamozlarning kasofatidan hammayoq qimmatchilik bo'lib ketayotir!

— Xotinbozning kasofatidan-chi, xotinbozning? — dedi birov pastdan.

— Boybuva o'z qilmishlaridan ham gapirsin jindak! Eshitaylik! — dedi yana birov.

Boy achchig'landi. Saf oralab ayvon qirg'og'iga keldi.

— Kim u menga ta'na qilgan? Qaysi benamoz? — dedi u.

O'zi qaltirardi. Javob bo'lmadi.

— Imom domlaning qo'llariga darra olib beramiz endi, benamozlarning jazosini beradi! — dedi ichkaridan tashqariga chiqayotgan Yodgorxo'ja.

— Sudxo'rdan gap eshiting! Sudxo'rdan! — dedi pastdagilardan biri.

— Pul meniki! Kimga qanday shart bilan bersam— ixtiyor o'zimda! Senga nima, o'g'ri? — dedi Yodgorxo'ja.

— O'zing o'g'ri, hammani o'g'ri deb bilasan!

— Nima, nima?

— Hovliqma!

— Bilasizmi, taqsir, — dedi Umaraliboy, — hamma balo amaldorlarimizning yomonligida. — Mingboshimiz Akbarali bo'lsa, peshonasini bir umr sajda ko'rgan bo'lmasa, xotinlari buzuq bo'lsa, o'zi piyanista, buzuq odam bo'lsa! Boshqalardan koyib bo'ladimi?

— Hay, Umaraliboy, unday demang! — dedi imom.— Mulla Akbarali dodhoga til tegizmang. U kishi-

dan fuqaro hech qanday bir yomonlik ko'rgan emas. Uncha-muncha chakki yurishlari bo'lsa, amaldor ham podshoday gap, podsholarga buyuradi o'zi...

— Men mulla Abdisamatga hech narsa demayman, — dedi Umaraliboy.

— Mulla Abdisamat bo'lsa hamma jon deydi! — dedi Yodgorxo'ja.

— Mulla Abdisamatdek amaldor yo'q! — deb davom etdi Umaraliboy. — Akbarali odammi? Sipomi? Amaldormi? Uning o'rnida men bo'lsam, guzardagi samovarlarni taqa-taq berkitdirardim. Hamma benamoz shu yerga yig'iladi. Namoz o'qimaganni yozda darralatardim, qishda — muz teshib, suvga pishardim.

— Shuning uchun xudo senga amal bermaydi-da! — dedi birov pastdan.

— Tuyaga qanot bersa, qaysi imorat sog' qoladi? — dedi kal Hasan.

Hamma kulib yubordi.

Umaraliboy yana davom qildi:

— Men amaldor bo'lsam, shu qishloqdan besh-to'rtta yalangoyoqni Sibirga haydatardim.

— Habbarakalla! — dedi Yodgorxo'ja.

— Biz Sibirga ketardik, senlar qolib — bittang qishloqda sog' xotin qoldirmasiding, bittang — yuzni mingga berarding!

— Yurt obod bo'lardi!

— Bittang Qumariqning suvini o'z yeringdan chiqarmasding. Bittang Katta ariqdan qishloq odamlariga bir tomchi ham suv bermasiding. Xayriyat. Amaldor emassan!

— Bo'laman amaldor!

— Ko'ramiz!

— Ko'ramiz!!

Umaraliboy qizib ketdi:

— Ko'rasan! Ko'rsataman sen xotin taloqlarga!

Pastdagilarning hammasi deyarlik na'ra soldi:

— Kim xotin taloq?!!

O'nlab kishi mushtini tugumlab ayvonga yugurdi. Baqirishlar, dodvoylar, faryodlar ko'tarildi. Og'ir mushtlarning og'ir zarbalari eshitildi. Butun qavm bir-biriga

kirishib ketdi... Amin osmonga qaratib bir-ikki marta to'pponchadan o'q chiqardi. Unga qaragan va ahamiyat bergan bo'lmadi. Bir yigit rosa mo'ljallab turib, aminning qo'liga mushtlagan edi, to'pponchasi qo'lidan tushdi. Uni boshqa bir yigit olib yoniga soldi, yonidagilarga qarab mag'rur-mag'rur... kuldi. Muni ko'rgan ikki ellikboshi o'zini darvozaga urib qochdi. Machit ayvoni oldidagi eski chirik panjaraning sharaq-shuruq sinishi ko'chaning u yuzida cho'ziq bir aksi sado berdi.

Bir ozdan so'ng butun qishloq isyon holatida edi.

* * *

Mingboshi bu yoqqa yigit ortdirish to'g'risida buyruqning amin va ellikboshilar tomonidan nechuk bajarilgani xususida rasmiy ma'lumot kutib o'tirdi. Qishloqlarni aylangan vaqtida amin va ellikboshilarning ba'zilariga u yana eslatib o'tgan edi. Hakimjondan tez-tez so'rab turardi. U bu ishni mumkin qadar tez va hammadan oldin bitkazib, o'zi shaharga tushmoqchi, hokim to'raga arz qilib o'z sadoqatini ko'rsatmoqchi bo'lardi. Ikkinchi tomondan, Hasan abziyning vasvasalik fikrlari ham uni hali tark etmagan edilar. Bu jihatni o'ylagan vaqtida u o'zining qishloq aylanib kelishidan xursand bo'lardi...

«O'zimni ko'rsatdim! Xo'p yaxshilab ko'rsatdim! Abdisamatning qishlog'idan ot qo'yib o'tish nasib bo'lmasa ham, shu aylanishimning o'zi chakki bo'lmadi. Abdisamat eshitgandir, eshittirmay qo'yadimi odamlar? Yuragi o'rtansin bachchag'arning!..»

Faqat amin va ellikboshilar joylariga qaytgandan so'ng nafaslarini ichlariga solib o'tira berdilar. Ko'plari ko'chaga ham chiqmay qo'ydi. Ular odamlarga qanday qilib yangi pul solig'ini gapirishga hayron edilar. Oradan bir hafta o'tdi. Hech bir amin va ellikboshi bu to'g'rida hech bir kimga og'iz ochgani yo'q.

Mingboshi tajanglana boshladi.

— Mirza, bu zang'arlaring esidan chiqardimi? Yo imoni uchib, indayolmay turadimi? Bir-ikkitasiga farmoyish yozib, ot choptir!

— Xo'p, taqsir!

Yigitlar farmoyishni ko'tarib yo'rta ketdilar.

Ichkarida butun ishlar mingboshining istaganicha hal bo'lgan edi. Ilgari dutor chalib, «Netayxon» kuyida sayraydigan shahar bulbuli, keyincha sekin-sekin qo'lga qo'na boshlab, Sultonxon tashqariga yo'l solgan kechasi bir oz ijirg'anib bo'lsa ham o'zini mingboshi dodhoning ixtiyorlariga topshirdi...

Topshirmay nima qilsin? Boshqa iloji bormidi? Qani u iloj? U ham shu o'lkadagi minglarcha, necha o'n ming, yuz minglarcha ayanch qullarning biri emasmi? Savdogarlar bilan liq to'la qul bozorida sotiladigan kanizak hech bir tadbir bilan sotilishdan o'zini qutqarolmaydi. Muning uchun o'ziga o'xshash kanizaklarning ko'p bo'lishi, u ko'pning bir butun bo'lishi, bir butunning savlatli hujumlariga, ya'ni o'limga tayyor bo'lishi kerak. Ota-onalari tomonidan qari chollarga sotilgan qizlar ozmidi? Qaysi biri qarshilik qilib, eplay olgan? Qaysi biri hiyla bilan qutulib ketgan? Undaylar to'g'risida xalq og'zida bitta-yarimta doston ham yo'q. Xalq taqdirga tan berganlardan gapiradi. Ko'pchilikka quloq solsangiz, quturganlarning chor-nochor yumshaganini, osiylarning bo'ysunganini, telbalarga es kirganini, olovlarning pasayganini, alangalarning so'nganini, faryodlarning bo'g'ilganini, dod-faryodlarning bo'g'izlardan beriga chiqolmasdan eriganini aytadi, aytarkan yo ko'zidan bir-ikki tomchi an'anaviy yosh chiqaradi, yo bo'lmasa, ma'nilik qilib boshini chayqaydi.

Zebi otasining xunuk fe'lini biladi. Otasi shahardan piyoda kelgan edi. Oppoq soqoli bilan ko'z yoshlarini to'kib yig'ladi. «Qizim, — dedi, — meni munaqa sharmanda qiladigan bo'lsang, ilohim, bo'yning tagingda qolsin... Murodingga yetmagin...» Munday qarg'ishlarning ortiq darajada qo'rqinch ekanini har og'izdan eshita-eshita o'sgan: «erga tekkuncha, xudodan keyin, ota-ona keladi» degan talqinlar ostida katta bo'lgan ojiz, irodasiz, ayanch va yakkabosh bir qiz uchun, Razzoq so'fiday odamning omonsiz nazarlari ostida yetilgan bir notavon maxluq uchun haligi xilda qarg'ishlarning ruhiy ta'siri bo'lmasi mumkinmi?

Muning ustiga, Zebi onasini haddan ortiq yaxshi

ko'radi, bu ko'ngli qattiq otaning dardini mushtipar ham kam tortgan emas... U bechora hali ham shaharga qaytib ketolmaydi. Bir siqim ro'zg'or sovrilib bitmadimikin? Ona sho'rlik har kun yig'laydi, ko'z yoshi qiladi: «Aylanay, qizim, menga rahming kelsin, — deydi. — Men senga onalik mehrimni qo'yib katta qilganman, boshqa gunohim yo'q. Seni suymagan kishiga bergan bo'lsa, otang berdi... Men bir narsa deb eplay olamanmi, qalay? O'zing bilasan. Otang tepa to'nini teskari kiyib kelibdi. Mingboshi dodho oldida munaqa sharmanda qiladigan bo'lsa, qiz ham kerak emas menga, sen ham kerak emassan deydi. Aylanay, bolam. Men otangdan qo'rqaman... Shaharga borolmayman. Bu yerda ham qololmayman... Hech bo'lmasa menga rahming kelsin, bolam. Jon bolam, ko'z bolam!» Har kun boshqacharoq shaklda takror qilingan u so'zlar ta'sirsiz qolmaydi, albatta. Ayniqsa, yumshoq ko'ngilli qiz bolaga...

O'zi ham o'ylaydi: «Men, — deydi Zebi, — yakka boshim bilan qarshilik qilib eplay olamanmi? U — devday bir erkak bo'lsa, men bir siqim jonivor qiz bo'lsam? Onam bechora shaharga ketolmay, jonini qo'liga olib, har kun, har kecha qulog'im ostida yig'lab tursa? Ikki kundoshim kecha-kunduz menga qarab kulib, meni erkalatib, silab-siypab muomala qilgani bilan kecha-kunduz menga deydigani shu: «Munaqa qilmang, aylanay!» Mingboshini mendan uzoq tutish uchun jon olib, jon berib urinishi kerak bo'lgan Sultonxon kelganidan beri har kun qulog'imga egilib — ikkala kundoshimning gapini qaytaradi... bilolmay qoldim! Umrinisabibini chiqarmay qo'ydilar, qiziga ham yo'l yo'q. Enaxon ham kam chiqadi, chiqqanda ham shu kundoshlarning gapini qaytaradi. Yolg'iz jonim bilan hech narsa qilolmaydiganga o'xshayman, taqdirga tan beraman shekilli. Voy, xudoyim, o'zing tashlaganingdan keyin boshqa chora bormi?»

Shunday qilib, qiz bechora taqdiriga tan berishga jazm qilganidan keyin, omonsiz taqdirning so'nib turgan jomidan o'zini mast bo'lganday xayol qilib, o'zi xohlamagan va o'zi qo'rqqan zavqqa toldi.

O'sha shumlik kunda to kechgacha Zebi necha marta tishini-tishiga bosib g'ijindi, oyog'i bilan yer depsab

o'zini zo'rladi, oqshom chog'i ko'nglidagi iztiroblarni dutor qillariga va Netayxon yallalariga topshirdi. Ortiqcha qiynalmaslik uchun butun oqshom ichi fonar yoqmadi, tashqaridan tushgan zaif yorug'da — mingboshiga qayrilib qaramasdan — dutorini chalib, yallasini qila berdi. Kelin bo'lib kelgan kundan beri o'ntacha qalin ko'rpadan iborat hashamatli yotoq uyning o'rtasida har kun kuyov qayliqni kutardi. Mingboshi har kungi odatini qilib kirgan hamon yechinib yotgan, ustiga katta choyshabni tashlab o'zi sevgan yallalarini tinglardi. Itlik qilmaslikka va'da bergan bu odam, bilmadim, kimdan xijolat tortib, va'dasini buzishga urinmagan edi. Bu oqshom ham sehrli yallani eshitib uxlab ketarman», deb o'ylardi. Zebi avval ashulani to'xtatdi. Undan keyin tashqarida hamma uxlagach, birdaniga dutorini irg'itdi. «Bir narsa bo'ldimi?» deb o'ylab boshini ko'targan mingboshi yoniga salgina qaltiranib Zebining kirib kelayotganini ko'rdi. Qiz uning ochilgan quchoqlariga bir qulday e'tirozsiz kirib keldi... Ertasi kuni uncha ijirg'anmadi. Undan keyin tabiat o'z ishini qildi. Mamlakatning qizg'in quyoshida tez yetilgan tan bechora qizning ma'yus ko'nglini o'z iliq quchog'iga oldi.

Erta bilan ikkala katta kundosh qahqaha solib bu yosh kundoshni olqishladilar. Ular o'z qahqahalari bilan narigi kundoshni — Sultonxonni bo'g'moq istardilar. Holbuki, u har kecha deyarlik mirzaning qo'ynida saodatdan bo'g'ilardi... U haligi yuksak qahqahani eshitgach, uning ma'nisini angladi: yugurib Zebining yoniga kirdi, hammaga birdan salom bergach, Zebiga osildi: uni ham — xuddi mirza kabi — butun hirsi bilan quchoqlab, cho'lp-cho'lp o'pdi: bu bilan ikkala katta kundoshga demoqchi bo'ldiki:

«Siz qancha sevinsangiz, men sizdan ortiqroq sevinaman! Siz — quruq vahimani quchoqlab sevinasiz, men — tirik va joni bor odamni quchoqlab yayrayman. Kim ahmoq! Kim ahmoq?!»

Sultonxon bechora kundoshlarini «ahmoq» deb o'ylaydi. Holbuki, u siqiq muhitda, u kishanli jamiyatda va u «mamnu o'lka»da yashovchilarning hammasi birbirini aldashga, bir-birini «ahmoq» qilib qoldirishga uri-

naydi va o'zi muvaffaq bo'lgach, boshqa hammani «ahmoq» sanaydi. Yashash uchun kurash borayotgan bo'lsa, odatda kuch bilan yengolmagan odamlar hiyla bilan yengadilar: bu juda tabiiy narsa. Ayniqsa, xotinni quldan battar xo'rlovchi muhitda xotin chor-nochor hiylaning ustozi bo'ladi. Xotinning ikki qo'liga kishan solib, ko'cha darvozasini tashqaridan qulflab, do'koniga ketadigan savdogar hammadan ortiq ahmoq bo'lganini anglaydi...

XVI

Yigitlarni farmoyish bilan aminlarnikiga jo'natgandan so'ng mingboshi dodho ichkariga kirdi. So'ng vaqtlarda fe'li juda o'nglanib qolganidan hamma xotinlariga bir-bir tegishib, gap tashlab o'tdi. So'ngra Zebining uyiga kirdi. Zebi tashqaridaydi. Onasi xotirjam bo'lib, shaharga qaytib ketgan edi. Xadichaxon hovliga chopdi va Zebini aytib keldi. «Uyga kiring, aylanay, eringiz kirib ketdilar». Zebi kuldi, Xadichaxon ham kuldi: bu kulishning ma'nosini faqat kundosh ahli o'zi anglaydi... Mingboshi Zebi kirguncha, dutorni olib chertib boqdi. Chiqmadi. «Shop-shalopga o'rgangan qo'l dutorga yararmidi?» dedi o'z-o'ziga, shu bilan o'zini yupatgan bo'ldi.

Zebi kirib, mayda yo'llardan bittasini oldi. Dutorning ovoziga endigina o'z ovozini qo'shaman, deganda, tashqaridan mingboshini chaqirdilar. Bu Qumariq machitidagi to'polon xususida kelgan birinchi xabar edi.

Yarim soat ham o'tmasdan, mingboshi eski yigitlardan ikkisini, yangilardan to'rttasini olib, Qumariqqa qarata ot qo'ydi.

Machitdagi voqeani ot chopib kelib mingboshiga xabar bergan va uning yonida ot yo'rtdirib borayotgan odam to'pponcha voqeasidan so'ng machitdan qochgan ikki ellikboshining biri — Qosim laylak edi. Bo'lgan voqeani oyoq ustida turib mingboshiga anglatdi va ahvolni juda vahimalik qilib ko'rsatdi. Uning aytishicha, «mingboshi yetib borguncha qishloqning qariyb yarmi qirilib bitadi». Yo'lga chiqqandan so'ng mingboshiga saman

yo'rg'asiga yetolmasdan hansirab yo'rtayotgan yo'g'on qora biyasini to'xtovsiz qamchilab, mingboshi «gap yedirishga» urindi. Boylarning ikkovidan ham Qosim laylak dilgir edi. Podsholikning pattalik soliqlari, ya'ni o'lpon va tutun pullarini hammadan kech to'laydigan, ammo qorovul puli va kapsan kabi pattasiz soliqlarni sira to'lamasdan, ellikboshi va aminlarga o'shqirib muomila qiladigan bu pulzo'rlar yolg'iz Qosim laylakka emas, boshqa ellikboshi va aminlarga ham uncha yoqmasidilar. Yolg'iz ellikboshi va aminlargagina emas, undan kattaroqlar ham «berganni» yoqtiradi-da!

Fursatning juda qulay kelganligidan Qosim laylak imkon boricha foydalanib qolmoqchi bo'ldi.

— Mingboshi dodho, otlarga jindak dam bersak, oq ko'pikka tushib ketdi jonivorlar! Sizga bir-ikki og'iz zarur gapim bor edi.

Mingboshi saman yo'rg'aning boshini tortib, orqasiga qayrildi, yigitlar qolgan edilar, faqat ular ham otlarning boshlarini torta tushdilar.

— Uyalmasdan katta xolangday biyani minib yurganingni qara, Laylak! — dedi mingboshi.

— Mening qashqa yo'rg'am uyda qoldi, taqsir. Machitdan chiqib uyga borolmadim: fursat bo'lmadi. Guzarda bitta shu ot bor ekan, minib chopa berdim.

— Barakalla, Laylak! Podsholikka shunaqa xizmat qilsang, martabang oshadi.

— Shunisiga ham shukur, taqsir.

— Qani, gapingni gapir.

— Shu Umaraliboy bilan Yodgorxo'jani aytaman. Bugungi fasodga ham o'shalar sabab bo'ldi. Pattalik soliq chiqsa, hammadan keyin to'laydi. Pattasiz soliqlarni hech bo'yniga olmaydi. Borib so'rasang, o'shqirib beradi. Qo'rqasan odam... Shu bugun ham domla imomdan keyin biri qo'yib, biri yurtni tergadi, namoz o'qimaganlarni so'kdi. O'zlari o'qisa ekan koshki... Yurt juda yomon ko'radi u ikkovini. Qishloqning to'rtdan bir hissa yeri o'shalarniki, ikkala ariqning suvini ham o'shalar ichadi, hech kimga bermaydi. Hamma ulardan qo'rqadi. O'zimiz ham uncha-muncha yaxshi gapirib turmasak, shahardan kattalar chiqqanda, ustimizdan arz qiladilar.

Qosim laylak bir-ikki yo'taldi, orqasiga qarab oldi: so'ngra yana so'zida davom etdi:

— Shuncha xalq oldida sizday odamga til tegizishdi...

Mingboshi otining boshini yana torta turib, so'radi:

— Nima, nima? Menga til tegizdi? Nimalar deydi xotintaloq?

Shundan keyin Qosim laylak ikkala mingboshi to'g'risidagi fikrini, biriga besh qo'shib, aytib berdi. Mingboshi qishloqqa kelgan kuni ko'prik ustida Umaraliboyning domla imomga aytgan so'zlari ham mingboshiga to'kis-tugal yetkazildi. Bu uzunquloq hech bir shohid yo'q yerda aytilgan u so'zlarni qaydan eshitgandir, bilmadim, mingboshiga eshittirgan vaqtda yarim hijjasini ham g'alat qilgani yo'q. Shunday qilib, Akbarali mingboshi isyon chiqargan Qumariq qishloqqa tayyor fikrlar, hozir niyatlar bilan kirib bordi.

Bular qishloqqa borib kirganda, oftob keng dalalar ustidan o'z uyiga tomon yo'l solgan edi. Hali ancha balandda bo'lsa ham uning kamolidan zavoli yaqinroq ekani ko'rinib turardi. Saman yo'rg'a guzaming o'rtasida to'xtadi. Yugurib kelib yuganini ushladilar. Mingboshi irg'ib tushdi. Guzardagilar hammasi oyoqqa qalqdilar. Machitda odam ko'rinmadi, faqat namozxonlarning hammasi guzar oldida to'plangan edilar. Ular orasida haligi ikkala boy yo'q, bular hammasi — supaning pastida namoz o'qigan va «xotintaloq» deb so'kilgan dehqonlar, chorakorlar, qarollar edi.

Mingboshi o'ng tomondagi ozodaroq samovarga chiqib, o'zi uchun to'shalgan to'shakka o'tirmasdan, gilamning bir chetida o'tirdi va chilim buyurdi. Chilimni juda uzoq tortib chekkandan keyin, sarg'imtil tutunini og'zidan sovurib turib, o'tirganlarga xitob qildi:

— Nima noma'qulchilik qilib qo'yding, bachchag'arlar?

Hamma jim qoldi. U yer-bu yerdan bir-ikkita yo'tal ovozi eshitildi.

— Qani, gapirib ber menga. Nima noma'qulchilik qilding?

Yana o'sha og'ir jimlik buzilmadi. So'ngra mingboshi Qosim laylakka yuzlandi:

— Qani, Laylak, sen gapir, bo'lmasa!

— Men, taqsir, podsholikning odami bo'lsam. Nima deb gapiraman? Yurt o'zi gapirsin. Haqiqat ma'lum bo'ladi.

Hamma gapni yo'lda gapirib bo'lgan Qosim laylakning yurt oldida gapirib, javobgar bo'lishdan o'zini olib qochayotganligi ma'lum edi.

— Bo'lmasa gapiringlar. Nega jim turasanlar? Men haqiqatni bilay, deb keldim.

Nihoyat, boyga qarab musht ko'targanlardan biri o'rnidan turdi. Ko'zlarida g'azab uchqunlari chaqnasada, harakatlari og'ir va beparvo edi.

— «Xotintaloq», demasalar, hech kim tegmas edi ularga. Hammamizni birdan xotintaloq, deb yubordi, taqsir.

— O'zi xotintaloq! — dedi mingboshi.

Mingboshidan bu xil javobni kutmagan olomonga jon kirdi. Har qaysi har tarafdan qichqirib gapira boshladi.

— Bittang gapir! Bittang! Hammang baravar shovqin qilasan, gap uqub bo'ladimi! Bitta-bitta kelib gapir.

Boshqa birisi turib keldi.

— «Senlar namoz o'qimaysan», deydi, taqsir. «Benamozsan», deydi, taqsir. Nima u podsholik qo'ygan raismi yo imommi? Tergasa imom domla tergasin.

Yana biri turdi.

— O'zi namoz o'qiydimi deng, taqsir. Jumaga kelsa keladi, kelmasa yo'q. Ikkala hayit namozini o'qiydi, munisi rost, lekin.

— Bittasi o'lgudek xotinboz. Uning dastidan xotinlarimiz, ona-singillarimiz ko'chadan o'tolmaydi. O'tgan xotinga gap tashlaydi. Uyat gaplarni gapiradi...

— Bittasi sudga pul beradi. Boshqalar birni birga bersa, bu birni beshga, o'nga beradi. Qishloq odamining uyi kuyib ketdi, taqsir!

— Hamma yerlar asta-sekin o'shalarga o'tib ketayotibdi. Qo'limizda yer qolmadi, hammamiz chorakor bo'lib qoldik. Ishlatib-ishlatib hech narsa bermaydi. Bir so'm qarzimizni o'n so'm qilib ko'rsatib, bizga ko'nadigan haqni olib qola beradi.

— Bir daftari bor, o'zi yozib, o'zi o'chiradi. Biz bilmasak, taqsir... «Muncha qarzing bor, munchasi tegdi, munchasi qoldi», deydi. Biz qaydan bilaylik?

— Bo'ynimiz qarzdan chiqmaydi.

— «Podsholik vaynaga chaqirarmish», deb eshitdik. Tezroq chaqira qolsa, hammamiz ketardik. Jonimizdan to'ydik, taqsir.

Orqasida o'tirganlarga qaradi. Ular barchasi bir ovozdan tasdiq qildilar:

— Shunday, taqsir. Jondan to'yib ketdik.

— Hammamiz bola-chaqalik bo'lsak... Nechtadan yosh jo'jalarimiz bor... Biz o'zimiz och-yalang'och o'ta beramiz: yosh bola uni bilmaydi: «non» deydi, «osh» deydi...

— Kecha-kunduz ishlab, qorning to'ymasa, bu qanday zamon bo'ldi?

Mingboshi qichqirdi:

— Gapirib bo'ldingmi hammang?

— Bizda ayb yo'q, taqsir! — dedi birisi.

— Bizda ayb yo'q! — deb qichqirdi olomon.

Shu vaqtda halloslab yugurganicha Umar amin kelib qoldi.

— Ha, Umar, qaerda qolding? — dedi mingboshi.

— Assalomu alaykum, taqsir! Xush kelibsiz. Men shu to'polon bilan ovora bo'lib yuribman. To'polonda to'pponchamni yo'qotib edim, shuni topib oldim.

— Boylar qani?

— Biri behush bo'lib uyida yotibdi. Biri qo'li singanga o'xshaydi. Boshi yorilibdi. Yana bittasi bir joyga bekingan bo'lsa kerak. Daragi yo'q...

— O'sha ikkalasi qishloqda qoladigan bo'lsa, biz qishloqni tashlab ketamiz! — dedi birov.

— Rost aytasan! — deb qichqirdi olomon.

Mingboshi nima qilishini va nima deyishini bilmasdi. Nihoyat, qarorini berdi:

— Olomon tarqalsin. Hamma uy-uyiga ketsin. Tirikligini qilsin. Aybdorlarni biz o'zimiz topib, jazosini beramiz.

Uning so'zlarini amin ham baland ovoz bilan takror qildi.

— Ishqilib, insof bilan tergalsin! Yurtda ayb yo'q!

— Yurt og'iz ochmay turib, Umaraliboy so'z boshladi.

— Hammamizni haqorat qildi.

— Mingboshi tog'aning o'zini ham haqorat qildi, zang'ar!

Amin borib, shu so'ng so'zni aytgan odamga do'q qildi:

— Jim tur, ablah! Unaqa gaplarni gapirma!

Yana o'zaro g'udrashib-g'udrashib to'planganlar tarqalib ketdilar. Ular ketgach, mingboshi machitga borib, voqea joylarini ko'rdi: imom domlani topdirib kelib, voqea to'g'risida batafsil ma'lumot oldi. Imom qo'rqqanidanmi yo boshqa bir xayol bilanmi, bo'lgan voqeani aynan gapirib berdi. Ortiqcha yolg'on qo'shmadi, hech kimni qoralamadi, hech kimni yoqlamadi ham. Ma'lumot olingandan keyin domlaga javob berildi. Endi ikki ellikboshi, bir amin va bir mingboshi maslahat uchun machit ayvoniga chiqib edilar, tashqaridan Yodgorxo'ja kirib keldi. Mingboshi qaragali ulgurmay turib, boy shovqin soldi.

— Mingboshi yotadi to'rtta xotinni olib! Bu yerda yalangoyoqlar, boshkesarlar, o'g'rilarning dastidan hech kimga kun yo'q! Bu qanday zamon bo'ldi?

Mingboshi supa qirg'og'ida to'xtadi.

— Shovqin solmay gapiring. Qulog'imiz bor.

— Bizning bo'lusimizda qulog'i bor odamlar qolgani yo'q o'zi! Endi yer-suvimizni sotib, boshqa taraflarga ketmasak bo'lmaydi.

— Nima bo'ldi sizga, Yodgorxo'ja? Nega yotig'i bilan gapirmaysiz? — dedi amin.

— Sen gapirma, xotintaloq! Sendan kattarog'idan ham qo'rqmayman men!

— Nima, nima? — dedi mingboshi. — Sen quturibsan, Yodgor! Senga odam muomilasini qilib bo'lmas ekan o'zi. Yurt bilib qilganga o'xshaydi...

— Voy-do-od!.. — deb qichqirdi Yodgorxo'ja. — Voy-do-od Akbaralining dastidan! Aytmadimmi! Hamma o'g'ri, boshkesar, yalangoyoqlarning boshida Akbarali o'zi turadi! Kechalari yigitlari bilan bosma qiladi. Yigitlari hammasi bosmachi, o'g'ri...

— Olib bor bachchag'arni! Qamab qo'y! — deb baqirdi mingboshi; jahlidan o'z qo'llarini chimchilardi.

Hech kim qimirlamadi.

— Qamatib ko'rchi, qani! Qamatib ko'rchi! Nima qilar ekanman! O'g'ri, bosmachi!..

— Hoy, bolalar, senga aytaman! — deb qichqirdi mingboshi. — Olib bor bu bosmachini, qamab qo'y o'sha hujraga!

Darvoza oldidagi yigitlardan uchtasi kelib boyga yopishdilar. Boy ularning uchalasiga ham so'z bermasdan, og'zidan to'xtovsiz «kufur» sovurardi. Keyin boshqa yigitlar ham yopishib, uni o'rtaga oldilar: zo'r bilan so'fining hujrasiga olib kirib, ustidan qulf soldilar. Bu vaqtda machitda darvoza oldiga yana odamlar to'plana boshlagan edi. Mingboshi o'zining eski, sinoqta yigitlaridan birini eshik oldiga qo'ydi: yangi yigitlardan ikkisini uning yordamiga berdi. So'ngra sinoqta yigitning qulog'iga egilib, bir oz ta'limot berganidan keyin guzarga chiqib, otiga otlandi. Ot tizginini ushlab turgan aminga ikki og'izgina so'z dedi:

— Yurt ham tinchidi, boylar ham tinchidi. Mundan keyin ikkovi ham noma'qulchilik qilmaydi. Yurtga ham nasihat qil: o'z boshiga ish tutmasin. Kerak bo'lsa, bizga arz qilsin. O'zimiz adabini beramiz!

Shundan keyin otning boshini burib, yigitlari bilan birga o'z qishlog'iga qaytib ketdi.

Qorong'i tushgan, yo'lning ikki tomonida — quruq g'o'zapoyasi qolgan, ba'zi joylarda g'o'zapoyasi ham yulinib yalang'ochlangan yerlar endi birinchi qorning sovuq tamosini kutib yotardilar. Kelishda birushta chopib kelib oq ko'pikka tushgan otlar bu qisqa to'xtalishda jindak dam olgan bo'lsalar-da, yana o'sha xilda tez yurishga toblari yo'q edi. Uncha-munchaga charchamaydigan saman yo'rg'a qamchining yeli bilan oyoqlarini bidratmoqqa boshlaganda, mingboshi o'zi uning boshini tortib qo'yardi. Yigitlarning otlari, bari bir, qamchi zarbi bilan ham shoshilmoqchi emasdilar. Yigitlar mingboshiga malol kelmaslik uchun ohistagina g'ingshib ashula boshladilar. Nozik zamon, qorong'i kecha, sovuq havo, keng dalada bu xirgoyi negadir mingboshiga yoqib ketdi.

— Ha, yigitlar, ovozingni ko'tara tush!

Yigitlar bir yerga g'ujum bo'lib olib, ashulani bir yo'sinda cho'zib yubordilar. Otlar ham ashulaning zarbiga oyoq tashlab, ohista-ohista borardilar.

Bu chopib kelish va hademay yana otga otlanib uyga qaytishning bema'niligini mingboshi o'zi ham anglagan edi.

«Butun bir qishloq qo'zg'olon ko'tardi, — deb o'yladi u. — Bir odamni chala o'lik qilib tashladilar. Machitning panjaralari sindi. Yana birisi qochib qutulmasa, u ham o'lardi yo mayib bo'lardi. Yigit-yalang chinakam quturgan edi. Bu, hazilakam gap emas. Qishloqning ikki ellikboshi, bir amini hech narsa qilolmasdan, menga odam yuboribdilar. Apil-tapil kiyinib, otga otlanib, yetti-sakkiz yigitim bilan keldim. Kelishim chakana bo'lmadi! Faqat natijada? Natija nima bo'ldi? Nimaga erishdim! Nima qildim? Nimani bajardim? Yigit-yalangning arzini eshitdim (mingboshi, negadir, endi yurt degisi kelmaydi). Yodgorxo'ja o'shqirib kelib edi, qamatib qo'ydim. Jindak hovuridan tushmasa bo'lmaydi. O'z qilmishiga pushaymon bo'ldimi, yo'qmi — uni bilmayman, ammo-lekin bugun-erta chiqib ketishiga qattiq ishonib turganini yaxshi bilaman. Qamoqdan chiqsa, menga yomon osiladi. Iloji bo'lsa, yarim podshogacha boradi. Qo'ymaydi lekin! Bitta og'zi katta boyga kuchim yetmagandan keyin bu shop-shalopni nega taqdim etdi? A, puli tushkur-ey! Amaldan ham kuchlik ekan-a!.. Rost-da, Yodgorxo'janing oqibati nima bo'lishini men bilamanmi? Shunday katta mingboshi? Yo'q, bilmayman! Uni shu holda ko'p saqlab bo'lmaydi, ertaga erta bilan yo konvoy bilan shaharga jo'natiladi, yo chiqarib yuboriladi. Boshqa yo'l yo'q! Shu yo'llarning qaysi biri ma'qul? Qaysi biri ep keladi? Qaysi birini qilsam, o'zimga xayriyat bo'ladi? Bilmayman! Hayronman... Shu topda Miryoqub juvonmarg bo'lsaydi. Bir og'iz gap bilan ma'qul maslahatni topib berardi: «Qo'y ham butun, bo'ri ham to'q» bo'lardi. Xotin dardiga qolmay o'lsin, betavfiq! Bitta g'ayridin topib, necha oylik yo'lga ketibdi-ya!..»

Otlar o'lchovli qadam tashlab va boshlarini jirka-jirka

ilgari bosarkan, yigitlarning goh ko'tarib, goh pasayadigan mungli ashulalari ostida mingboshi dodhoning miyasi shu xil fikrlar bilan tashvishlanardi. Mingboshi o'zining Miryoqubsiz hech narsaga yaramaganini umrida birinchi marta o'z-o'ziga iqror qildi. To'g'risi — qilishga majbur bo'ldi. Mingboshi qancha o'ylasa ham ma'qul bir maslahat topa olmadi. Miyasi charchadi. Boshi yengilgina og'riganday, ko'zlari tinganday bo'ldi. «Xayr, qo'y, — dedi yana o'ziga-o'zi. — Uyga boraylik-chi. Hech bo'lmasa, Hakimjondan maslahat so'rarman».

So'ngra yigitlarga yuzlandi:

— Qani, yigitlar, sho'xroq ashuladan bo'lsin! Janoza bosib ketdi hammayoqni.

Yigitlar kuldilar. Yo'lda uchragan kichkina bir qishloqdan chiqqach, sho'x ashula boshlandi. Ungacha qish nafasining sovuq va serjahl shamoli qo'zg'aldi, uning ignalari yuz va quloqlarga achitib-achitib sanchilardi. Qor uchqunlari kelib goh-goh yuzlarni chimchilardi. Bir ozdan so'ng saman yo'rg'aning oyoq bidratganini ko'rib, yigitlar ham qamchiga zo'r berdilar va el uyquga yotganda, o'z qishloqlariga kirib bordilar. Hayal o'tmay, yigitlardan ikkitasi charchamagan otlardan ikkitasini olib, yana Qumariqqa jo'nadilar, Yodgorxo'jani bo'shatib yuborishga farmon berilgan edi. Sultonxonni o'z hujrasida qoldirib, negadir halitdan qishlik po'stinini ustiga tashlab va uyqusiragan singari dovdiranib hovliga chiqqan Hakimjon ikki yigitni u yoqqa jo'natgach:

— Chakki qilib qo'yibsiz, xo'jayin! — dedi. — Bilmadim, bu ishingizning oqibati nima bo'larkan?

— Nima bo'lsa bo'lar! — dedi mingboshi. — Olsa amalini oladi-da. Jonni olarmidi? Shuncha yil xizmat qilganman.

— Munday nozik vaqtda xizmatga qaramaydi, xo'jayin.

Mingboshining jahli chiqdi:

— Uyqudan qolibsan, mirza! — dedi u. — Tur, joyingga kirib yot! Erta bilan gaplash men bilan. Yuvuqsiz!..

O'zi ham tappa-tappa qadam tashlab, ichkariga yura boshladi. Mingboshi bu uzun suhbatni munday cho'rt kesib ichkariga yo'l solganiga ichdan xursand bo'lgan

mirza o'z uyiga kirgan vaqtida, mingboshi dodhoning xotini yuragini changallab o'tirardi.

— Qo'rqmang, — dedi Hakimjon uni po'stini orasiga olib, — siz o'z uyingizda o'tiribsiz...

Bu kecha Hakimjon qancha kam uxlagan bo'lsa, mingboshi undan ham kam uxladi. Yarim kechada katta xotinini uyg'otib, jindak go'sht qovurtirdi. Bir shisha aroq bilan uni yegandan keyin yana bir shisha aroqni yarim qildi va shundan so'ng och bo'riday uvlab-uvlab uyquga ketdi.

XVII

Kechasi tashqariga bir qarich qor tushdi. Derazalarning oynaklari panjara gulchin singari g'alati-g'alati naqshlar bilan bezandilar. Jips yopilmaydigan eshiklarning ikki qanoti orasidan sovuq qorning zaharli izg'irini kirib, uylarning tokchalarini aylanmoqqa, uning sovuq «huv-huv»lari shift oralaridan eshitilmoqqa boshladi. Qaldirg'ochning tashlandiq uyasidan chigirtkaniki singari ingichka hushtak ovozi chiqardi: izg'irin berkinib olib, sho'xlik qilayotganga o'xshaydi!

Hakimjonning uyqusiragan ko'zlarini uqalab turib kecha yarmida qilgan vahimasi mingboshining o'ziga ta'sirsiz qolmagan edi. Kechasi ichilgan bir yarim shisha aroq uning miyasini tarozi toshiday og'irlashtirib, bir nafasda ko'zlarini yumdirgan bo'lsa-da, tong yorishar-yorishmas yana bezovtalik bilan uyg'onishiga sabab bo'ldi. Ko'zini ochgan vaqtida boshi xuddi pressga tushgan toypaxtadek yorilgudek bo'lib og'rirdi. Zo'rg'a-zo'rg'a qayrilib yoniga qaradi: sevimli bulbuli, sochlarini to'zdirib, shirin uyquda rohat qilmoqda edi! «Nima qilsam? Uyg'otsammi? Yo uyqusiga xalal bermasammi?» deb o'yladi mingboshi. Faqat boshida o'tirgan alvasti yo'g'on boltasini qo'liga olib, endi o'tin yorishga kirishganidan chor-nochor qichqirishga majbur bo'ldi:

— Tur, hay! Tur, deyman! — Bu mingboshining o'z sevimlisini birinchi marta senlashi. — Qotib qolibdi bachchag'ardi qizi! — Zebini turtdi. — Tur, deyman, tur!!

Zebi ko'zini ochib, darhol eshik tomonga qaradi:

— Kim u chaqirgan?

— Menman, men. Tur o'rningdan! — dedi mingboshi uning yelka tomonidan. — Tur, kechagi aroqdan olib ber!

— Sizga nima bo'ldi?

— Keyin bilasan. Bo'l, aroqdi ber tezroq.

Bir katta piyolaga choch qilib to'ldirgandan keyin bir shimirishda ichib bo'ldi.

— Ah, xudoga shukur! — dedi. — Yotib uxlay ber. Hali vaqt erta.

O'zi og'irlik bilan o'rnidan turib, tashqariga chiqdi. Tashqarida jon asari yo'q. Hamma uyquda. Yangi yoqqan qor oyoq ostlarida g'irchillama etik singari ovoz berib yotardi. Darvoza darichasi ochiq: demak, yigitlarning namozxoni O'lmas ota namozga chiqqan. So'riga borib o'tirmoqchi bo'ldi: so'ridagi yig'ishtirilmagan paloslar qalin qor ostida qolganlar. To'shakcha ustidagi dumaloq bolish — tepasi qor, ikki yoni quruq — chala bo'yalgan tuxum singari chuchmal va g'alati ko'rinardi. Ayvondagi gilamga chiqib o'tirib, boshini chayqab ko'rdi. Og'rig'i tarqalgan, yengillashganday bo'lgan, lekin miyaga o'ylarni to'playdigan holda emasdi. O'ylar bulut ustiga mingashgan bulutday mujmal va rangsiz edilar. Gilamga uzanib, boshini qo'llari ustiga qo'ydi: bemahal qishning sovuq tongida shamollab uyquga ketmoq istardi. Bo'lmadi. Uyqu kelmadi. Ko'zlarining ust pardasi yumilsa-da, ich pardasi yumilmoq istamas edi. Go'yo bir bo'lak go'sht boshining oldiga — xuddi peshona tepasiga kelib olib, bilakdagi tomirday birushta lo'mshib turardi. «Nima bo'ldi menga?» deb o'ylamoqchi bo'ldi mingboshi: shu uch so'zni miyasiga to'play olmadi. Uchala so'z boshini uch burchiga tarqalib, har tomondan poyma-poy ovoz berdi: «Bo'ldi... nima... menga?...» O'rnidan turib, kattakon chorsisini suvga botirdi, so'ngra naridan-beri siqib olib boshiga bosdi va shu bo'yicha kasal odamday o'ngtab yotib, uyquga ketdi.

Hakimjon kelib uyg'otganda, soat 11 ga yaqinlashgan edi. O'rnidan turmasdanoq yotgan joyida uchta-to'rtta qalampir solingan achchiq sho'rvadan yarim kosa ichdi.

Ustiga katta ko'rpa tashladilar, yotib terladi. Shundan keyin miyasi joyiga kelganday bo'lib o'rnidan turdi.

— Miryoqub akamdan xat bor, — dedi Hakimjon.

— Kim olib keldi?

— Boshqa qog'ozlar bilan birga shahardan yuboribdilar.

— Nima debdi?

— O'qib bera qolay.

Hakimjon o'qiy boshladi. Boshida uzundan-uzoq duoyu salomlar — hammaga alohida-alohida, nomma-nom...

— O'ta ber, — dedi mingboshi.

— Undan keyin yo'ldagi sarguzashtlar...

— O'ta ber...

— Undan keyin Qrimning tog'lari, dengizlarining ta'rifi. Bir necha bet...

— O'ta ber... Laqma bo'lmay o'lsin! Qachon kelishini aytmaydimi?

— Yo'q, — dedi Hakimjon. Xatni endi Hakimjon o'z ichida o'qiy boshladi.

— Haligi manjalaqi to'g'risida hech gap yo'qmi?

— Yo'q. Bir joyda «juda xursandman, ayshim joyida», debdi.

— Uning ayshi joyida bo'lmagan vaqti yo'q... Mening uyim kuydi bu yerda! O'ta ber!

— Mana munda bir gapi bor. «Agarda bironta nozik ish chiqib qolsa va ham hokim to'ra bilan xilvatda gaplashmakni taqozo qilinsa, hamma gapni Zunnunboy orqali noyib to'raning og'achalariga aytilsin. Inshoollo, har qanday mushkul ishlar ham hayriyat saranjom topqay».

— Shunisi kerak edi bizga. Yana qaytib o'qi! Ha, balli, endi qayerga tushgani bormi, yo'qmi?

— Ha, adresi bor.

— Bo'lmasa, tezlik bilan telegramma jo'nat. «Tez yetib kelmasang bo'lmaydi», degin. Uqdingmi?

— Xo'p, xo'jayin. Menga qarang, dodho. Xatning boshida g'alati bir gap bor, siz qunt qilmay o'tdingiz.

— Xo'sh, xo'sh? Qani?

— Mana muni eshiting: «Janobi hurmatlik otaxoni-

miz, qiblagohimiz, millatning otasi va taraqqiyparvar mulla Akbarali afandi mingboshi dodho hazratlariga ko'p-ko'p salomdan so'ngra andog' ma'lum va ravshan bo'lgaykim... v.h.».

— Nima balo? Jinni bo'ldimi? Yo'q yerdagi bema'ni so'zlar...

— Bilasizmi, xo'jayin, bu so'zlar hammasi jadidlar aytadigan so'zlar. Abdisamat mingboshiga Samarqanddan bir jadid muftining yozgan xatini ko'rib edim. O'shanda ham «millatning otasi, taraqqiyparvar...» degan gaplar bor edi...

— Nima degani u?

Hakimjon bu bema'ni savolga javob bermaslikni ep ko'rdi. Shu uchun kaltagina qilib:

— O'zim ham hayronman, bilmayman, — deb qo'ya qoldi.

— Ishqilib, bizni Abdisamatga tenglashtiribdi, degin. Miryoqubdan kelgan oqibat shu bo'libdi-da...

Shu topda mingboshining yuzida yosh bolalarning arazlashi singari bir narsa boridi. Hakimjon muni darrov payqadi. U avval bilinar-bilinmas qilib kuldi, keyin ovozida bir nav ermak asarini bosolmagan holda mingboshiga «nasihat» qildi:

— Yo'q, xo'jayin, unday demang. Miryoqub akamning sizdan boshqa hech kimi yo'q. Sizga hech qachon ignadek yomonlikni ravo ko'rmaydi.

— Men ravo ko'ramanmi, bo'lmasa? — dedi mingboshi.

Shu topda uning ko'nglidan «Mening kimim bor undan boshqa», degan alamlik bir fikr o'tdi. Mingboshi bu og'ir suhbatni yopmoqchi edi, shu uchun darrov so'zni boshqa tomonga burdi:

— Xo'sh, bolalar kelishdimi?

— Yo'q, xo'jayin.

— Nima, nima? Shu vaqtgacha kelmadimi? Qumariq qanchalik yo'l ekan? Xuftonda odam jo'natgan edik.

— Bilmadim, xo'jayin.

Xuddi shu paytda, yangi yigitlardan biri arvoh otni oq ko'pikka tushirib, chopganicha yetib keldi. Darvozani ochguncha bo'lmay otdan o'zini tashlab, rangi o'chgan

va halloslagan holda mingboshining qarshisiga kelib to'xtadi.

— Nima gap? Muncha hovliqding?

— Ish yomon, xo'jayin. Ish yomon...

Yigit so'zlay bilmasdi.

— O'tir, damingni rostla! Bitta-bitta gapir!

Mingboshi o'zi ham ikki qulog'ini dikkaytirdi. Yigitga bir piyola choy berdilar, ichdi, nafasini rostladi. So'ngra birin-birin so'zlab berdi.

* * *

Mingboshining kechasi jo'natgan ikki yigiti bu qishloqdan chiqmay turib, u qishloqda yana to'polon boshlandi. To'polonni qamoqda yotgan Yodgorxo'janing barzangiday ikki o'g'li bilan narigi — kaltaklangan Umaraliboyning bir o'g'li boshlaydilar: keyingi boyvachchaning qo'lida kichkinagina oppoq «Smit-vesson» to'pponchasi bo'ladi. Bular avval Yodgorxo'jani qamoqdan qutqarib, keyin Umaraliboyni kaltaklaganlarning boshlig'i hisoblanmish Mamaturdini otib o'ldirmoqchi bo'ladilar. Mamaturdining o'zi Umaraliboyga yigirma yil qarol bo'lgan kishi.

To'xtasin boyvachcha qo'lidagi oppoq to'pponchani yaltiratib qorong'idagi guzar oldidan o'tar ekan, ovozini bemalol qo'yib yubordi:

— O'z xo'jayiniga, non-tuzini ichgan kishisiga qo'l ko'targan odam qanday odam bo'ladi? — deb so'zlanadi.— Unday odamni tirik qo'yish yaramaydi. Uni tirik qo'ysak, boshqalar ham shunga ergashadigan bo'ladi.

Aka-uka boyvachchalar ham bu fikrni ma'qul topadilar va mardlarcha qadam qo'yib, guzar oldiga — machitga o'tadilar. Bu vaqtda guzarda oq alanga qilishib o'tirgan bir-ikki yigit darrov borib, eshitgan gaplarini Mamaturdiga aytadi. Mamaturdi qora sinchalog'i bilan o'ng qulog'ini bir kavlab olgach, juldur guppisini yelkasiga tashlab, uyidan chiqib ketadi: bir ozdan keyin ular ham besh-o'n kishi bo'lishib, ko'prik oldida — baqqol do'konining ayvonchasiga to'planadilar. Bu vaqtda birinchi qor qo'shinining ilg'orlari bu yerga yetib kelib,

bir-bir qator chizila boshlaydilar. Achchiq izg'irin childirmasini qo'liga olib, g'ijbangni qizitadi...

— Men hech kimga tegmoqchi emasman, — deydi Mamaturdi. — Machitda gap boshlagan kim bo'ldi? O'shalar! O'zlari «xotintaloq», deb so'kinmasa, biz qo'l ko'tarmas edik.

— Ha, albatta, — dedi yigitlar.

— Biz endi ham qo'l ko'tarmaymiz. Qo'l ko'tarib kelsalar, albatta, jon boricha tortishamiz.

Pakana To'xtash ko'pchilikning fikriga qo'shilmaydi:

— Ular qo'l ko'targandan keyin qo'l ko'tarsak, kech qolamiz, og'aynilar, — dedi u. — Orqalaridan quvib borib, birdaniga soldirmasak bo'lmaydi! Ha!

Erali semizning juvozkash bolasi To'xtashning fikrini quvvatlaydi:

— Bostirgandan bosgan yaxshi, albatta!

— Yo'q, senlar tushunmaysan, — dedi Mamaturdi.— «Og'zi qiyshiq bo'lsa ham boyning o'g'li gapirsin», degan gap bor. Kim kuchlik? Puli bor kuchlik. Podsholik, amaldorlik, yarim podsho — hammasi puli borning og'ziga qaraydi.

— «Puli borning gapi o'ng, puli yo'qning gapi to'ng»,— deydi yana bittasi.

— Ha, barakalla. Biz oldin qo'l ko'tarsak, bu nomard amaldorlaring butun qishloqni otuv qilishdan ham toymaydi. O'zlari bir nima deb kelishsa, biz o'shanga qarab muomala qilaylik.

— Ha, ha, to'g'ri, — dedi qishloq yigitlari.

Bir oz o'tgandan keyin Mamaturdi boshini ko'tardi:

— Menga qara, bolalar! Uning qasdi menda. Men o'zim olishaman. Senlar aralashmasang ham bo'ladi. Senlarda qasdi yo'q.

Yigitlar hammasi bir og'izdan:

— Yo'q! — deb qichqiradi. — Biz senga qo'l tegizdirmaymiz!

Bu orada uchala boyvachcha qamoqdagi «bechora»ni qutqarib olish uchun qancha zo'r berib, hech narsa chiqara olmaydilar. Mingboshining sinashta yigiti qattiq turadi, miltiq qo'ndog'ini o'z ko'ksiga qadab turib qichqiradi:

— Yaqin kelganingni otaman! Mingboshidan buyruq kelguncha hech kimni yaqin keltirmayman.

Uning yonidagi yigitda ham ov miltig'i bo'lganidan boy bolalari qo'rqadilar: to'pponchani qo'yniga solib turib qahramon boyvachcha achchiq-achchiq so'kinadi: bu bilan ular uchovi tez-tez qadam qo'yib, machitdan chiqib ketadilar. Machitning chap biqinidagi tor ko'cha bilan dalaga chiqib, undan suv bo'ylab to'ppa-to'g'ri Mamaturdining uyiga boradilar. U yerda Mamaturdi bo'lmaganidan «biror joyda berkinib yotgandir», deb uyning har tomonini qidira boshlaydilar. Mamaturdining gangib qolgan xotini «ko'chaga chiqib ketdi», guzardagilar «falon» desa ham quloq solmadilar. Xotin bechora boyvachchaning qo'lida oppoq to'pponchani ko'rgandan keyin qo'rqib, ko'chaga chiqib ketadi va ovozining boricha baqirib «dod» demoqqa boshlaydi.

Xotinining faryodini eshitgandan keyin Mamaturdi ishning nimaligini darrov payqaydi, yigitlar bilan birga o'z uyiga qarab yuguradi. «Hay, hay! Hay, hay! Bu nima gap?» deb eshikdan kirgan hamon boyvachcha ayvon oldidan yugurib kelib, unga qarata o'q uzadi. O'q Mamaturdining chap yelkasiga tegib, uni yarador qiladi, u yoqdan pakana To'xtash yetib borib, kaltagina bir tayoq bilan boyvachchaning qo'liga uradi, to'pponcha ikki-uch qadam nariga borib tushadi, narigi ikki boyvachcha bularga qarab tosh otishga kirishadilar. Shunday qilib, ikki orada yana urush boshlanib, natijada aka-uka boyvachchalarning biri o'ladi: biri ozroq kaltak yegandan keyin qochib qutuladi, to'pponchali boyvachcha esa to'pponchasidan voz kechib, qorong'ida bir joyga berkinadi. Qon ko'p ketganligidan Mamaturdi ham yiqilib qoladi. Uning xotini erta qachon o'zidan ketgan bo'ladi.

Machitda esa hujraning darpardasini ag'darib tashqariga chiqqan Yodgorxo'ja ikki yigitga so'z bermay chiqib ketmoqchi bo'ladi: yigitlar qor bilan namlangan yerda u bilan ancha olishgandan keyin qo'l-oyog'ini bog'lab, yana hujraga kiritib qo'yadilar. Shundan keyin ikki yigit yetib borib, mingboshining buyrug'ini eshittiradi. Boy qo'l-oyog'i bo'shalgandan keyin yigitlarni masxara qilib kuladi: juda bo'lmag'ur gaplar bilan haqo-

rat qilib so'kadi: «Hammangizni ottirib yubormasam, nomimni boshqa qo'yaman», deb qichqiradi. Yigitlar indamay tura beradilar. Faqat yengilgina kulib qo'yadilar. Yangi yigitlarning biri qattiqroq kulib yuborgandan keyin boy turib unga yopishadi — urmoq qasdida bo'lsa kerak. Shundan keyin sinashta yigitning man qilganiga qaramasdan, mingboshining yangi yigitlari uning o'zini anchagina kaltaklab tashlaydilar.

Butun shu hangomalar bo'lgan vaqtda qishloqning bir amin va ikki ellikboshisidan hech biri ko'rinmaydi: ular mingboshi ketar-ketmas, uylariga kirib yashiringan bo'ladilar...

* * *

Mingboshi butunlay gangib qoldi. Nima qilishini bilmaydi. Kimdan maslahat so'rashga hayron bo'ladi. Shu tirrancha Hakimjondan maslahat so'ray bersa, u nima xayollarga boradi? Holbuki, bu Qumariq voqeasi uni ikki o't orasiga tashlab qo'ydi: bir tomonda haqligi ochiq ko'rinib turgan fuqaro, xalq; bir tomonda — puli ko'p, obro'lik katta boylar. Mingboshining o'zi uchun, shu topda, fuqaro qo'rqinch emas: mingboshi nima desa, «yo'q» demaydi fuqaro. Boylar bo'lsa na fuqaroni bir chaqaga oladi (munisi-ku, mayli-ya), na mingboshini (mana, munisiga chidab bo'lmaydi!). Ochiqdan-ochiq so'kadi, haqorat qiladi, xalq oldida «seni u qildim, bu qildim!» deb baqiradi. Mingboshiga qolsa, ikkala boyni Sibirga jo'natardi. Lekin bu bo'ladigan ish emas. Fuqaro qancha haqli bo'lsa ham, shahardagi kattalar puli borning tarafini oladi, unga ozor bermaydi. Endi mundan keyin boylar ham tek turmaydi: bor-yo'g'ini advokatga berib, kattakon arizalarni yozdiradi: katta noyibga, uyezd hokimiga, yarim podshogacha ariza yuboradi. Ishqilib, mingboshining boshini yemay qo'ymaydi... Qani endi, Miryoqub bo'lsa! Albatta, bir tadbirini qilardi. Qo'ymasdi.

«Attang, — deydi mingboshi o'z-o'ziga. — Qishloq odamlari chakki qilibdi. Kechaning o'zida ikkala boyni o'ldirib yuborishsa yaxshi bo'lardi. Ayb menga tushmasidi: chunki men u yerda yo'q edim. Juda soz bo'lardi. Attang, attang...»

Nima qilishini bilmasdan ichkariga kirib, tashqariga chiqib, hovliga o'tib, ko'chada aylanib, kech kirguncha xayol surib yurdi. Kech kirganidan keyin Zebining yoniga kirib, kechagi ovqat bilan birga bir shisha aroqni ichib oldi. So'ngra to'shakka yonboshlab o'zining qo'pol va xunuk ovozi bilan turli-tuman, almayi-aljayi qo'shiqlarni aytishga boshladi...

Uchala xotin dahliz eshigi oldida to'xtashib, ashulani eshitar va ag'anab-ag'anab kulardilar. Faqat, birgina Poshshaxonning ko'zlarida Zebining to'yidan burun bo'lgani singari o'tkir bir jiddiyat ko'rinardi. Bu jiddiyat ichidagi og'ir iztiroblarning ko'zlarda aks etgan ko'lagalari edi. Uning shu topdagi ko'zlariga tikilib qaragan kishi qo'rqib ketadi. Faqat har biri o'z kunini o'zicha ko'rayotgan kundoshlar u ko'zlarning qo'rqinch ifodalaridan bexabar edilar... «U yenggan, yutgan, oshig'i olchi kelgan, deganini bo'ldirgan kundosh emasmi? Nima g'ami bo'lsin?..» Kundoshlar shunday o'ylaydi.

Lekin haqiqatda...

Haqiqatda esa mingboshi xotinlari orasida eng jonli va eng esligi bo'lgan bu juvon Sultonxonga qarshi ochgan kurashining natijasidan norozi edi. Zebi kelmasdan burun qanday zo'r berib o'ylagan bo'lsa, endi undan ko'proq xayol suradi. Uning xayoli daryolarday bu juvonni allaqaylarga oqizib olib ketadi. Ushlab bo'lsa ekan xayollarning uchini!

«Nima bo'ldi? Zebixonni keltirdik: qancha qiyinchiliklardan so'ng uning qaysarligini sindirib, qo'ziday yumshoq-yuvosh va muloyim qilib, mingboshiga topshirdik. Mingboshi endi undan xursand: Zebixonning ham xafa bo'lgani ma'lum emas.

Nega xafa bo'lsin? Mingboshi o'zi qari bo'lsa ham quvvati joyida: u o'zi bir xotinga qanoat qiladigan bo'lsa, xotin kishi, albatta, qanoat qiladi. Undan keyin, «Yosh xotin qari erkakni yashartiradi», degan gaplar bor: qariganda uylanadigan erkaklar shu hikmatga amal qilar emish. Mingboshiga tegmagani bilan Zebixonning baxti kularmidi? Ma'lum emas. Mingboshi qari bo'lsa, uning o'rniga mutloq yosh bir yigit kelishiga kim kafolat berardi, deysiz? Zebixonning otasi qizining noziga qaraydigan

kishimi? Yo'q, aslo yo'q! Mingboshi bilan oralari tuzalgandan keyin muni Zebixonning o'zi iqror qilmadimi? Bir kuni kundoshlariga nima dedi u? «Ov, — dedi, — qiz bolaning peshonasi qursin! O'zi xohlab erga tega olarmidi? Meni otam shu qari odamga berdi, deb koyiyman: munga bermasa kimga berardi? O'zim suygan yigitga berarmidi, qalay? Tantiligi tutib ketganda, eshonboboga berib yuborardi... U mundan besh battar! Xo'sh, mingboshining o'zi, odamlar aytganday, juda xunuk va badbashara odammi? Albatta, ko'p erkaklardan xunukroq... O'lgudek qo'pol... Ammo-lekin dunyoda undan ham xunuk, undan ham qo'pol erkaklar bor-ku! Munga bermasalar, o'shalardan biriga ham bermas edilar, deb kim ayta oladi? Hech kim!»

Poshshoxonning o'tkir o'yi, o'rgimchak iniday har tomonga yoyilib, miyasini g'ovlatdi. Tinim yo'q u o'ylardan!

«Sultonxonning o'rnini Zebixon egalladi. Mingboshi Zebixonning uyiga butunlay kapa tikib oldi. U uydan goh yosh kelinning quvnoq va bolalarcha kulishi, goh qari kuyovning xursand qiyqirishlari, goh bo'lsa, yangi qayliqning yo'rg'a zarbli dutori bilan shirin va shirinlik ovozi, goh bo'lsa, yangi keltirilgan gramofonda Netayxonning qichiq yallalari eshitiladi... Ana, turmush! Ana, kuyov-qayliq! Poshshaxon bilan Sultonxon qayliq bo'libdimi? Zebixonga elchi qo'yib yurilgan vaqtlarda mingboshi bir so'z degan emasmidi: «Shuni qo'lga keltirsam, bor-yo'g'imni tutaman. Bor-yo'g'im shuniki bo'ladi. Bittagina bola tug'ib bersa, merosxo'rim bo'ladi. Boshqalarga hech narsa yo'q!» Yaqinda ham Hakimjonga aytgan emish: «Men endi topdim baxtimni. Hammayog'im shuniki. Boshqalarga besh-to'rt tanob yerni tirikligimda o'tkazib berib, qolgan davlatimni batamom shunga qoldiraman». Mingboshining katta davlatidan katta meros kutgani uchungina qora ko'zli Miryoqub Poshshaxonni quchog'iga olgan emasmidi? Orada va'da berishlar bo'lgan emasmidi? Miryoqubday qora va chiroyli ko'zli, tanijoni sog', o'zi bardam, bazmchi, aysh-u ishratni hamma vaqt shirin suhbat bilan boshlaydigan, ozoda va shirin so'zli erkakni qanday topib bo'ladi?

Mingboshining hamma davlati qolmaganda ham, ko'proq qismi Poshshaxonga qolganda, Miryoqub yana quchog'ini ochib kelardiku-ya. Bir o'ris xotin bilan allaqayoqqa ketgan emish. Bu erkak xalqi shunaqa itmijoz bo'ladi. Bittaga ilashsa ergashib ketaveradi... Mayli, o'ynab keladi. Mingboshining katta davlati tinch qo'yadi, deysizmi?»

Poshshaxonning kuchli o'ylari shamolday uchadi, baland-pastni aylanadi. Qani endi ularni tutib bo'lsa!

«Miryoqubga va'da qilingan katta davlat yaqin o'rtada Zebixonga tegadurg'onga o'xshaydi. Mingboshi, axir, hamma xotinlaridan qari. So'ng vaqtlarda aroqqa yomon berildi. Bu xilda icha bersa, birida bo'lmasa, birida yuragi kuyib o'ladi. O'limi ham yaqin endi uning! Yurt besaranjom... Mingboshiga emas, undan kattarog'iga ham so'z bermaydi. Qumariqdagi to'polon mingboshining oshiga zahar qo'shib qo'ydi, o'tirar joyini topolmaydi. Mingboshi bu ketishda o'lmaganda ham yo bekor bo'ladi, yo boshqa. Achchig'i kelsa, «vayna»ga ketib qoladi... Bordi-yu, bir kun erta bilan mingboshi jon taslim qildi. Davlati nima bo'ladi? Davlati qursin! Hammani yeb ado qiladiganga o'xshaydi. Ilgari to'rt kishi o'rtasidaydi, endi besh kishi o'rtasiga tushdi. Ilgari hech bo'lmasa, har kimga o'z hissasi tushadi, degan umid boridi: endi uch xotinga bir hovuchdan yer, qolgan hammasi Zebixonga. Dunyoda o'z oyog'iga o'zi bolta chopadigan ahmoq ham bo'ladimi?»

Oynaga qaraydi Poshshaxon: «Mana, mana, o'sha ahmoq!» deydi, yig'lashga hozirlangan ovozi bilan qahqah solib kuladi.

Poshshaxonning jahliga tekkan yana bir narsa — Sultonxonning beparvoligi! Shu beparvolik, shu o'ynabkulib yurishlar Poshshaxonni sil qiladi, sil!

«Nima bo'ldi bu juvonga? Ertadan-kechgacha kundoshlari bilan o'ynashadi, gapiradi, ashula qiladi, kuladi, kuldiradi, tegishadi, hazil qiladi, qitiqlaydi, qochadi, quvlaydi, quvlashadi. Qor yoqqanidan beri qishloqning yarim xotin-qizlari bilan qor otishib chiqdi... Uchta bilan «qor xati» o'ynab yutdi... Nima balo bo'ldi bu juvonga! Kech kirsa, xuftondayoq o'zi uyiga chekilib, eshikni ichi-

dan berkitib oladi: tong otguncha dom-daraksiz yo'q bo'lib singib ketadi... Eng ashaddiy dushmani Zebixon edi: eng yaqin o'rtog'i Zebixon bo'lib qoldi. Ikkalasi sirdosh, mahram...»

Bir zamon Sultonxonning boshidan o'tgan uyqusiz kechalar endi Poshshaxonning ko'zini yumdirmaydi. Har kuni shomdan tortib, azongacha yotgan joyida u yoq-bu yoqqa ag'anab o'y o'ylaydi. Ko'p o'ylash natijasida, Sultonxon o'zining ma'lum qarorini berib darhol ishga kirishgan edi, endi Poshshaxon ham, o'zining qo'rqinch qarorini berdi va ishga bosbladi. «Endi bir o'q bilan ikki qushni ag'darish kerak».

* * *

Poshshaxonning qarori qanday qo'rqinch bo'lsa, uning bajarilishi shu qadar tez va oson bo'ldi: baqqoldan yashirincha oldirilgan kuchala kichkinagina dekchada ertadan-kechgacha qaynadi: ertalab uning suvi bir choynakka solinib, Zebining uyiga olib kirilishga mo'ljallandi... Bu vaqtda mingboshining qolgan uchala xotini Dadaboy baqqolning katta qizinikiga ziyofatga chiqib ketgan edilar. Mingboshi esa shoshilinch sur'atda shaharga chaqirilgan, yashirib bo'lmaslik darajada besaranjomlik va talvasa ko'rsatgan holda ertalab shaharga jo'nab ketgan edi. Poshshaxonning uyida allaqanday bir qarindoshi o'tirganligidan kundoshlari uni qistamadilar. Xadichaxon kelib uni tashqariga chaqirib olgan va «Mehmoningizni jo'natgandan keyin chiqing. Kechgacha o'ynashib o'tiramiz», degan edi.

Shunday qilib, o'zi yolg'iz qolgan Poshshaxon bemalol Zebining uyiga kirdi... Tokchada bir kichkina choynakda «tabarruk» suv bor edi, u suvga Razzoq so'fining iltimosi bilan eshonning o'zi duo o'qib dam solgan, uni ichgandan so'ng tez fursatda Zebi homilador bo'lib, bola tug'ishi kerak edi. Choynakdagi «tabarruk» suvni ho'l obrezga to'kib tashlab, o'rniga o'z choynagidagi suvni to'ldirdi. Tamom. «Zebi kechqurun chiqib suvdan ichadi-da, til tortmay o'ladi. To'rtinchi xotinning uchinchidan boshqa kundoshi bo'ladimi? Muni yosh bola ham biladi...»

Uydan to'ppa-to'g'ri baqqolning qizinikiga chiqdi. Anchagacha kundoshlari va o'rtoqlari bilan gaplashib, o'ynashib, kulishib o'tirdi. O'zi zahar berayotgan kundoshini bir quchoqlab o'pti... Zebining o'pishlari issiq va astoydil bo'lsa ham, Poshshaxon negadir halitdan uni o'likning sovugan lablaridan olganday bo'lar va nishab suvga tegib turgan maysa uchiday yengilgina qaltirardi. Qahqahalar bilan dunyoni boshiga ko'targan vaqtlarida ham o'z qo'lining beixtiyor ko'kragiga borib qolganini payqar, allaqanday sovuq bir tuman parchasining ko'kragida ivirsib, u yer-bu yerga qadalib yurganini sezardi. Shu qadalgan narsani chiqarib yubormoq uchun o'zini zo'rlab bo'lsa ham, bir-ikki marta qattiq-qattiq yo'taldi. Faqat bu yo'tal uning og'zidan emas, allaqanday yetti yot begonalarning og'zidan chiqdi, bu yo'tal ovozidagi oriyat shu qadar ochiq ediki, yo'taldan so'ng Poshshaxon yana ko'ksini g'ijimlashga majbur bo'ldi.

— Nima bo'ldi jonim, sizga? Shamollab-netib qoldingizmi? — deb so'radi Zebi.

Zebining shu mehribon, shu sodda, shu bolalarcha ma'sum ko'zlarida samimiyatdan boshqa hech qanday ma'no bo'lmasa-da, Poshshaxon unda quyidagi so'zlarni o'qidi: «Bir meni o'ldirganing bilan maqsadingga yetolarmiding? Bekor mening yosh jonimni juvonmarg qilganing qoladi».

Shundan keyin, haligi tuman parchasi ko'krak tegrasida ot qo'yib, chopqillay boshladi. Butun a'zoi-badanidan yalmog'iz kampirning muzdek sovuq qo'llari o'rmalaganday bo'lardi. Yosh juvonning rangi o'chdi.

Kundoshlari uning tegrasini oldilar:

— Nima bo'ldi, Poshshaxon, sizga?

— Sovuq oldiribman, shekilli...

— Chiqib yoting, bo'lmasa.

Ovqatga ham qaramasdan, uyiga chiqib ketdi. Shu bo'yicha ertasi kuni ham boshini ko'tarolmadi...

XVIII

— Akbarali, sen shunday bir ish qilibsanki, — dedi noyib to'ra, — endi mundan nari men seni himoya qilolmasman.

Mingboshi nima deyishini bilmasdan yerga qarab jimgina o'tirardi.

Noyib to'ra davom etdi:

— Ikkala boy bir bo'lib eng yaxshi advokatga ikki quloch ariza yozdirishib, to'ppa-to'g'ri hokim to'raga tutibdilar. Hokim to'ra telefon berdi, mendan bir oz koyidi. Arizani ko'rdim. Yomon narsalar bor unda... Seni endi hech kim himoya qilolmas, deb qo'rqaman...

Mingboshi beixtiyor boshini ko'tarib, noyib to'raga qaradi, so'ngra yana burungidan ko'ra pastroq engashib, amirkon etigining bukilgan boldirlariga tikildi.

Noyib davom etdi:

— Hozir, sen kelmasdan bir oz burun, bir odamni Qumariqqa yubordim. Uchastka pristavi ham o'sha yerda. Machitda ikki boyga qarshi musht ko'tarib chiqqanlarning hammasini qamoqqa oladi. Boshqa chora yo'q. Imom domlaga bizning nomimizdan rahmat aytishga buyurdim. Juda yaxshi so'z qilgan, deydilar.

Mingboshi chidayolmadi:

— Taqsir to'ra, men hayronman: haligi qamoqqa olinadiganlarda zarracha gunoh yo'q-ku. Bu qanday bo'ladi? Agar o'zingiz o'sha yerda bo'lsangiz, ikkala boyni otardingiz...

— Bilaman, — dedi noyib, — juda yaxshi bilaman. Unaqa mingta arizadan sening bir og'iz so'zingga ko'proq e'tibor qilaman. Boylarning quturgani rost, surishtirib ko'rdim. Ular o'z qilmishlarining jazosini tortganlar...

Mingboshi dadillandi:

— Unday bo'lsa, munday adolatlik podsho vaqtida ochiqdan-ochiq nohaqlik qilishga qanday yo'l qo'yiladi?

Noyib kuldi:

— Soddasan, Akbarali. Podsholik hamma vaqt yurtning obro'ylik odamlarini himoya qiladi. Obro'y davlat bilan topiladi, muni bilasan. Undan keyin, qishloq

odamlarining shunaqa o'zboshimcha harakatlariga yo'l qo'yib bersak, oz vaqt ichida qishloqdan qo'l yuvishimiz kerak bo'ladi. Sen xomsan siyosatga...

— Men bir omi odamman, — dedi mingboshi, — siyosatingizni bilmayman. Qo'limdan kelganicha podsholikka xizmat qilib keldim. Shuncha zamon qilgan xizmatimni nazarga olmasmikin?

— Men ham shuni o'ylayman. Akbar, sen hozircha boraver. Men hokim to'raning oldida seni oz bo'lsa ham himoya qilib ko'raman. Bo'lmasa, sening o'rningga boshqa odam qo'yarmiz. Davlating katta, yeb yota berasan. O'zing ham qarib qolding.

— Mayli, taqsir, — dedi mingboshi bir oz yengil tortib, — amaldan tushiringiz, mayli. Qarigan vaqtimda so'roq berib yurishga nafsim qo'ymaydi...

— Menga qolsa, senga tegmas edim, Akbar. Ish hokim to'rada. Hokim to'rani yo'lga solish qiyin bo'ladi, unga bir narsa degani qo'rqaman... chunki, ish juda xunuk. Xayr, boraver, iloji bo'lsa, o'sha ikkala ko'ppak bilan o'zing bitish. Balki, arizaning beoqibat qoldirilishini so'rab, ariza berarlar. Miryoqub bo'lsaydi, senga oson bo'lardi...

Shu bilan mingboshi ko'ngli buzilib mahkamadan chiqdi. Mingboshilikdan bekor qilsalar, uncha qayg'urmas edi; munga o'z nafsini bir ish qilib ko'ndira olardi. Lekin «Akbarali mingboshi amalidan bekor bo'libdi», degan xunuk gapni haligi ikki boy bilan Abdisamat kaptarlarning qanotiga ilib, shamolning qo'ltig'iga qistirib, yomg'irning tomchisiga joylab, bulutning qo'yniga solib uchiradi; har bir uchgan qarg'a shuni aytib qag'illaydi, shu bilan ikki kun ichida u shumli xabar yer yuzini aylanib, Makkatillogacha yetib boradi. U yerda mingboshining eski kushandasi Nasriddin baqiroq Ka'bayi sharifning baland tomiga chiqib, arab tilida ayyuhannos tortadi... Undan ko'ra o'lgani yaxshi emasmi?

Zunnun bilan birga noyib to'raning uyi oldidagi pastgina skameykaga o'tirdilar.

— Men ham eshitdim, ota, xunuk gap bo'libdi, — dedi Zunnun.

— Yomon bo'ldi bu ish, shu sababdan sening yoningga keldim. Yaqinda Miryoqub akangdan xat kelib edi.

«Ba'zi bir nozik ishlarni Zunnun bilan gaplashinglar, u o'zi noyib to'raning bekasiga aytib to'g'rilaydi», degan ekan. Shunga kelib edim.

— Jonim bilan, ota! Miryoqub akam aytmasa ham qilib beraman. Bemalol buyura bering.

— Hamma gap hokim to'rada, deydi. Hayronman. Beka bilan gaplashgin-chi, nima maslahat berar ekan.

— Siz Eski shaharga tushib, kechgacha bir aylanib keling. Men beka bilan gaplashib qo'yaman. Kech payti-da javobini aytaman. Shunga qarab ish qilasiz.

Mingboshi o'sha kunni zo'rg'a o'tqazdi. Namozgar bo'lmasdan turib Zunnunning oldida edi.

— Katta pul kerak emish, — dedi Zunnun birdaniga.

Mingboshi ham ustidan tog' tushganday yengil nafas oldi.

— Pul bilan bitadigan bo'lsa, mayli. Pul topiladi.

Mingboshining yengil nafas olganini ko'rib, Zunnun ham ochila tushdi, uning ko'zlarida burungi andisha qol-magan edi.

— Bekamiz bunday dedilar: «Hokim to'raning xotini bilan o'zim gaplashib ko'raman, ish qaltis, bir narsa chiqadimi, yo'qmi — oldindan aytolmayman. Har qalay, bir ming, bir yarim ming pul kerak», deydilar. «O'zimga bo'lsa, Akbarali qadrdon odam, ish eplanadigan bo'lsa, keyincha bir narsa qilar», deydi. «Ammo, deydi, ish juda nozik, bir narsa chiqarib bo'larmikin, yo'qmikin— hay-ronman», deydi. «Pulni olib kela bersin yotib qolguncha otib qolaylik», deydi. «Ammo menga ishonib o'zi harakatsiz yurmasin», deydi.

— Qulluq, Zunnun, qulluq senga. Bu ish — tuzal-maydiganga o'xshaydi. Xayr, mayli, erta-indin pulni eplab olib kelayin. Bir urinib ko'raylik. Chiqsa-chiqar, chiqmasa otasining go'riga...

— Ichkariga kiraylik, ota. Bitta-yarimta choy qilay.

— Yo'q, Zunnun, tomog'imdan hech narsa o'tmaydi.

Mingboshi Zunnun bilan xayrlashmasdanoq o'rnidan turib ketdi. U yerdan chiqib, oddiy bir mayxonaga kirdi. Bir shisha aroqni jindek kabob bilan ichib oldi. So'ngra miyasi xamirday ko'pchib, ot ustida qiyshaya-qiyshaya orqasida ikki yigiti bilan qishloqqa jo'nadi...

* * *

Uydagilar allaqachon yotgan edilar. Dovdiragancha qoqilib-yiqilib Zebining uyiga kirib bordi. Miyasi hech narsa anglamasdi, shunday bo'lsa ham ertaga yo indinga bir ish qilib loaqal uch ming so'm pul topishga jazm qildi. Muning uchun hech qanday tadbirdan chekinmayajak edi.

— Tur, hay! — dedi Zebiga.

Zebi yotgan joyidan turib, fonarni balandlatdi.

— Dasturxonni yoz! Yegulik narsang bormi?

— Ha, kosada osh bor.

— Ber buyoqqa.

Zebi erining mast ekanligini bilsa-da, uning ovozidagi bu g'ayritabiiy qo'rslik va qattiqlikka hayron bo'ldi, boshini ko'tarib, unga tikildi, «o'zimi, boshqami?» deganday...

— Nimaga menga qaraysan? Yo mastmisan, sintaloq?— dedi mingboshi.

Zebi indamasdan dasturxonni yoyib, oshni qo'ydi.

— Och muni! — Mingboshi yonidan bir shisha aroq olib uzatdi.

— Men ochishni bilmayman, — dedi Zebi, ko'z yoshlari qavog'iga kelib tizilgan edi.

— Mening xotinim bo'lib aroq ochishni bilmaysanmi? — dedi mingboshi, xoxolab kuldi. — O'rgan! Mana, qarab tur! — Shishaning tagiga yo'g'on shapalog'i bilan ikki marta urdi, po'kak sachrab chiqib, shiftga tegdi, so'ngra u yerdan sachrab, tokchadagi katta jomga kelib tushdi, «jar-r-rang»... etdi jom.

— Ha-ha-a!..— dedi mingboshi. — Jomlaringni jaranglatdim, sintaloq!

Bir-bir ketin ikki piyolani to'latib ichdi, yengi bilan og'zini artdi. So'ngra bir piyolani choch qilib Zebiga uzatdi:

— Ma, ich! Odam bo'lasan!

— Voy, o'la qolay! Aroq ichamanmi? Qo'ying, gapirmang!

— Odam bo'lasan, deyman! Ol! O-ol!!!

Zebi orqasiga chekilib yig'lab yubordi.

— Qo'y, mayli, ichmasang ichma, — dedi mingboshi.— O'zim ichaman!

Bir shishani tamom qilib, yuvuqsiz qo'li bilan oshga chang soldi. Oshning yarmi barmoqlari orasidan dasturxonga, ko'rpa-to'shakka, o'zining liboslariga to'kilardi. Zebi devorga suyanib bu qo'rqinch kuyovni tomosha qilardi...

Mingboshi og'zida to'la osh bilan: «Netayxon, aylanay, yodimga tushdi-e...» deb xirgoyi qildi. Oshli og'iz bilan boshlangan xirgoyi tomoqqa tiqildi, mingboshi qalqib ketdi va og'zidagi oshni kosaga purkab yana oshga qo'l uzatdi. Zebining ko'ngli aynidi, shekilli, sekingina tisarila-tisarila dahlizga chiqdi. Dahlizda bir piyola sovuq suv ichdi. Yuragi kuygani bosilmadi shekilli, yana quymoqchi bo'ldi. Suv yo'q edi. Bir qanoti ochiq eshikdan uyga qaradi. Mingboshi yana bitta shishani ochib, piyolaga to'ldirayotgan edi... Zebi tashqariga chiqib, toza qor bilan qo'lini yuvdi, toza qorni yuzlariga surkadi, jindak yedi. Ancha shamollab va yengillab kirgan vaqtida, mingboshi dasturxon yonida ag'nab uchib qolgan edi. Uni qo'zg'atib o'tirmasdan, dasturxonni sekingina yig'ishtirib oldi-da, bir chekkaga bir yostiqni tashladi, ustiga bir to'shakchani yopindi, fonarni pastladi, shu bilan uyquga yotdi. Orada qancha uxlagandir, o'zi ham bilmaydi, besaranjom bir qichqiriq bilan uyg'ondi:

— Suv! Suv! — deb qichqirardi mingboshi.

Zebi uyqusirab kelib, yana fonarni balandlatdi. Ungacha mingboshining qo'rqinch ovozi yana ko'tarila tushdi:

— Sintaloqdi qizi, suv, deyman! Suv! Yuragim kuyib ketdi... Yonib ketdi!.. Suv! Suv!!!

Zebi shoshib qoldi, tez borib choynakdagi tabarruk suvni qo'liga oldi va — hech narsa o'ylashga fursat yo'q— darhol mingboshiga uzatdi...

Mingboshi choynakdagi suvni bir shimirishda tamom qildi. Zebi endi uning tinchib uyquga ketishini kutardi. Yoniga yumshoq bolishlardan ikkitasini qo'ydi, ustiga

kichkinagina bir to'shakni yopdi. Mingboshi ham tinchib qolganday bo'ldi.

Zebining kipriklari endi bir-biriga tekkanda, mingboshi birdaniga dahshatli bir tovush chiqardi. O'rnidan turib kamarlarini, to'nlarini apil-tapil yechishga boshladi. Zebi butun bu harakatlarni boyagi singari mastlik asarlari, deb o'yladi. Uning kamar va to'nlarini bir-bir olib, qoziqqa ildi, ikkalasi uchun solingan joyni tuzatdi — erini sekingina olib borib yotqizmoqchi bo'lardi...

Mingboshining ko'zlari chanog'idan chiqib keta boshladi. U endi ko'ylaklarini yirtib, ko'ksini, tomoqlarini tintalay boshladi... Bor kuchi bilan zo'r berib nafas olishga tirishardi. So'ngra buzuq ovoz bilan zo'rg'a-zo'rg'a:

— Bo'g'ma, bo'g'ma meni!.. — deb qichqirdi.

Bir-ikkita qadam bosib, devordagi javonga suyandi, bir nafas tinch qolgach, yana bo'g'ziga qo'l uzatib, etlarini cho'zdi. Ko'ksiga mushtladi. Undan keyin bir qo'lini yuqori ko'tarib, boshiga qo'ydi. Ko'zida ikki-uch tomchi yirik-yirik yosh ko'ringan edi. G'alati, yuvosh, muloyim, beozor va ayanch nazar bilan Zebiga qaradi va ikkala qo'lini qo'yib yuborib, boshini bir tomonga shilq etib tashladi-da, o'zi ham devorga suykana-suykana sekingina yerga o'tirdi, bir nafas o'tirgandan keyin bir tarafga qiyshayib, ohistagina yonginasiga yiqildi va shu bo'yicha qimirlamay qoldi...

Nafasi ichiga tushgani holda devorga orqasini berib butun bu fojiani kuzatayotgan Zebi bo'lgan ishni angladimi, yo'qmi — harholda, qish kunida, yugurganicha ko'ylakchan tashqariga chiqdi va ixtiyorsiz faryod soldi.

Kundoshlari ham birin-birin uyg'onib chiqdilar va mingboshining keng ichkarisida azonga yaqin to'rt xotinning azani bildirgan yig'i ovozi ko'tarildi.

Ular orasida o'q otib mo'ljaliga tegizolmagan Poshshaxon ham boridi. Kim biladi, mingboshining o'limiga yig'laydimi u juvon, yo Miryoqubning bevafoligiga, yo bo'lmasa hayf ketgan kuchalaga...

XIX

Kundoshlik orqasida yuz bergan bu jinoyat zamonning nozikligi orqasida olovga tashlangan jizzadek bo'ldi. Kichkinagina uyezd shahrining kichkina va tor miyali amaldorlari — hammasi askardan yetishgan «azamatlar» — kelishmagan bir tasodifning to'rt chaqaga arzimagan bu qurbonini zamonning zo'r qahramoni darajasiga ko'tarib yubordilar. Shu bilan ular yangi fath etilgan o'lkada va yangigina bo'ysungan «vahshiy» xalq orasida juda yaxshi va ziyrak siyosat yurgizib, o'sha xalq orasidan shunday eslik va tadbirlik, toj-u taxtga nisbatan shunday sodiq va astoydil ma'mur yetishtirganliklarini o'zlaridan yuqori amaldorlarga ko'rsatmoq istardilar. Bularning shuncha yillar zo'r berib zo'rg'a-zo'rg'a yetishtirgan ziyrak davlat odamlarini munaqa osongina (kuchala bilan!) o'ldirib keta bersalar, o'lkada tutilgan siyosatning va ham u siyosatni amalga oshiruvchilarning bir chaqalik obro'si qoladimi? Ayniqsa yerli xalq o'rtasida? Siyosatning obro'sizligi nima demak? Idora usulining obro'sizligi emasmi? Hindistonga qo'shni va darvoza bo'lgan bir mustamlakadagi siyosatga to'kis-tugal obro' ta'min etilgan bo'lishi kerak. Yo'qsa natija yomon. Qo'rqinch!!!

Mana shu vahima va tashvishlar bilan liq to'lib Toshkentga tomon qanot qoqqan depeshalar (rasmiy telegrammalar) voqeaning uchinchi kunida Toshkentdan O'lka harbiy sudining sayyor hay'atini uchirib keldi. So'roqning o'zi esa sudning yetib kelishidan ham tez o'tdi. «Munday shoshilinch sud urush maydonlarida bo'lmasa, boshqa joyda bo'lishiga aqlim yetmaydi!» deb piching qilib gapirdi tilmoch...

Bu odam eskidan beri sudlarda ishlab, muttahamlikka guvohnoma olgan qadrdon tulkilardan emas, negadir chetdan, xolis kishilar orasidan chaqirilgan edi. Uni shahar odamlari, ayniqsa, yerli xalq kam taniydi. Nihoyati, pochtada ishlovchi (o'zi yerli xalqdan yetishib qolgan!) pastroq bir ma'mur...

Ammo zakunchi... Zakunchi — boshqa odam! Bu

odam, yo'q, bu zot Turkiston o'lkasining qaysi bir olis joyida (Zakaspiyda emasmikan?) davlat xazinasining ko'pgina pulini yeb qo'ygan askariy bir to'ra. Agar haqiqiy qonunlarga amal qilinganda, uni yo otish, yo umrlik surgun qilish shart edi. Faqat u o'zi juda issiq mamlakatda yashasa ham, boshida qalin-qalin soyabonlari bor ekan, ular o'z kishilarini butunlay kuydirib tashlashga yo'l qo'ymaganlar. Ularning soyalarida bu zot askariy rutbalaridangina ajrab, kissasi ko'p ham qoqlanmasdan, o'lkaning u chekkasidan bu chekkasiga «surgun» bo'lib, o'z istagi bilan «surgun» bo'lib kelgan va munda... xususiy zakunchilik kasbiga kirishgan. Davlatni aldab o'rinlatgan kishi boshqalarni aldab o'rinlatolmaydimi? Tajriba — zo'r, davlat — o'zi! Bu odamning cho'pqatlari juda ko'p. O'z-o'zini hurmatlay bilgan hech bir zakunchi tomonidan olinmaydirgan hamma «gumonlik ishlar»ni shu kishi oladi va ko'pincha yutib chiqadi. Xullas, mustamlaka o'lkasining nodon yerlilari orasida uyezd miqyosiga yarasha ish ko'radigan kichkinagina bir Plevako[1].

Mahalliy tergovchining «tergov protokoli» bilan harbiy sud prokurorining ayblash qog'ozi zakunchining qo'liga topshirilgan vaqtda, u boshqa katta bir ishni olish to'g'risida o'ziga o'xshagan bir kishi bilan gaplashib o'tirgan edi. Kim ekan u — «o'ziga o'xshagan» kishi? Shaharda bo'lsin, uyezdda bo'lsin, uni tanimagan odam yo'q, o'zi yerlilardan. Yerli xalq uni — «Obrezqora» deb ataydi. O'rta bo'yli, qopqora tanli arvoh, qotma bir kishi... Bu zakunchi — ruslardan chiqqan «advokat» bo'lsa, Obrezqora — yerli xalqlardan chiqqan «advokat»... Qaysi bir sud majlisida «yolg'on guvoh»ga hojat ko'rilsa, Obrezqora tayyor. Uning bu xislati ham hammaga otning qashqasiday ma'lum. Katta-katta qozilar, boylar, obro'lik odamlar shu Obrezqora bilan olishib... yer bilan yakson bo'lishgan! Muni ham hamma biladi. Shu uchun hamma qo'rqadi... «Bu Obrezqora «bosma»[2]

[1] Rusiyada inqilobdan burun dongi chiqqan advokat.
[2] Bosmachilik, banditlik.

qilishdan ham toymaydi!» deb gapirishadi shahar odamlari.

Shunday aziz bir cho'pqat «xizmat haqi» besh ming so'mlarga yetib boradigan bir «ish» topib kelib, shu to'g'rida qaymoqlashib o'tirganda, allaqanday harbiy sudning befoyda ishiga vaqt sarf qilish — zakunchiga ancha og'ir keldi. Kelgan qog'ozlarga ustidangina bir ko'z yugurtirib oldi-da, bir chekkaga tashlab qo'ydi. Ular o'z mundarijalarida zikr etilgan shaxslar singari, to so'roq kunigacha, yo'qlanmasdan va esga olinmasdan tashlandiq holda qolib ketdilar. So'roq kunigacha zakunchi ularni xotirlab qo'yishga ham fursat topolmadi. Kichkina shaharning kichkina Plevakosida ikkitagina qog'ozni ko'rib chiqishga fursat topilmaydimi? Vokzal qarshisidagi ko'chada bir salqin takya bor, uni ertadan-kechgacha shunda o'tirib, Obrezqora bilan qimor o'ynaydi, deydilar. Demak, fursati emas, hafsalasi bo'lmagan. Arziydigan ish bo'lsa, hafsala ham topilardi-kuya.

So'roq kuni erta bilan haligi ikki «yetimcha»ni topib oldi va nonushta chog'ida allanechuk bir ixlossizlik bilan tezgina ko'rib chiqdi. Bu ish shu qadar tez bajarildiki, nonushta dasturxoniga zakunchi kelib o'tirmasdan burunroq quyilgan bir stakan choy ikkala qog'oz o'qib chiqilgandan keyin ham sovunib yetmagan edi, shu uchun uning sovunishini yana bir oz kutishga to'g'ri keldi. Ikkala qog'ozning mazmuni ham, zakunchiga xuddi go'daklar falsafasidek tuyuldi. Qog'ozlarni o'qib turib hamda ularni o'qib bo'lganidan keyin advokatning cho'ziq yuzlariga bir kulgi yoyildi, uning moshbirinch mo'ylovlarini ikki tomonga kerib yuborgan bu kulishda chinakam otaning boladan kulganiga o'xshagan bir narsa boridi...

Ammo protokolga sovuq qarashda faqat zakunchinigina ayblash mumkin. Yozuv mashinasi bo'lmagan tergovchi mahkamasining mirzasi bechora protokolni juda zo'r diqqat va hafsala bilan ko'chirgan. Ori rost, yerli xalqning nomlarini yozishda u ham chalasavod bolalarning ishini qiladi, ya'ni «Akbarali» degan so'zni bir joyda «Umarali», yana bir joyda Amir o'g'li», yana bir joy-

da «Qambar vali» deb yuboradi... Zotan, buning nima ahamiyati ham bor? Til kelmagan narsaga qalam qanday kelsin? «Akbar» bo'ldi nima, «Qambar» bo'ldi nima — baribir emasmi? Bir sartning nomi!

Insof qilish kerak: protokol nihoyatda chiroylik xat bilan yozilgan. Qog'oz betida xuddi poezdning izlariday tep-tekis ketadi. Hammadan ham «d» va «b» harflarini ko'ring! Hayron qolasiz! Qayerda «d» uchrasa, quyrug'i chapga qayrilgan; qayerda «b» uchrasa, quyrug'i o'ngga qayrilgan. Ikkovining ham quyrug'i balandda; ikkovining ham quyrug'i kulcha bo'lgan ilonday buralib-buralib yotadi! Protokol emas, tomosha! Tomosha!..

Unda mana bu narsalar bor:

Bo'lib o'tgan voqea, o'ldirilganning kimligi, uning Rusiya davlatiga sadoqat bilan qilgan ko'p yillik xizmatlari, idora ishlarida ko'rsatgan ziyrakligi va ustaligi batafsil bayon qilinadi; o'ldiruvchi ayolning kimligi esa bir necha og'iz so'z bilan aytib o'tiladi. Guvohlar (mingboshining uch xotini) bir og'izdan o'zlarining aralashmaganliklarini so'zlab, «Zebinisaxondan boshqa hech kim qilmaydi», deydilar. Xolis tariqasida so'ralgan qo'niqo'shnilar bunday deydilar: «Mingboshining boshqa xotinlari ko'nib qolgan edilar; Zebinisaxon bo'lsa anchagacha mingboshini xafa qilib, xotin bo'lgusi kelmay, o'zini kasallikka solib yurdi. So'nggi vaqtlarda mingboshi bilan umr qilishga ko'ngandek bo'lib edi; bir necha kun yaxshigina yashadilar. Bu keyingi muomilalar, bizning fikrimizcha, ko'z bo'yash uchun qilingan bo'lsa kerak. Endi bilsak, qiz o'lgurning g'arazi boshqa ekan». Mingboshining ikkinchi xotini Poshshaxon o'sha voqeadan bir kun burun shamol oldirib qo'yib, notob yotgan ekan; tergovni uning yotgan yerida o'tkazishga majburiyat ko'rilgan.

Aybdorning o'ziga berilgan savollar va uning javoblari shunday zo'r protokolda hammadan oz joy oladi. Shu qadar ozki, mirzaning qalam uchini siyohga botirib o'tirishiga arzimaydi. Tergovchi bechora shunga ham umr sarf qilgan-da, sho'rlik!

Bor-yo'g'i ikkita savol, ikkita javob. Savollar kalta-kalta, javob undan ham kalta:

— Mingboshiga suvni kim berdi?

— Men berdim.

— Demak, mingboshini o'ldirgan — siz?

— Yo'q...

«Ayblash qog'ozi» esa protokoldan bir yutim, ya'ni shu qadar kalta! Unda, protokoldagi ma'lumotning xulosasi: mingboshining ziyrakligi va tadbirkorligiga oid kalta-kalta, lekin kuchlik va haybatlik iboralar. So'ngra talab: «Falonchi falon modda bilan falon jazoga mustahiqdir». Xullas: qon hidi!.

Sud majlisiga yarim soat qolganda, zakunchi keldi. Sud bo'ladigan binoning boqchasida tikka turib aybdor bilan gaplashdi. Bu gaplashuv ham kaltagina savol-javobdan iborat bo'ldi. Bu daf'a savollarning adadi ikkidan beshga chiqdi:

— Mingboshiga suvni kim berdi?

— Men berdim.

— Suv choynakda ekan; choynak kimniki edi?

— Meniki edi.

— Ichida qanday suv borligini bilarmidingiz?

— Bilardim.

— Choynakdagi suv zaharlik ekan; demak, eringizga zaharni siz bergansiz?

— Choynakda zahar borligini bilmadim. Erimni men o'ldirganim yo'q...

Zakunchi yelkasini qoqib, yiroqlashdi.

Voqeaning yuz berganiga bir necha kungina bo'ldi. Bu to'g'ridagi dovrug' hali shaharga eshitilgani yo'q. Bitta-yarimta shahar odamlari eshitgan bo'lsalar ham Zebining ota-onasi bu gaplardan bexabar bo'lsalar kerak. Ular hali qizlariga mingboshi dodhodan avlod tilab, eshonboboning tabarruk nafaslaridan yana tabarruk suv hozirlab qo'ygandilar... Jumani o'tkazib, cholning o'zi bir borib ham kelar... Umid kattadir! Basharti ular bilgan bo'lsalar ham, zakunchi solish yoki bir joyga arz qilib bosh urishni na chol biladi va na kampir! Gapning kaltasi, ular «o'rus mahkamalariga borib, bir narsa

chiqarolmaydilar». Juda chidamay ketsa, Razzoq so'fi to'ppa-to'g'ri eshonboboning yonlariga boradi; o'zini ko'tarib urib yig'laydi... Shu!

Zebi bo'lsa, o'sha zaharlanish hodisasidan beri doim karaxt bir holda bo'lardi; uning miyasi birdan falajga yo'liqqan kabi edi. U butun bir so'roq, tergov, konvoy, sud va zakunchilarga ajib bir loqaydlik bilan — xuddi jonsiz odamday qarar; nimalar deyishni, o'zini nechik mudofaa qilishni, nima deb gap qaytarishni o'ylamasidi. Uning miyasida, miyasining ham allaqaysi olis bir burchagida xira va tumanli bir fikr; u fikr shuncha olisda va xiraki, uning nimaligini anglayolmaydi bechora... Miyasini tugumlab juda zo'r bergan vaqtda u tumanli fikr mana bu kepataga kirganday bo'ladi: «Men o'ldirganim yo'q... Bu aniq... Meni qo'yib yuboradilar... Yana o'sha yerga qaytamanmi?.. Nima keragi bor... Oyim-chi? Oyimning yoniga qaytaman... Erim o'lib qoldi, deyman... Yig'layman...»

Sud majlisi bo'ladigan keng zalda shamollar uchib o'ynardi. Qator-qator chizilgan Vena kursilari haftalik uyqularidan hali ham uyg'onmagan edilar. Eng oldingi qatorda hokim, noyib, garnizon boshlig'i, politsiya boshlig'i, pop; uchinchi qatordagi eng chekka kursida oppoq va zo'r sallali chol — jome machitning ingichka ovozli imomi o'tirardi. Bir tomonda — zakunchi, bir tomonda — tilmoch; boshqa hech kim yo'q.

Zebi ikki konvoyning yalang'och qilichi o'rtasida zalga kirib keldi; ustida qora barqut paranji, qora chimmat, oyog'ida qora amirkon mahsi-kavish bilan sud qarshisiga kelib to'xtadi. Bu omonsiz suddan va bu yaltiragan yalang'och qilichlardan ko'ra uning o'sha qora qiyofasi qo'rqinch edi: o'rta asrlardagi Ispaniya inkvizitsiya mahkamalarining qora abolI va sirli kardinallariga o'xshardi... Pop qaradi, boshini chayqadi; domla qaradi, «astag'furullo» o'qib, soqolini silkitdi.

Sud raisi, nihoyat, tilmochga yuzlandi:

— Aytingiz, aybdor yuzini ochsin.

Tilmoch bu buyruqni Zebiga tushuntirib berdi.

— Voy, o'la qolay! Shuncha nomahramning oldida yuzimni ochamanmi? Undan ko'ra o'lganim yaxshi emasmi?

Bu so'z tarjima qilib berilgach, pastdagilarning hammasi deyarlik, sud hay'atidan bir necha kishi yengilgina kulib oldilar. Ulardan ikki kishi ayrildi: birinchisi — nihoyatda semiz va yo'g'on gavdali garnizon boshlig'i; bu odam, tovuqning qaqag'lashiga yaqin bir tovush bilan ovozi boricha va birdaniga qahqah soldi. Hamma unga tomon o'girildi. Sud raisi chinqiroq chaldi. Garnizon boshlig'i yonidagi ro'molchasini olib, yuz-ko'zlarini arta boshladi... Ikkinchisi — imom domla; bu kishi o'zlarining ingichka — hushtak singari ovozlari bilan, ixtiyorsiz «masha-ollo!..» deb yubordilar. Hamma u kishiga tomon evrilgach, qip-qizarib va ham... qo'rqib boshlarini quyi soldilar.

— Siz bu ayolga tushuntirib aytingiz; yuzini ochmasa bo'lmaydi. Sudning qoidasi shu. Paranji ostida aybdordan boshqa kishining hozir bo'lishiga yo'l qo'ymaslik uchun biz uning yuzini ochtirishga majburmiz. Aytingiz, qarshilikdan foyda yo'q!

Zebi xuddi o'yinda sherigiga achchiq qilgan boladay teskari burilib oldi. U indamay turganligidan sud raisi yana so'z oldi:

— Yaxshilab tushuntiringiz, yuzini ochmasa, sud majlisini olib borolmayman.

— Olib bormasa mayliga... — dedi Zebi. — Bilganini qilsin!

Tilmoch o'zi kulib, qip-qizarib turib, tarjima qildi.

Sud raisi ovozini ko'tara tushdi:

— Harbiy sud masxarami bu kishiga? Aytingiz, yaxshilik bilan ochsinlar. Bo'lmasa kuch bilan ochtiramiz!

— Voy, sho'rim! Shuncha erkak o'tirsa-ya! O'lganim ming marta yaxshiroq!

So'ngra ovozini pasaytiribroq tirkadi:

— Otamning piriday kap-katta sallalik domla o'tiribdilar. Qanday yuzim bilan qarayman?..

Sud raisi endi bu safar muloyim gapirdi:

— Aytingiz, sud tomonga qarab, domlaga orqasini o'girib tursin!

Zebi yana indamadi. Domla o'tirgan joyidan bir oz ko'tarila tushib:

— Hechqisi yo'q, qizim! — dedi. — Men qaramayman!

— Mana bular-chi? — dedi Zebi. Sud hay'atini ko'rsatdi.

Endi bu safar domla o'rnidan turib tilmochga yuzlandi:

— Eshoni mirzo! Menga ijozat berilsa, shu ayolga ikki og'iz nasihat qilsam.

— Marhamat, taqsir!

Domla Zebining yoniga borib, nasihatga boshladi. Zebi, borgan sari susayib bo'lsa-da, domlaning har bir so'ziga javob qaytarardi. Oxirda, domla o'z dindoshlari o'rtasida mashhur bo'lgan bir e'tiqod masalasini ochdi:

— Kofir bilan itning farqi yo'q. Itdan qochmaysizmi? Shunday bo'lsa, kofirdan ham qochmasangiz bo'ladi. Bu joiz.

Domla shunday joyda bu xil gaplarni gapirishdan juda qo'rqadi. Shuning uchun boshda boshqa so'zlar bilan Zebiga ta'sir qilishga urindi. U urinishlardan tezroq bir natija chiqmagandan keyin majlis ahlini mahtal qilib qo'ymaslik uchun bu masalani ochishga majbur bo'ldi. Majbur!.. Shu uchun so'ngi so'zlarni juda past ovoz bilan aytgan edi.

Zebi unadi:

— Bo'lmasa, siz o'zingiz nariroqqa borib o'tiring!

— Xo'p, qizim, xo'p, — dedi domla. To'rt-besh qator orqaga borib o'tirdi.

Hammaning ko'zi domlada ekan, Zebi chimmatini yuzidan oldi va sudga tomon evrilgan holda bir qo'lini yana yuziga parda qildi.

— Mana, qila qol so'rog'ingni!

Hozir bo'lganlar o'rtasida «bu sodda musulmon qizi-

ni uyaltirmaslik uchun» ko'zini boshqa tomonga burib o'tirganlar bilan birga ikki ko'zini undan uzmagan va allanimalar deb o'zicha so'zlanib, lablarini tez-tez qimirlatganlar ham bor edi...

Aybdorning kimligi surishtirilgach, sud darhol o'rnidan turib, aybnomani o'qidi. Undan keyin yana kalta savol-javoblar ketdi. Bu daf'a ularning adadi orta tushdi:

— Aybnomani eshitdingizmi?
— Ha...
— Mingboshi suvni o'zi so'radimi?
— Ha, o'zi so'radi...
— Mastmidi?
— Ko'p aroq ichib edi.
— Suvni kim berdi?
— Men berdim.
— Choynakdamidi?
— Ha...
— Mana bu choynakmi?
— Ha...
— Kimning choynagi bu?
— Meniki.
— Siznikimi?
— Ha, meniki.
— Ichida qanday suv borligini bilarmidingiz?
— Bilardim.
— Qanaqa suvidi?
— Irim suvidi.
— Kimga qilingan irim.
— Menga...
— Nima uchun irim qildirardingiz?
— Farzand bo'lsin, deb...

Pastda o'tirganlarning domladan boshqalari, so'ngra sud hay'atidan bir-ikki kishi, zakunchi va tilmoch yengilgina kulib qo'ydilar.

— Nega u suvni mingboshiga berdingiz?

— Juda tashna bo'lib so'ragan edi, shundoqqina tokchadan olib uzatdim.

— Choynakda zahar borligini bilarmidingiz?

Zebi kuldi.

— Qiziq ekansan (o'rusni sizlab bo'lmaydi), men qayerdan bilay?

— Demak, eringizni o'zingiz o'ldirdingiz?

Zebi qattiqroq va cho'zibroq javob berdi:

— Yo'-o'-q!.. O'libmanmi o'z erimni o'ldirib.

Uning bu so'nggi javobidan qiz bolaning o'z o'rtog'iga o'zini oqlab gapiradigan sodda gaplaridagi gunohsiz ohang boridi: Voy, o'la qoling, men shunaqa dermidim?»

Zebi sud raisining bola emasligini qanday bilsin? Shu yerda o'tirgan shuncha erkakning oyday ravshan bir narsani anglamasliklarini qaydan bilsin? «O'rus-musulmon bo'lib shuncha odam o'tiribdi, axir. Mingboshini o'ldirgan Zebi emasligini hammasi biladi. Bilib turib yana qaytalab so'ray bergani qiziq! Yo o'smoqchilab so'rarmikin?»

Sud raisi gapirmoqchi bo'lib o'rnidan turgan vaqtda Zebi — «Ana, so'roq tamom bo'ldi. Endi uyimni qandoq qilib topib boraman?» deb o'yladi.

— O'tiring, — dedi sud raisi Zebiga.

Sekingina va ehtiyot bilangina o'tirdi. Sud raisi so'z oldi;

— Voqea shu qadar ochiq, masala shu qadar ravshanki, meningcha, majlisni davom ettirishga ham hojat yo'q. Aybdor o'zi har bir savolga bergan javobi bilan jinoyatini iqror qildi. Shunday bo'lgach, biz hukm chiqarish uchun ichkariga kira bersak, deyman.

Sud majlisda faqat aybdorga berilgan savollar, so'ngra tergov protokoli bilan hukmnomaning eng kerak joylari tarjima qilinar; boshqa so'zlar o'ruscha ketardi. Shu uchun til bilmagan Zebi o'tirgan joyida gapirgan to'raning yuz harakatlarini tomosha qila boshladi.

Sud raisi prokurorga qaradi:

— Siz nima deysiz, zoti muhtaram?

Prokuror o'rnidan turib, ikki qo'lini stolga qo'ydi-da, yarim engashib turib, dedi:

— Men bu taklifga qarshi emasman. Albatta, mening bu masalada boshqa mulohazalarim bor. Men urush vaqtining nozik paytlarida bo'lgan bu o'ldirishga oddiy o'ldirish kabi qarayolmayman. O'ldirilgan odam Rusiya davlatiga va podshoga sadoqati bilan tanilgan odam edi. Uni «yosh sart» maxfiylari, ayniqsa, ularning dushmanimiz bo'lgan Turkiya bilan fikran bog'lanishgan unsurlari yomon ko'rardilar. Men bu «sodda» va «guvohsiz» sart ayolining shunday unsurlar qo'lida o'yinchoq bo'lmaganidan amin emasman... Biz sart xalqiga allanechuk beparvolik bilan qarab o'rganganmiz; qo'yday «yuvosh ular!» deymiz. Albatta, ularning mamlakatlarini qon to'kib olgan fotihlar sifatida bu qarashimiz bir nav to'g'ri ham bo'la biladi. Faqat bizga endi bu noto'g'ri qarashni tashlash kerak! Turkiyadagi 1908-yil inqilobi, o'zimizdagi shumlik — beshinchi yil to'poloni, Erondagi so'nggi mashrutiyat harakatlari sartlarning ko'zini ochayotir... Zohirda rus madaniyatiga yopishib kelgan Ovro'pa qiyofali jadidlar, aksari kular yuzli yosh savdogarlardan iborat bo'lgan «yosh sart» kadrlari — imperiyaga qarshi tish qayrashda Turkiya ittihodchilaridan qolishmaylar... Durust, sart xalqining ko'pchiligi muazzam davlatimizga, sevimli podshohimizga sodiq... Eslik, tajriba ko'rgan katta savdogarlar; qishloqning obro'li boylari; ayniqsa, ulamo toifasi «yosh sart»larning nufuzini qirqish uchun zo'r bermoqdalar; bularni bilaman. Lekin haddan tashqari ehtiyot bilan, sergaklik bilan ish olib bormasak, bir kun emas, bir kun haligi ko'pchilikning «yosh sartlar» bayrog'i ostida bosh ko'tarishi juda mumkin narsa. O'zingiz bilasiz, dekabristlar xuruji chog'ida davlat va davlatchilikka, podsho va Vatanga qarshi bo'lgan unsurlar buyuk Pyotrning ulug' shahrida birgina maydonni zo'rg'a to'lg'azgan edilar; 1906-yilda o'sha xilda bog'ovot maydonlarining soni-sanog'i bo'lmadi. Holbuki, biz yaqindagina eshon to'poloni bo'lib o'tgan joydan uncha olisda emasmiz... U vaqtda muhtaram muttafiqimiz Angliya biz bilan tegishgan bo'lsa, endi dushmanimiz Germaniya va uning qo'g'irchog'i bo'lgan Turkiya biz

bilan unaqa hazillashib o'tirmaydi. Muni bilish kerak! Kechagina bo'lib o'tgan tog' voqealari, Qumariq hodisalari nazarimizdan qochmasin, taqsirlar!

Mana shu nuqtalardan qarab, men bu «soddadil», «yuvosh» va «gunohsiz» sart qiziga eng oliy jazo talab qilmoqchi bo'laman. Modomiki, masala o'zi bu qadar ravshan va aybdorning o'zi o'z og'zi bilan iqror qilib turibdi, mayli, muzokara ochib o'tirmasak ham bo'ladi. Men o'z fikrimni muhtaram sud hay'atiga arz qilib, masalaning bu tomoniga ham diqqat qilinmog'ini so'rayman.

Zakunchi, sud raisining murojaatini kutmasdanoq o'rnidan turgan edi:

— Men ham so'z aytishdan voz kechaman! — dedi u, yana darhol joyiga o'tirdi.

Sud hay'ati o'rnidan turib, ichkariga chekildi.

«Ana, — deb o'yladi Zebi, — o'zim aytgan. Hamma gap oyday ravshan... Endi uyimni topib ketalarmikinman?»

Chorak soat o'tmasdan, hukmnomani eshittirdilar. Unda bu ishning asosan siyosiy bir rangdan xoli emasligi iqror qilinmoq bilan birga, bu so'roqqa to'g'ridan-to'g'ri aloqasi bo'lmaganligi, ishning u jihatini alohida tekshirib, lozim ko'rilgani taqdirda, qaytadan ish qo'zg'atmoq tegishli mahkamalarning vazifasi ekanligi; endi bu o'ldirish hodisasi to'g'risiga kelganda, masalaning juda aniq anglashilganligi, aybdorning o'zi tomonidan necha martalar iqror qilingani, shu uchun guvoh jalbiga va muzokaraga lozim ko'rilmaganligi aytiladi.

Undan keyin: «Aybdorning qilgan gunohi og'ir bo'lib, hozirgi urush vaqtida va nozik sharoitlar ichida davlat odamiga qasd qilgani uchun falon moddalar bo'yicha oliy jazoga hukm qilish kerak bo'lsada, bovujud O'lka harbiy sudining sayyor hay'ati aybdorning madaniyatsiz yerli xalq ayoli ekanini, o'zining yosh va turmushda tajribasizligini va ham hamma gunohlarini nomus bilan iqror qilib bo'yniga olganini nazarda tutib, falon, falon

moddalar bo'yicha yetti yil surgunga hukm qildi. Bu hukm ustidan tegishli joylarga shikoyat qilish mumkin», deyiladi.

Tilmoch hukmnomani to'rt og'izgina qilib eshittirdi:

— Aybdor Zebinisa Razzoq so'fi qizi Harbiy sudning hukmi bilan yetti yil Sibir qilindingiz. Norozi bo'lib ariza bersangiz mumkin.

Hukmnoma o'qilib bitar-bitmas, zaldagilar chiqa boshlagan edilar. O'qilib tamom bo'lgach, sud raisining ishorati bilan, qilich yalang'ochlagan konvoylar yana boyagi taxlitda Zebini olib chiqib ketishdi. Shundan keyin sud hay'ati ham chiqib ketdi. Zalda faqat tilmoch, zakunchi; undan keyin nima uchun o'zining bu yerga chaqirilganini bilmagan imom domla qolgan edi. Tilmoch domla imomning yoniga keldi:

— Taqsir, siz jindak sabr qiling. Men hozir kelaman, undan keyin gaplashamiz.

Domla yuragini qo'liga olib, rangi o'chgan, lablari bir oz qaltiragani holda... sud zalida qoldi. Zakunchi tilmochni olib tashqariga — Zebining yoniga chiqdi, Zebi chimmat ostida ho'ngur-ho'ngur yig'lamoqda edi.

Zakunchi so'radi:

— Nima deysiz? Ariza yozib beraymi?

Zebi xo'rsingan ovoz bilan yig'lab turib, uzuq-uzuq javob qildi.

— Kimga?

— Yuqoriga.

— Unda... nima bo'ladi?

— Nima bo'laridi: ehtimol, yana so'roq bo'ladi; ishni qaytadan ko'radilar.

— Kim... ko'radi? Shular... ko'radimi?

— Boshqa sud ko'radi.

— Baribir... op-ochiq turgan narsani... bular tushunmaydi-yu, ular tushunarmidi?

— Ariza yozib beraymi?

— Qo'yaqol!.. Men uchun... ovora bo'lib o'tirma...

Zakunchi kulumsirab tilmochga qaradi, u yelkasini

qoqdi. Zakunchi boqcha darvozasidan chiqib ketmak uchun o'sha tomonga qarab yurdi.

— Hay, shoshma, — dedi Zebi. — Shaharda... Shaharda... ota-onam... bor... ko'rsatarmikin?

— Avaxtaga olib borgandan keyin ko'rsatadi.

Zakunchi darvozaga qarab ketdi. Tilmoch u bilan xayrlashgach, yana domlaning yoniga kirdi.

— Eshoni mirza, — dedi domla imom uni besaranjomlik bilan qarshi olib, — meni nimaga chaqirgan ekanlar?

Tilmoch kuldi:

— Sizni, taqsir, sud sadri chaqirtirgan edi. Basharti qasam berish lozim bo'lib qolsa, musulmon shariatiga muvofiq qasam berish uchun.

— Qasam bermadilar-ku?

— Lozim bo'lmadi, taqsir. Ayol o'zi iqror...

Domla anglayolmadi, shekilli, mirzaning so'nggi so'zini savol shaklida qaytardi:

— O'zi iqror?!

Tilmoch yana kuldi:

— Ha, o'zi iqror... Eshitmadingizmi?

— O'zi iqror emas, inkor qildi, shekilli-ku?

— Damingizni chiqarmang, taqsir. Bu nozik masala...

— Ha, albatta, albatta...

— Endi, taqsir, sud raisining sizdan iltimosi bor: o'zingiz eshitdingiz, bu ayol Razzoq so'fi degan odamning qizi, o'z eriga zahar bergan. Eri xizmati singgan mingboshilardan ekan. Prokuror otib o'ldirilsin, degan edi, sud qabul qilmasdan, yetti yilga Sibirga kesdi. Ertaga jumadan keyin machitda ikki og'iz gapirib qo'ysangiz, dedilar.

— Nima to'g'rida, mirza?

— Ya'ni oq podshoning sodiq odamlariga kim qo'l ko'tarsa, oqibati mana shunday bo'ladi, degan mazmunda...

— Xo'p, eshon mirza, xo'p. Albatta, aytaman, albatta. Endi menga ruxsatmikin?

Domlaning bu savolida xuddi gunoh qilgan odamning

ochiq bezovtaligi sezilardi: «Meni qamamasmikin?» deganday... Tilmoch muni payqadi shekilli, quruq va sovuq javob berdi:

— Bora bering.

Domla, maktabidan «ozod» bo'lgan eski maktab bolalari singari, o'zini eshikka urdi va o'sha onda ko'zdan yo'q bo'ldi. Tilmoch kuldi: «imon yo'q taqsirimda», dedi o'z-o'ziga. So'ngra bitta-bitta qadam bosib eshikka tomon borarkan, aylanib orqasiga qaradi; keng zal bo'm-bo'sh, xuddi yetimchadek ko'rinadi. Suddan so'ng u yoq-bu yoqda tartibsiz qolib ketgan kursilar, bozorchilarning karvonsaroyda bog'lagan otlari singari, bir-birlariga teskari evrilganlar... Ko'k yopiqli uzun stol ustida sud a'zolaridan birining ko'zoynak qutichasi qolib ketgan; zal o'rtasidagi og'zi ochiq pechdan o'tinning charsillab yongani eshitiladi.

Tilmoch yana oldinga yurdi va boshini chayqay-chayqay.

— Bezobraziye, bezobraziye![1] — deb so'zlandi.

XX

Juma namozidan so'ng tashqaridagi jamoat duv eta o'rnidan turdi va fotihani kutmasdan, o'z ishiga ketdi. Ayvondagilar ham ularga qo'shildilar. Unda-munda yakka-yarim kishilarning bo'ynilarini quyi egib-egib, fotihani kutganliklari ko'rilardi. Namoz duosi, undan so'ng «duoyi xolis» o'tgach, ayvon bilan tashqari tomon bo'shadi; xonaqo ichidan ham yo'tala-yo'tala bir necha kishi chiqib ketdi. Ular ham chiqib bitgach, imom turib, so'z boshladi. Umuman, jamoat oldida gapirishni sevmaydigan o'zining imomlik vazifasiga ham juda rasmiy ravishda qaraydigan; uyidan jomega kelib, jomedan uyiga qaytguncha salom-alikdan boshqaga og'iz ochmaydigan, onda-sonda yangi kelinchakday muloyim va yumshoq yo'talib qo'yadigan, ingichka ovozli domla

[1] Sharmandalik, sharmandalik.

imom bir necha og'iz so'z qilib, sud raisining iltimosini rasman o'rniga qo'ydi va qaytib joyiga o'tirdi. Shundan keyin xonaqodagilar asta-sekin chiqa boshladilar. Hamma chiqib bo'lgandan so'ng, bir-ikki marta ingichka yo'talib domla ham o'rnidan turdi va eshikka tomon yurdi. Xonaqo ichi yarim qorong'i edi. Eshik oldida qorong'ilikdan birdaniga bir ovoz keldi:

— Taqsir, arzim bor edi...

So'ylovchisi qorong'ida qolib ko'zga ko'rinmaganligi uchun domla bu kutilmagan sharpadan cho'chib tushdi:

— Astag'furullo! — dedi domla shoshilib va orqasiga tisarilib, qo'lini ko'ksiga olib bordi.

Qorong'idagi odam yoriqqa chiqib kelib, so'zida davom qildi:

— Kechiring, taqsir. Akbarali mingboshini qaysi xotini o'ldiribdi?

— Qanaqa odamsiz? Avval bir yo'talib, sharpa qilsangiz bo'lmaydimi? Hayvon ekansiz-ku!

— Kechiring, taqsir, bilmabman.

— Bilmabman... Qachongacha bilmaysizlar, axir?

— Kechiring, taqsir, ayb menda. Akbarali mingboshining to'rtta xotini bor. Bitta xotini mening ojizam bo'ladi. Shunga so'rovdim, taqsir.

Domla o'zini to'xtatdi va bitta-bitta bosib u odamning yoniga keldi, «e afting qursin!» degan ma'noda u odamga qaradi. So'ngra dedi:

— Nomini unutibman... Qora paranjisi boridi... Vallohi a'lam, otasining nomi... bir narsaki so'fi... ha, Razzoq so'fi... Razzoq so'fi...

So'fining nomini bir necha marta takrorlab, xonaqo eshigidan chiqdi. Razzoq so'fi esa rangi o'chgan va qaltiragan holda eshikka suyanganicha qoldi.

Nihoyat, o'ziga kelib, machitdan chiqqach, uyiga ham xabar bermasdan, o'tkinchi bir aravaga yarim so'm berib, qishloqqa jo'nadi. U yerda Hakimjondan boshqa hech kim yo'q edi. Hakimjon bo'lgan voqeani anglatdi va Zebining tergovchilar va doktorlar kelgan kunning

o'zidayoq shaharga olib ketilganligini so'zladi. Sud hukmidan Hakimjon ham bexabar edi.

— Nima qilaman endi men? — deb so'radi so'fi.

Uning ovozida ojizlik va alamzadalikdan kelgan bir qaltirash boridi. O'lgudek ayanch qaltirash... Hakimjon so'figa tikildi. Burungi so'fidan, yaqindagina kelib bir hafta yotib ketgan so'fidan asar yo'q. Uning rangi, machitning jaydari shamidek, sapsariq... go'yo kasaldan yaqindagina bosh ko'targan. Faqat Hakimjon sipolikni qo'ldan bermay, og'ir va keskin javob qildi:

— Nima qilardingiz? U yer, bu yerga arz qilib ko'ring. Bu nozik zamonda arz qilishdan biron natija chiqarmikin? Nevlay-da. Bir sudning hukmini yuqoriroq bir sud buza oladi-ku-ya. Zamon nozik, ish nozik; shundan qo'rqaman!

So'fining undan keyingi so'zi Hakimjonni butunlay shoshirib qo'ydi:

— O'rusga ham qiyin, — dedi so'fi. — Unday usta amaldorni endi Chin-Mochindan topib kelmasa, bu yurtlarda topilmas...

Hakimjon, hayron bo'lganidan, qo'lini yoqasiga olib bordi va «so'fi gapirayotirmi, yo boshqami?» deganday qilib, yana so'fining yuziga tikildi. Darhaqiqat, so'fining o'rnida uning ko'lagasi yo arvohi singari bir narsa ko'rinardi. Hakimjon bu daf'a so'figa achingan bo'lsa-da, javob berishda o'sha sipolik yo'lini buzmadi.

— Odam tayin bo'lgan. Indinga kelib mansabiga o'tiradi.

— O'rusga odam qahat emas ekan bo'lmasa, — dedi yana so'fi.

Shundan keyingina, Hakimjon, so'fining nimalar gapirayotganidan o'zi bexabar bo'lganini payqadi. So'fi davom etdi:

— Kim u kishi?

Mana bu savol Hakimjonni yana shoshirib qo'ydi. «Rost aytdimi bu odam yo meni maymun qilib o'ynatadimi?» deb o'yladi u, shu sababdan qo'rsroq va jerkibroq javob berdi.

— Siz tanimaysiz! Zunnunboy degan! Oldin Noyib to'raning xizmatida bo'lgan kishi!

— Tadbirlik ekan bo'lmasa, — dedi yana so'fi.

Hakimjon so'figa endi ochiq bir jirkanish bilan qaradi. So'fi esa yig'iga o'xshagan bir kulimsirash bilan undan ko'zini olmasdi. Yosh yigit chidayolmadi, shekilli, tez-tez bosib ichkari eshik oldiga borib qichqirdi:

— Fazilatxon! Mehmonga dasturxon chiqaringlar!

Ichkaridan javob bo'lishini kutmasdan, haqorat ko'rgan kishiday, tappa-tappa bosib ko'chaga chiqib ketdi.

Fazilat ichkaridan bir mis tovoqda non bilan mayiz ko'tarib chiqqanda, tashqarida na Hakimjon boridi va na so'fi!

* * *

So'fining arz qilib boradigan birdan-bir mahkamasi yana eshonboboning xonaqolari edi. Dasturxonni kutmasdan darhol yo'lga chiqdi va yarim yo'lni arava bilan bosib, to'ppa-to'g'ri xonaqoga bordi. Eshon yo'q edi. «To'yga ketdi», dedilar. Kutib o'tirdi va o'yga toldi:

«Eshon bobo nima qilsin? U kishi zakunchi edimiki, ariza bitib bersa? O'rus tilini bilarmidiki, amaldorlar, sudlar bilan chiqishsa? Basharti, zakunchiga, amaldorga, sudga boriladigan bo'lsa, hammasiga pul kerak, mo'may-mo'may pul kerak, menda unaqa pul yo'q. Zebining orqasida endi qo'lga pul tusharmikin, deb umid qilardim; endigina kaftim qichisha boshlagan edi. Bu hodisa kaftimning qichig'ini vaqtidan ilgari bosib qo'ydi...

Eshon bobo xotirjam, bir chaqa ham bermaydilar. U kishi, albatta, beraman desalar-ku, qo'llaridan keladi; har qalay katta zakunchining ishtahasini qondiradigan dunyolari bor. Faqat ne choraki, u kishi berib o'rganmaganlar, olib o'rganganlar; «O'rgangan ko'ngul o'rtansa qo'ymas», deydi. U kishini berishga o'rgatish qiyin! U

kishi shuncha badavlat bo'lib turib, eshikdan gadoy kirsa, qo'liga qaraydi, «nazri yo'qmikin?» deb.

Bu xabarni qizning sho'rlik onasiga eshittirish kerak hali! Mening ko'nglim tosh-metin! Faqat onaning yolg'iz bolasiga bo'lgan mehri shunday kuchlik narsaki, undaqa tosh-metinlarga qarshi o'z tosh-metinini irg'itadi; balki bir irg'itishda parcha-parcha qilib tashlaydi... Yo'q, bu kecha uyga borib bo'lmas. Bu kechani shu yerda tunayman. Eshon bobomga arz qilib, maslahat so'rayman. Bir narsa der, axir... Unday desam, ikki kundan beri uyga qaytganim yo'q. Uydan «jumaga boraman», deb chiqqanman. Kampir nima o'ylaydi? Haligi shum xabar qulog'iga kirgunday bo'lsa, turgan joyida qotib qolmaydimi? Yo'q, borib ko'nglini ko'taray... Yo'q! Har nima bo'lsa ham, eshon bobom kelsinlar. Bir og'iz aytib o'tay, nima der ekanlar».

Nihoyat, eshonbobo keldilar. Kayflari chog', nash'alari baland, ovozlarida allaqanday bir sho'xlik bor. «To'yda qimiz ichganga o'xshaydilar, — deb o'yladi so'fi. — Ko'p ichsa, u ham odamni aynitarmish. Qishda qimiz nima qiladi? Hayronman... Xayr, o'zlari biladilar».

Eshon bu voqeani eshitgan edi; lekin unga o'z muridi Razzoq so'fining aralashganini bilmasidi. So'fi ko'zlarida marvarid donalariday yirik-yirik yoshlar ko'ringani holda, bilganicha aytib berdi. Pir kulib turib (kulib turib!) eshitdi. Bu nash'alik kulish, bu kayfi chog'lik, bu ovozdagi sho'xlik hech nari-beri bo'lmadi. So'fi voqeaning eng qo'rqunch joylarini aytib bergan vaqtida ham eshonning yuz-ko'zlarida hamon o'sha sho'x va o'ynoq kulish jilvalanardi. «Men toshga gapirayotibman, shekillin», degan o'yni o'ylab oldi so'fi: orqasidan darrov istig'for aytdi... So'zini bitirgach, So'fi eshonning og'ziga tikildi va «muborak» so'zlariga muntazir bo'lib qoldi. Eshonning sho'xligi yana orta tushgan edi.

Xonaqo kuylarining eng sho'xini olib, boshini to'lg'ay-to'lg'ay, butun vujudi bilan silkina-silkina kuyladi:

Foniy dunyo be-esh kundir, be-esh kundir, ho-ov,
So'filik ahdi-in sindur, ahdin sindur, ho-ov.
Billur qada-ahlar birla may sungil, soqe-e,
Xonaqo qaro-o tundur, qaro-o tundur, ho-ov...

So'fining ko'zlari olayib ketdi; bu — muridning piriga birinchi marta ko'z olaytirishi edi.

— Taqsir, biron maslahat...

— Maslahat? — dedi eshon, xoxolab kuldi. — Odam o'ldirgan bolaning otasiga qanday maslahat bo'ladi, so'fi? Bolasining yoniga nima uchun otasini jo'natmaydi bu ahmoq o'rus? Adolat bormi kofirda?!

So'fining tanlariga birdaniga o't tutashganday bo'ldi. Butun vujudi qizigan tandirday tobiga kelgan edi. Qo'llari ixtiyorsiz balandga ko'tarildi, mushtlari o'z-o'zicha tugumlandi... Bu musht pirning boshiga tushmoqchi edi. Faqat qarshidagi kim? Pir! Eshon! Eshon! Eshonbobo! Yo'q, unga qo'l ko'tarib bo'lmaydi! Yana bir onda so'fi suvday suyuldi, qorday eridi, oriyat oyoqlari bilan omonat yerni bosib, tashqariga chiqdi...

Uyga borib, indamasdan yotoqqa cho'zildi; kampirning savollariga javob bermadi. «Yana fe'li aynibdi cholning!» deb o'yladi kampir. U bechora hali voqeadan xabarsiz edi.

Erta bilan nonushta chog'ida butun bo'lgan voqeani yotig'i bilan kampirga aytganidan keyin so'fi kecha pirining boshiga tushmoq uchun ko'tarilgan mushtning bu kun o'z boshiga tushayotganini ko'rdi. U musht shu qadar dahshatli ediki, «kechaning o'zida o'z joyiga tushirsam bo'lar ekan», deb o'yladi so'fi, achchig'idan mushtini tishladi. Piyoladagi choyni yarim qoldirib, ko'chaga chiqqan vaqtida so'fi o'z-o'zini taniyolmay qoldi. Oyoqlari xuddi tovut ko'tarib borayotgan musulmonning oyog'iday bir-biriga tegmasidi. Barmoqlari biri ochilib, biri yumilar, ichidan kuchli bir ovoz to'lqini chiqib kelib, ko'cha o'rtasida tomog'iga yopishardi. Salom berganlar aliksiz, so'rashganlar javobsiz qoldilar. Uning yaqinidan o'tganlar mutloq turtildilar, dasturxon

ko'targan xotinlar hammasi deyarlik qarg'ab o'tdilar. «Jinnimi, nima balo?» degan ovozlar eshitildi, bu ovozlar so'fining qulog'iga «Kim jinni? O'rusmi yo o'zlarimi?» degan shaklda borib kirdi. Aravakashlarning «po'sht, po'sht» degan ovozlari — «o'la, o'l!» degan kabi, ta'na shaklida eshitildi va xuddi yelkasi oldida to'xtagan otning ko'pikli tumshug'iga qarab turib, «o'zlari o'lsin, o'zlari!» deb so'zlandi, aravakashlar aravalarini uning yonidan sekingina burib o'tar edilar. Bozor o'rtasida bir nonvoy obinon savatini tutdi, so'fi ixtiyorsiz qo'l uzatib, ikkita nonni oldi, so'ngra bir nafas o'tmay, nonni yana savatga qo'ygach, nonvoyga qarab kuldi: «Men olaman ham, beraman ham, u kishi faqat olishni biladilar!» dedi, yana yo'lga tushdi.

Shundan keyin yurishini sekinlatdi: og'ir-og'ir o'y surardi:

«Xudo, xudo bo'lib turib — ham oladi, ham beradi, yo'q-a, u ilgari jon beradi, keyin jon oladi. Yer, yer bo'lib turib ilgari rizq beradi, keyin jon oladi. Olgan beradi-da! Sen nimasan, pirim, sen? Xudodan zo'rmisan? Yerdan kuchlimisan? Olasan — bermaysan. Olasan — bermaysan...»

Xonaqoda namozdan keyin «sukut»ga ketib, mudrab o'tirgan eshonni Razzoq so'fining telba hayqirishlari uyg'otib yubordi. Eshon seskanib ketdi. Ko'zini ochib, u yoq-bu yoqqa qaraguncha bo'lmasdan, eshikdan baland ovoz bilan so'zlanib, Razzoq so'fi kirib keldi. Og'zidan ko'pik sochib, boshlarini jerkib-jerkib so'zlanardi:

— Xudoy xudo bo'lib turib avval jon beradi, undan keyin oladi. Sen kimsan? Xudodan zo'rmisan, taqsir?

— Bay-bay! Tiling kesilsin, badbaxt! Kofir!

So'fi o'sha xilda gapirganicha pirning boshiga kelib to'xtadi.

— Yer jonidan — ilgari beradi, keyin oladi. Yerdan ham kuchlimisan, taqsir?

— Nima bo'ldi senga, so'fi? Jinni bo'ldingmi?

— O'zlari jinni, taqsir, o'zlari! Eshaklari jinni, itlari!..

— Hay, kim bor? Bolalar! — deb qichqirdi eshon, o'rnidan turib orqaga tisarilib:

— Qochma, taqsir! Hovuchingni och! Men gadoy bo'lsam ham xurjunimning ikki ko'zi to'ladir... Sendaqalarni necha yil boqishga yarayman...

— Bolalar! — deb baqirdi yana eshon. O'zi tisarilib-tisarilib borib, xonaqoning bir burchiga qisilgan edi.

— Qo'rqutmang, taqsir, bechora muridingizni. Men nima qildim sizga?

So'fi birdaniga yig'lay boshladi. Tashqaridan muridlar yugurib kelishdilar.

— Qayda qolding hammang? Chaqira berib tomog'im qirildi. Olib chiq bu jinnini! Suvga pish!

Muridlar hammasi so'figa yopishdilar.

— Tegma menga! — deb bo'kirdi so'fi. — Men o'rus sudidan qochib qutilgan kishi bo'laman. Eshoningni sog' qo'yamanmi men? A?

Muridlar istig'for aytib so'fini qarg'adilar.

— Tiling qursin, tiling uzilsin!

— Kofir!

— Nasoro!

— Mardud!

Ko'cha darvozalari taqa-taq berkitilgach, hovuzning qalin muzini teshdilar: so'ngra so'fini yalang'och qilib ko'targanlaricha hovuzga tashladilar. So'fining tani shu topda Arabiston tog'larining saratondagi toshlariday qizib yonardi. Unga xush yoqdi bu jazo... Suv ichida jinnilarday na'ra solib baqirardi. Muridlar kulishib qarardilar.

— Bas endi! — dedi eshon ichkaridan. — Endi ozroq xipchin!

So'fini hovuzdan chiqarib olib, ingichka novda bilan gavronladilar. Yalang'och va nam badaniga tekkan behi savacho'p «chirs, chirs!» eta ovoz chiqarardi. Zarblarning sanog'i anchaga yetgach, so'fi bir marta qattiq faryod ko'tardi, shu bilan hushidan ketib, muridlar qo'liga yiqildi...

Undan keyin kuni bo'yi karaxt bo'lib yotdi. Kechasi isitma boshlandi. Ichkaridan chiqqan bir kosa qaynoq

sho'rvani muridning yuziga irg'itdi. Shundan keyin muridlar yana kaltakladilar. Faqat o'zi isitma bilan yonib turgan odam kaltak zarbini sezmadi. U kaltaklar unga uqalashday tuyulgan edi. Erta bilan o'ziga keldi, isitmasi tarqalgan edi. Horg'in ko'zlarini ochdi, kaltaklangan yerlarining achishganini sezdi. Qamish savacho'pni kuydirib kulini bog'ladilar, orom olganday bo'ldi. Faqat bu orom uxlamagan ko'zlarining o'tkir talabidan o'zga emasidi. Uxlab ketdi.

Ikki kundan so'ng, u musichadek yuvosh va muloyim bo'lgan edi. Tashqariga chiqib yurdi; muridlarga kulib qaradi. Faqat gapga javob bermadi. Xayoli boshqa joyda, boshini chayqar, kulimsiragan ko'zlari bilan muridlarga tikilardi. Eshonga aytdilar: «haydab yuboraylikmi?» deb so'radilar.

— Yura tursin. Endi o'zi bilib ketadi, — dedi u, kuldi.

Yana uch kundan so'ng juma kuni erta bilan namozga turgan muridlar eshonning xonaqoda o'lib yotganini ko'rdilar. Soqollari yulingan, tomog'ida chuqur barmoq izlari boridi. Xonaqoning bir burchida kichkinagina jovonchada eshonning eng aziz kitoblari saqlang'uchi edi; jovon ochilgan, kitoblar ham ochilib-sochilib yotardilar. O'sha yerdan bir necha uch so'mlik va besh so'mlik qog'oz pul topib oldilar; ular ham sochilib yotardi.

— Ham joniga, ham moliga qasd qilgan ekan, bachchag'ar! — dedi bir murid.

Boshqalar ham, boshlarini tebratib, bu fikrga qo'shildilar.

So'fidan darak yo'q edi.

* * *

Qurbonbibi jinni bo'lib paranjisiz va yirtiq kiyimlar bilan eshonnikiga kelgan vaqtida uni zanjirga bog'laydigan odam ham topilmadi. Eshonning katta xotini rahmi kelganidan muridlarga buyurdi; ular jinni xotinni tutib, ichkaridagi katta tolga bog'ladilar. Qurbonbibi bir nafas

tinmasdan, o'zicha so'zlanar, kim yoniga borsa, Zebini maqtab gapirar, uning dutor chalishi, ashula aytishi, chok tikishi, to'ppi bosishlarini hikoya qilar, yurish-turishlari, qaddi-qomati, bo'ylari, ko'zlari va qoshlarining chiroyliligini aytib, har kimdan «Qani, mening Zebim? Qani, Zebonam?» deb so'rar; shundan so'ng ho'ngrak otib, yig'lab yuborar edi.

Qish chiqishga yaqin allaqanday qarindoshlari kelib, uni olib ketdilar. Qarilar, domlalar, parixon, azayimxon, duoxon va boshqalarga pul berib o'qitdilar, ko'chirtirdilar, dam soldirdilar, foydasi bo'lmadi. Hamon o'sha eshonnikidagi singari har kimga qizini maqtab gapirar; so'ngra ho'ngrak otib, achchiq-achchiq yig'lagach, «Yoriltosh» kuyida o'zi to'qigan baytlarini o'qirdi:

Zebi, Zebi, Zebona,
Men ko'yingda devona.
Seni sotdi o'z otang
Men bo'layin sadag'ang!
Zahar qilib oshingni,
Pirim yedi boshingni!
Zebi, Zebi Zebonam!
Qayda qolding, dilbarim?..

CHO'LPONNING «KECHA VA KUNDUZ» ROMANI TO'G'RISIDA

...Tun hali qop-qora etaklarini tortib ulgurmasdan, ko'kda Tong yulduzi porlab yubordi. Ko'plar bu yulduzni Cho'lpon deb atashadi. U oltin kipriklari osha chor atrofga sehrli nurlarini sochar ekan, sekin-asta tunning muz qatlamlari erib, tong yorisha boshladi. Cho'lpon xuddi «Uyg'on, bolam» qo'shig'ini aytib, bu bepoyon olamni uyg'otayotgandek edi.

Ehtimol, Fitrat Abdulhamid Sulaymon o'g'li uchun taxallus tanlaganida, ana shu subhidam manzarasi va undan olgan bir olam quvonchini «Cho'lpon» so'ziga singdirmoqchi bo'lgandir. Ehtimol, u yosh shoirning kelajakda o'z asarlari bilan mudroq xalqini Tong yulduzi singari uyg'otishi va XX asr o'zbek madaniyati osmonida Cho'lpon singari porloq yulduz bo'lib nur sochishini orzu qilgandir. Agar Fitrat ana shunday pokiza orzu va niyatlar bilan Abdulhamidga «nurli» bir taxallusni hadya etgan bo'lsa, Cho'lpon butun umri mobaynida ustozning ana shu yuksak ishonchini oqlashga harakat qildi.

Cho'lponni bugun o'zbek xalqi yaxshi biladi. U nafaqat o'z yurtida, balki butun turkiy olamda ham mashhurdir. Shuning uchun ham uning 1897-yili Andijonda, Sulaymon bazzoz oilasida dunyoga kelganini aytish shart emas. Uning ota-bobosi O'sh viloyatiga qarashli Yorqishloqda yashaganini ham, otasining Rasvo taxallusi bilan ba'zan-ba'zan hajviy g'azallar bitib yurganini ham, o'zining dastlabki ma'lumotini madrasada olganini ham hamma biladi. Uning shu madrasada tahsil ko'rgan kezlarida Turkiyadan kelgan va turkiy xalqlarni birlashtirish g'oyalarini tarqatish uchun Sharqiy Turkistonga borayotgan bir yigit bilan

tanishganligi hamda shu yigit ta'sirida adabiy va siyosiy faoliyatga qiziqa boshlaganligini ham aytishga hojat yo'q. Cho'lpon hayotining bu sahifasini bilgan kitobxon uning mudarrislik istiqboliga loqayd qaragani va ko'ngliga tushgan jadidchilik uchqunining alangalana boshlagani orqasida 1913—1914-yillarda Toshkentga katta niyatlar bilan kelganidan ham xabardor, albatta. Ijodini xuddi shu yerda va shu yillarda boshlagani ham hech kimga sir emas.

Faqat shu yerda, ehtimol, ba'zi bir muxlislar e'tiboriga tushmagan bir nuqta bor. Bu shundan iboratki, Cho'lpon qo'liga endigina qalam olgan kezlarda Turkiyadagi tahsil yillaridan keyin o'z vataniga qaytgan Fitrat zamonaviy turk adabiyoti va uning zabardast vakillari ta'sirida yangi ijtimoiy g'oyalar bilan yo'g'rilgan va an'anaviy o'zbek she'riyatiga yangi nafas olib kirayotgan asarlari bilan Cho'lpon singari yoshlarning dunyoqarashida inqilobiy o'zgarishlar sodir etayotgan edi. Boyagi turk yigitdan so'ng Fitrat asarlari bilan g'oyibona uchrashuv Cho'lponning — yosh yozuvchining basirat ko'zlarini ochib yubordi.

Cho'lpon keyinchalik Moskvada, rus birodari V. Yan bilan suhbatda o'z hayotining ana shu kezlarini eslab, bunday degan: «O'shanda biz, yosh o'zbek yozuvchilarining hammasi Fitrat ta'sirida edik, u o'zbek she'r tuzilishining islohotchisi sifatida eski arabiy-forsiy shakllar va shablonlardan xoli bo'lib, jonli, real xalq tilida yoza boshlagan edi».

Ehtimol, V. Yan Cho'lpon so'zlarini o'z kundaliklarida qayd etar ekan, ularni ozmi-ko'pmi jo'nlantirgan va ilg'ay olmaganligi orqasida, uning ayrim muhim fikrlarini tushirib qoldirgandir. Zero, Fitratning ta'siri, yuqorida aytib o'tilganidan ko'ra, anchagina teran va katta bo'lgan. O'zbek jadidchilik harakatining ma'lum ma'noda dasturi bo'lgan «Munozara» va «Sayyohi hindi» asarlari bilan Fitrat Cho'lpon singari yoshlar ongini to'lqinlantirib yubordi. Shu paytgacha xalq va jamiyat hayoti-

dan uzoq-uzoqlarda suzib borayotgan adabiyot kemasi Fitrat tufayli «qadrdon qirg'oqlar» sari yaqinlasha boshladi; bu hol — xalq va jamiyat hayotining real muammolariga yaqinlashish adabiyotning tili va shakliy qurilishini mutlaqo yangilashni taqozo etdi.

Fitrat boshlab bergan ana shu jarayon yosh ijodkorlarni o'z «girdobi»ga tortar ekan, kishilarga va jamiyat hayotini o'zgartirish lozim ekanligini tushungan Cho'lpon «Qurboni jaholat» va «Do'xtur Muhammadyor» singari hikoyalarini yozdi. Agar bu hikoyalarning birinchisida u 10-yillardagi O'zbekistonni milliy jaholat avj olgan voqelik sifatida ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchisida O'zbekistondagi milliy uyg'onish qaldirg'ochlari obrazini adabiyotimizga, Fitratdan keyin, ikkinchi bo'lib olib kirdi.

Hozirgina o'qib chiqqaningiz «Kecha va kunduz» romanida xalqning g'aflat uyqusida yotgan bir holati Razzoq so'fi, Qurbonbibi va, albatta, Zebi obrazlari orqali yorqin tasvir etilgan. Bu — o'zbek jadidlari harakat eta boshlagan davrdagi manzara. Jadidlar ana shu noxush manzarani o'zgartirish, Zebi fojiasining boshqa takrorlanmasligi uchun uning, Razzoq so'filarning ko'zini tirnab bo'lsa-da ochishni o'zlariga vazifa qilib qo'ydilar. Jadid maktablari paydo bo'ldi. Jadid matbuoti, jadid adabiyoti va jadid teatri vujudga keldi. Turli-tuman yo'llar bilan kishilar ongini o'zgartirishga, xalqning basirat ko'zlarini ochishga kirishildi. Ana shunday qutlug' va xayrli ishlar Cho'lponning faol ishtirokisiz kechmadi. U o'zining vatan va millatga bag'ishlangan nurli iste'dodi bilan O'zbekistondagi va umuman turkiy olamdagi milliy uyg'onish ishiga ulkan ulush qo'shdi.

Cho'lpon, o'z tabiatiga ko'ra, muloyim, kamtarin, olijanob, o'zgalar dardi bilan yashovchi inson edi. Uning bunday go'zal insoniy fazilatlari she'rlarida ham, hikoyalarida ham balqib ko'rinadi. Ammo Cho'lpon singari kishilarning eng muhim fazilati shundaki, ular xalqning bir zarrasi sifatida omma ichiga singib ketmay,

uni — tarixning bepoyon o'rmonlarida tentirab yurgan xalqni qayerga va qaysi yo'llar bilan olib borishni avvaldan his eta va ko'ra biladilar. Agar Cho'lponning 20-yillargacha yozgan, hatto 20-yillarda ham uning qalamidan to'kilgan asarlarga nazar tashlasak, yozuvchining aniq-tayin g'oyaviy maqsadi, o'z xalqini yetaklab bormoqchi bo'lgan manzili «mana men» deb ko'rinib turadi. Bu, xalqni mustamlakachilik kishanlaridan ozod etib, uning ruhiga erkinlik baxsh etish, Tenglik, Milliy Mustaqillik va Taraqqiyot bayroqlari hilpirab turgan manzillar sari eltishdir.

Cho'lpon, dastavval, shoirdir. Uning «Go'zal», «Binafsha», «Sirlardan», «Ko'ngil», «Amalning o'limi» singari she'rlaridagi go'zal insoniy tuyg'u va kechinmalar tasviri o'ziga xos va porloqdir. Ammo Cho'lpon mustamlaka xalqining shoiri edi. Shuning uchun ham uning sozidan taralgan kuylar qafasdagi bulbul xonishini ko'proq eslatadi. U o'z xalqining oyoqlaridagi kishanlarni parchalab tashlashni orzu qildi. Ammo bu kishanlarni uning o'zidan boshqa hech kimning parchalashi mumkin emas. Shuning uchun ham «Buzilgan o'lkaga», «Xalq», «Vijdon erki» singari she'rlarida undagi allaqachon so'nib ulgurgan kurash tuyg'usiga yangi hayot nafasini purkamoqchi bo'ldi. Shu maqsadda yana talaygina hikoyalar yozib, uning qay ahvolda yashayotganini, xuddi ko'zgudagidek ko'rsatishga urindi. «Oydin kechalarda», «Qor qo'ynida lola», «Novvoy qiz» singari hikoyalarida haqqoniy tasvirlangan voqealar o'sha «Qurboni jaholat»da ilk bor qalamga olingan mavzuning yangi-yangi qirralaridir. Bu «qirralar» bilan izchil tanishgan kitobxon o'zbek xalqi yashayotgan sharoitnigina emas, ayni paytda uning ongini ham o'zgartirish lozim, degan hukmga kelishi tayin edi.

«Kecha va kunduz» romani ana shu hikoyalardan o'sib-unib chiqdi.

Bu asar qog'ozga tusha boshlagan kezlarda o'zbek adabiyotida Abdulla Qodiriyning ikki romanidan bo'lak

yirik badiiy asar bo'lmagan. Dastlabki o'zbek romanlari bo'lmish «O'tgan kunlar» va «Mehrobdan chayon»ni yaratishda esa Abdulla Qodiriy Sharq romannavisligi tajribasidan, avvalo, Jo'rji Zaydon asarlaridan badiiy saboq oldi. Cho'lpon qalamkash do'stidan farqli o'laroq nafaqat Sharq, balki G'arb romannavisligi maktabidan ham yaxshi xabardor va bu paytga qadar hozircha ismi noma'lum bo'lib qolayotgan ingliz yozuvchisining «Rasuliy» («Mag'oralar sultoni»), N. Gogolning «Ivan Ivanovich bilan Ivan Nikiforovich o'rtasidagi nizolar hikoyati», L. Andreyevning «Osilgan yetti kishining hikoyasi» degan qissalarini, I. Turgenev, A. Chexov, M. Gorkiy hikoyalarini o'zbek tiliga o'girgan edi. G'arb adabiyoti, chunonchi, romannavisligi bilan tanishish Cho'lpon qarshisida badiiy ijodning yangi ufqlarini ochdi.

«Kecha»da ikki badiiy chiziq voqealarni o'zaro guruhlashtirib turadi. Agar birinchi chiziqni Zebi — Qurbonbibi — Razzoq so'fi — Eshon bobo obrazlarining harakati bilan bog'liq voqealar tashkil etsa, ikkinchi chiziqning markazida Miryoqub obrazi turadi. U o'z navbatida bu syujet chizig'iga Akbarali mingboshi — noyib — Mariya (Maryam) obrazlarini tortadi. Asar so'ngida esa bu bir-biriga zid, musbat va manfiy qimmatlarga ega har ikkala chiziq (sim)ning Zebi va Akbarali mingboshi bilan tugallangan uchi qisqa muddatga tutashib, muqarrar halokat yuz beradi: mingboshi katta xotinlari Zebi uchun qazigan «choh»ga tushibgina qolmay, Zebini ham o'z ortidan tortadi.

Shu tarzda ikki syujet chizig'i turli joylarda elektr tokiga ulangan ikki simday, asar voqealari osha tortila borib, pirovardida o'zaro, kutilmaganda, uchrashishi bilan portlash yuz beradi. Lekin bu portlash natijasida har ikkala chiziq baravar talofat ko'rmaydi. Agar Akbaralining mingboshilik lavozimini noyibning xotinboz xizmatkori Zunnun egallasa, erlik haq-huquqiga esa boshqalar allaqachon da'vogar edilar. Lekin Zebi boshi-

ga tushgan falokat tufayli u mansub bo'lgan chiziqning barcha nuqtalari — Qurvonbibi ham, Razzoq so'fi ham, eshon bobo ham yonib, kul bo'ladi.

Cho'lpon Oktyabr o'zgarishi arafasida O'zbekistonda vujudga kelgan tarixiy sharoit va «sinf»lar nisbatini shu ikki syujet chizig'ining tasviri orqali ko'rsatib bergan. Maishiy voqealar silsilasi bilan boshlangan roman, pirovardida, XX asrning 10-yillarida yashayotgan O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy manzaralarini yaqqol mujassamlantiruvchi asar darajasiga ko'tarilgan.

Ushbu romanning dastlabki boblari 1935-yilda «Sovet adabiyoti» jurnalining 1-sonida e'lon qilindi. Bu faktga asoslanib, biz asarni 1934-yilda yozib tugallangan, deb qat'iy ayta olamiz. Adabiy tanqidning «zambaraklar»i o'zini nishonga olib turganini bilgan Cho'lpon roman qo'lyozmasining Yozuvchilar uyushmasida muhokama qilinishini qanchalik istamasin, rasmiy adabiy jamoatchilik bu ishga bosh qo'shmadi. Muhokama uchun roman o'qiladigan bo'lganda, bor-yo'g'i 11 kishi qatnashdi. Ikkinchi safar ulardan atigi 7 tasi ishtirok etdi. Uchinchi qismning o'qilishiga esa 4—5 kishidan boshqasi kelmadi. Hatto uyushma rahbarlari ham Cho'lponning romani bilan qiziqmadilar. Qalamkash hamkasblar va munaqqidlar ham ulug' safdoshlariga qiyo boqishni istamadilar. Roman 1936-yilning oxirida, katta qiyinchiliklardan keyin, nashr etildi. Lekin u kitob do'konlarida turib qolmadi. Shunga qaramay, 1937-yilning avgustiga, Cho'lpon hibsga olingunga qadar, matbuot bu asar haqida og'iz ochmadi.

Cho'lponning badiiy niyatiga ko'ra, aytib o'tilganidek, romanning ikkinchi qismi «Kunduz» deb atalishi lozim edi. Lekin bu qismning taqdiri to'g'risida aniq ma'lumot yo'q. Ayrim kishilar bergan xabarlarga ko'ra, muallif bu qismni yozib tugatgan, hatto u hibsga olingan paytda asar grankasi (bosma varaqalari) tayyor bo'lgan. Roman 1987-yilda «Sharq yulduzi» tahririyati tomonidan chop etilayotgan kezlarda, shu grankaning

Samarqandda istiqomat qiluvchi qandaydir bir kishining qo'lida saqlanayotgani haqida «mish-mish»lar tarqaldi. Abdulla Oripov esa Xitoy safaridan qaytganidan keyin urumchilik Yolqin Abdushukurning «Kunduz»ni o'qiganligi va bu asarning ayrim lavhalari hozir ham uning xotirasida omon saqlanayotganligi haqida darak berdi. Lekin na uning o'zi, na boshqa biror kimsa Yolqin Abdushukur bilan uchrashib, «Kunduz»ning keyingi taqdiri bilan qiziqmadi. Bizning ham bu boradagi harakatlarimiz oxiriga yetmadi.

Ammo, bordi-yu Cho'lpon «Kunduz»ni yozgan taqdirda, unda kimlar va qanday tasvirlangan bo'lardi? Bizningcha, asarning bu qismida yozuvchining, birinchidan, yetti yilga Sibirga surgun qilingan Zebi, ikkinchidan, Qrimda rus xotini Mariya bilan istirohat qilayotgan Miryoqub obrazlari va ular bilan bog'liq yangi syujet chiziqlarini davom ettirmasdan iloji yo'q. Har holda «Sibir maktabi»da chiniqqan va, ehtimol, yangi oila qurgan Zebining, bir tomondan, Sharafiddin Xo'jayev, ikkinchi tomondan, Qrimda «Tarjumon»ning muharriri «Ismoil boboy» ta'sirida ma'rifatlashgan, jadidlashgan, xalq manfaatiga qayisha boshlagan Miryoqubning «Kunduz» sahifalariga yangi qiyofada kirib kelishi tabiiydir. Hakimjonning Miryoqub to'g'risidagi so'zlarini eslang: «U agar haq yo'lni topsa bormi, noyob odam bo'ladi!» degan edi u. Bu so'zlar dilogiyaning ikkinchi qismidagi Miryoqub obraziga ochqich bo'lib xizmat etishi mumkin. Agar Miryoqub obrazining ana shu mantig'idan kelib chiqsak, poezdda Sharafiddin Xo'jaev bilan uchrashuvdan keyin Miryoqubda boshlangan «noyoblashish» jarayoni Qrimda, Ismoil Gasprinskiy bilan uchrashuv tufayli davom etishi va Mariyaning ham bu jarayonga hissa qo'shishi hech gap emas. Sirasini aytganda, Cho'lponning Miryoqub bilan Mariyani Qrimga «etaklab borishi»ning sababi ham ularni Ismoil Gasprinskiy bilan uchrashtirishdir.

Xullas, ana shu ikki asosiy qahramonning keyingi

hayoti va faoliyati tasviri «Kunduz»ning markazida turishi mumkin va lozim edi.

Lekin bu fikrlar, albatta, bizning taxminimiz. Aslida esa bizning qo'limizda romanning dastlabki qismigina bor, xolos! Agar shu qismda tasvir etilgan badiiy voqelikdan kelib chiqsak, unda Cho'lpon aytmoqchi bo'lgan yaxlit fikr, katta g'oya bor va bu g'oya asarda o'zining yorqin badiiy ifodasini topgan.

Romanda nafaqat rus imperiyasining, balki shu imperiya tufayli yashashda davom etgan feodal tuzumning ham inqiroz holatida ekanligi tasvir etilgan. Razzoq so'fiki yolg'iz qizini baxti qaro qilish hisobiga ko'zini ochgan va sig'ingani eshon boboga qarshi qo'l ko'targan ekan, demak, bu chirigan hayot tarzini, ijtimoiy tuzumni tag-tomiri bilan o'zgartirish lozim. Ana shu fikr-g'oya asarda tasvirlangan dahshatli voqealar silsilasi osha yorqin yulduz o'laroq nur sochib turadi.

Cho'lponning — Tong yulduzining bunday hayotbaxsh g'oyani olg'a surishi tasodifiy emas. Zero, u chin ma'noda Tong yulduzidir.

Naim KARIMOV,

filologiya fanlari
doktori, professor

«Asr oshgan asarlar»

CHO'LPON

KECHA VA KUNDUZ

Roman. Birinchi kitob

Toshkent
«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
2004

Muharrirlar: *B.Eshpo'latov, D.Ismoilova*
Musavvir: *M.Samoylov*
Texnik muharrir: *L.Xijova*
Sahifalovchi: *T.Ogay*
Musahhihlar: *J.Toirova, M.Hojimetova*

Terishga berildi 21.04.2003. Bosishga ruxsat etildi 06.11.2003. Bichimi 84x108$^{1}/_{32}$. «Tayms» garniturasi. Ofset bosma. Shartli bosma tabog'i 15,96. Nashriyot hisob tabog'i 18,6. Adadi 10000 nusxa. Buyurtma № 4830. Bahosi kelishilgan asosda.

**«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,
700083, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41.**

